

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA‘LIM VAZIRLIGI

NASIMXON RAHMONOV, QOSIMJON SODIQOV

O‘ZBEK TILI TARIXI

**5220100 — *Filologiya (O‘zbek filologiyasi) fakultetlari
talabalari uchun darslik***

O‘ZBEKISTON FAYLASUFLARIMILLIY
JAMIYATINASHRIYOTI
TOSHKENT — 2008

Mas'ul muharrir: akademik Alibek Rustamov

**Taqrizchilar: filologiya fanlari nomzodi, dotsent
Ziyodulla Hamidov, filologiya
fanlari nomzodi, dotsent Jumaali
Shabanov**

Mazkur darslik qadimgi turkiy tilning shakllanishi va taraqqiyoti bosqichlarini, tilning etnik jarayon bilan bog'liq jihatlarini va qadimgi turkiylarning yozuv xususiyatlarini, qadimgi turkiy tilning fonetik qurilishini, leksik qatlamini, morfologik tuzilishini, sintaktik-stilistik xususiyatlarini o'z ichiga oladi. Shuningdek, turkiy tillar tarixini davrlashtirishga oid yangicha qarashlar ham mazkur darslikdan o'rin olgan. Turkiy xalqlar bir necha asrlar davomida istifoda etgan turkiy-run, eski uyg'ur, moniy kabi qator yozuvtaming tarixiy taraqqiyoti, qadimgi turkiy tilning manbalari ham turkologiyaning keyingi yutuqlari asosida tahlil qilingan.

Mazkur darslik, birinchi navbatda, filologiya fakultetlarining talabalariga, shuningdek, tilshunos turkologlarga mo'ljallangan.

81.20 'zb Q33

Rahmonov, Nasimxon.

O'zbek tili tarixi: filologiya fakultetlari talabalariga uchun darslik/ N. Rahmonov, Q. Sodiqov; O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. — T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2008. - 224 b.

I. Sodiqov, Qosimjon

BBK 81.20 'zb-03

ISBN 978-9943-319-73-8

© O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2008

KIRISH

Tayananch tushunchalar: umumxalq tili, yozma adabiy tilning yuzaga kelish tarixi, yozma yodgorliklar — adabiy tilning ilk namunalari sifatida; qadimgi turkiy yozma adabiy til.

“O‘zbek tili tarixi” deb nomlangan mazkur darslik avvalgi o‘quv dasturlaridagi “Qadimgi turkiy til”ni qamrab oladi. Qadimgi turkiy til tilshunoslikning bir sohasi va o‘quv predmeti sifatida O‘zbekistonda o‘tgan asrning 80-yillarida paydo bo‘ldi. Boshqa turkiy tili respublikalarda esa ancha yillar oldin — 60-yillarda boshlangan edi. Ayni paytda qadimgi turkiy til turkologiyaning asosiy obyekti va manbalaridan biri sifatida ham turkologlarning e‘tiborini XIX asrdan beri jalb qilib keladi.

Qadimgi turkiy til oliy o‘quv yurtlarida o‘qitila boshlagach, islomiyatgacha bo‘lgan turkiy yozma yodgorliklarni, shu davr tarixi va madaniyatini o‘rganish birmuncha jonlandi. Bu predmet o‘zbek tilshunosligining muhim yutuqlaridan biri bo‘ldi. “O‘zbek tilining tarixiy grammatikasi”, “O‘zbek adabiy tili tarixi” kabi fanlar ham qadimgi turkiy tilga tayanadi.

Qadimgi turkiy til alohida fan sifatida o‘qitila boshlagach, 1982-yili akademik G‘anijon Abdurahmonov va akademik Alibek Rustamovning “Qadimgi turkiy til” qo‘llanmasi nashr etilib, uzoq yillar davomida oliy o‘quv yurtlari filologiya fakultetlarda o‘qitildi va yaxshi samara berdi.

O‘tgan yillar davomida umumturkologiya qadimgi turkiy yodgorliklar sohasida yangi yutuqlarni qo‘lga kiritdi, yangi yozuv yodgorliklari topildi va topilmoqda. Ilgari fanga ma‘lum bo‘lgan yozma yodgorliklar qadimgi turkiy tilning mahsuli sifatida ilmiy istifodaga kiritildi. Bu o‘rinda “Oltin yorug‘” (IX asr) sutrasi, moniylik va buddaviylik oqimidagi yozma yodgorliklarning qadimgi turkiydan hozirgi o‘zbek tiliga qilingan tabdili nashrlarini eslash kifoya. Bulardan tashqari, O‘zbekiston hududidan miloddan oldingi davrlarga va milodiy VII–VIII asrlarga oid turkiy-run yozuvidagi yodgorliklar topildi va tahlil etildi¹. Shu bilan birga, Janubiy Sibir va O‘zbekiston tuprog‘idan

¹ Н. Рахмонов. Новые находки Ферганы. — “Ош–3000”, том 3, Бишкек, 2000 г. ; Н. Рахмонов. Тюркские письма Ферганской долины. — Ж-л. “Туркология” (Казахстан), 2002, 3; N. Rahmonov, B. Matboboyev. O‘zbekistonning ko‘hnu turkiy-run yozuvlari. —Toshkent, “Fan”, 2006, 16–19, 22–30, 36–40-betlar.

topilib, ilgari tahlil etilgan turkiy-run yozuvlari qaytadan deshifrovka qilindi¹.

Qadimgi turkiy tilning manbalaridan Kul tiginga bag'ishlangan yodgorlikning qiyosiy nashri va til xususiyatlariga bag'ishlangan asar ham aynan O'zbekistonda yaratildi². Shuningdek, jahon turkologiyasida, xususan, Rossiya turkologiya maktabi vakillaridan I. Kizlasov turkiy-run yozma yodgorliklari yuzasidan yangicha qarashlarini ilgari surdi va turkiy-run yodgorliklari deshifrovkasi bo'yicha mavjud an'anaviy qarashlardan tamomila farqli ilmiy kuzatishlarini e'lon qildi. Shuningdek, qadimgi turkiy til xususiyatlari haqidagi yangi qarashlar shakllandi³ va hokazo. Turkologiyada mana shu singari erishilgan yutuqlar "O'zbek tili tarixi" darsligini qaytadan yozish ehtiyojini paydo qildi.

Qadimgi turkiy til turkiy qabilalarning, ular barpo qilgan davlatning, ular yashagan jamiyatning taraqqiyoti bilan uzviy bog'liqdir. Shuning uchun qadimgi turkiy til bir qator fanlar bilan tutash holda rivojlanib bordi.

Qadimgi turkiy til, birinchi navbatda, tarix, xususan, etnik tarix bilan tutashadi. Turkiy qabilalar o'rtasidagi farqlar, asosan, ularning tillari orqali aniqlanadi. Demak, qabilalar tarixini yoritishda til muhim omildir. Shu bilan birga, qadimgi turkiy til paleografiya bilan ham aloqador. Qadimgi turkiy yozuvning kelib chiqishi, alifbolarning turli-tumanligi, boshqa yozuvlarning turkiy-run yozuviga ta'siri kabi masalalarni paleografiya o'rganadi. Ikkinchidan, qadimgi turkiy til shu davr adabiyoti bilan tutashdir. Qadimgi turkiy yodgorliklar ham turkiy xalqlarning ilk yozma adabiyotining, ham qadimgi turkiy tilning manbaidir. Uchinchidan, qadimgi turkiy til tarixiy geografiya bilan ham tutashdir. Qadimgi turkiy yodgorliklar turli hududlarga tarqalgach, yozuvda ba'zi farqlar paydo bo'ldi, qabilalarning tarixiy taraqqiyotida farqlar yuz berdi.

¹ Н. Рахмонов. Некоторые суждения о тюркской рунологии. — Ж-л. "Туркология" (Казахстан), 2004, 1; N. Rahmonov, B. Matboboyev. Yuqoridagi asar, 45–52-betlar.

² Q. Sodiqov. Ko'k turk bitig'lari: matn va uning tarixiy talqini. — Toshkent, 2004; Q. Sodiqov. Turkiy yozma yodgorliklar tili: adabiy tilning shakllanishi va tiklanishi, Toshkent, 2006.

³ Oltun yorug'. So'zboshi, izohlar va qadimgi turkiydan o'zbekchaga tabdil muallifi Nasimxon Rahmon. — Toshkent, "Fan", 2009.

Qadimgi turkiy til falsafa bilan ham tutashdir. Qadimgi turkiy qavmlarning diniy tasavvurlari, dunyoqarashi tangrichilik ta'limotida mujassamlashgan. Bu ta'limotning izlari qadimgi turkiy yodgorliklarda saqlanib qolgan. Kul tigin ulug' bitigining birinchi misrasida aytilishicha, qadimgi turkiylar Tangri(osmon)ni — ota, yerni — ona deb bilganlar. Bundan tashqari, yenisey yodgorliklarida samoviy jismlarni xuddi sharqdagi ossuriylar, bobilliklar, kan'onliklar, amoriylar, pariziylar va b. xalqlar kabi xudolar kabi tasavvur qilganlarini uchratamiz. Qadimgi turkiy tilning qadimgi turkiy qabilalar falsafiy qarashlari bilan tutashligi mahsuli sifatida tilga bir qator mifologik nomlar kirib keldi, qadimgi turkiy tilda samoviy jismlarga mifologik mazmun yuklatildi. Inson o'zini atrof-muhit, tabiat bilan bir deb bilganini, o'zi bilan tabiat o'rtasiga chegara qo'ya bilmaganini qadimgi turkiy yodgorliklardagi tangrichilik ta'limoti asosida bilamiz.

XI asr boshlaridan boshlab ijtimoiy-siyosiy hayotda o'zgarishlar boshlanadi. Bu esa madaniy hayotga ham o'zining ijobiy ta'sirini o'tkazdi. Qoraxoniylar sulolasining madaniy hayotda o'ynagan roli tilga ham ta'sirini o'tkazdi. Turkiy til ilgarigi an'anasini tikladi. Shu bois qadimgi turkiy til an'anasi bu davrdagi tilda davom etdi. Bu XIII asrning oxirlariga qadar davom etdi. Muhimi shundaki, bu davrning ilk bosqichlarida, xususan, qoraxoniylar davrida yaratilgan yozma yodgorliklar tili qadimgi turkiylar davrida yaratilgan yozma yodgorliklar tiliga juda yaqin, ularda qadimgi yozma til an'analarning davomini ko'rish mumkin. Birgina misol: Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'atit-turk" asarida keltirilgan turkiy og'zaki ijod namunalari ham til, ham badiiy jihatdan ancha burungi davrlarga borib taqaladi. Bu haqda o'z davrida Abdurauf Fitrat ham aytib o'tgan edi. Shuning singari omillarni inobatga olib, Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig", Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'atit-turk", Adib Ahmad Yugnakiyning "Hibatu-l-haqoyiq" asarlari eng qadimgi yozma manbalar qatorida o'rganiluvchi maqsadga muvofiq, deb bildik.

Xullas, qadimgi turkiy til Markaziy Osiyo, Yevroosiyo, Yevropa hududlarida qadimdan amalda bo'lib keldi. Shuni ta'kidlash kerakki, qadimgi turkiy til faqat turkiy yozma yodgorliklar yaratilgan davrdan — milodiy V asrdan amalda bo'lib qolmagan. Yozma adabiy til paydo bo'lgunga qadar qadimgi turkiy til og'zaki shaklda mavjud edi. Og'zaki til — qadimgi turkiy dialektlarning yig'indisini o'zida mujassamlantiradi.

Boshqacha aytganda, dialektlar og‘zaki tilning ko‘rinishlaridir. Shuning uchun “og‘zaki til” termini shartli ma’no ifodalaydi.

Fan dasturiga ko‘ra “O‘zbek tili tarixi” darslari nazariy va amaliy soatlarga taqsimlangan. Qo‘llanmani yozishda bunga katta e‘tibor qaratildi.

Mazkur darslikning quyidagi qismlari **Nasimxon Rahmonov** tomonidan yozildi: “Kirish”, birinchi bo‘lim, ikkinchi bo‘limning “Qadimgi turkiy-run yozuvlari” qismi, to‘rtinchi bo‘lim, oltinchi bo‘lim; quyidagi qismlar **Qosimjon Sodiqov** tomonidan yozildi: ikkinchi bo‘limning “Uyg‘ur yozuvi” qismi, uchinchi bo‘lim, beshinchi bo‘lim. “Ilova”da berilgan matnlardan namunalar har ikkala muallif tomonidan tuzildi.

Mazkur darslik ilk bor yaratilyapti, shuning uchun ayrim kamchiliklar bo‘lishi tabiiy. Mualliflar darslik yuzasidan bildirilgan tanqidiy mulohazalarni, takliflarni mamnuniyat bilan qabul qiladilar.

BIRINCHI BO‘LIM

QADIMGI TURKIY TILNING SHAKLLANISHI VA TARAQQIYOTI

Tayanch tushunchalar: adabiy til, turkiy qavmlar tili, xalqning yozuvi va san’ati, turkiy-run yozma yodgorliklar, skif tili, semantik guruh, “shoh skiflar” tili, amazonkalarining tili, turkiycha model, ming yillik, tuman kunlik yozuv, koynе, umumxalq tili, dialektal xususiyatlar, turkiy tillarning davrlashtirilishi, oltoy nazariyasi, qiyosiy-tarixiy tadqiqotlar, ideografik paradigma, ural-oltoy nazariyasi, skif tili so‘z yasalish modeli, ilk turkcha davr, to‘ba tili.

Qadimgi turkiy tilning manbalari

Qadimgi turkiy til turkiy qavmlarning o‘zlari kabi ko‘hna zamonlardan buyon mavjuddir (biz tilning og‘zaki shaklini nazarda tutaymiz, tilning bu shaklini adabiy til deb atash to‘g‘ri emas). Yevropa olimlaridan ba‘zilari qadimgi turkiy urug‘larning paydo bo‘lgan davrini miloddan oldingi o‘ninchi ming yillikka olib borib bog‘laydilar. Demak, turkiy og‘zaki til ham shu davrga borib taqaladi. Ammo bu degani — ilk yozuv yodgorliklari (miloddan oldingi IV–V asrlar) paydo bo‘lmasdan oldin ham qadimgi *turkiy adabiy til* mavjud edi, degan qarash to‘g‘ri emas. Bunday taxminlarning ilmiy asoslari yetarli emas. Adabiy til faqat yozma matnlarda aks etadi, yozuv paydo bo‘lgunga qadar og‘zaki yetib kelgan voqealar adabiy tilning mezonlarini aslo belgilay olmaydi.

Til xalqning etnik jarayoni bilan baravar yuradi. Miloddan oldingi uchinchi ming yilliklarda o‘g‘uz qiyofasidagi qavmlar Oltoy tog‘larida, Orol dengizi bo‘ylarida yashagani to‘g‘risida ham arxeologik topilmalar ma’lumot beradi. Shuningdek, Markaziy Osiyoning sharqiy qismida miloddan oldingi III ming yillikning boshlari — II ming yillikda turkiy qavmlar yashagani va Chin sulolasi ularni shimolga quvib yuborgani to‘g‘risida ham qadimgi Xitoy yilnomalarida ma’lumotlar berilgan.

Ilk o‘rta va o‘rta asrlardagi tarixiy asarlar turkiy qavmlarning tili va etnik tarixi to‘g‘risida yanada aniqroq ma’lumotlar beradi. XIII asrda yashagan muarrix Rashididdin Fazlulloh Hamadoniy “Jome‘ut-tavorix” asarida turkiy qavmlar yashagan hududlar to‘g‘risida quyidagicha yozadi: “Qadimdan bugungacha (ya’ni XIII asr boshlarigacha — N. R.) turkiy deb nom olgan xalqlar cho‘l hududlarida, tog‘larda, Dashti Qipchoq

o‘rmonlarida, rus cherkas, boshqird, talas (hozirgi Sayramdan boshlab Angor daryosigacha — N. R.), Turkiston va Uyg‘uriston viloyatlarida, nayman xalqi istiqomat qiladigan viloyatlardagi daryolar bo‘ylarida va tog‘larda, masalan, Ko‘k Irtish, Qoraqurum, Oltoy tog‘larida, Urxun daryosi bo‘ylarida, qirg‘izlar va Qamjigit (ya‘ni Kama daryosi bo‘ylarida — N. R.) viloyatlarida, Mo‘g‘ulistonda ... istiqomat qilib kelganlar”¹.

Turkiy qavmlar tarixiga oid manbalarda ularning tili to‘g‘risida batafsil ma‘lumotlar berilmasa ham, ba‘zi ishoratlar bor. “Darvoqe, tillar xalqning yozuv va san‘at paydo bo‘lgungacha yaratgan eng qadimgi yodgorliklari hisoblanadi. Tillar xalqlarning kelib chiqishi, qarindoshligi va joylashuvi to‘g‘risida eng yaxshi guvohlik beradi... . Olimlar uel, slavyan, fin, turkiy, fors, arman, gruzin va boshqa tillar yuzasidan tadqiqotlar olib borishlari kerak, toki bu tillar o‘rtasidagi uyg‘unlik yaxshiroq aniqlanib yuzaga chiqsin. Ayni paytda xalqlarning kelib chiqishini aniqlashda ham bu usul juda foydalidir”². Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘atit-turk” asarida turkiy tilning mavqei to‘g‘risida aytgan gaplari ham yuqorida aytilgan fikrlarni yana bir bor tasdiqlaydi: “Ishonchli bir buxorolik olimdan va nisoburlik boshqa bir ishonchli olimdan shunday eshitgan edim, ular bu so‘zni payg‘ambarga nisbat berib aytgan edilar: payg‘ambar qiyomatning belgilari, oxirzamon fitnalari va o‘g‘uz turklarining xuruji haqida gapirganda, shunday degan edi: turk tilini o‘rganing, chunki ularning hukmronligi uzoq davom etadi”³.

Turkiy tilning Sharqdagi tillar orasida qadimdan mavqegini belgilovchi bu dalil albatta e‘tiborga loyiq. E‘tiborga loyiq tomoni shundaki, Sharqdagi boshqa tillarga nisbatan turkiy qavmlarga va ularning tillariga alohida diqqat qaratilgan. Buning boisi esa turkiy tilning keng hududga tarqalgani edi. Shuning uchun ham bunday e‘tiborli tilda badiiy asarlar, yilnomalar va boshqa bitiklar yaratilmasligi mumkin emas. Quyidagi chet manbalar qadimgi turkiy tilning VII asrgacha — turkiy-run yozma yodgorliklar yaratilgunga qadar davrdagi mavqei to‘g‘risida ishonchli xulosalarga olib kelishi shubhasizdir.

1. Miloddan oldingi va milodning boshlaridagi turkiy madaniyat va turkiy qavmlarning ijtimoiy, siyosiy va etnik tarixiga oid manbalarning

¹ Рашид-ад-дин. Сборник летописей. — том 1, М. —Л.: 1952, 73–74-бетлар.

² Ж. Туймабаев. Становление и развитие алтайской теории и алтаистики. — Туркистан, 2006, 46-бет.

³ Mahmud Koshg‘ariy. Devonu lug‘atit-turk. 1 jild, Toshkent, O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi nashriyoti, 1960, 43–44-бетлар.

aksariyati Xitoy yilnomalaridan o‘rin olgan. Shuni qayd etish kerakki, xitoyliklar turkiy qavmlar haqidagi ma’lumotlarni bir tizim holda, mil. ol. III asrdan — Chin sulolasidan boshlab yilnomalarga kiritib boshlaganlar. Ungacha esa turkiy qavmlar tarixi yo‘l-yo‘lakay, biron munosabat bilan kiritilgan, xolos. Bunga sabab shuki, turkiy qavmlarning mustahkam, markazlashgan davlatlari parchalanib, yo‘q bo‘lib ketgan, shu bois tarix sahnasida jiddiy rol o‘ynay olmagan edilar. Faqat mil. ol. III asrga kelib, turkiy qavmlar Markaziy Osiyoda mustahkam ildiz otib, qudratli davlat barpo qildilar. Shubhasiz, bu vaziyat ham turkiy tilning mavqeiga ta’sir etmay qolmadi. “Shimoliy sulolalar tarixi”da qayd etilishicha, turkiy qavmlarning xat yozish usuli g‘uz (ya’ni o‘g‘uz)larnikiga o‘xshar ekan.¹ Yilnoma muallifi turkiy til to‘g‘risida to‘xtalmay, faqat turkiy yozuv to‘g‘risida ma’lumot berish bilan cheklangan. Buning sababi — turkiy qavmlarning tilida yilnoma mualliflari biron o‘zgachalikni ko‘rmaganlar.

Rus olimi N. V. Kyunerning qadimgi xitoy yilnomalaridagi turkiy qavmlar tarixiga oid qilgan ishlari ko‘p masalalarga oydinlik kiritdi. U XIX asrda yashagan mashhur muarrix N. Y. Bichurinning uch jildidan iborat “O‘rta Osiyoda qadimgi davrlarda istiqomat qilgan xalqlar to‘g‘risida ma’lumotlar” (bu kitob rus tilida chop etilgan: Собрание сведений о народах, обитавших в Средней Азии в древние времена. — М. — Л.: 1950—I t. —II t., 1953—III t.) kitobini qaytadan ko‘zdan kechirib chiqdi va Chin yilnomalaridagi “bo‘zqir” xalqlari, ya’ni turkiy qavmlar to‘g‘risida N. Bichurinning kitobidagi ma’lumotlarni boshqa manbalar bilan qiyosladi. Xususan, N.V. Kyuner turkiy qavmlarning etnik va lisoniy jarayoniga aniqliklar kiritdi.

N. Y. Bichurinning kitobi mil. ol. II — mil. IX asrga oid davrni o‘z ichiga oladi. Kitobda miloddan oldingi turkiy qavmlar tili to‘g‘risida ba’zi ishoralar bor. Jumladan, O‘rta Osiyoni mil. ol. II asrda bir necha yil kezib chiqqan Chjon Tsyen Xan imperatori U-Diga ko‘rgan—kechirganlarini bayon qilar ekan, “Davandan boshlab g‘arbda Anshigacha turli tillarda gapirishadi, lekin rasm-odatlarida o‘xshashlik bor, gaplashganlarida bir-birlarini tushunadilar”, deydi². Chjon Tsyen Davanning g‘arb tomoni deb ko‘rsatganda, Samarqand va Buxorogacha

¹ Shimoliy sulolalar tarixi, 99 jild (xitoychadan uyg‘urchaga tarjima). — Urumchi, 2002-yil, 536-bet.

² Н. Я. Бичурин. Собрание сведений о народах, обитавших в Средней Азии в древние времена. — М. — Л. 1950, т. 11, 161-бет.

bo'lgan joylarni nazarda tutgan. “Bir-birini tushunadigan til” — qadimgi turkiy tilning turli lahjalari ekanini N. Y. Bichurinning kitobiga izohlarni tuzgan A. N. Bernshtam va S. P. Tolstov aytgan. Chjon Tsyanning sayohati va O'rta Osiyo davlatlari to'g'risidagi ma'lumotlari “Shi szi” yilnomasining “Davan haqidagi qissa” deb nomlangan 123-bobida bayon qilingan.

Bundan tashqari, mil. ol. III asrdan boshlab Chin muarrixlari yilnomalarda xitoycha yozuvda bir necha turkiycha so'zlarni o'z ohangida — turkiycha talaffuzda berishga urinib ko'rganlar. Ammo boshqa xalqning tilidagi so'zni xitoycha yozuv bilan shu xalqning tili talaffuzida berish murakkab bo'lsa ham, Xitoy muarrixlari yozib qoldirgan turkiycha so'zlarni tiklash mumkin. Buning namunasi sifatida Bichurinning kitobida keltirilgan kishi nomlarini, turkiy urug'lar, unvonlar, shahar nomlarini misol tarzida keltirish mumkin: *Gudulu—Qutlug'*, *Tumin—Bo'min*, *bayigu—bayirqu* va h. (mazkur darslikning “Ilk turkcha davr” bo'limida Xitoy yilnomalaridagi qadimgi turkiy tilga oid ma'lumotlar to'g'risida so'z yuritiladi).

Bulardan tashqari, qadimgi Xitoy yilnomalaridan qadimgi turkiy qavmlar tiliga oid boshqa ma'lumotlarni ham topish mumkin.

2. Qadimgi turkiy tilga oid ikkinchi yirik chet manbalardan yana biri — yunon muarrixlarining asarlaridir. Bular orasida Gerodot (mil. ol. V asrda yashagan)ning “Tarix” asarida skiflar tiliga oid keltirilgan ma'lumotlarni, ayrim so'zlarni tayanch material sifatida olamiz. Albatta, bu o'rinda skiflarning etnik jarayoniga to'xtalmasdan (chunki bu keng mavzudir) skiflar tili to'g'risida Gerodot keltirgan ma'lumotlar bilan cheklanamiz.

Shuni e'tirof etish kerakki, skif tilida biron yozma yodgorlik saqlanmagan. Ammo Gerodotning “Tarix”ida keltirilgan skifcha so'zlarga tayangan holda, skif tilini rekonstruksiya qilish mumkin va shunday urinishlar turkologiyada bor. Skif tilini rekonstruksiya qilish natijasida “skifcha so'z yasaliş moduli” qadimgi turkiy til so'z yasaliş tizimi bilan bir ekani dalillangan¹.

Gerodotning kitobida besh yuzdan ortiq skif tiliga oid so'zlar uchraydi. Shu so'zlardan yuztasi tahlil qilinganda, o'sha davrdagi qadimgi turkiy til “skifcha so'z yasaliş modeli”ga mansub *ār* komponenti bilan boshlangani ma'lum bo'ladi. Skif tilidagi va qadimgi turkiy tildagi *ār* komponentli so'zlar bir semantik guruhni tashkil qilgani oydinlashadi.

¹ 3. Гасанов. Царские скифы. — Нью Йорк, 2002, 395-bet.

Qadimgi turkiy tilda *är/ör* komponenti bilan boshlangan turkiy soʻzlar shomonlik, sehrgarlik, oʻsimlik olami va boshqa qator kasb-korga oid tushunchalarni ifodalaydi. Masalan: skif. *örpä* (kichik), qadimgi turk. *kür* (jasur, bahodir), skif. *Arpaqsay* (ovchilar, chorvadorlar homiysi, lashkarboshi), qadimgi turk. *aran* (chorva saqlanadigan joy).

Skif tilida baʼzi soʻzlar koʻp maʼnoli ham boʻlgan. Masalan, *qol* “bronza” va “qoʻl” maʼnolarida qoʻllangan. Bu soʻzdan “skifcha soʻz yasaliş modeli” asosida oʻndan ortiq soʻz hosil boʻlgan: *qaliq* (osmon), *qalamaq* (alanga qoplamoq), *qorumaq* (qoʻriqlamoq), *qul* (asir), *qolandi* (alanganlandi).

Gerodotning “Tarix”idan Qolaqsayga oid matnlarni yunonchadan qadimgi turkiychaga tarjima qilish asosida yuqoridagi soʻzlar aniqlangan¹.

Shuningdek, Gerodot skiflar tilining koʻrinishlariga oid keltirgan dalillari ham diqqatga sazovor. Gerodot skif qavmi toʻgʻrisida soʻz yuritar ekan, nihoyatda sinchkovlik bilan bu qavmning etnik va til xususiyatlariga aniqlik kiritishga harakat qilgan edi.

Gerodot skif qavmlarini jamiki tafsilotlari bilan quyidagicha tasnif qiladi: 1. “Shoh skiflar”. 2. “Shoh skiflar” zulmidan ozod boʻlgan skif qavmlari. 3. Tugʻilishidan kal boʻlgan skif qavmlari (Gerodotning aytishicha, bularning tili alohida boʻlgan, ammo skiflarga xos kiyinadilar). 4. Koʻchmanchi skiflar. 5. Dehqon skiflar. 6. Qoʻshchi (yer haydovchi) skiflar. 7. Ellin skiflari.

Gerodot udumlari va tillari skiflarga yaqin boʻlgan qavmlar toʻgʻrisida ham birma-bir toʻxtalar ekan, Gelon xalqini quyidagicha taʼriflaydi: “Gelon aholisi azaldan ellin boʻlgan edilar... Aytishlaricha, ularning bir qismi skif tilida, bir qismi ellincha gapirganlar”.

Koʻrinadiki, Gerodot skif tilining ellinlar, yaʼni yunon tilidan keskin farq qilganini koʻrsatgan. Shuningdek, Gerodot “shoh skiflar” toʻgʻrisida maʼlumot berganda, ularning Oʻrta Osiyodan kelib chiqqanini (Gerodot bergan geografik hududni bugungi kunga tatbiq qiladigan boʻlsak,, “shoh skiflar” hozirgi Oʻzbekiston hududidan kelib chiqqani maʼlum boʻladi) va boshqa skif qabilalari ustidan hukmronlik qilishlarini aytadi. “Shoh skiflar” ham Gerodot yuqorida koʻrsatgan skif tilida gapirgani aniq. Uningcha, “yomon skiflar tili” ham boʻlgan. Bu tilda skiflar bilan amazonkalarning bolalari — savromatlar soʻzlashganlar. Gap bu oʻrinda “shoh skiflar” tilidan maʼlum darajada farq qiladigan til toʻgʻrisida bormoqda. Gerodotning koʻrsatishicha, amazonkalarning

¹ 3. Гасанов. Yuqoridagi asar, 397-bet.

tili skiflar tilidan tamomila farq qilgan. Amazonkalarni ellinlar asir qilib kemada olib ketayotganlarida, amazonkalar ularni o'ldirganlar. Amazonkalar kema boshqarishni bilmaganlari uchun suv oqimi bo'yicha Skifiyaga kelib qolganlar¹. Gerodot "yomon skiflar tili" to'g'risida gapirganda, savromatlar skif tilini yaxshi o'zlashtira olmaganlarini nazarda tutgan edi.

Skiflar tili yuzasidan XIX asrdan buyon munozaralar bo'lib keladi. Munozaralarda skif tilini bir guruh olimlar turk-mo'g'ul tillari guruhiga mansub deb qaradilar, bu g'oya tarafdorlari — R. Latam, Minns, Treydlardir. Ba'zi olimlar esa skif tilini ham, ularning kelib chiqishini ham hind-eron xalqlariga bog'ladilar. Bu g'oya tarafdorlari V. M. Miller, M. Fasmer, Y. Xarmatt, V. Abayevlardir. Ularning dalillari shundan iboratki, skifcha ismlarning lingvistik tahlili — til atributsiyasi uchun muhim shart. Bu — muhim, ammo yetarli bo'lmagan dalildir. Tarixiy shaxslarning ismlari — til egalarining lingvistik identifikatsiyasi uchun yetarli omil emas. Asos sifatida mif va afsonalarda uchraydigan ismlar ham jalb qilinsa, maqsadga muvofiqdir. Bular — Targ'itay va uning o'g'illari Lipaqsay/Alpoqsay, Arpaqsay, Qulaqsay kabi ismlardir. Bu ismlar turkiycha model asosiga qurilgani to'g'risidagi qarashlar o'zini oqlaydi².

Jahon skifologiyasining muhim muammolaridan biri, xususan, skif tilining qadimgi turkiy til asoslaridan biri ekani to'g'risida yuqorida bayon qilingan dalillar hali rivojlantiriladi.

2. Qadimgi turkiy til to'g'risida ma'lumot beruvchi yana bir manba arab va fors tillaridagi asarlardir. Bu manbalarda qadimgi turkiy tilning holati va taraqqiyoti, asosan, turkiy qavmlar tarixiga bog'liq holda bayon qilinadi. Rashididdinning "Jome'ut-tavorix" asari ana shunday muhim manbalardan biridir. Rashididdin turkiy qabilalar tarixi to'g'risida alohida-alohida so'z yuritar ekan, etnik jarayon va til munosabatini asosiy omil sifatida qaraydi. Jumladan, u turkiy qavmlardan **qalach** urug'i to'g'risida to'xtalib, bu urug' xalaj deb ham aytiladi, deya ma'lumot beradi. **Qalach/xalaj** o'g'uz qabilasining bir urug'idir. Keyinchalik bu urug' tilini yo'qotdi va afg'on xalqi bilan birlashib ketdi. Xalaj urug'idan bazilarigina o'z tilini — turkiy tilni saqlab qolgan¹⁰.

¹ Batafsil ma'lumot olish uchun qarang: Геродот. История. — Научно-издательский центр "Ладомир", М.: 1993, 214–215-betlar.

² Qarang: Z. Gasanov. Ko'rsatilgan asar, 140–147-betlar.

¹⁰ Рашид-ад-дин. Собрание летописей. — М. —Л.: 1952.

Arab va fors manbalarida ko'proq qadimgi turkiylarning geografiyasi, migratsiyasi va etnik jarayoniga ko'proq e'tibor qaratilgan. Ayniqsa, Ibn Fadlanning 921–922-yillarda Volga bo'ylariga qilgan safariga oid asari bu jihatdan ahamiyatlidir. U Volga bo'ylari va Xorazm o'lkasiga qilgan sayohatlarini yozar ekan, turkiy qavmlar zich yashaydigan hududlarga alohida e'tibor qaratadi. Ibn Fadlanning o'g'uzlar va Volga bulg'orlari haqida bergan ma'lumotlari diqqatga sazovordir. Ibn Fadlan noturkiy xalq vakili sifatida ma'lum vaziyat, qabila va qabilalarning hayotiga oid ma'lum tushunchalarni aniq berish maqsadida umumturkiy leksikadan ham, lotin va yunon so'zlaridan ham foydalanadi. Masalan, yunon va lotin tillarida mavjud bo'lgan *pontica*, arab tilidagi *halandj* (archagul) kabi so'zlardan istifoda etadi; *Pontica* ning bulg'or tilidagi shakli *bunduq* bo'lib, aslida O'rta yer dengizi mamlakatlarida o'sadigan yong'oq turidir. Volga bo'yi bulg'orlari tiliga O'rta Yer dengizi mintaqasidagi xalqlar tillari orqali kirib kelgani shuni ko'rsatadiki, leksik qatlam murakkablasha boshlagan,¹ ya'ni IX–X asrlardagi turkiy tillardagi sanskrit, xitoy, tibet tillaridagi leksik qatlam qatoriga sharq tillari leksik qatlami kirib kela boshlagan.

Turkiy tillarning qadimgi yoki ilk o'rta asrlardagi holatiga oid matnlar arab va fors manbalarida yo'qligi sababli, bu davrdagi O'rta Osiyo va Sharqiy Turkistondan boshqa o'lkalarda yashagan turkiy qavmlarning tillari taraqqiyotini arab va fors tillaridagi ma'lum asarlarda saqlanib qolgan so'zlarga tayangan holdagina belgilash mumkin. O'rta Osiyo va Sharqiy Turkiston hududlaridagina qadimgi turkiy tilning uzluksizligi to'g'risida so'z yuritish mumkin.

Asl manbalar. Qadimgi turkiy tilning holati, taraqqiyoti to'g'risida asl manbalar eng ishonchli va to'laqonli ma'lumotlarni beradi. Qadimgi turkiy-run yozuvi yodgorliklarini, moniy va eski uyg'ur-turk yozuvidagi yodgorliklarni, Qoraxoniylar sulolasi davrida yaratilgan yozma yodgorliklarni asl manba sifatida ko'rsatish mumkin.

Mazkur turkiy yozma yodgorliklar hududiy jihatdan va maqsadiga ko'ra turlichadir. Ammo hamma yodgorliklarning til xususiyatlarini birlashtirib turadigan bitta omil shuki, XIII asrgacha qadimgi turkiy yozma yodgorliklar tili ayni paytda mahalliy dialektlar ham bo'lib, adabiy til sifatida foydalanilgan.

¹ И. Г. Добродомов. Булгарские и бургасские слова в мусульманских средневековых сведениях о Повольжье. — Тезисы докладов XXIX сессии Постоянной международной Алтаистической конференции (PIAK), том II, М.: 1986, 49–50-бетлар.

Qadimgi turkiy yozma yodgorliklar — adabiy tilning taraqqiyotini ko'rsatib turadigan asosiy manbalardir. Ana shu yodgorliklarga tayangan holda, qadimgi turkiy adabiy til murakkab jarayonni bosib o'tganini e'tiborga olish lozim. Qadimgi turkiy adabiy tilning taraqqiyotida xalq og'zaki ijodi tili va tarjima asarlari tili ham katta rol o'ynagan. Qadimgi turkiy adabiy tilning mazkur manbalari bu davrdagi til xususiyatlarining xilma-xilligini ko'rsatadi. Shu bois qadimgi turkiy adabiy til tushunchasi faqat turkiy-run yozma yodgorliklari tili bilan chegaralanib qolmaydi, balki qoraxoniylar davri so'nggigacha bo'lgan adabiy tilni ham o'z ichiga oladi. Bu davr adabiy tilida ko'zga yaqqol tashlanadigan alomatlar shundan iboratki, budda va moniylik she'rlari tili urxun yodgorliklaridan farq qildi, budda va moniylik she'rlari orqali qadimgi turkiy adabiy til xalq og'zaki ijodi asarlari tiliga yaqinlashdi, "Oltin yorug'" dostoni o'g'uz, qorluq va boshqa ba'zi dialektlarni o'zida mujassamlantirdi (xususan leksikada), ayni paytda grammatik shakllardagi an'anaviylik bilan birga, eski o'zbek tiliga oid qo'shimchalar paydo bo'ldi (xususan, kelishiklarda).

Qadimgi turkiy adabiy tilning qadimiyligi, xususan, miloddan oldingi davrlardagi holati to'g'risida yozma manbalarda unchalik ko'p ma'lumotlar yo'q. Xitoy yilnomalarida ba'zi ma'lumotlar berilgan. Turkiy til va yozuvning qadimiyligi to'g'risida Xitoy manbalarida berilgan ma'lumotlarni turkiy-run yodgorliklaridagi ma'lumotlar to'ldiradi. Ba'zi turkiy-run yodgorliklariga murojaat etamiz:

759-yili uyg'ur xoqonligi hukmdori Eletmish bilga xoqon vafot etdi. O'sha yili uning sharafiga bitigtosh o'rnatildi. Mazkur yodgorlikda quyidagi parcha diqqatga sazovor: *Bing yilliq tuman kunlik bitigimin, balgumin bunda yasi tashqa yaratdim, tolqu tashqa toqtudum* — Ming yillik, tuman kunlik yozuvimni, belgimni bu yerda yozib, toshga o'yirdim, qalin toshga yozdirdim¹.

Mazkur yodgorlik bilan bir davrda yaratilgan Moyun chur bitigtoshida ham ayni shu tarixiy ma'lumot takrorlanadi: *Bing yilliq tuman kunlik bitigimin, balgumin anta yasi tashqa yaratitdim* (Mch, 21) — Ming yillik, tuman kunlik yozuvimni, belgimni bu yerda yassi toshga yozdirdim.

Turkiy-run yozuvida bitilgan yana ba'zi qadimgi turkiy yodgorliklarda "ming yillik yozuv" to'g'risida aytiladi. Bu ma'lumotlarning takror-takror qo'llangani shundan dalolat beradiki, qadimgi turkiy til va yozuv

¹ История и культура Центральной Азии. — М.: 1983, 120-бет.

“ming yilu tuman kun” ilgari amalda bo‘lgan edi, deganidir. Demak, turkiy-run yozuvi miloddan oldingi asrlarda shakllangan edi, degan bugungi qarashlar VII–VIII asrlardagi bitigtosh mualliflariga ilmiy haqiqat sifatida ma‘lum bo‘lgan edi. Shuning uchun har ikki yodnomadan yuqorida keltirilgan ma‘lumotlar qadimgi turkiy til tarixi to‘g‘risida asl manba sifatida qaraladi. Bu ma‘lumotlar ayni paytda Xitoy yilnomalarida, yunon manbalarida, boshqa chet manbalarda bayon qilingan qadimgi turkiy til va yozuv to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni tasdiqlaydi.

Yozuv va til to‘g‘risida so‘z ketganda, ma‘lum yozuv shaklining ko‘plab xalqlarga tez suratda tarqilishi nazarda tutilmaydi. Umumxalq tili, ya‘ni dialektlararo muloqot vositasi yozma shaklni oladi. Mazkur til bir yoki bir necha dialektlar asosida shakllanganmi yoki yo‘qmi — bu unchalik ahamiyatli emas. Qadimgi turkiy yodgorliklar o‘zgarmagan, asl holatini saqlagani va barcha turkiy qabilalar uchun yagona bo‘lgani uchun, adabiy til xususiyatini o‘zida gavdalantiradi. Adabiy tilning fonetik tuzilishi, grammatik qurilishi va leksik tarkibi ayni shu yodgorliklarda mujassamlashgan.

Qadimgi turkiy-run yodgorliklari adabiy tilni o‘zida ifodalar ekan, qadimgi turkiy tildagi bu jarayonga nisbatan *koyne* terminini qo‘llash maqsadga muvofiqdir. *Koyne* (yunoncha *koine dialektos* so‘zidan bo‘lib, “umumxalq tili” ma‘nosini bildiradi) — bir yoki bir necha dialekt asosida kelib chiqqan, mamlakat aholisining turli guruhlariga o‘rtasidagi dialektlararo muloqot vositasi bo‘lib xizmat qiladigan tildir. Demak, qadimgi turkiy tilda *koyne* — leksik qatlam, fonetik tizim, so‘z yasalishi turlari, morfologik shakllar va sintaktik konstruksiyalardagi umumiy jihatlarni qamrab oladi. Tildagi bu hodisani ma‘lum bir mamlakat hududida amal qiladigan qonunlar majmuiga yoki aqidalar yo farmonga qiyoslash mumkin. Qonunlar, aqida va farmonlar o‘zgarmagani va hamma uchun bir mezonga ega bo‘lgani singari, *koyne* ham o‘zgarmasdir. Agar *koyne*da o‘zgarish yuz beradigan bo‘lsa, bu tashqi omillar natijasida majburan qilingan bo‘ladi. Bu holat ham xuddi qonunlarga o‘zgartish kiritishga o‘xshaydi. “Oltin yorug‘”, “Xuastuanift”, moniylik va buddaviylik she‘rlari tilida tashqi omillar ta‘sirida yuz bergan o‘zgarishni kuzatish mumkin. Asar tilida turli dialektlarga xos so‘zlarning baravar qo‘llanishi shunday xulosaga olib keladi. Masalan, *kisi* (odam) so‘zi bilan birga o‘g‘uz va qipchoq shevalaridagi *jalanguq* (odam, cho‘ri), *açun* (olam), *yirtinçü* (olam) va hokazo leksik qatlam.

Umuman, qadimgi turkiy yodgorliklarda dialektal so‘zlarning o‘rin olgani va umumxalq tili leksikasiga aylantirilgani *koyne*ning

qonuniyatlaridan biridir. Yozma matn, shubhasiz, dialektal xususiyatlarni umumxalq tiliga aylantirgan. Dialektal soʻzlar yozma matnda mustahakamlangach, alohida dialekt doirasidan chiqib, butun avlod tomonidan oʻzgarishsiz holda qoʻllanishga oʻtgan.

Turkiy tillar tarixini davrlashtirish. Oltoy nazariyasi

Turkiy tillarni davrlashtirish toʻgʻrisida soʻz ketganda, turkologlar turkiy tillarning ildizini Oltoy davridan boshlaydilar va turkiy tillarning manshai aynan oltoy davriga borib taqalishini aytadilar¹. Oltoy davridagi turkiy tillarning xususiyatlarini koʻrsatadigan yozma matnlar boʻlmagani uchun mavjud turkiy hamda ularga qardosh tillarga tayangan holda xulosalar chiqarilgan va hozirda ham shunday. Shuningdek, turkiy tillar, jumladan, oʻzbek tili tarixini fonetik oʻzgarishlarga asoslangan holda davrlashtirish ham bor. Jumladan, S. Y. Malov xuddi shunday davrlashtirish tarafdori va u aynan qadimgi turkiy yozma yodgorliklar mavjud boʻlgan davrdan boshlaydi. S. Y. Malovning davrlashtirishi quyidagicha:

1-bosqich. Turkiy tillarning *d* lashish davri. Bu bosqichda soʻz oxiri va oʻrtasidagi hozirgi *j* tovushi *d* tarzida talaffuz qilinadi. Bu til xususiyatlarini turkiy-run va eski uygʻur-turk yozuvidagi yodgorliklar oʻzida ifoda etadi.

2-bosqich. Oʻtuvchi davr. Bu davrda birinchi bosqichdagi *d* tovushi *j* ga oʻtadi: qadin > qajin, adaq > ajaq, kedin > kejin va h.

3-bosqich. Til butunlay *j* lashishga oʻtgan bosqich. Bu bosqichda adabiy tilga gʻarbiy (oʻgʻuz) guruhi tillarining taʼsiri kuchayadi.

Koʻrinib turibdiki, S. Y. Malov qadimgi turkiy tilni davrlashtirishni yozma yodgorliklar maʼlum boʻlgan davrlardan boshlaydi. Shuningdek, A. N. Samoylovich, A. K. Borovkov, A. M. Shcherbak va O. Usmonov kabi olimlarning oʻzbek va turkiy tillarni davrlashtirishi orasida farqlar kuzatiladi. Bu farqlar asosan, VI–VIII asrgacha boʻlgan turkiy tillarga munosabatda koʻrinadi. VI asrgacha turkiy tildagi yozma yodgorliklarning yoʻqligi masalani qiyinlashtirgan va qarashlar ham turlicha. Turkologlar urxun-yenisey, eski uygʻur-turk yozuvi yodgorliklari tilini oʻzbek tilining alohida davri deb qarasarlar, baʼzilar bu davr yodgorliklari tilining oʻzbek tiliga aloqasi yoʻq deb hisoblaydilar¹. Qadimgi turkiy til va oʻzbek tili

¹ Bu haqda qarang: Н. А. Баскаков. Введение в изучение тюркских языков. –М.: “Высшая школа”, 1969, 147–148-betlar; Ahmed Jaferoglu. Türk dili tarihi, Istanbul, 1984, 51-bet.

fonetikasi hamda leksikasidagi umumiylik borligi bugungi kunda o'z isbotini topgan.

Turkiy tillarni davrlashtirish borasida A. N. Baskakovning tasnifi ma'lum darajada turkiy tillar taraqqiyotini qamrab olishga urinish bo'lgan edi. U turkiy tillar tarixini quyidagicha davrlashtiradi: 1 Oltoy davri. 2. Xun davri (miloddan ol. V asrdan milodiy V asrgacha). 3. Qadimgi turk davri (V–X asrlar). 4 O'rta turk davri (X–XV asrlar). 5. Yangi turk davri (XV–XX asrlargacha). 6. Eng yangi davr (XX asr boshlaridan bugungacha).

Albatta, N. A. Baskakovning mazkur davrlashtirishi XIX asrdan boshlab M. A. Kastren, V. V. Bartold, V. V. Radlov, P. M. Melioranskiy, B. Y. Vladimirsov, G. Ramstedt, V. Kotvich, K. Gryonbek, A. Jafaro'g'li kabi bir qator jahon turkologlarining qarashlari bilan hamohang. Yuqoridagi olimlar ham turkiy tillar tarixida olti davrni qayd etgan. Shuningdek, Osiyo xalqlari tarixiga oid asarlar va turk-mo'g'ul va tungus–manchjur tillari sohasida qiyosiy-tarixiy tadqiqotlar ham yuqoridagidek olti bosqichni davrlashtirish uchun asos bo'lgan.

Biz yuqorida skif tili ham qadimgi turkiy tilning ibtidosi va skiflar etnik jihatdan turkiy qavmlardan ekanini Gerodotning “Tarix” kitobidagi ma'lumotlarga va bir qator Yevropa olimlarining qarashlariga tayangan holda aytgan edik. Skifologiyaning bugungi yutuqlari shunday deb aytishga imkon beradi. Skif tilini rekonstruksiya qilish natijasida skif tilining fonetik tizimi va lug'at tarkibi turkiy tillarniki bilan bir, degan fikrning mustahkamlanishiga olib keladi. Qolaversa, xalqlar yoki qabilalarning tarixiy taraqqiyoti bilan ularning tili o'rtasida doimo muvofiqlik va mutanosiblik bo'lib kelgani uchun ko'hna turk davrini miloddan oldingi V asrgacha deb emas, balki milodiy V asrgacha deb belgilash maqsadga muvofiqdir. Buning ustiga, turkiy tillarni davrlashtirishda siyosiy-ijtimoiy jarayonlarni asos qilib olishdan voz kechgan holda, qoraxoniylar sulolasi davrida yaratilgan asarlarni qadimgi turkiy til sifatida qarash o'rinlidir. XI–XII asrlardagi turkiy yodgorliklar tili, xususan, “Qutadg'u bilig”, “Devonu lug'atit-turk”, “Hibat ul-haqoyiq” leksikasi, fonetik tizimi, so'z yasalishi, grammatik qurilishi qadimgi turkiy yodgorliklar tilidan keskin farq qilmasligi bugungi kunda ayondir. Ana shularni hisobga olib, turkiy tillar tarixini quyidagicha davrlashtirish ma'qul:

¹ Bu haqda qarang: Qozoqboy Mahmudov. O'zbek tilining tarixiy fonetikasi. – “Ijod” nashriyot uyi, Toshkent, 2006, 24–25-bettar.

20630/4

1. Oltoy davri. 2. Skif davri (qadimgi davrlardan mil. ol. V asrgacha). 3. Xun davri (mil. ol. V asrdan mil. V asrgacha). 4. Qadimgi turk davri (VI–XI asrlar). 5. Oʻrta turk davri (XII–XV asrlar). 5. Yangi turk davri (X–XX asrlargacha). 6. Eng yangi davr (XX asr boshlaridan bugungacha).

Oltoy davriga oid lingvistik omillarning yoʻqligi masalani biroz murakkablashtirayotganday tuyuladi. Matnlar yoʻq boʻlgani holda, turkiy tillar ibtidosini oltoy davridan boshlash qanchalik maqsadga muvofiq degan savol tugʻilishi tabiiy. Bunday paytda hozirgi turkiy tillarning va qarindosh deb hisoblanadigan tillarning fonetik, leksik va grammatik tizimiga asoslanish turkologiyada qabul qilingan. Ana shu mezon asosida turkologlar oltoy davridagi turkiy tillar uchun umumiy xususiyatlar sifatida quyidagi omillarni asos qilib oladilar:

1. Unlilar garmoniyasining borligi.
2. Grammatik rodning yoʻqligi.
3. Artiklning yoʻqligi.
4. Tilning agglyutinativ qurilishga egaligi.
5. Sifat va son ot oldida aniqlovchi vazifasida kelganda oʻzgarmasligi.
6. Egalik qoʻshimchalarning mavjudligi.
7. Predloglar oʻrnida koʻmakchilarning qoʻllanishi.
8. Aniqlovchining aniqlanmish oldida kelishi.
9. Ot turkumidagi soʻzlarning birlikda sondan keyin kelishi.
10. Ot turkumidagi soʻzlarning birlikda sondan keyin kelishi.
11. Qiyoslash oborotda chiqish kelishigining qoʻllanishi.
12. Bogʻlovchili konstruksiyalar oʻrnida sifatdosh va ravishdosh oborotlarning ishlatilishi va h.

Bugungi oltoy tillari oilasiga kiruvchi tillarni qiyosiy-tarixiy, tizimli-ideografik va tipologik jihatdan oʻrganish shunday natijaga olib keladiki, ayrim turkiy tillar bilan moʻgʻul va tungus-manchjur tillari leksik tarkibida, soʻz semantikasi va strukturasida umumiy geografik va etno-ijtimoiy jihatlar aks etadi. Ayniqsa, bir boʻgʻinli oʻzaklarda bu holatlar aniq koʻzga tashlanadi. Masalan, quyidagi kategoriyalarga eʼtibor beraylik: 1. Maʼlum obektlarning, hodisalarning jami maʼnosini bildiradigan soʻzlar: *Bö//Bu* oʻzagi aksariyat turkiy tillarda “butun, toʻliq, tugallangan” maʼnolarini bildiradi: *Bü+t(ün)* — “butun, yaxlit” (oʻzb.); *bo+d(un)* — qabilalar uyushmasi (qadim. turk.); *bö+t(lök)* — “mohiyat, biron narsaning magʻzi”; *bo+j(pa)* — “doira, doirasimon” (tat., boshq.); *bü+t(aj)* — “zich, yaxlit, uzluksiz” (yoqut); *bu+t(en)* — “toʻgʻrilangan” (moʻgʻul.); *bu+t(un)* — “butun” (tungus, manch.); *bu+t(er)* — “tugatmoq”

(tungus, manch); *bi+k* “juda, g’oyat, tugal” (boshq.); *be+d (uk)* — “har narsaning kattasi, ulug’i” (DLT).

Mazkur guruhdagi o’zakdosh so’zlarning ma’no umumiyligiga xos jihatlarni “Tabiat: o’simliklar dunyosi” guruhiga mansub bir bo’g’inli so’z o’zaklari ham tasdiqlaydi: *bo+r(çak)* — “no’xat va dukkakli o’simliklar oilasidan boshqa o’simliklar” (tat. , boshq.); *pu+r(çak)* — “bir dona no’xat” (chuvash.); *buu+r(tsak)* — “no’xat” (mo’g’ul.); *bo+r(ço)* — “dukkakli o’simliklar” (tungus, manch.); *bool+(jirghn)* — “meva” (qalm. , mo’g’. , xalx.); *bo+r(tek)* — “don”, *pjo+p(çjo)* — “don” (chuvash.); *bu+p(duka)* — “un, non, don” (tungus. , manch.) va h.

Bulardan tashqari, yana boshqa kategoriyalarga mansub *bö* o’zakli so’zlar borki, oltoy tillari oilasiga kiruvchi turkiy tillarda ma’nodoshdir¹.

Yuqorida keltirilgan misoldan ma’lum bo’ladiki, oltoy tillarida tarkibiy-semantik yadroning umumiyligi birgina leksema orqali tasdiqlanmoqda. Oltoy tillariga kiruvchi turkiy tillarning qarindoshligi, ba’zi turkologlar aytganiday, tillarning yaqinlashuvi tufayli yuz bermadi, balki oltoy tillarining etnik jarayoni tufayli yuz berdi. Yevroosiyoning etnik jarayoni va shunga bog’liq ravishda til taraqqiyoti shunday xulosaga olib keldi.

Leksemalarni ideografik paradigma doirasida qarash lozimligini ham yuqoridagi *Bö* — o’zakdosh so’zlari ko’rsatadi. Oltoy tillari nazariyasi ilk bor ilgari surilganda ham, o’zakdosh so’zlar asos qilib olingan edi. Bu nazariyaning birinchi asoschisi qadimgi turkiy yodgorliklarni Sibirdan topgan shvetsiyalik ofitser I. Stralenbergdir. Oltoy tillarini alohida til oilasi sifatida qarashni ham I. Stralenberg o’rtaga tashladi. U turkiy tillarning qarindoshligi masalasida so’z yuritganda, bugungi singari “oltoy tillari” degan termini qo’llamadi, balki turkiy tillarni “ural-oltoy tillari” degan nom ostida birlashtirdi. U bir qiyosiy jadval tuzib, o’ttiz beshta so’zning 32 turkiy tilda qanday ifodalanishini ko’rsatib berdi.

Jadvalda bahs mavzusi bo’lgan 32 til dastlab olti guruhga bo’lingan. (Stralenberg “tatar” terminini “turkiy” tillar va xalqlar ma’nosida qo’llagan). Bular quyidagilardir:

¹ Qarang: A. Шайхулов. Алтайская цивилизация и отражение картины мира в тюркских, монгольских, тунгусо-манчжурских языках (на материале односложных корневых основ). — “Второй международный тюркологический конгресс. Современная тюркология: теория, практика и перспективы. раздел I, Туркестан(Казахстан) — 2006, 178–180-betlar.

1. Fin-ugor (Stralenbergning fikricha, uygʻur, lekin bu toʻgʻri emas): mojar, fin, vogul, cheremis, permyak, votyak, ostyak xalqlari va ularning tillari.

2. Turk-tatar: yoqut, chuvash xalqlari va ularning tillari.

3. Samodiy xalqi va tili.

4. Moʻgʻul-manchjur: qalmiq, manchjur, tangut xalqlari va ularning tillari.

5. Tungus: tungus, qamasin, arin, koryak, kuril xalqlari va ularning tillari.

6. Qora dengiz va Xazar dengizi orasida istiqomat qilgan xalqlar hamda ularning tillari.

I. Stralenberg yuqoridagi jadvalda asosiy eʼtiborni chuvash, tatar, boshqird, yoqut, turkman, qoraqalpoq, barabin-tatarlarga qaratgan. U turkologiyada qiyosiy-tarixiy usulni boshlovchilardan biri boʻldi va tilning qadimgi etnik tarixni oʻrganishda muhim omil ekanini koʻrsatib berdi.

Shuningdek, I. Stralenberg oʻrtaga tashlagan ural-oltoy nazariyasi keyingi davrdagi turkologlar tomonidan rivojlantirildi. XIX asrda yashagan turkologlar orasida M. Kastrenning qarashlari diqqatga sazovor. U ural-oltoy tillarini besh guruhga boʻldi: 1. Fin-ugor. 2. Samodiy. 3. Turk-tatar. 4. Moʻgʻul. 5. Tungus.

Ural-oltoy tillari nazariyasi baʼzi turkologlar tomonidan eʼtirof etilgan. Turli oilaga mansub tillarni qiyosiy-tarixiy oʻrganish rivojlanib borishi natijasida doimo qarindosh tillar doirasi kengayib borgan, qadimda bu tillarning qarindosh boʻlganini isbotlashga harakat boʻlgan. Turkologlar boshqa qarindosh tillarni izlashga intilar ekanlar, bu hodisa mutlaqo tabiiydir. Oltoyshunoslik tarixida bunday izlanishlar muvaffaqiyat bilan tugagani maʼlum. Masalan, 1915-yili fin tilshunosi Y. Stela, samodiy tillari fin tiliga qarindoshdir, degan gʻoyani ilgari surdi. Keyingi tadqiqotlar Y. Stelaning fikrini tasdiqladi va samodiy tillari materiallaridan komparativ tilshunoslikdan foydalanilmoqda.

Ural-oltoy tillari nazariyasini ilgari surib, qoʻllab-quvvatlagan turkologlarning qarashlari oʻrinlidir. Aslida ural-oltoy tillari Shimoliy Osiyo tillaridan ajralib chiqqan. M. Ryasyanening fikricha, Shimoliy Osiyo tillarining ural-oltoy tarmogʻi ilk tosh davrida — miloddan oldingi oʻninchi ming yillikda mavjud edi. Miloddan oldingi oltinchi ming yillikda oltoy tillari tarmogʻi oʻz navbatida Shimoliy Osiyo tillaridan ajralib chiqdi. Miloddan oldingi ikkinchi ming yillikda esa turkiy tillar oltoy tillari tarkibidan mustaqil til oilasi sifatida paydo boʻldi. Xullas,

M. Ryasyanening mazkur nazariyasi ham yuqoridagiday ma'lum mezonlarga asoslangan.

XIX–XX asrlarda jahon turkologlari, jumladan, O. N. Byotlingk, B. Y. Vladimirsov, V. Tomson, G. Ramstedt, O. Donner, I. Budens va boshqalar oltoy nazariyasini qo'llab-quvvatladilar. Bular orasida mo'g'ulshunos B. Y. Vladimirsovning kuzatishlari diqqatga sazovor. U mo'g'ul tilining oltoy tillari tarixida tutgan o'rnini belgilab, oltoy tillari nazariyasini qo'llab-quvvatladi: “Mo'g'ul tili turkiy va tungus tillari bilan birga yagona ildizga ega bo'lib, shartli ravishda ularni oltoy tillari deb aytish mumkin. Qadimgi oltoy tili ma'lum emas, ammo oltoy tillari — mo'g'ul, turkiy, tungus tillari ma'lum bo'lib, bu tillar oltoy tilining taraqqiyoti jarayonida hosil bo'lgan”¹. Venger olimi Y. Nemet, V. Poppe ham B. Vladimirsovga hamohang fikrlarni ilgari suradilar. Har ikki olimning fikricha ham, qandaydir qadimgi til bo'lgan va u tilning umumiy fonetik, leksik va grammatik xususiyatlari hozirgi turkiy tillarda hamda mo'g'ul va tungus-manchjur tillarida saqlangan ekan.²

Oltoy tillari oilasiga kiruvchi tillarning, shuningdek, yapon tilining o'zaro genetik aloqasi masalasi XX asr oxirlarida yana ham aniqlashtirildi va bu nazariya o'z ilmiy isbotini topdi³.

Oltoy tillarining tarixiy taraqqiyotini ko'rsatuvchi yozma matnlar yo'q ekanini yuqorida aytib o'tdik. Shunday bo'lsa-da, fonetik moslik, leksikada va qo'shimchalardagi uyg'unlik bu oilaga kiruvchi tillarning qarindoshligini isbotlovchi dalillardir. Masalan, *b—m* mosligi: *motan*: (koreys. “hamma”) — *mute*: (oltoy. “hamma, butun”) — *bodun*: (qadim. turk. “xalq, jamiki turkiy urug'lar”).

Oltoy tillari bilan qadimgi aloqalarini saqlagan ba'zi turkiy tillarda, jumladan, yoqut, xakas, boshqird, tungus, manchjur tillarida s-t-ç tovushlari mosligi ham oltoy davridagi qarindosh tillarning saqlanib qolgan xususiyatlaridandir: masalan, hozirgi o'zbek tilidagi “o'ttiz” so'zi quyidagicha shaklda qo'llanadi: *gusin* (manch.) — *guçin* (mo'g'ul.) — *gutin* (tungus.).

Xullas, turkiy tillar davrlashtirilganda, turkiy qavmlar va ularning

¹ Б. Я. Владимирцов. Сравнительная грамматика монгольского письменного языка и халхасского наречия. — Л.: 1929, 45-бет.

² Bu haqda qarang: Н. А. Баскаков. Введение в изучение тюркских языков. — М.: 1968, 148-бет.

³ С. А. Старостин. Алтайская проблема и происхождения японского языка. — М.: 1991, 3–4-бетлар.

tillari xronologik chegaralariga muvofiqligi inobatga olingan. Oltoy guruhiga kiruvchi tillarni davrlashtirishda qiyosiy-tarixiy usul eng maqbulidir.

Skif tili soʻz yasaliş modelining qadimgi turkiy til soʻz yasaliş modeliga mosligini avval koʻrib oʻtgan edik. Xun davridagi turkiy tilning xususiyatlarini aniqlashda ham, xuddi skif tili kabi, maʼlum bir chet manbalarga tayaniladi.

Ilk turkcha davr

“Ilk turkcha davr” degan termin Yevropa turkologiyasida “prototurkcha” degan termin bilan ham ataladi. Koʻchmanchi turk urugʻ va qabilalari tarixi bilan yaqindan tanishish shuni koʻrsatadiki, urugʻ va qabilalarning taraqqiyoti ular tilining lahjalarga boʻlinishiga olib kelgan. Qadimgi turklarning hayot tarzi, eʼtiqodi, turli qabilalar orasida bu boradagi farqlar, shubhasiz, qadimgi turkiy til lahjalariga ham taʼsir etgan. Qadimgi turklarning hayot tarzi yagona turkiy tilning, ayni paytda yagona yozuvning paydo boʻlishini shart qilib qoʻymagan. Qolaversa, bunga ehtiyoj ham yoʻq edi. Chunki turkiy qavmlarning bir qismi koʻchmanchilik hayotini boshdan kechirganlari uchun, bir qator etnik birlashmalar paydo boʻldi va tabiiyki, ularning tillarida ham farqlar yuzaga keldi.

Ilk turkiy til taraqqiyotida ikki bosqichni kuzatish mumkin. Birinchi bosqichni turkiy tilning boshlangʻich davri deb qarasa boʻladi. Tilning umumiy taraqqiyoti qonuniyatlari nuqtai nazari boʻyicha tahlil qilinganda, ilk davrdagi turkiy til urugʻ tillarining bir-biriga taʼsiri ostida rivojlanib bordi. Oʻsha zamonda begona qavmlarning turkiylashuvi, shuningdek, yana boshqa bir qator sabablar taʼsiri bilan yuzaga kelgan turk urugʻ va qabilalari sharqqa ham, gʻarbga ham yoyilib bordi. Mahmud Koshgʻariy “Devonu lugʻatit-turk” asarida koʻrsatgan qabila va urugʻlarning geografik hududi, ularning tillari oʻrtasidagi farqlar ham shundan dalolat beradi. Ilk turkiy til ham bir qator dialektlardan iborat boʻlganini Koshgʻariyning bergan maʼlumotlari, dalillari tasdiqlaydi. Ilk turkiy tilni bugungi adabiy tilga qiyoslab tasavvur qilish mumkin.

Ilk turkiy tilning xususiyati toʻgʻrisidagi tasavvurlarni urxun yodgorliklari ham maʼlum darajada toʻldiradi. N. Poppe soʻz boshidagi undoshlar ifodasiga koʻra, ilk turkiy til uchun quyidagicha tovush tizimini ishlab chiqdi.

Oltoy-bobo tili	*p	*b	*t	*d	*q	*gh	*k	*g	*z	*c	*y	*n	n*	*ç	*s
Mo'g'ul tili	o	b	t	d	k	gh	k	g	d	c	y		n	ç	s
Qadimgi turkiy til	o	*b	*t		q		*k				*y			*ç	*s

So'z o'rtasi va oxiridagi undosh tovushlar tizimi qanday bo'lgani to'g'risida aniq fikrlar yo'q bo'lsa-da, ilk turkiy tilning **R** va **L** tovushli til bo'lganini e'tirof etish mumkin.

Yuqoridagi jadvaldan shu narsa ayon bo'ladiki, urxun yozuvlarining til xususiyatlarini tashigan va milodiy I asrga qadar davom etib kelgan ilk turkcha til taraqqiyoti tarixi jihatidan oltoy bobo tiliga solishtirilganda, dastlab ikki davrni bosib o'tgan. Birinchi davrda **k** va **g**, **q** va **gh**, **t** va **d**, **n** va **ng**, **z** va **c** tovushlari hali alohida-alohida bo'lib ajralmagan, ya'ni mustaqil fonema sifatida yo'q edi. Urxun yodgorliklarida buning qoldiqlarini ko'rish mumkin.

Ikkinchi bosqichda **r** tovushidan **z**, **l** tovushidan **sh** tovushi paydo bo'lganini turkologlar, xususan, N. Poppe e'tirof etadi. Bu vaziyatdan turkologlar qadimiy xususiyatlarini saqlagan hozirgi turkiy tillarni aniqlashda foydalanadilar. Jumladan, chuvash tilini **r** va **l** xususiyatga ega til guruhiga, yoqut tilini esa **z** va **sh** xususiyatga ega turkiy tillar guruhiga kiritadilar.

Ba'zi turkologlar, jumladan, Yu. Nemet har ikkala turkiy tilning baravar taraqqiy qilgani to'g'risidagi fikrni o'rtaga tashlagan edi. Bundan ko'rinadiki, ilk turkiy tilning xususiyatlari, alohida belgilari to'g'risida bulardan boshqa omillar, xususan, bir qator qavmlarning tillari aniqlashtirilishi, ular yashagan hududlari tayin etilishi ham kerakki, ana shunda ilk turkiy til to'g'risidagi tasavvurlar yana ham oydinlashadi. Bu omillar yozma til to'g'risidagi ma'lumotlar yoki o'sha tildan ba'zi elementlar yo'q davrlarga tegishlidir.

Ikkinchi davr — ma'lum bir yozma yodgorliklarda ilk turkiy tilning ma'lum biron tizimiga oid ma'lumotlar, lisoniy elementlar saqlanib qolgan davrdir. Biz bu davrni miloddan oldingi V asrda Markaziy Osiyoda istiqomat qilgan qadimgi turkiylar davridan boshlaymiz va ularning tilini ham shartli ravishda ko'hna turkiy til deb nomlaymiz. Bu davr turkiylari shumer yozuvlarida xurritlar yoki kurritlar deb eslanadi. Ular miloddan

oldingi uchinchi ming yillikning o'rtalarida Xitoyning shimolini, Mo'g'ulistonni, Jungariyani bosib olib davlat qurgan edilar. Birinchi ming yillik oxirida O'rta Osiyo, xususan, Sirdaryo etaklari, Orol dengizi bo'ylariga yetib keldilar. Eng qadimgi Xitoy manbalarida xitoylarning qo'shnisi bo'lgan Shan xun, Xuan yun, Xuang nu kabi nomlar bilan qayd etilgan qavmlar ham ana shu ko'hna turkiylar edilar.¹ Bu qavmlar haqida nisbatan jiddiy va izchil ma'lumotlar miloddan oldingi VIII asrdan boshlab uchraydi.

Ko'hna turkiylarning tili masalasida ko'p bahslar bor. Yuqorida ularning etnik jihatdan kelib chiqishi turkiy qavmlardan ekanini aytdik. Ularning tili to'g'risida turkologlar so'z yuritganlarida, bugungi venger va chuvash tillaridagi ba'zi so'zlar ko'hna turkiy til leksikasi uchun asos bo'la oladi, deb aytadilar. Shuningdek, ayrim turkologlarning fikrlariga ko'ra, ularning sharqdagi qo'shnilari syanbiylar tiliga ham ko'hna turkiy til asos bo'lgan edi.

Ko'hna turkiylarning boshqa turkiy qavmlar bilan etnik birligi ular tilining turkiycha ekanini belgilovchi yagona omil emas. Birinchi navbatda, Xitoy tarixiy manbalarida saqlanib qolgan qadimgi turkiy so'zlar orqali ham ularning tili to'g'risida ma'lum bir xulosaga kelish mumkin.

Ko'hna turkiylar tilida bir qator so'zlar harbiy sohaga va davlat tuzilishiga oid so'zlardir. Bu so'zlar xitoy tilidagi manbalarga o'tib saqlanib qolgani uchun, ko'hna turkiy tildagi so'zlarning fonetik qiyofasi o'zgarishga uchragan. Xitoy tilining monosillabik til bo'lgani bunga sababdir. Masalan, ko'hna turkiylarda *toki* unvoni bo'lgan. Olmon olimi de Grott gunlardagi bu unvonni turkiy tillardagi *togri/dogri* so'zi bilan bog'laydi. Zero, xitoy tilidagi "nien" ishorati bilan ifoda etilgan so'zlarning ma'nosi "hokim, odil, yaxshi" ma'nosini ifodalab, azaldan eng sharafli unvonlardan biri bo'lgan. K. Shiratorining aytishicha, Osmon o'g'illariga (ya'ni podshohlarga) nisbatan shu so'z ishlatilgan. K. Shiratorining yana takidlashicha, bu unvon *tu-si* shaklida ham bo'lgan va qadimgi turklarning nizomlari "to'g'ri, odil" bo'lganidan dalolatdir.

Yunon manbalarida eng qadimgi turkiycha so'z bo'lgan *asqhu* so'zi ham bor. Bu so'z "sut bilan aralashtirib ichilgan yegulik" ma'nosini bildiradi. Bundan boshqa ba'zi so'zlar ham borki, ko'hna turkiycha so'zlar qadimgi turkiy tilga yetib kelgunga qadar fonetik jihatdan keskin

¹ Н. Аристов. Заметки об этническом составе тюркских племен и народностей. — Живая старина, вып. III—IV, 1896, 290-бет.

o'zgarishlarga uchramaganini, ilk turkiy tildagi so'zlar biron tarixiy voqea munosabati bilan qo'llanganini ko'rish mumkin.¹

Ko'hna turkiylarning kimligi va tili to'g'risida Yevropa olimlari XX asr boshidan buyon turli nazariyalarni aytib keladilar. Bu nazariyalarning eng ko'p tarqalgani — ko'hna turklarning turk qavmlaridan ekani va tili turkiycha bo'lgani to'g'risidagi qarashlardir. Bu nazariyalarni qo'llab-quvvatlagan olimlar quyidagilardir: Abel-Remyuze, Y. Klaprot, A. Semyonov, V. Ripper, Koskinen, K. Shiratori, S. Pritchak, Altxeym, J. Kloson.

Turkologlarning kuzatishlari shuni ko'rsatadiki, qadimgi turkiycha ism va unvonlardan bir yuz saksontasi miloddan oldingi V asrdan oldingi xitoy yozma yodgorliklarida saqlanib qolgan. Shuningdek, xitoyshunos olimlardan ba'zilari, Chin manbalarida yuzlab ko'hna turkiy so'zlar bor, deb e'tirof etadilar. Bu so'zlar qatorida "Xan shu" yilnomasida turkologlarga yaxshi ma'lum o'nta xitoycha ideogrammadan iborat ko'hna turkiy tildagi bir bayt ham bor. Bu baytni xitoyshunoslar turlicha o'qiganlar. Bunga sabab shuki, xitoy yozuvida *l* va *r* undoshlari uchun bitta belgi ishlatiladi, ya'ni ular farqlanmaydi, *ö* va *ü* unlilari ham uchramaydi. Shu bois ko'hna turkiy tildagi yigirmaga yaqin so'zni har xil o'qish bilan birga, turlicha talqin ham qiladilar. Yuqoridagi Xitoy yilnomasidagi ko'hna turkiy tildagi baytning boshlanishida *çeng-li* kutu Shan-yu jumlasida uchraydi. "Xan shu" yilnomasida bu jumladagi so'zlar quyidagicha ma'no ifodalaydi: *çeng-li* — "osmon" ma'nosida, *ku-tu* — "o'g'il" ma'nosida, *Shan-yu* — "keng, buyuk" deganidir. Bu jumlaning mazmuni "Osmon o'g'li buyukdir" deganidir. Mazkur jumla Chin xoqonlarining unvoni sifatida ishlatilgan.

Mazkur jumladagi birinchi so'z qadimgi turkiy tildagi "osmon va xudo" ma'nosida qo'llangan *tängri* ning fonetik o'zgargan shakli ekani turkologlar tomonidan e'tirof etilgan. Faqat J. Dyorfer *tängri* so'zi tarkibidagi *ngr* undoshlar birikmasi sababli buning turkiycha so'z ekaniga shubha bildiradi. Uningcha, bu so'z *tanri* bo'lishi kerak, ya'ni bugungi turkiy tillardagi til orqa *ng* ko'hna turkiychada ham, qadimgi turkiychada ham yo'q. J. Dyorfer turkmanchada *tängri*, yoqutchada *tanara*, chuvashchada *türi* shaklida qo'llanishini asos qilib oladi.

Ammo shuni e'tiborga olish kerakki, qadimgi turkiy tildagi *ng* va *k* undoshlari bilan kelgan unlilar yoqut tilida til orqa unlilariga aylangan.

¹ Ahmed Jaferoglu. Türk dili tarihi. - Istanbul, 1984, 75-bet.

Qadimgi turkiy tilda
ökiüz
inäk
säkiz

yoqut tilida:
oghuz
inäx
aghiz va h.

Yoqut tilidagi mazkur til orqa unli va undoshlarini e'tiborga olib, *ng* undoshi ishtirok etgan *tängri* so'zi ham ko'hna turkiy tilda qoidaga aylangan *tangara* shaklida bo'lganini taxmin qilish mumkin.

Chuvash tilida *turi* shakli bu til tarixidagi biror xususiyat bilan bog'liq emas. Qadimgi turkiy tilda *ä* unlisi ishtirok etgan bir qator so'zlarda hozirgi chuvash tilida til orqa *a* unlisi qo'llanadi. Masalan:

Qadimgi turkiy tilda:
älig (qo'l)
är (er)
äblän— (oilali bo'l-)
äk— (ek-)

Chuvash tilida:
ali, ak
ar
avlan-
ak-

Qadimgi turkiy tildagi *tängri* so'zining chuvash tilida *turi* shakliga kelib qolishi keyingi taraqqiyot mahsuli bo'lib, sonor tovushlarning (*ng*) turkiy tillarda turg'un emasligi va til orqa undoshlarining ham o'zgarishga moyilligi bilan bog'liq hodisadir: *tängri* > *tagri* > *turi*.

Turk, ozarbayjon tilida *tanri* va turkman tilida *tangri* shakliga kelgunga qadar o'g'uz guruhidagi turkiy tillarda mazkur til orqa unlisining qo'llanishi ham *ng* undoshi ta'sirida yuz bergan bo'lishi mumkin. Sonor tovush *ng* til orqa undoshi bo'lgani uchun qadimgi turkiydagi til oldi *ä* unlisini til orqa *a* ga aylantirgan.

Miloddan oldingi asrlardan boshlab Chin muarrixlari o'z asarlarida bir necha turkiycha so'zlarni xitoycha yozuvda berishga urinib ko'rganlar. Ammo xitoycha yozuv bilan boshqa xalqning yozuvini o'z ohangida berish qiyin bo'lsa ham, xitoy muarrixlari yozib qoldirgan turkiycha so'zlarni tiklash mumkin. Xitoycha yozuv, dunyodagi fonetik yozuvlar singari, ma'lum tovush ifodasi ma'lum bir belgi bilan ifodalangan yozuv emas. Biron buyum nomini xitoycha yozuv bilan yozmoqchi bo'lsak, o'sha buyumning shaklini chizish lozim bo'ladi. Shunga ko'ra, xitoycha yozuvning alifbosi boshqa fonetik yozuvdagi harflar miqdoridan juda ko'p — bir necha ming shakllardan iborat. Buning ustiga, turkiy-run va eski uyg'ur-turk yozuvidagi *q, gh, h, r* harflari ishtirok etgan so'zlarni turkiycha ohangda xitoycha yozuvda va xitoycha talaffuzda berish mumkin emas.

Shuning uchun qadimgi davrdagi xitoy muarrixlari turkiycha soʻzlarni xitoycha yozuv bilan berishda qiyinchiliklarga duch kelgan boʻlsalar-da, turkiycha talaffuzni imkon qadar saqlashga harakat qilganlar.

Koʻhna turkiylar davridagi toʻba tili ham turkiy tillarga mansubligi toʻgʻrisida jahon turkologlari fikrlarini bildirganlar. Toʻba tiliga oid unvonlar, atoqli otlar “Chim-shu” nomli xitoy yilnomasida saqlanib qolgan. Toʻba tilidagi ayrim unvonlar esa atoqli otlardan kelib chiqqan. Toʻba tilidagi baʼzi atoqli otlarni K. Shiratori, P. Pelliot, P. Boodberg tahlil qilganlar. Toʻba tilidagi atoqli ot va unvonlar yuzasidan L. Bazen olib borgan tadqiqotlar diqqatga sazovordir¹. Quyida nomlari zikr etilgan turkologlar toʻba tilida aniqlagan atoqli va turdosh otlardan namunalar keltiramiz².

Xitoycha nomlanishi	Toʻba tilida	Qadimgi turkiy yoki eski oʻzbek yo boshqa turkiy tilda nomlanishi	Maʼnosi
1.Kapo-çene Ka-pak-çin	kapakçin	qapuqçi	darvozabon
2.Pi-te-çen< pyi- (yoki byi-) – tik-çin	bitigçin	bitigçi	bituvchi, kotib
3.Hsien-çen< qam-çin	qam-çin	cam-çin	otliq pochталon, uloqchi

¹ Bu haqda qarang: Talat Tekin. Hunlarin dili. - Ankara, 1993, 24-b.

² Misollar Talat Tekinning yuqoridagi kitobidan olindi.

4.hu-lo-çen< quolak-çin	kurlagçin< kur-la-g-çin	kur, kurla	hukmdorni qurol bilan himoya qiluvchi kamar
5. ho-la-çen<qatlat-çin	hat-laq-çin	atliq, atlaq	otliq, suvori
6.to-po-çen< tã-pãk-çin	ta:pakçin	ta:pan	piyoda, yayov, tovon
7. a:çen<a-çin	açsin	alçin	To'ba saroyidagi oshxona qismi; bakovul
8. hu-lo	kural	kural	qurol
9. kih-wan-çen< kiet-miwançin	kelmerçin	kelemurçi (mo'g'ul.)	tarjimon
10.muh-kuh-lu	mukur, mukuri	muqur.muquliq (mo'g'ul.)	dumaloq
11. teu-lu, tou-lu< deu-luo	törü, törã	törü, törö	qonunga itoat etmoq
12. qutu	qut	qut	baxt, saodat
13. yanghu	alçi	alçi	ayyor, yolg'onchi

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, keltirilgan so'zlardan ikkitasigina mo'g'ulchadir. Bu ham qadimgi turkiy tildan keyingi davrga aloqador, qadimgi turkiy tilda saqlanmagan.

Yuqorida aytganimizdek, ko'hna turkiy tildan bir jumla ham saqlanib qolgan. Mavjud saqlanib qolgan so'z va jumalarga asoslanib, turkologlar ilk turkiy til *z/sh* tilga aloqador, deb bilgan edilar. Jumladan, Yu. Nemetning qarashi shunday. U qiz, okuz kabi so'zlardagi *z* tovushiga asoslanib, ko'hna turkiylar davridagi ilk turkiy til *z* guruh turkiy tillarga kiradi, deb hisoblaydi.

Yuqorida ko'hna turkiy tilda bir jumla "Chin-shu" yilnomasida

saqlanib qolgani to'g'risida aytgan edik. Endi o'sha jumlaning ko'rib chiqamiz.

Chin sulolasi tarixi to'g'risidagi "Chin-shu" yilnomasida mil. ol. 329-yilda Po Yangda yuzaga kelgan bir voqea sababi bilan o'nta xitoycha belgidan iborat ko'hna turkiy tildagi bir jumla aniqlangan. Bu turkiycha jumla XX asr boshidan beri jahon turkologlarining e'tiborini jalb qilib keladi. K. Shiratori, L. Bazen va A. fon Gaben kabi Yevropa olimlari bu turkiycha jumla ustida ish olib borib, jumlaning turkiy tilda ekanini isbotlashga harakat qildilar. Mazkur jumlaning xitoycha matnini turkolog va xitoyshunoslar turlicha o'qigan bo'lsalar ham, hammalari bu jumlaning turkiycha ekanini e'tirof etganlar. Quyida o'sha jumlaning keltiramiz:

Siu-ki ti-li-kang puh-koh ku-tu-tang

Mazkur jumla budda ruhoniysi Fo Tu Tengning bashoratidir.¹

Endi jumlaning so'zma-so'z tahlil qilamiz.

Siu -ki xo tilida "qo'shin, lashkar" ma'nosini, *ti-li-kang* "chiqmoq" ma'nosini bildiradi; *puh-koh* Liu Yaoning unvonidir; *ku-tu-tang* "qo'lga tushiradi, tutib oladi, ushlab oladi" demakdir. Xullas, bu jumlaning mazmuni quyidagicha: "lashkar jang qilmoq uchun yo'lga chiqadi, Liu Yaoni qo'lga tushiradi".

Mazkur jumla tarkibidagi so'zlarni K. Shiratori, Ramstedt, L. Bazen, A. Gaben turkiycha ekanini quyidagicha tahlil qiladi:

Shiratori		Ramstedt		Bazen	
ko'hna turkiy	ma'nosi	ko'hna turkiy	ma'nosi	ko'hna turkiy	ma'nosi
Siu-ki	jang	Siu-ki=suka	jang qiladigan lashkar	Sio-g	qo'shin
ti-li-kang	chiqarmoq chi chiqmoq	ti-li-kang= taliqing// taliqang ²	chiqing	taqti	hujum

¹ "Chin-shu" yilnomasida bu jumla quyidagi voqea munosabati bilan keltirilgan: ko'hna turkiylarning Xo qabilasidan bo'lgan Shi lo boshqa ko'hna turk yo'l boshchisi Liu Yaoning raqibi edi. Liu Yao mil. ol. 329-yili lashkari bilan poytaxt Lo Yangni qurshab oldi. Shi Lo Liu Yao bilan jang qilmoqchi bo'ldi, ammo qo'l ostidagi qo'mondonlarining birontasi buni ma'qullamadi. Shi Lo rohib va folbin Fo Tu Tengga maslahat soldi. Fo Tu Teng doira shaklidagi bir qo'ng'iroqni chalib, undan chiqqan ovozga ko'ra, xo tilida yuqoridagi jumlaning bashorat qildi.

² Ramstedt *taliqang* so'zidagi *l* qadimgi turkiy tilda *sh ga* aylanib, *tashiqing* (chiqing) shakliga kelgan, deb izohlaydi.

puh-koh	taxt, hukm- dor taxti	puh-koh= bügü ¹	dono	ld-	yubormoq
ku-tu-tang	tutmoq, olmoq, ushlab olmoq	kü-	ta'kid yukla- masi	qang	buyruq mayli qo'shim- chasi
		tu-tang	tutmoq	bokuking	lashkarbo- shini
				tuk tang ²	tuting

Mazkur ko'hna turkiy tildagi jumla yuzasidan A. fon Gaben ham o'tgan asrning 50-yillarida o'z fikrlarini bayon qilgan. U dastlabki ikki belgini, boshqa turkologlardan farqli ravishda särig //çärig (qo'shin) deb o'qigan. Qolgan so'zlarning o'qilishida ham A. Gabenning o'qish tamoyillarida farq bor.

Xullas, ilk turkiy til oltoy bobo tilidan uzluksiz ravishda davom etib kelganini yuqoridagi xitoy manbalaridan keltirilgan so'zlar ham tasdiqlab turibdi. Ilk turkiy tilning tarqalish hududlari ham nihoyatda kengdir — Markaziy Osiyoning sharqiy qismi, Janubiy Sibir O'rta Osiyo va bugungi turkiy qavmlar istiqomat qiladigan hududlarda mazkur til amalda bo'lgan.

Shu o'rinda ilk turkiy til bilan aloqador deb hisoblanayotgan etrusk tili haqida. Etrusk tilini qadimiy va zamonaviy tillarga solishtirib, bu tilning ildizlarini ochishga urinishlar ko'p bo'lgan. Etrusk tili qaysi til guruhiga kirishi haqidagi masala nihoyasiga yetmagan. Buning sababi shuki, etrusk yozuvi deshifrovkasi ustida ish olib borgan mutaxassislar ko'p qiyinchiliklarga duch keladilar. Bu qiyinchiliklar asosan, quyidagilarda ko'rinadi:

1. Ko'pincha so'z qayerda boshlanib qayerda tugashini yozuv matnidan bilib bo'lmaydi. Bir necha harflar guruhini ko'rib turamiz, ammo bu harflar bir so'zmi yoki ikkita qisqa bo'g'inli so'zdan iboratmi yoki jumlam — bila olish qiyin. Bu jihatdan etrusk yozuvi ham turkiy-run yozuvlari xususiyatlariga o'xshaydi. Ammo turkiy-run yozuvidan farq qiladigan tomoni shuki, alifbo boshqa xalq yozuvidan o'zlashtirilgan va etrusk tili fonetikasi talablariga javob bermaydi. Etrusklar ba'zi tovushlarni ifodalash uchun goh bir harfni, goh boshqa harfni ishlataverganlar. Kotiblar yozuvni bir tizim holiga keltirishni

¹ *bügü* mo'g'ul tilidagi böge (shomon) so'zidir.

² *tuktang* so'zida metateza hodisasi yuz bergan bo'lib, asli *tutqang* dir.

o'ylamaganlar. Masalan, *p* tovushini ifodalash uchun ishlatilgan harf ayni paytda *b*, *bh* ni, *c* tovushini ifodalash uchun ishlatilgan harf *k*, *g*, *q*, *tz*, *tch* tovushlarini ham ifodalagan.

2. Etrusklar tarixiga oid ma'lumotlar, asosan, miloddan oldingi birinchi asrlarga mansubdir. Ular semit yozuvidan konsonant yozuv tizimini o'zlashtirganlar. Masalan, finikiy tilida *malkat* (malika) *mlkt* shaklida yozilgan. Ammo bu so'z *malkat* ekanini anglash kerak bo'lgan. Etrusk yozuvning bu xususiyatlari ham turkiy-run yozuviga o'xshaydi.

Etruskologiyani Yevropada fan sifatida o'rganish boshlanganda, asosiy masala — etrusklar va ularning tili qanday kelib chiqqan, degan masala edi. Milodiy 1 asrda yashagan imperator Klavdiy bu masalaga oid 20 jildlik kitob yozgan. Uning kitoblari Aleksandr kutubxonasidan joy olgan, ammo hammasi yonib tamom bo'lgan. O'sha davrdan etruskologiya sohasida tarixchi Dionisiyning etrusklar va etrusk tili haqida aytgan gaplaridan boshqa biron sahifa material saqlanib qolmagan. Uning kuzatishicha, etrusklarning tili, udumlari va odatlari biron xalqda takrorlanmas ekan.

XV asrdan boshlab etruskologiya fan sifatida shakllandi. Asosiy e'tibor etrusk tilining paydo bo'lishiga qaratildi. Etrusk tilining kelib chiqishini semit, kelt, slavyan, ugor-fin, arman, alban, shumer tillariga bog'ladilar. Ammo hamma izlanishlar hanuzgacha muvaffaqiyatli bo'lib chiqmadi. Hozirgi paytda etrusk tili miloddan oldingi ikkinchi ming yillikda Italiyada istiqomat qilgan xalqning tili bo'lgan edi, degan qarashlar hukmrondir. Etrusk tili morfologiyasini o'rgangan olimlar bu tildagi fe'l zamonlari, mayllari alban tiliga yaqinligini aytmoqdalar. Ammo mashhur etruskologlarning aytishlaricha, etrusk yozuvlarining deshifrovkasi ham, leksik tarkibi va morfologik tuzilishi, sintaktik qurilishini o'rganish masalasi hal bo'lmagan. Shu bois ilk turkiy til bilan etrusk tilini, etrusk yozuvlari bilan turkiy-run yozuvlarini qiyosiy aspektda o'rganish ularning qarindoshligi masalasini yo rad qilishi yoki tasdiqlashi mumkin.

Qadimgi turkiy adabiy til xususiyatlari

Qadimgi turkiy tilning adabiy til sifatida shakllanganini qadimgi turkiy yozma yodgorliklarning leksik qatlami ko'rsatib turadi. Qadimgi turkiy yodgorliklarni ilk bor tadqiq etgan V. V. Radlov yozuv xususiyatlariga, fonetik va morfologik xususiyatlarga asoslangan holda, bu davrda uchta dialekt qadimgi turkiy adabiy tilni shakllantirganini aytgan edi. Bu dialektlar quyidagilardir: 1) qadimgi shimoliy dialekt (turk—sir dialekti,

bu “oq turklar yoki gʻarbiy turklar” degan maʼnoni bildirib, hozirgi Oʻrta Osiyoda istiqomat qilgan turkiy qavmlarni bildiradi); 2) qadimgi janubiy dialekt (uygʻur tili); 3) aralash dialekt (buni “aralash til” deb ham aytish mumkin).

Qadimgi shimoliy dialekt (yaʼni turk–sir dialekti) Kul tigin, Bilga xoqon, Toʻnyuquq yodgorliklarida, Ungin, Xoyto Tamir va koʻplab Yenisey yodgorliklarida, Qorabalsagʻun yodgorligida, shuningdek, Sharqiy Turkiston yodgorliklarida, Turfondan topilgan qogʻoz parchalaridagi matnlarda kuzatiladi. Har bir dialektning fonetik, morfologik xususiyatlari mavjud va shu xususiyatlari orqali dialektal farqlar aniqlanadi. Masalan, shimoliy dialektning asosiy fonetik xususiyatlari quyidagilardan iborat: 1) anlautda: jarangsiz undoshlar *k, q, t, s, sh, ç*; ; jarangli lab undoshi *b*; sonor *n, m*; til oʻrta cirgʻaluvchi *j*; 2) inlautda: anlautda uchraydigan hamma undoshlar — *g, d, z* jaranglidir va h. Xullas, fonetik xususiyatlardagi oʻzgarishlar qaysi dialektga mansublikni koʻrsatib turadi. Shimoliy dialektning xususiyatlaridan yana biri kishilik olmoshlarida *m* ning *b* ga oʻzgarishidir: man — ban, ming — bing.

“Oltin yorugʻ”, turkiy tillarni davrlashtirish nazariyasiga koʻra, qadimgi turk davri (V–VIII asrlar)ga mansub. Shuningdek, yozma yodgorliklar tili, xususan, turk-uygʻur yozuvidagi yozma yodgorliklarning tili nuqtai nazaridan ham “Oltin yorugʻ” qadimgi turkiy yozma adabiy til shakllangan davrga aloqador. “Oltin yorugʻ”dan tashqari, turk-uygʻur yozuvidagi moniylik oqimiga oid qator yozma yodgorliklar, huquqqa oid hujjatlar, buddaviylikka mansub “Maytri smit” va boshqa janrlardagi yozma yodgorliklarning til xususiyatlari ham qadimgi turk davridagi yozma adabiy til xususiyatlarini oʻzida gavdalandiradi. Bu davrdagi adabiy til, xususan, turk-uygʻur yozuvini yaratgan qavmlar tili Qoraxoniylar davridagi (XI–XII asrlar) adabiy tilning shakllanishiga ham taʼsir koʻrsatdi.

Albatta, turkiy qavmlar oʻrnashgan hududlardagi qadimgi turkiy adabiy tilni bu davr uchun yagona til deb xulosa chiqarish bir yoqlamalikka olib kelishi, yaʼni VII–X asrlarda turkiy qavmlar yashagan hududda amal qilgan adabiy til oʻzgarmagan degan xulosaga olib kelishi mumkin edi. Mashhur turkolog Amir Najip “bir necha adabiy tillar” toʻgʻrisidagi qarashlarini ilgari surganda¹, haqli edi. Bir necha adabiy

¹ А. Н. Нажип. Исследования по истории тюркских языков XI–XIV вв. — М.: Главная редакция Восточной литературы, 1989, 3-бет.

tillarning shakllanishiga asosiy sabablardan biri — turkiy qavmlarning Markaziy Osiyodan tortib g'arbga tomon turli hududlarga qadimdan yoyilib ketganidir. Agar Oltoy davridagi turkiy tillarni adabiy tilning ibtidosi deb qaraydigan bo'lsak, "bir necha turli adabiy tillar" turkiy qavmlar hayotida faqat o'rta asrlarda emas, balki azaldan muhim rol o'ynaganini ko'rish mumkin. Bu tillarning eng qadimgi davrlardan amal qilganini fonetik qonuniyatlar va hodisalar ham ko'rsatadi. Jumladan, rotatsizm ($r - z$) va lambdaizm ($l - sh$) hodisasiga turkologlar alohida e'tibor qaratib, Oltoy davrining asosiy xususiyatlaridan biri sifatida e'tirof etadilar. Ammo bu qarashlarning aksi ham bor. Masalan, XX asr boshlarida venger olimi Z. Gombots z ni Oltoy davrida birlamchi, r ni esa keyingi hodisa, deb, sh — birlamchi, l esa ikkilamchi hodisa deb qaragan edi¹.

Biz bu o'rinda Oltoy nazariyasi to'g'risidagi qarashlarni tahlil qilmoqchi emasmiz, balki qadimgi turkiy adabiy tillarning shakllanishi to'g'risida to'xtalib, Oltoy davridan boshlab bir necha turkiy tillar amalda bo'lganini ko'rsatmoqchimiz, xolos. Albatta, qadimgi turkiy tillarga tarixiy nuqtai nazardan yondoshilsa, birinchi navbatda, ularning amal qilish doirasiga e'tibor qaratish kerak bo'ladi.

Qadimgi turkiy adabiy til Markaziy Osiyoning turli hududlarida amal qilish jarayonida mahalliy dialektlarning ta'siri ostida o'zgarishga uchrangani tabiiy hol. Shuning uchun ham ayrim turkologlar (masalan, Amir Najib) turli hududlardagi turkiy tillarga nisbatan "adabiy dialekt" terminini qo'llaganlar. U yoki bu guruhdagi yozma yodgorliklarga nisbatan "adabiy dialekt" "adabiy til" tushunchasi o'rnini bosadi². Bu qarash faqat o'rta asrlardagi yozma yodgorliklarga nisbatan emas, balki qadimgi turk davridagi yodgorliklarga nisbatan ham qo'llanishi mumkin. Masalan, urxun yodgorliklari tili bilan yenisey yodgorliklari tili o'rtasidagi (xususan, tovush tuzilishidagi), Urxun-Yenisey yodgorliklari bilan turkuyg'ur yozma yodgorliklari tili o'rtasidagi (tovush, morfologik tuzilishi, leksika) farqlar shunday fikrga undaydi. Bu farqlar tahlilida yozuv turlari va xususiyatlarini nazarda tutish lozim. Shubhasiz, bu dalillar bitta til emas, balki qadimgi turkiy tillar bo'lgani va Markaziy Osiyoning katta hududidan g'arbgacha yoyilganini dalillashga xizmat qiladi.

"Oltin yorug'" tilida VII–VIII asrdagi qadimgi turkiy til xususiyatlari

¹ Bu haqda qarang: Ж. Туймабаев. Становление и развитие алтайской теории и алтаистики. — Туркестан, 2006, 66–67-betlar.

² A. Najib. Yuqoridagi asar, 3-bet.

ham saqlangan. Bu xususiyat, avvalo, har ikkala guruhdagi yozma yodgorliklar tilining *d* guruh tillariga mansubligida ko‘rinadi. Masalan: *ädgü* (ezgu, yaxshi), *ädgüti* (yaxshilab), *qodup* (qo‘yib), *qodi* (quyi), *adaq* (oyoq), *qod-* (qo‘y-), *yadilmamish* (yoyilmagan) va h. Yoki Oltoy davridagi *r* dan *z* ga o‘tgan holat ham “Oltin yorug‘”da uchraydi: *közünti* (ko‘rindi), *közünür azun* (hozirgi olam), *közünür öd* (hozirgi zamon). Xullas, “Oltin yorug‘”ning qadimgi turkiy tillarga xos umumiy tovush xususiyatlariga va tovush o‘zgarish qonuniyatlariga to‘xtalmay¹, uning tili *d* guruh tillariga mansub ekanligini qayd etish bilan cheklanamiz. Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘atit-turk”ida turkiy qabilalar tilidagi tovush o‘zgarishlariga bog‘liq holda guruhlanish berilgan² bo‘lib, “bir necha turkiy adabiy til” tushunchasini asoslashda uning tasnifi ham muhim dalil bo‘lishi mumkin. Buning ustiga, V–VIII asrlardagi leksik qatlam, grammatik shakllar va unlilar tizimi ham “Oltin yorug‘”da davom etgan.

Barcha davrdagi adabiy til singari, IX–X asrlardagi turkiy til adabiy til mezonlari asosida shakllangan, buni yuqoridagi til xususiyatlari ham ko‘rsatadi. Adabiy til — tarixiy kategoriya, bu davrdagi adabiy til o‘zgarishsiz hamma davrda bitta vazifani bajara olmaydi, chunki “jamiyatning taraqqiyot darajasi, xalqning umumiy madaniy saviyasi, shuningdek, adabiy tilning shakllanish darajasi”³ birday bo‘lmagan. Adabiy tilning mazkur mezonlari bevosita qadimgi turkiy tillarga ham taalluqlidir. IX asrga kelganda ijtimoiy-madaniy hayot, qadimgi turkiy jamiyatdagi dunyoqarash VII–VIII asrdagiga nisbatan keskin o‘zgardi. Buning natijasida adabiy tilda ham keskin o‘zgarishlar yuz berdi. Bir so‘z bilan aytganda, “Oltun yorug‘” IX–X asrdagi turkiy adabiy tilning muhim xususiyati — polivalentlik, ya’ni shu davrdagi xalqning hamma ehtiyojlarini qondirishi bilan adabiy til vazifasini bajaradi. Bu davrdagi til orfoepik, orfografik, grammatik va lug‘aviy jihatdan ma’lum o‘lchovga ega.

Adabiy tilning amal qilish doirasi davrlar o‘tishi bilan o‘zgarmay qolmaydi. Faqat ijtimoiy-siyosiy, madaniy muhit sabab bo‘lib qolmay,

¹ Qadimgi turkiy tildagi boshqa fonetik o‘zgarishlar haqida qarang: Н. А. Баскаков. Введение в изучение тюркских языков. — М.: “Высшая школа”, 1969, 160-бет.

² Koshg‘ariy Mahmud. Devonu lug‘atit-turk. — Toshkent, I jild, O‘zbekiston Fanlar akademiyasi nashriyoti, 1960, 68-бет.

³ Лингвистический энциклопедический словарь. — М.: 1990, 270-бет.

etnik jarayonlar ham adabiy tilning o'zgarishiga sabab bo'ladi. Jumladan, IX–X asrdagi qadimgi turkiy adabiy til VII–VIII asrdagi turkiy tilning fonetik va morfologik mezonlari asosida shakllandi, ya'ni adabiy til taraqqiyotida uzluksizlik davom etdi. Tilning sintaktik qurilishi, turkiy tillarning lug'at tarkibidagi keskin o'zgarishlar "Oltin yorug'"ning IX–X asrdagi adabiy til namunasi sifatidagi vazifasini belgilab berdi. Bu vazifa — turkiy qavmlar orasida ma'lum aqida va g'oyalarni targ'ib qilishdan iborat bo'ldi. Ammo "Oltin yorug'"ning sintaktik qurilishidagi o'ziga xoslik — bir gap doirasida bir necha oborotlarning qo'llangani va qabilalar tillaridan bu davrdagi adabiy tilga ko'plab so'zlar kirib kelgani ikki davr tillari o'rtasida keskin farqlar borligini ko'rsatadi.

"Oltin yorug'" IX–X asrdagi qadimgi turkiy tilning alohida, o'ziga xos ko'rinishi bo'lib, Sharqiy Turkiston va uning atroflaridagi qavmlar uchun yozma adabiy til sifatida amal qila boshladi. Bu o'rinda Amir Najip turkiy adabiy tillarning mustaqilligi g'oyasi to'g'risidagi fikrni o'rtaga tashlaganda, u haq ekani ayon bo'ladi.

Yuqorida "Oltin yorug'" leksikasi bu hududdagi adabiy tilning asosiy belgilaridan biri ekanini aytdik. Leksik qatlamdagi o'zgarishlar shuni dalillaydiki, "Oltin yorug'" leksikasi o'g'uz, chigil, qipchoq lahjalari asosida shakllangan, bu qavmlar "Oltin yorug'" yaratilgan davrda Markaziy Osiyo hayotida katta rol o'ynagan edi. "Oltin yorug'"da chigil¹ lahjasiga oid so'zlar o'g'uz lahjasiga xos leksik qatlamdan miqdor bo'yicha

¹ Chigillar "Devonu lug'atit-turk"da muhim rol o'ynagani to'g'risida ma'lumotlar berilgan. Koshg'ariyning ko'rsatishicha, "chigil — uch xil turkiy qabilalar nomi: 1) Barsag'an quyisidagi Quyas shaharchasida yashovchi ko'chmanchilar; 2) Tiroz yaqinidagi shaharchada yashovchilar ham chigil deb ataladilar. Shunday atash asoslidir, chunki Zulqarnayn arg'ular shahriga yetganda, qattiq yomg'ir yog'ib, yerlar loy, botqoq bo'lib ketgan va Iskanday yurolmay qiynalgan. U xafa bo'lib, forsicha "in chi gil ast" — bu qanday loy, bundan qutulolmaymiz, deb g'azablangan. So'ng u yerda bir bino qurishga buyurdi, so'ng bu kunlarda chigil deb ataluvchi qo'rg'on barpo qildi. U yerda yashovchi turkiy qabilalar ham shu nom bilan (chigiliy) deb ataladilar. Shundan so'ng bu nom har yoqqa tarqaldi. O'g'uzlar shahri u yerga yopishgan edi va ular chigillar bilan har vaqt urishar edilar, hatto oralaridagi xusumat bugungacha saqlanib kelmoqda. O'g'uzlar chigillardek kiyinib, ularning urf-odatlarini qiluvchi turklarni ham chigil deb ataydilar, ya'ni ular Jayxundan yuqori Chingacha bo'lgan yerlarda yashovchi turkiy qabilalarning hammasini ham chigil deb ataydilar, bu xatodir; 3) Qashqarda bir qancha qishloqlarda yashovchi turkiy qabilalar ham chigil deb ataladi. Bular ham bir yerdan tarqalgandirlar" (Devonu lug'atit-turk, I jild, 374–bet)

keyin turadi: *adin* (boshqa), *azun* (dunyo), *yarliq* (yorliq, amr), *ong* (o'ng taraf), *qum* (qum), *tāgin*— (etish-), *ud* (sigir), *ulush* (qishloq) va hohazo. Shuningdek, qipchoq lahjasiga oid qatlam ham sezilarli darajada mavjud. Lahjaga oid leksik qatlamning mavjudligi og'zaki koynening ta'siri bilan belgilanadi. Koynе “qanday gapirish lozimligi to'g'risida yo'l-yo'riq beradigan mukammal mezon. U qonunlar to'plami yoki diniy aqidalar majmui singari mezon turi bo'lib, o'zicha o'zgarmaydi... Agar koyneda o'zgarish yuz beradigan bo'lsa, tashqaridan mezonga aloqasi bo'lmagan qandaydir kuch unga ta'sir etishi mumkin. Mezonda bu singari o'zgarishni keltirib chiqaradigan sabablar madaniyatning hamma sohalarida bir-biriga o'xshashdir... Qonunlar to'plami ham qanchalik mukammal ishlangan bo'lmasin, u har doim amalda qo'llangan paytda faoliyatda ma'lum erkinlikka yo'l qo'yadi”¹.

Qadimgi turkiy va mo'g'ul tillari munosabati

Qadimgi turkiy til to'g'risida so'z ketganda, albatta qadimgi mo'g'ul tili to'g'risida ham so'z yuritiladi. Rus va Yevropa turkologiyasida “turk-mo'g'ul” termini bir tushuncha sifatida ishlatiladi. Qadimgi turkiy tilning ibtidosi oltoy tillaridan, mo'g'ul tili esa o'z manbaini qadimgi turkiy tildan boshlaydi.

Oltoy tili turk-mo'g'ul va tungus-manchjur tillariga ajralgandan keyin, mo'g'ul tili qadimgi turkiy tilning bir tarmog'i sifatida shakllandi. Shuni ta'kidlash kerakki, mo'g'ul tili mustaqil til sifatida oltoy davrida boshqa oltoy tillaridan ajralib chiqmagan edi. Bu jarayonni deyarli barcha turkologlar e'tirof etadilar. Aslida mo'g'ul tilining shakllanishini qitaniylardan boshlash maqsadga muvofiqdir. Qitaniylar urxun yodnomalarida o'g'uz qavmlarining dushmani sifatida bir necha marta eslanadi. Qitaniylar musulmon manbalarida qora xitoylar deb ham yuritiladi.

Rashididdin Fazlulluoh Hamadoniy turkiy xalqlar qadimda dunyoning ko'p qismini egallagani to'g'risida yozganda, mo'g'ullar turkiylardan ajralib chiqqanini ko'rsatadi. Ammo mo'g'ullarning turkiylardan qachon ajralib chiqqanini aniq ko'rsatmasa ham, ularning tili va shevalarini shunday ifoda etadi: “Zamonlar o'tgan sari bu xalqlar (turklar va ulardan ajralgan mo'g'ullar — N. R.) ko'p urug'larga bo'linib

¹ Г. Пауль. Принципы истории языка. — М.: изд. “Иностранной литературы”, 1960, 474–475-бетлар.

ketdi, hamma davrda har bir urug'dan (yangi) urug'lar kelib chiqdi, har biri ma'lum sabablarga ko'ra o'z ismi va laqabiga ega bo'ldi... [Turklarning] tashqi qiyofasi, *tili va shevalari* (ta'kid bizniki — N. R.) bir-biriga yaqin bo'lsa ham, shunga muvofiq fe'l-atvoridagi farqlar, [ular egallagan] har bir viloyat iqlimining tabiiy xususiyatlari, har bir turkiy xalqning tashqi qiyofasi va tilida ma'lum darajada asosiy farqlar kuzatiladi. Shunga qaramay, oxirgi vaqtlargacha hech kim [turkiy xalqlarning] ko'plab shoxobchalari ro'yxatini yozma shaklda bir tizim holiga keltirmadi"¹.

Til va shevalardagi Rashiddin ko'rsatgan yaqinlik shu jihatdan ahamiyatli, ular mo'g'ul qavmlari tilining turkiy qavmlar tiliga yaqinligini ta'kidlamoqda. Mana shu dalilning o'ziyoq mo'g'ul tili qadimgi turkiy tilning bir dialekti bo'lganini tasdiqlaydi.

Turk-mo'g'ul tili miloddan oldingi V asrda Markaziy Osiyo qavmlari uchun yagona til edi. Ma'lum bir turkiy til bu davrdan boshlab turkiy qavmlar o'rtasida asosiy aloqa vositasi bo'lganligi to'g'risida ham fikrlar bor. Jumladan, V. V. Bartold chuvash tili yuzasidan olib borilgan tadqiqotlarga tayangan holda, "bu davrda (ya'ni mil. ol. V asrda — N. R.) turkiy guruhga mansub tillarning muhim belgilari hali shakllanmagan edi", deb aytadi. Bu fikri bilan V. Bartold turk-mo'g'ul tillarining umumiyligiga ishora qiladi. Shu xulosalariga tayanib, u chuvash tili Markaziy Osiyo sharqidagi ko'hna turkiylar tili bilan genetik tomondan bog'liq, deb ta'kidlaydi va bu qarashlarini venger tilidagi qadimgi turkiy til elementlari bilan chuvash tilidagi o'xshashliklarni qiyoslagan holda ilgari suradi². Ko'plab venger va nemis turkolog olimlari — K. Shiratori, B. Munkasi, A. fon Gaben, Yu. Nemet, L. Bazen kabilarning ishlarida chuvash va venger tillaridagi qadimgi turkiy til elementlari tadqiq etilgan³. Qolaversa, hozirgi har bir turkiy tilda shubhasiz, qadimgi turkiy til elementlari (leksikada, grammatik shakllarda, sintaktik qurilishda) bor. Masalan, hozirgi turk tilida sifatdosh (-mish, -duk, -dük) shakllarining qo'llanishi bunga bir misoldir. Ammo turkologlar venger va chuvash tillarini qadimgi turkiy tilga qiyoslaganlarining sababi — chuvash tilining boshqa turkiy tillarga qaraganda qadimiy, Markaziy Osiyoning sharqida keng hududda asosiy aloqa vositasi bo'lganini dalillash edi.

¹ Рашид-ад-дин. Сборник летописей. М. —Л.: 1952, 75-бет.

² В. В. Бартольд. Сочинения, т. V. — М.: 1968, 542-бет.

³ Bu olimlarning tadqiqotlari haqida qarang: H. Баскаков. Yuqoridagi asar, 154-бет.

Chuvash tilining, shu bilan birga yoqut tilining ham, geografik joylashuvi bu tillarni boshqa tillardan ajralgan, asl holatini saqlagan holda rivojlanishiga sabab bo'lgan. Yoqutlar uzoq shimolga ketib, turkiy qavmlar hayotidan uzilgan. Chuvash tili esa Itil (Volga) bo'ylarida saqlanib qoldi. Volga bo'ylariga O'rta Osiyodan turkiy qavmlar ko'chib o'tdi. Shuning uchun chuvash tili o'rta asrlarda hozirgiga nisbatan keng tarqalgan edi, deb aytish mumkin.

Chuvash tilining ilk o'rta asrlarda o'ziga xos til bo'lganini hamda keng hududga tarqalganini arab geograf va sayyohlari ham tasdiqlaydi. Ular Janubiy Rus yerlaridagi bajnoqlardan tortib Xitoy chegarasigacha bo'lgan hududlardagi turkiy qavmlar tillari o'rtasidagi o'xshashlikni aytadilar. Shu bilan birga, bulg'orlar (ya'ni chuvashlar — N. R.) va xazarlar boshqa turkiy qavmlarga notanish bo'lgan alohida tilda gaplashganlar, deb aytadilar. Xazarlarning geografik joylashuvini aytar ekanlar, Itil daryosining o'rta oqimida yashaganlar, deb ko'rsatadilar. Darvoqe, chuvashlar va xazarlar tilida Itil degan so'z "daryo" ma'nosini bildiradi. Ana shu Itil nomidan kelib chiqib, turkologlar, chuvash tilida xazarlar ham gaplashganlar, deb hisoblaydilar. Bugungi chuvash tili chuvashlar va xazarlardan qolgan tildir. Ayni paytda qadimgi turkiy tilning ko'hna turkiy til davridagi shaklini tasavvur qilishga, qadimgi turkiy tilning ko'hna turk davridan boshlab Markaziy Osiyoda o'ynagan rolini va imkoniyatlarini ko'rsatadigan til chuvash tilidir.

Demak, chuvashlar sharqiy ko'hna turkiylarning avlodi ekanini e'tiborga olsak, mo'g'ullar hali bu davrda mustaqil qavm sifatida shakllanmagani ma'lum bo'ladi. Shuningdek, mo'g'ul tili ham ilk o'rta asrlarda qadimgi turkiy tildan ajralib chiqmagan edi. Xususan, turk xoqonligining poytaxti Mo'g'uliston hududida bo'lgani, barcha mo'g'ul qabilalari ham turk xoqonligi hududida yashagani uchun mo'g'ul tili qadimgi turkiy til tarkibidan turk xoqonligi davrida ajralib chiqa boshlagan deb aytish mumkin.

Yana qadimda Mo'g'uliston hududida yashagan ba'zi qabilalar borki, ularning tili to'g'risida ham, kelib chiqishi to'g'risida ham turli fikrlar bor. Gap syanbiylar to'g'risida ketmoqda. Syanbiylar tarix sahnasida milodning I asrida paydo bo'lgan. Syanbiylarning tili ham, kelib chiqishi ham qadimgi turkiylardan, degan fikrlarga ko'pchilik turkologlar shubha bilan qarab kelganlar. Mashhur turkolog P. Peloning xabar berishicha, xitoycha adabiyotlar orasida syanbiycha-xitoycha lug'atlar saqlanar ekan. P. Pelo bu lug'atni o'rganish jarayonida syanbiy tili turkiy tillar oilasiga kiradi, degan xulosaga keldi. Shu bilan birga, P. Pelo xitoycha

adabiyotlarga asoslanib, urxun yodnomalarida eslangan qitaniy tili lug'ati borligini ham eslaydi. Bu lug'atlar shuni dalillaydiki, ilgari tungus xalqiga mansub deb qaralgan syanbiylarning, shuningdek, qitaniylarning tili ham hali milodning boshlarida mo'g'ul tili sifatida ajralib chiqmagan edi. Mo'g'ul tili leksik qatlami hali bu davrda yo'q edi. Mazkur lug'atlar mo'g'ullar turkiy qavmlardan ajralib chiqmasdan oldin yaratilgani uchun syanbiycha-xitoycha va qitaniycha-xitoycha lug'atga asoslangan holda har ikki qavm mo'g'ul tilida so'zlashgan degan fikr kelib chiqmaydi, balki qadimgi turkiy tilda so'zlashgani ayon bo'ladi.

Ma'lum bir tilning, jumladan, mo'g'ul tilining ko'hna turk davrida alohida til sifatida ajralib chiqqani to'g'risidagi qarashlarga shunday munosabat bildirish mumkin: ko'hna turk davriga yoki qadimgi turk davriga oid mo'g'ul tilidagi yozuv yodgorliklari topilsagina, bu tilning turk-mo'g'ul tillari guruhidan alohida til sifatida ajralib chiqqani to'g'risida so'z yuritish mumkin. Ammo mo'g'ullar qadimgi turkiy-run yozuvidan foydalanganlar. Turkiy qavmlardan ajralib chiqqanlaridan keyin ularning yozuvi bo'lmagan. Faqat Chingizxon O'rta Osiyoni ishg'ol qilgandan keyin mo'g'ul yozuvi eski turk-uyg'ur yozuvi asosida shakllandi. Ayni paytda mo'g'ul tilining o'ziga xos leksik qatlami ma'lum emas. Jonli tillardagi leksik qatlam esa turk-mo'g'ul tillarining barchasiga tegishlidir. P. Pelo aytgan lug'atlarning sanasi noma'lum, chamasi, turk xoqonligi davridan keyin mo'g'ul tili mustaqil til sifatida ajralib chiqqan davrga aloqador. Agar tarixga nazar tashlasak, Markaziy Osiyo va Janubiy Sibirdan o'g'uzlar O'rta Osiyoga ketgandan keyin mo'g'ul tilining ta'siri kuchaygan. Mo'g'ul tili grammatikasi qadimgi turkiy tilnikidan keskin farq qilmaydi. Qadimgi turkiy tildagi fe'l zamonlari ko'rsatkichlarini mo'g'ul tilidagi fe'lning zamon ko'rsatkichlari bilan solishtirishning o'ziyoq shundan dalolat beradi:

qadimgi turkiy tilda: -ir, -ar, -r — mo'g'ul tilida: -r

qadimgi turkiy tilda: -ib, -iban — mo'g'ul tilida: -ba.

Qadimgi turkiy til bilan mo'g'ul tilining leksik parallelligi ham shundan dalolat beradiki, mo'g'ul tilining VII–VIII asrdagi taraqqiyoti qadimgi turkiy til bilan bir bosqichda bo'lgan edi. Masalan, qadimgi turkiy tildagi adaq/ajaq (oyoq)va mo'g'ul tilidagi adaq (oxir) so'zlarining ma'no jihatidan yaqinligini qiyoslash kifoya: Törtünç çush bashinta süngüşhdümüz, türk bodun adaq qamhatdi (Ktu, 47) — To'rtinchi marta Chush boshida jang qildik, turk xalqi oyoqdan qoldi. Qadimgi turkiy tildagi yodgorliklarda adaq so'zining "oxir" ma'nosi keyinroq — XI asrdan keyin paydo bo'lganini dalillar tasdiqlaydi: adaq so'zining mo'g'ul

tilidagi “oxir” ma’nosi “O’g’uznoma”da uchraydi: *Muzday degan taghnung adaqiqa kaldı* — (U) Muzday degan tog’ning etagiga keldi.

Hozirgi qozoq tilida ham *adaq* so’zining mo’g’ul tilidagi “oxir” ma’nosi saqlangan.

Xullas, mo’g’ul tilini qadimgi turkiy tildan kelib chiqqan va qadimgi turkiy tilning xususiyatlarini o’zida saqlagan til sifatida qarash maqsadga muvofiqdir. Zotan, “qadimgi turkiy til mo’g’ul tiliga qaraganda taraqqiyotning ancha oldingi bosqichiga ko’tarilgan edi”¹. V. V. Bartoldning ana shu gapiyoq mo’g’ul tilining Turk xoqonligi davrida qadimgi turkiy tildan to’liq ajralib chiqmaganini ko’rsatadi. Qadimgi turkiy yodgorliklarda tilga olingan *otuz tatar, toquz tatar* qabilalari mo’g’ul qavmidan (V. Tomson) ekanini e’tiborga olsak, VII–VIII asrlarda mo’g’ullarning mavqei turk xoqonligida baland bo’lmagan. Bundan shunday xulosaga kelish mumkinki, mo’g’ul tili Markaziy Osiyoning sharqiy qismida katta hududga tarqala olmagan. Shu bilan birga, mo’g’ul tili XIII asrgacha yozuvsiz til bo’lgani uchun hali bir tizim holiga kelmagan til edi, deb qarash mumkin.

Bo’lim yuzasidan savol va topshiriqlar

1. *Qadimgi turkiy tilning qaysi manbalari mavjud?*
2. *Skif tilining so’z yasaliş modeli bilan qadimgi turkiy tilning so’z yasaliş modeliga misollar keltiring.*
3. *Qadimgi turkiy tilning asl manbalari to’g’risida qisqacha ma’lumot bering.*
4. *Qadimgi turkiy adabiy tilning taraqqiyotida rol o’ynagan omillar to’g’risida qisqacha so’zlab bering.*
5. *Koyne nima? Qadimgi turkiy tildagi koynega ta’rif berib, misollar keltiring.*
6. *Qadimgi turkiy tilni davrlashtirishni izohlab bering.*
7. *Oltoy davridagi turkiy tillar uchun umumiy xususiyatlarni tavsiflab bering.*
8. *Qadimgi turkiy adabiy til qaysi dialektlar asosida shakllangan?*
9. *“Oltin yorug’”ning qadimgi turkiy adabiy til taraqqiyotidagi o’rni to’g’risida so’zlab bering.*
10. *Qadimgi turkiy til bilan mo’g’ul tilining umumiy va juz’iy xususiyatlari to’g’risida qisqa so’zlab bering.*

¹ В. В. Бартольд. Том V, 578-бет.

IKKINCHI BO‘LIM

QADIMGI TURKIY YOZUVLAR

Tayanch tushunchalar: yozuv tarixi; yozuv, fonetik yozuv, yozuv va imlo; qadimgi turkiy yozuvlar: ko‘k turk, uyg‘ur, sug‘d, moniy, brahma, suryoniy, arab yozuvlari; turkiy yozma yodgorliklar; ko‘k turk, uyg‘ur, arab yozuvidagi turkiy yodgorliklar.

TURKIY-RUN YOZUVI

Qadimgi turkiy yozuvlarning kelib chiqishi to‘g‘risida so‘z yuritishdan oldin umuman yozuvlarning paydo bo‘lishi va taraqqiyoti to‘g‘risidagi umumiy jarayonga e‘tibor qaratamiz. Zotan, turkiy yozuvlar ham dunyo yozuvlari taraqqiyoti qonuniyatlaridan chetda emas.

Yozuvning dastlabki bosqichi sifatida rasmiy yozuv e‘tirof etiladi. Rasmiy yozuvga ibtidoiy san‘at asos bo‘lgan. Yozuvning bu turi faqat olamni anglash ifodasi sifatida emas, balki insoniyatning badiiy ehtiyojini qondirish uchun yoki sehr-jodu maqsadlarida qo‘llangan. Yozuvning bu turi qachon paydo bo‘lgani to‘g‘risida aniq dalillar yo‘q bo‘lsa-da, arxeologlar “ibtidoiy san‘atning ilk izlari sifatida so‘nggi tosh davriga mansub”ligini aytadilar. Neolit davrida esa ma‘lum darajada ishlangan alifbo paydo bo‘ldi.

Yozuv qanday paydo bo‘lgan, degan savolga olimlar turlicha javob beradilar. XX asrning birinchi yarmida yozuvning paydo bo‘lishi to‘g‘risida N. Y. Marr va I. I. Meshchaninov ilk bor o‘z qarashlarini ilgari surdilar. Ularning nazariyasi bo‘yicha, tilning ikki turi bo‘lgan: birinchisi — tovush tili, ikkinchisi yozuv tilidir. Ilk yozuv hatto tovush tilidan yoki boshqacha aytganda “imo-ishoralar” tilidan oldin paydo bo‘lgan. Ular yana shuni ta‘kidlaydilar, ilk yozuv magik (ya‘ni sehr-jodu) vazifani bajargan¹. Chex tilshunosi Ch. Loukotka ham bu fikrni qo‘llab-quvvatlaydi². Shuningdek, g‘arb tilshunosligida ham N. Y. Marr bilan I. I. Meshchaninovlarnikiga yaqin fikrlar paydo bo‘ldi. Jumladan, G. Malleri Amerika hindulari tilida ko‘pgina belgilar imo-ishoralar tilidan kelib chiqqanini isbotladi. Shu tariqa yozuv “tushuncha — so‘z — yozuv belgisi” ko‘rinishidagi yangi qo‘shimcha aloqalarni yaratadi.

Chjon Chjen-Min ham jamiki xitoy ierogliflari imo-ishoralar tilidan kelib chiqqanini dalillashga urindi. Shuningdek, ieroglifik yozuvning

¹ Bu haqda qarang: В. А. Истрин. Развитие письма. — М.: 1961, 43-бет.

² Ч. Лоукотка. Развитие письма. — М.: 1950, 24-бет.

dastlabki namunalaridan bo'lgan xitoy yozuvida bitta element bilan yozilgan xat uchramaydi. Xitoy yozuvidagi hozirda mavjud bo'lgan belgilar rasmiy yozuv bilan baravar ravishda paydo bo'lgan. Shuning uchun xitoy yozuvidagi hamma hieroglifik belgilarni imo-ishoralarga bog'lash uchun asos yo'q. Bunga qo'shimcha dalil sifatida Misr va shumer yozuvlarini keltirish mumkin. Bu har ikki yozuvdagi belgilarga imo-ishoralar aslo ta'sir etmagani o'z isbotini topgan. Bu yozuvlarda buyumlar tasviri asosiy o'rin egallaydi. Dastlabki mukammal yozuvlar sifatida ana shu ikki ideografik yozuvni ko'rsatish mumkin. Bu yozuvlarning paydo bo'lishi to'g'risida ham g'arbda turli qarashlar bor. Jumladan, Misr yozuviga Mesopotamiya, ya'ni shumer yozuvi ta'sir etgan degan qarashlar mavjud. Ammo ko'pchilik olimlar, Misr yozuvi mustaqil ravishda rivojlangan, deb qaraydilar.

Misr yozuvidagi belgilarning eng diqqatga sazovor tomoni, yuqorida aytib o'tganimizdek, buyumlar tasviri asosiy o'rin egallaydi. Yozuvdagi ana shu rasmlar o'ninchi ming yillikdan — yozuv paydo bo'lgan davrdan boshlab milodiy III—IV asrgacha davom etib kelgan *monumental yozuv*da saqlangan. Kundalik turmushda qo'llana borgan sari, shuningdek, kitobchilikda belgilar tez yozilishi natijasida ilk davrdagi rasmiy alomatlarini yo'qotgan va harfli yozuvga yaqinlashgan. Rasmiy monumental yozuv va kursiv yozuv hozirgi yozuvimizdagi bosma va qo'lyozma shakllarga o'xshab ketadi. Misr yozuvi belgilari miqdori taxminan besh yuzta atrofida bo'lgan.

Qadimgi yunonlar Misr yozuvini muqaddas deb qaraganlar. Jumladan, Gerodot (mil. ol. V asr) Misr yozuvi belgilarini “muqaddas belgilar” deb ta'riflagan edi.

Misr yozuvi ikki usulda — gorizontal holda o'ngdan chapga yoki vertikal holatda yuqoridan pastga, ustunlar ham o'ngdan chapga qarata yozilgan.

Shumer mixxatlari Evfrat va Tigr daryolari oralig'ida miloddan oldingi to'rtinchi-uchinchi ming yilliklarda paydo bo'ldi. Bu yozuv turi Misr yozuvidan shakl tomondan farq qilishi bilan birga, yozuv bitilgan materillarda ham farq bo'lgan edi. Misr yozuvi papiiruslarga, shumer mixxatlari esa loy “taxtacha”larga bitilgan. Mixxatlar, shumerlardan tashqari, Urartuda (Armanistonda, mil. ol. I ming yillikda), xetlarda (mil. ol. II ming yillikda Kichik Osiyoda), akkadlarda va boshqa bir qator xalqlarda ishlatilgan. Mixxatlar Sharqda keng hududga tarqalgani uchun bu yozuv turini “Qadimgi Sharqning lotin yozuvi” deb ham ataydilar.

Keyingi yillarda shunday fikrlar paydo bo'ldiki, yozuvning ilk shakllari

biz so‘nggi paleolit davriga oid deb qarayotgan belgilar o‘z shaklini tabiatdan, tabiatda paydo bo‘lgan jonzotlardan, samoviy jismlardan olgan, shuningdek, ko‘p belgilar ham imo-ishoralar tilidan kelib chiqqan ekan. Yozuvning bu bosqichi formulasi quyidagicha: belgi+nom+belgining talqini+so‘z-tushuncha¹. Bu ham yozuvning paydo bo‘lishi va taraqqiyotidagi muhim g‘oya bo‘la oladi.

Umuman, yozuvning ma‘lum belgilari paydo bo‘lishining biron sababi bor, sababsiz belgilar paydo bo‘la olmaydi. Yozuvlarning kelib chiqishini bitta manbaga bog‘lab bo‘lmaydi. Ayrim olimlar aytganlariday, rasm—rusmlar, “shomonlar”ning xatti-harakatlari ham ayrim belgilarning paydo bo‘lishiga sabab bo‘lgani ehtimoldan xoli emas. Har bir xalqning yozuvi paydo bo‘lish sabablarini, avvalo, ichki omillardan, keyin tashqi omillardan qidirish maqsadga muvofiqdir.

Turkiy-run yozuvining topilish tarixi

Turkiy-run yozuvlari ham yuqorida biz qisqacha tavsif etgan Sharq yozuvlarining tarixiy yo‘lini bosib o‘tgan. Turkiy-run yozuvlari ilk bor topilgan paytdanoq bular yuzasidan ilk munozaralar boshlangan edi.

1721-yili D. Messershimdt boshchiligidagi ekspeditsiya Xakasiyaga — qadimdan sivilizatsiyalashgan yurtga keldi. Shundan boshlab dunyo ilmiy jamoatchiligiga “jumboqli yozuv” to‘g‘risidagi xabar tarqaldi. Messershimtdan so‘ng G. I. Spasskiy Oltoyda (1818-y.), G. N. Potanin Tuvadan (1879-y.) run yozuvlarini topdilar. Turkiy-run yozuvlari dastlab topilgan va hali hech kim o‘qiy olmagan paytda Germaniyaning qadimiy yozuvlariga tashqi tomondan o‘xshash bo‘lgani uchun, bu yozuvlar run (sirli) yozuvlari deb nom olgan edi. Ammo qadimgi turkiy yozuvning run yozuvlari bilan qarindoshligi tasdiqlanmadi, nom esa saqlanib qolaverdi. 1889-yili N. M. Yadrinsev Mo‘g‘ulistondan Kultiginga bag‘ishlangan yodgorlikni topdi. Kultigin bitigtoshining tepasida bitilgan xitoycha yozuvdan ma‘lum bo‘ldiki, bitigtosh Turk xoqonligining lashkarboshisi Kul tiginga bag‘ishlangan ekan. Kul tigin to‘g‘risida Tan yilnomalarida ma‘lumotlar berilgan va bu yilnomalar sharqshunoslarga yaxshi tanish edi. N. M. Yadrinsev topilmasidan keyin *urxun yozuvi* termini paydo bo‘ldi. Bitigtoshlar Urxun daryosiga yaqin joydan topilgan uchun shu nom berildi. I. R. Aspelin 1889-yili *Inscription de l’Ienisse* (1889-y.) albomini nashr ettirgandan keyin *yenisey yozuvi* degan termin

¹ Олжас Сулейменов. Язык письма. — Алматы—Рим, 1998, 40—41-betlar.

paydo bo'ldi. U *Inscription de l' Orkhon* (1892-y.) albomini chop ettirgach, urxun yozuvlariga e'tibor kuchaydi va Osiyo run yozuvlari umumlashtirilib, *urxun-yenisey yozuvi* degan bitta nom bilan ataladigan bo'ldi. Yozuvga nisbatan geografik terminning qo'llanganiga sabab shuki, toshga o'yib yozilgan mazkur matnlar qaysi xalq tomonidan qaysi tilda yaratilganini bir necha avlod aniqlay olmay keldi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, yaqin yuz yetmish yil davomida dunyoning ko'p arxeologlari, tilshunoslari, tarixchi olimlari bu yozuvning "run" (sirli) emasligi borasida ko'p mehnat qildilar. D. G. Messersmidt dunyoga yenisey yozuvlarini kashf qildi, N. M. Yadrinsev run yozuvlari deshifrovkasi uchun sharoit yaratib berdi, V. Tomson yozuv belgilari va tilini aniqladi, V. V. Radlov matn mazmunini tushuntirib berdi, S. Y. Malov runologiya sohasida filologlar maktabiga asos soldi va h. XVIII asrda D. Messersmidt uchta yenisey yodgorligini aniqlagan bo'lsa, XX asr oxiriga kelib yenisey yozuvidagi Janubiy Sibir yodgorliklari miqdori uch yuztadan ortdi va har yili arxeologlarning mehnatlari tufayli yangi yozuv yodgorliklari qo'lga kiritilmoqda. Turkiy qavmlar yashagan o'lkalarda turkiy-run yozuvining yangi namunalari topilmoqda.

O'rta Osiyodagi turkiy-run yozuvlari topilishining o'ziga xos tarixi bor. Bu yozuvlar Turkistonda, garchi o'tgan asrning o'rtalarida topilgan bo'lsa ham, mazkur yodgorliklarni o'rganish XIX asrning oxirida shu o'lkada boshlangan edi. O'sha paytda Turkistonda havaskor arxeologlar to'garagi tashkil bo'ldi. Avliyootadan topilgan birinchi qadimgi turkiy yozuvdagi bitigtosh ana shu to'garak a'zolari tomonidan o'rganilgan edi. Bu to'garakning faoliyati ancha samarali bo'lganini qayd etish darkor.

1925-yil 23-sentabrda "Правда Востока" gazetasida "Eski yodgorliklar bor edi" nomli maqola e'lon qilindi. Maqola muallifi mazkur gazetaning tahririyati edi. Maqolada O'rta Osiyo madaniy yodgorliklarini saqlash komitetining ekspeditsiya natijalari e'lon qilindi. Maqolada arxitektor M. M. Loginov va professor Denike Avliyootadan topilgan yodgorlik to'g'risida batafsil ma'lumot berdilar. Bu yodgorlik aslida Avliyoota uyezdi boshlig'i V. A. Kallaur tomonidan topilgan edi. O'zbekiston matbuotining o'sha davrda mazkur qadimiy yodgorliklarga murojaat etgani va munosabat bildirgani muhim voqea edi.

1932-yili Talas vodiysining Aleksandr tog' tizmalari yon bag'ridan — Achchiqtoshdan bir taxtacha topildi. Bu taxtachani M. Y. Masson topdi. Taxtachaning to'rtala tomoniga ham o'tkir asbob bilan ingichka qilib yozuv bitilgan ekan. Taxtacha archa yog'ochidan qilingan. Bu

taxtacha hozirda Rossiya Davlat Ermitajida saqlanadi.

XX asrning 30-yillari turkiy-run yozuvlari sohasida ancha samarali natijalar qo'lg'a kiritilgan davr bo'ldi. O'sh atroflarida M. Masson va S. Y. Malov olib borgan arxeologik qazuvlar ko'pgina turkiy-run yozuvlarini jamoatchilikka ma'lum qildi. Bu qazuvlar natijasini, xususan, turkiy-run yozuvlarini S. Y. Malov bilan M. Masson Toshkentda bir kitobcha holda nashr etdilar.

Ayni paytda shu yillar akademik A. Freyman Mug' tog'idagi g'ordan so'g'd yozuvi bitilgan 23 taxtacha topdi. Albatta, O'rta Osiyo, xususan, O'zbekistondan turkiy-run va so'g'd yozuvi yodgorliklari topilgandan keyin, turkolog va sharqshunoslar bu yozuvlarga befarq qolmadilar.

Urxun-yenisey bitigtoshlarini nashrga tayyorlash ishlari XIX asr oxirlarida boshlangan edi. V. Tomson, V. Radlovning bu sohadagi xizmatlarini alohida ta'kidlash darkor. Bu yozuvning manbai to'g'risidagi fikr-mulohazalar XIX asr oxirida — Urxun bitigtoshlari ilk bor deshifrovka qilinayotganda boshlangan edi.

V. Tomson o'sha davridayoq turkiy-run yozuvlari o'rtasidagi farqlarga, xususan, Yenisey va Urxun daryolari bo'ylaridan topilgan yozuvlar alifbosidagi farqlarga e'tibor berdi. Hozirgi paytda turkologiyada turkiy-run yozuvlarining bir-biriga bog'liq bo'lmagan, mustaqil holda rivoj topgani to'g'risidagi qarashlarning zamini aslida V. Tomsonning nazariyasi asosida paydo bo'lgan, desak xato bo'lmaydi. Hozirgi paytga kelib turkiy-run alifbosining mustaqil rivojlangani to'g'risidagi qarashlar manbashunoslik oldiga jiddiy vazifalarni qo'ydi. Turkologiyada hukmron bo'lib kelgan turkiy-run yozuvlariga hududiy yondashuv o'z o'rnini alifbo xususiyatlariga tayangan holda tasnif qilish va turkiy-run yozuvlarini shu tamoyillar asosida o'rganishga bo'shatib berdi.

V. Tomson ham, V. Radlov ham yirik urxun bitigtoshlarini, xususan, Kul tigin, Bilga xoqon, To'nyuquq bitigtoshlarini nashrga tayyorlaganlarida, ancha mas'uliyat bilan yondashganlar. Ularning faoliyati turkologiyaning nafaqat Rossiyada, balki dunyo miqyosida mustahkam fan sifatida qaror topishiga zamin yaratdi. Ayniqsa, turkologiyada paleografiyaning yordamchi fan sifatida shakllanishiga urxun-yenisey yozuvlarining genezisi to'g'risidagi qarashlar turtki bo'lgan edi.

Keyinchalik turkologiyaning rivojiga S. Y. Malovning "Памятники древнетюркской письменности" (M.—Л.: 1951), "Енисейская письменность тюрков" (M.—Л.:1952), "Памятники древнетюркской письменности Монголии и Киргизии" (M.:—л.: 1959) kitoblari

katta hissa bo‘lib qo‘shilganini alohida takidlash darkor. S. Y. Malov bu kitoblarida faqat bitigtoshlarning deshifrovkasi va til xususiyatlariga e‘tibor berib qolmasdan, turkiy-run yozuvlari paleografiyasiga ham diqqat qaratdi. Uning nashrlari hanuzgacha o‘z qimmatini yo‘qotgani yo‘q.

Turkiy-run alifbosining ildizlari

Yevropada bu alifboning kelib chiqishi to‘g‘risida ilk bor fransuz turkologi O. Donner so‘z yuritgan edi. O. Donner urxun alifbosi bilan boshqa alifbolar, xususan, yenisey alifbosi o‘rtasidagi tashqi o‘xshashlik to‘g‘risida o‘z qarashlarini ilgari surib, yunon, Kichik Osiyo yozuvlari alifbosi o‘rtasidagi genetik aloqalarni aniqlashga harakat qildi.¹ Tomson esa O. Donnerning fikriga quyidagicha munosabat bildirgan edi: “Unutmaslik kerakki, yozuvlarimizning davri bilan o‘sha yozuvlarning davri orasida ming va undan ortiq yillar bor. Bu tur o‘xshashliklarning odatda somon olovi singari yaltiroq, ammo o‘tkinchi bo‘lganini ham qabul etmoq kerak. Bunday ishoratlar chinakam boshqa yo‘llar bilan aniqlangandan keyin boshqa alifbolar bilan qilinadigan qiyoslash yozuvning ildizini topish uchun asos bo‘la oladi. Buning ustiga, yenisey yozuvlarini hozircha bir chetga qo‘yib, avvalo faqat Urxun yozuvlari bilan mashg‘ul bo‘lish juda to‘g‘ridir. Zero, Yenisey yozuvlari alohida qiyinchiliklar paydo qilmoqda va ko‘p shubhalarga sabab bo‘lmoqdaki, bu yozuvga hozir to‘xaliganimizda ham aslo yechilmasligini e‘tirof etaman”².

Ba‘zilar turkiy-run alifbosi ildizini eski german-run yozuvlaridan qidirganlarida, bu yozuv Shimoliy Sibir orqali Yevropadan kelgan, degan fikrni bildirdilar. Ammo Yevropaning run yozuvlari bilan turkiy-run yozuvlari o‘rtasidagi bog‘lanishlar ham o‘z isbotini topmadi. V. Tomson esa turkiy-run yozuvining kelib chiqishini Eron imperiyasi hududida qo‘llangan oromiy alifbosi bilan bog‘laydi. Birinchi navbatda, turkiy-run yozuvining o‘ngdan chapga qarata yozilgani, ikkinchidan, harflarning shakliy o‘xshashligi va harflarning tovush ifodasidagi birlik ham shu fikrga asos bo‘lgan.³ V. Tomson turkiy-run yozuvining paydo bo‘lgan davrini VI asr o‘rtalariga olib kelib bog‘laydi. Albatta, V. Tomson bu

¹ O. Donner. Inskript. De l’Orkhon. S. XLIII.

² Vilh. Thomsen. Orhon ve Yenisey yazitlarining cozumü ilk bildiri. Ceviren Vedat Koken, Ankara, 1993, 5-b.

³ Vilh. Thomsen. Orhon ve Yenisey yazitlarining cozumü ilk bildiri..., 50–53-betlar.

fikrni XIX asr oxirida qo‘lga kiritilgan bir qism turkiy-run yozuvlariga va Markaziy Osiyo tarixi g‘ira-shira yoritilgan tarixiy asarlarga tayangan holda aytgan edi. XX asrda, ayniqsa, XX asrning ikkinchi yarmida turkologiyada erishilgan yutuqlar yangicha qarashlarni ilgari surdi. V. Tomsonning yenisey yozuviga nisbatan ilk qarashi, ya‘ni yenisey yozuvi oldin paydo bo‘lgan degan fikri XX asrda urxun va yenisey alifbosini mustaqil paydo bo‘lgan alifbolar sifatida qarashga asos bo‘ldi.

Yevropa run yozuvlari ham XVIII asrda kashf qilindi. 1799-yili Nad-Sent-Mikloshda “noma‘lum” yozuv belgilari o‘yib bitilgan idishlar xazinasi topildi. Shuningdek, yuz yildan keyin — 1899-yili Don daryosi bo‘yidagi Mayatsk shahridan toshlarga bitilgan yozuv topildi. Shu munosabat bilan Yevropa run yozuvlari alohida yo‘nalish sifatida e‘tirof etildi. Yuqorida aytilgan Achchiqtosh (Talas vodiysida) yozuvi ham shu yillari — 1896-yili topilgan edi.

Shunday qilib, Yevropa, Janubiy Sibir, Markaziy va O‘rta Osiyo hududlaridan topilgan “noma‘lum” yozuvlarga nisbatan “run” yozuvi degan termin qo‘llana boshlandi. XX asr davomida Vengriya, Bolgariya, Ruminiya, Rossiyaning Yevropa qismidan, Shimoliy Kavkazdan, O‘rta Osiyodan topilgan ko‘plab run yozuvlarini ham turkologlar urxun-yenisey yozuvi tizimida o‘qishga harakat qildilar. Bu o‘lkalardan topilgan run yozuvlarini turkiy yozuvi sifatida qarab talqin qilishga Nad-Sent-Mikloshdan topilgan turkiy-run yozuvi asos qilib olindi. Ammo yuqorida nomlari aytilgan mamlakatlardan topilgan run yozuvlari turkiy yozuv, ya‘ni urxun-yenisey yozuvi tizimidagi yozuv ekani to‘g‘risida bir qarorga kelish uchun hozir ishlar olib borilmoqda.

Turkiy-run yozuvlarini guruhlashda faqat hududiy chegaralashning o‘zi kifoya qilmaydi. XX asr so‘ngida olib borilgan paleografik tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, Yevroosiyo hududida mustaqil uch turdagi shartli ravishda runiy deb nomlanadigan alifbo mavjud bo‘lgan edi. Bular quyidagilardir: 1. Tis (Nad-Sent-Miklosh) yozuvi alifbosi. 2. Yevroosiyo guruhi (Don, Kuban, Achchiqtosh, Isfara, Janubiy Yenisey) alifbosi. 3. Osiyo guruhi alifbosi (enisey, urxun, talas alifbosi).

Har bir guruhdagi turkiy-run yozuvining alifbosida keskin farqlar bor. Yevroosiyo va Tis yozuvi alifbolari aniqlangan va deshifrovka qilingan deb bo‘lmaydi. Har ikki guruh yozuvi alifbosining shu paytgacha qilingan deshifrovkasiga oid urinishlar muvaffaqiyatsiz bo‘lgan edi. Shu bois har ikki guruhdagi yozuv alifbosiga yangicha tamoyillar orqali yondashuv kerak bo‘ladi. Bu tamoyillarni ishlab chiqish va turkiy-run yozuvlari ustida olib boriladigan tadqiqotlarga

tatbiq qilish uchun quyidagilarni bilish lozim:

Turkiy-run yozuvlari filologlarning ham, tarixchilarning ham o'rganish obyekti. Bu yozuvlar *epigrafikada* — tarix va filologiya o'rtasidagi alohida yordamchi fan sohasida o'rganiladi. Filolog mutaxassislar tadqiqot obyekti uchun epigrafika mutaxassisining natijalarini oladi.

XX asrning oxirlarida *turkiy runologiya* degan alohida soha paydo bo'ldi. Turkiy runologiya — faqat filologiya degani emas, balki alohida fan sohasi bo'lib, ko'proq epigrafikaga, qisman arxeografiyaga aloqador.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, runiy epigrafika — yordamchi fan sohasidir, deb e'tirof etishga to'g'ri keladi. Faqat runiy epigrafika tilshunoslar tadqiqoti uchun mustahkam zamin yaratib beradi. Shuning uchun qadimgi turkiy-run yozma yodgorliklari bilan shug'ullanadigan turkologlar epigrafikadan yaxshi xabardor bo'lishi lozim. Epigrafika bilan shug'ullanuvchi mutaxassisda arxeologga xos malaka, filologik bilim asoslari bo'lishi lozim. Bularsiz matnni o'qib tushunish, mahalliy tarixga oid tasavvurlarni aniq va batafsil sharhlash mumkin emas.

Turkiy runologiya bilan shug'ullanuvchi filolog, yuqoridagilardan tashqari, yozma yodgorliklar alifbosining paleografik jihatdan farqlarini ham bilishlari lozim. Biz bu sohani shartli ravishda *runiy paleografiya* deb ataymiz.

Paleografiya zamonlar o'tishi bilan harfiy belgilarning o'zgarishini o'rganish bilan shug'ullanib qolmaydi, balki yozuvning kelib chiqishini, yozuv tarkibining o'zgarishlarini aniqlash, yozuvning zamon va makonda tarqalishi, yozuv materiali va qurollarini, yozuv maktablari, umuman yozuv madaniyatiga oid barcha detallarni tadqiq etish bilan ham shug'ullanadi.

Yuqoridagi uchta guruhga mansub mustaqil turkiy-run alifbo to'g'risida so'z yuritildi. Paleografik tadqiqotlar tufayli yozuvning uchta mustaqil turi aniqlandi. Ammo Farg'ona vodiysidan topilgan turkiy-run yozuvlarining bir qismi Yevroosiyo turkiy-run yozuvi guruhiga kiritilgan (jumladan, Isfara yozuvi), bir qismi Osiyo guruhi turkiy-run yozuviga mansub (Quva yozuvlari). Ba'zi yozuv belgilari (masalan, Pop yozuvi)da Isfara yozuvining paleografik xususiyatlari bor. Shuning uchun O'zbekistondan topilgan turkiy-run yozuvlari alohida — to'rtinchi alifbodagi turkiy-run yozuvlari sifatida qarashni talab etadi. Yana bir diqqatga sazovor tomoni shundaki, Yevroosiyo va Osiyo guruhiga mansub turkiy-run alifbosining ildizlari aynan O'rta Osiyo hududidan boshlanganini ko'rsatadi. Agar turkiy-run yozuvining paleografik xususiyatlariga

e'tibor qaratsak, mazkur yozuvlarning qo'llanishida etnik jarayon asos bo'lgan ko'rinadi.

Runiy paleografiyaning o'rganish obyektlaridan yana biri yozuvning yo'nalishiga qat'iy rioya qilingani va yozma yodgorliklarda tamg'alarining qaysi o'rinda qo'llanganidir. Yenisey yozuv yodgorliklarida tamg'a — toshning quyisida, urxun yodgorliklarida — yuqorisida qo'yilgan. Yenisey yodgorliklarida qatorlar quyidan yuqoriga qarab yozilgan. Mana shu xususiyatlar Turk xoqonligida va undan keyingi qirg'iz (xakas) xoqonligida qoida tusini olgan. Yozma yodgorliklardagi mazkur qoidaga asoslanib, Osiyo va Yevropaning boshqa turkiy-run yozuvlarining qaysi hududda yaratilganini aniqlash mumkin. Shundan keyingina yozuvni deshifrovka qilishga kirishsa bo'ladi.

Ba'zi tamg'alar yozuvsiz, alohida ham qo'llangan. Masalan, Quvadan topilgan xumda tamg'aning o'zi bor, xolos¹.


Quyida har bir guruh yozuv alifbosini ko'rib chiqamiz. Turkiy-run yozuvlarining guruhlariga bo'linishi ular o'rtasida genetik aloqa yo'q degani emas. Turkiy-run yozuvi boshqa hududga ko'chib o'tgach, alifboda keskin o'zgarishlar paydo bo'lganini, bu o'zgarishlar ma'lum qavmlardagi madaniy sharoitlar hisobiga bo'lganini nazarda tutish kerak.

Tis (Nad-Sent-Miklosh) guruhi alifbosi

Tis degan nom Vengriyada yozuvlar topilgan joydagi daryoning nomidan olingan. 1799-yili Vengriyaning Torontal hududidagi Nad-Sent-Miklosh qishlog'idan 23 ta oltin xum topildi. Xumlarga yozuvlar bitilgan, naqshlar, ov sahnalari, afsonaviy hayvonlarning suratlari o'yilgan. Idishlardagi ba'zi yozuvlar tirnab bitilgan, ba'zilariga qattiq jism bilan o'yib bitilgan. Xumning naqshlaridan bu yozuvlarni ajratish qiyin. Oltin xumlardagi yozuvlarni Yozef Xaltel birin-ketin izchillikda tavsiflab bergan. Mazkur xazinani ko'p tadqiqotchilar Attila nomi bilan bog'laydilar. Xumga solingan chavandoz suratini ham Attila deb taxmin qiladilar.

Ayrim xumlarda yozuv yo'q, xumlarda tasvirlangan suratlari takrorlangan, xolos. Masalan, Yozef Xaltel birinchi raqamli deb belgilagan xumda yozuv bitilmagan. Qolganlarida yozuv bor. Nad-Sent-Miklosh yozuvining o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, yozuvdagi belgilar boshqa guruhdagi yozuvlarda ham bor. Quyida beshinchi xumdagi

¹ N. Rahmonov, B. Matboboev. O'zbekistonning ko'hna turkiy-run yozuvlari. — Toshkent, "Fan", 2006, 23-bet.



1-rasm. Nad-Sent-Mikloshdan topilgan xum.

yozuvga murojaat etaylik. Yozuv urxun yozuvlari singari an'anaviy tarzda o'ngdan chapga qarab o'qiladi. Mazkur yozuvning o'qilishi quyidagicha:

(A)g(i)n(i)nç (ä)s (i)l(i)gä — Hadya es(daligi) hukmdorga.

O'ng tomondan birinchi so'zdagi birinchi belgilar Don yozuvida uchraydi. Nad-Sent-Miklosh oltin xumlarining ba'zilariga yunoncha yozuv bitilgan.


Yana shuni ta'kidlash kerakki, garchi mazkur alifbo guruhi boshqa guruhdagi alifbodan farqlansa-da, ular o'rtasida ma'lum darajada qarindoshlik bor. Nad-Sent-Miklosh xazinasiga bitilgan turkiy-run yozuvi belgilari shundan dalolat beradi. Quyidagi suratda Nad-Sent-Miklosh va

Shimoliy Kavkaz yozuvlaridagi umumiy alifbo aks etgan.

Mazkur yozuv yodgorliklari VII–VIII asrlarga mansub. Nad-Sent-Miklosh yozuvini ba'zi turkologlar "bajnoq yozuvi" deb ham ataydilar. Nad-Sent-Miklosh yozuvlaridagi ba'zi alifbo belgilarini boshqa guruhdagi yozuv alifbosi bilan qiyoslanib o'rganish zarur.

Yevroosiyo guruhi alifbosi

Bu guruhga, birinchi navbatda, Don va Kuban alifbosi va bu alifboda bitilgan turkiy-run yozuvi yodgorliklari kiradi. Don va Kuban yozuvlari urxun-yenisey yozuvidagi 38 alifbo bilan qiyoslanganda, ularda ba'zi farqlar kuzatiladi. Ayni



a)

b)

№	D	K	Y	A	I	№	D	K	Y	A	I
1	∞	∞	∞	∞	∞	21	∞	∞	∞	∞	∞
2	∞	∞	∞	∞	∞	22	∞	∞	∞	∞	∞
3	∞	∞	∞	∞	∞	23	∞	∞	∞	∞	∞
4	∞	∞	∞	∞	∞	24	∞	∞	∞	∞	∞
5	∞	∞	∞	∞	∞	25	∞	∞	∞	∞	∞
6	∞	∞	∞	∞	∞	26	∞	∞	∞	∞	∞
7	∞	∞	∞	∞	∞	27	∞	∞	∞	∞	∞
8	∞	∞	∞	∞	∞	28	∞	∞	∞	∞	∞
9	∞	∞	∞	∞	∞	29	∞	∞	∞	∞	∞
10	∞	∞	∞	∞	∞	30	∞	∞	∞	∞	∞
11	∞	∞	∞	∞	∞	31	∞	∞	∞	∞	∞
12	∞	∞	∞	∞	∞	32	∞	∞	∞	∞	∞
13	∞	∞	∞	∞	∞	33	∞	∞	∞	∞	∞
14	∞	∞	∞	∞	∞	34	∞	∞	∞	∞	∞
15	∞	∞	∞	∞	∞	35	∞	∞	∞	∞	∞
16	∞	∞	∞	∞	∞	36	∞	∞	∞	∞	∞
17	∞	∞	∞	∞	∞	37	∞	∞	∞	∞	∞
18	∞	∞	∞	∞	∞	38	∞	∞	∞	∞	∞
19	∞	∞	∞	∞	∞	39	∞	∞	∞	∞	∞

d)

№	D	K	Y	A	I	№	D	K	Y	A	I
39	X	X	X	X	X	54			☺	☺	
40						55			☺	☺	
41						56			☺	☺	
42						57			☺	☺	
43						58			☺	☺	
44						59			☺	☺	
45						60			☺	☺	
46						61			☺	☺	
47						62			☺	☺	
48						63			☺	☺	
49						64			☺	☺	
50						65			☺	☺	
51						66			☺	☺	
52						67			☺	☺	
53						68			☺	☺	

2-rasm. Yevroosiyo guruhi alifbosining qiyosiy jadvali: don, kuban, yenisey, urxun, talas yozuvlari alifbosi (a, b, d).

paytda Don va Kuban yozuvlari ham solishtirilganda, bir-biridan farqli, mustaqil yozuv ekani ma'lum bo'ladi. Don va Kuban yozuvlarining paleografik xususiyatlari shuni ko'rsatadiki, ular VIII–IX asrlarga mansubdir. Bulardan tashqari, Janubiy Yevropa hududidagi Sarvash va Murfat degan joylardan topilgan yozuvlar ham shu guruhga kiradi.

Jadvaldan ko'rinib turibdiki (2-rasm), Don va Kuban yozuvlari bilan Urxun-Yenisey va Talas yozuvlari o'rtasida katta farqlar ko'zga tashlanadi. Shubhasiz, bu yozuvlar o'rtasida tarixiy-madaniy munosabatlar bo'lgan.

Yevroosiyo guruhiga kiruvchi turkiy-run yozuvlari orasida Achchiqtosh va Isfara yozuvlari ham alohida o'rin tutadi. Shuningdek, Qizilqumdagi To'zbuloq degan joydan topilgan yozuv ham alohida belgilari borligi bilan turkologlarning diqqatini jalb qilgan (3-rasm). Achchiqtosh yozuvini I. Kizlasov IX–X asrda yaratilgan, deb aytadi va ba'zi belgilarning yenisey yozuvlariga qarindoshligi bor, ya'ni manbai birdir, deydi. Ammo To'zbuloq yozuvining yaratilgan davri ham, o'qilishi ham hozirgacha noma'lum. Isfara yozuvining taqdiri (4,5-rasmlar) ham To'zbuloq yozuviniki singari noma'lumligicha qolmoqda.

XX asrning 80–90-yillarida Quva, Andijondan topilgan turkiy run yozuvlari turkologlar uchun yangi manbalar sifatida xizmat qiladi. Bu yozuvlarning o'ziga xos xususiyatlari Osiyo va Yevropaning boshqa




3-rasm. To'zbuloq yozuvi

hududlaridagi yozuvlardan, ayniqsa, Isfara yozuvlaridan, ayrim jihatlar bilan farq qiladi. Shu bois O'zbekiston hududidan topilgan turkiy-run yozuvlari alohida guruh sifatida qaralishi lozim.


Mazkur yozuvlarning taqdiri noma'lumligiga sabab, bir tomondan, yozuvdagi ayrim belgilarning an'anaviy urxun-yenisey yozuvidagi belgilar orasida uchramasligi bo'lsa, ikkinchi tomondan, noqardosh etnik guruhlarning, xususan, eroniyzabon aholining bu hududlarda yashagani sabab qilib ko'rsatiladi. Achchiqtoosh va Isfara yozuvlari tarqalgan hududlardagi turkiy tilli aholi, shubhasiz, eroniyzabon aholi bilan birga yonma-yon istiqomat qilgan edi. Ilk o'rta asrlardagi janubi-sharqiy Yevropa va O'rta Osiyoda kuzatilgan lisoniy muhit janubiy Sibir alifbosi tarqalgan hududda kuzatilmaydi¹.

Albatta, turkiy muhitda eroniyzabon aholining istiqomat qilgani to'g'risidagi qarashlar ilgaridan bor. Ammo



4-rasm. Isfara yozuvi.

¹ И. Л. Кизласов. Рунические письменности Евразийских степей. — М.:1994, 175-бет.



1.4

5-rasm. Isfara yozuvi

Achchiqtosh va Isfara yozuvlariga eroniy yozuvning ta'sir etgani to'g'risida shubha bildirish unchalik o'rinli emas. Bu yozuv namunalaridagi ayrim belgilarning paydo bo'lish sabablarini turkiy qavmlarning etnomadaniy muhitidan, jumladan, turkiy tamg'alardan qidirish maqsadga muvofiqdir. Ammo eroniy tildagi, jumladan, Turfondan topilgan ayrim o'rta asr

fors tilidagi matnlar urxun yozuvida ham bitilgan. Gap bu o'rinda matn to'g'risida ketmoqda. Turkiy-run alifbosiga boshqa tilli xalqning alifbosi ta'siri uzoq jarayon mahsulidir. Shuning uchun turkiy-run alifbosidagi noan'anaviy belgilarni mahalliy madaniyatdan izlash to'g'ri bo'ladi. Buning ustiga, turkiy-run yozuvi ham, boshqa xalqlarning qadimiy yozuvlari kabi, davlatning asosiy belgilaridan biri, mamlakat hududidagi turli etnik guruhlarni birlashtiruvchi omillardan biri bo'lgan edi. Tarixiy ma'lumotlar Achchiqtosh va Isfara yozuvlari topilgan hududlarda bir necha turkiy davlatlar hukmronlik qilganidan dalolat beradi. Yevroosiyo guruhi alifbosi aynan turkiy tildagi yozma nutqning ifodasi uchun ishlatilgani ma'lum. Turkiy til ham ilk o'rta asrlarda Don va Kuban havzasidagi, Sirdaryoning yuqori va quyi oqimida istiqomat qilgan xalqlarni, Talas

a)

№	Yevroosiyo					Osiyo		
	D	K	Y	A	I	Y	O'	T
1	△							
2	XX							
3	Y						Y	
4	Y							
5	Y							
6	Y							
7	Y							
8	Y							
9	Y							
10	Y							
11	Y							
12	Y							
13	Y							
14	Y							
15	Y							
16	Y							
17	Y							
18	Y							
19	Y							

6-rasm. Yevroosiyo va Osiyo guruhi alifbosining qiyosiy jadvali: don, kuban, janubiy yenisey, achchiqtosh, isfara, yenisey, urxun, talas yozuvlari alifbosi

b)

№	Yevroosiyo					Osiyo		
	D	K	Y	A	I	Y	O'	T
20	∩	∩	∩	∩				
21	∩	∩	∩	∩				
22	∩	∩	∩	∩				
23	∩	∩	∩	∩				
24	∩	∩	∩	∩				
25	∩	∩	∩	∩				∩
26	∩	∩	∩	∩				∩
27	∩	∩	∩	∩				∩
28	∩	∩	∩	∩				∩
29	∩	∩	∩	∩				∩
30	∩	∩	∩	∩				∩
31	∩	∩	∩	∩				∩
32	∩	∩	∩	∩				∩
33	∩	∩	∩	∩				∩
34	∩	∩	∩	∩				∩
35	∩	∩	∩	∩				∩
36	∩	∩	∩	∩				∩
37	∩	∩	∩	∩				∩

d)

№	Yevroosiyo					Osiyo		
	D	K	Y	A	I	Y	O'	T
30	∩	∩	∩	∩	∩	∩	∩	∩
31	∩	∩	∩	∩	∩	∩	∩	∩
32	∩	∩	∩	∩	∩	∩	∩	∩
33	∩	∩	∩	∩	∩	∩	∩	∩
34	∩	∩	∩	∩	∩	∩	∩	∩
35	∩	∩	∩	∩	∩	∩	∩	∩
36	∩	∩	∩	∩	∩	∩	∩	∩
37	∩	∩	∩	∩	∩	∩	∩	∩
38	∩	∩	∩	∩	∩	∩	∩	∩
39	∩	∩	∩	∩	∩	∩	∩	∩
40	∩	∩	∩	∩	∩	∩	∩	∩
41	∩	∩	∩	∩	∩	∩	∩	∩
42	∩	∩	∩	∩	∩	∩	∩	∩
43	∩	∩	∩	∩	∩	∩	∩	∩
44	∩	∩	∩	∩	∩	∩	∩	∩
45	∩	∩	∩	∩	∩	∩	∩	∩
46	∩	∩	∩	∩	∩	∩	∩	∩
47	∩	∩	∩	∩	∩	∩	∩	∩
48	∩	∩	∩	∩	∩	∩	∩	∩
49	∩	∩	∩	∩	∩	∩	∩	∩
50	∩	∩	∩	∩	∩	∩	∩	∩
51	∩	∩	∩	∩	∩	∩	∩	∩
52	∩	∩	∩	∩	∩	∩	∩	∩
53	∩	∩	∩	∩	∩	∩	∩	∩
54	∩	∩	∩	∩	∩	∩	∩	∩
55	∩	∩	∩	∩	∩	∩	∩	∩
56	∩	∩	∩	∩	∩	∩	∩	∩
57	∩	∩	∩	∩	∩	∩	∩	∩

e)

№	Yevroosiyo					Osiyo		
	D	K	Y	A	I	Y	O'	T
38						∩	∩	∩
39						∩	∩	∩
40						∩	∩	∩
41						∩	∩	∩
42						∩	∩	∩
43						∩	∩	∩
44						∩	∩	∩
45						∩	∩	∩
46						∩	∩	∩
47						∩	∩	∩
48						∩	∩	∩
49						∩	∩	∩
50						∩	∩	∩
51						∩	∩	∩
52						∩	∩	∩
53						∩	∩	∩
54						∩	∩	∩
55						∩	∩	∩
56						∩	∩	∩
57						∩	∩	∩
58						∩	∩	∩
59						∩	∩	∩
60						∩	∩	∩
61						∩	∩	∩
62						∩	∩	∩
63						∩	∩	∩
64						∩	∩	∩
65						∩	∩	∩
66						∩	∩	∩
67						∩	∩	∩
68						∩	∩	∩
69						∩	∩	∩
70						∩	∩	∩
71						∩	∩	∩
72						∩	∩	∩
73						∩	∩	∩
74						∩	∩	∩
75						∩	∩	∩
76						∩	∩	∩
77						∩	∩	∩

(umuman, hozirgi Qirg'iziston hududidagi) vodiysidagi aholini, Yenisey daryosining yuqori va quyi oqimidagi aholini birlashtirgani aniqlashtirildi. Bundan ma'lum bo'ladiki, alifbo bilan tovush o'rtasida fonetik moslik bo'lgan va alifbodagi har bir belgi turkiy nutqni ifodalash uchun xizmat qilgan.

Umuman, Yevroosiyo va Janubiy Sibir o'lkalaridan topilgan yozuvlarni o'zaro qiyoslash shuni ko'rsatadiki, ular o'rtasida yaqinlik bor. Bu yaqinlik turli hududdagi turkiy qavmlar yashagan o'lkalarda tilning umumiyliigi va turkiy nutqning yozuvdagi ifodasi bilan belgilanadi. O'rta Osiyo, xususan, O'zbekistondan topilgan yozuvlar alifbosi bilan boshqa hududlardagi

yozuvlar alifbosi oʻrtasida oʻxshashlik mavjud. Masalan, Sharqiy Yevropa yozuvlari alifbosi bilan Oʻrta Osiyo va Sibir alifbolari solishtirilganda, 41 alifbodan 31 tasi umumiydir.

Osiyo guruhi alifbosi

1895-yili akademik V.V. Radlov Osiyo run yozuvi yodgorliklarini tadqiq etganda, Osiyo yozuvi yodgorliklari ikki alifboda — yenisey va urxun alifbosida yaratilgan, degan xulosaga keldi. V. Tomsoning bu boradagi fikri V. Radlovniki bilan hamohang ekanini avval koʻrib oʻtganmiz. XX asrning 30-yillarida esa S. Y. Malov uchinchi yozuvni — Talas yozuvini qoʻshdi. Bu yozuv guruhlarini ajratishga sabab — bir yozuvdagi baʼzi harflarning ikkinchisida takrorlanmasligidir. Masalan, Talas yozuvidagi *K* ni ifodalovchi belgi, yenisey yozuvidagi *Ā* ni ifodalovchi belgi faqat shu yozuvlarning oʻziga tegishlidir.

Osiyo guruhiga kiruvchi urxun-yenisey yozuvi, asosan, VIII asrning birinchi yarmi — IX asrning boshlariga oid matnlardan iborat. Ayniqsa, uygʻur xoqonligi davrida yenisey yozuvlari faol qoʻllana boshladi. Uygʻurlar dastlab urxun yoki yenisey yozuvidan foydalanmaganlar, balki ularning “turk yozuvi” nomi bilan yuritilgan yozuvlari bor edi. Bu haqda Mahmud Koshgʻariy aytib oʻtgan. Qirgʻizlar (xakaslar) uygʻur xoqonligi davrida yenisey yozuvidan foydalanganlari toʻgʻrisida “Tan shu” (VIII asr) nomli Xitoy yilnomasida shunday maʼlumot bor: “ularning (yaʼni qirgʻizlarning — N. R.) yozuvi va tili xoynularniki (yaʼni uygʻurlarniki —N. R.) bilan oʻxshash”¹. Chamasi, uygʻurlar Tuvada oʻz hukmronligini oʻrnatganlaridan keyin — VIII asrning ikkinchi yarmida yenisey yozuvlari bilan tanishganlar va uygʻur xoqonligida bu yozuvning tarqalishi uchun taʼsir koʻrsatganlar. Shuning uchun ham Sharqiy Turkistondan topilgan turkiy-run yozuvlari asosan, VIII asrning ikkinchi yarmiga oiddir.

Yenisey yozuvidagi baʼzi harflarning paleografik belgilari (jumladan, anʼanaviy *Ā* tovushini ifodalovchi harf oʻrnida *E* tovushini ifodalovchi belgilarning qoʻllangani) shuni koʻrsatadiki, anʼanaviy belgilardan boshqa belgilar IX–XII asrlarda qoʻllangan. Qadimgi qirgʻiz (xakas) davlati qulagandan keyin yenisey yozuvlari barham topgan. Hozirgi paytda moʻgʻullar hukmronligi davriga — XIII asrning oxiri — XV asrning

¹ Н. Я. Бичурин. Собрание сведений о народах, обитавших в Средней Азии в древние времена. — М. —Л.: 1950, 353-бет.

boshlariga oid yenisey yozuvida bitilgan yodgorliklar borligi ham aniqlangan.

Talas yozuvi

Yenisey yozuvi Talas yozuviga kuchli ta'sir etgani ma'lum. Shu bilan birga, Yettisuv yozuvi yodgorliklarida maxsus (.....) belgilarning qo'llangani Talas alifbosining alohidaligini ko'rsatadi. Ayritomdan topilgan yozuv yodgorligi Yettisuv yodgorliklarini yana bir bor tasdiqlaydi. Yenisey yozuvlari bilan Talas yozuvlarini qiyosiy-tipologik o'rganish natijasida Talas yozuvining sanasini aniqlash mumkin. Janubiy Sibir yozuvida ham Talas yozuvidagi harflar uchraydi. Bu harflar VIII asrning ikkinchi yarmi — X asrga oiddir.


Runiy alifbo xususiyatlari

Har qanday yozuvning turg'un shakllari bo'ladi. Ana shu turg'unlik tufayli dastlabki harf asosida yozuv belgilarining umumiy nomi kelib chiqadi. Yunon yozuvidan paydo bo'lgan yozuv turlari — *alfavit*, arab yozuvi orqali *alifbo*, kirill yozuvi ta'siri bilan *azbuka*, german-run yozuvlari ta'siri orqali *futark* terminlari qo'llanadigan bo'ldi. Bu nomlarni yana davom ettirish mumkin. Bu nomlardan ko'rinadiki, alifbo azaldan ma'lum tizim va tartibga ega bo'lganini ko'rsatadi. Qadimgi turkiy-run yozuvi qanday atalgan, degan savol tug'ilishi tabiiy.

1905-yili nemis olimi A. fon Lekok Turfon havzasidan turkiy-run alifbosi jadvalini topdi va 1909-yili nashr qildirdi. Bu yodgorlik Tuyoq I deb nomlanadi. Shunga o'xshash alifbo jadvali 1908-yili yapon olimi Otani Syosin tomonidan ham topilgan. Bu jadval hozirda Kioto shahridagi Ryukok universitetida saqlanadi. Turk olimi Usmon Sartqoya har ikkalasini qiyoslab, turkiy-run alifbosi tartibini ishlab



7-rasm. Tuyoq yodgorligi



8-rasm. Otani Syosin
jadvali

chiqdi. Tuyoq I jadvalidan ko‘rinishicha, jadvalda urxun alifbosini moniy jamoasi a‘zolariga o‘rgatish nazarda tutilgan (7-rasm). Urxun alifbosi bilan parallel ravishda moniy yozuvi alifbosining berilgani fikrimizni tasdiqlaydi. Jadvaldan ma‘lum bo‘ladiki, XIII asrning ikkinchi yarmidan so‘ng urxun alifbosida 42 belgi bo‘lgan ekan. Avval aytganimizday, turkiy-run alifbosi ma‘lum hududning etnomadaniyati hisobiga to‘ldirilgan. Yuqoridagi alifbo tartibiga ko‘ra, urxun alifbosining tovush tartibi quyidagicha bo‘lgan:

№	T	P ₁	P ₂	P ₃	№	T	P ₁	P ₂	P ₃	№	T	P ₁	P ₂	P ₃	№	T	P ₁	P ₂	P ₃
1	≡				9	∩				17	∩				25	∩			
2	∩				10	∩ ∩ ∩				18	∩				26	∩			
3	∩ ∩ ∩				11	∩ ∩ ∩				19	∩ ∩				27	∩ ∩ ∩			
4	∩				12	∩ ∩ ∩				20	∩ ∩				37	∩ ∩ ∩			
5	∩ ∩ ∩				13	∩ ∩				21	∩ ∩				38	∩ ∩ ∩			
6	∩ ∩ ∩				14	∩ ∩				22	∩ ∩				39	∩ ∩ ∩			
7	∩ ∩ ∩				15	∩ ∩				23	∩ ∩				40	∩ ∩ ∩			
8	∩ ∩ ∩				16	∩ ∩				24	∩ ∩				41	∩ ∩ ∩			
															42	∩ ∩ ∩			

Yana bir statistik ma‘lumot: ayrim harflar VIII asrgacha iste‘moldan chiqib ketganini e‘tiborga olsak, jami 48 alifbo bor edi.

UYG'UR YOZUVI

Yozuvning atalish tarixi

Hozir «uyg'ur yozuvi» nomi bilan atalayotgan qadimgi turkiy alifbo yozma manbalarda bir qancha nom bilan yuritilgan. Mahmud Koshg'ariy o'zining «Devonu lug'atit-turk» asarida uni «turkcha yozuv» deb tilga oladi. Alisher Navoiy o'z maktublarining birida uni «turkcha xat» deb atagan. Manbalarda mazkur yozuv «uyg'ur xati», «mo'g'ul xati» deb ham yuritilgan. Chunonchi, XIII asrda yashab ijod etgan shoirlardan biri Puri Bahoi Jomiy o'z she'rilaridan birida uni «uyg'ur xati» (xatt-i uyg'uri:), mashhur tarixchi Ibn Arabshoh «Ajoibu-l-maqdur fi-navoibi Taymur» otli asarida «uyg'ur xati», «Fokihatu-l-xulafo» asarida esa «mo'g'ul xati» degan. Ushbu yozuv «Hibatu-l-haqoyiq»ning 1480-yili Istanbulda Abdulrazzoq baxshi ko'chirgan qo'lyozmasida «mo'g'ul xati» atalgan.

Hozirgacha yetib kelgan uyg'ur yozuvli yodgorliklarning eng eskilari islom davridan ancha burun yaratilgan. Ushbu obidalar o'sha davr turklari ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'rifiy hayotining barcha sohalarini qamraydi. Ular adabiy, diniy-falsafiy, tarixiy, ilmiy asarlar, huquqiy, rasmiy-diplomatik bitiglar (yorliq, tilxat, guvoohnoma va b.), xo'jalik ishlariga oid matnlar, qabrtoshlar, tashrifnoma va boshqa turdagi matnlardir. Mavjud yodgorliklar ichida, ayniqsa, moniylik, buddaviylik, nasroniylik muhitida yaratilgan diniy-falsafiy asarlar salmoqli o'ringa ega. Ularning ko'pi anatkak (sanskrit), to'xri (tohar), sug'd, tavg'ach (xitoy) tillaridan qadimgi turkiyga o'girilgan bo'lib, o'sha davr turk adabiyotida tarjimachilik yuqori bosqichga ko'tarilganidan dalolat beradi.

Uyg'ur xatining joriy davri uzoq yuzilliklarni qamraydi. Ayniqsa, uning turkiy xalqlar arab yozuvini qo'llay boshlaganlaridan keyin ham o'z mavqeini yo'qotmagani e'tiborga sazovor. Ma'lumki, X asrda qoraxoniylar davlatida islom rasman qabul qilindi. Ammo qo'shni idiqut davlati buddaviylikni yoqlab, sharqiy turklar orasida islomning yoyiluviga yo'l bermadi. Sharqiy turklar shu kezdan ikki dunyoga — «musulmonlar» va «musulmon bo'lmaganlar»ga bo'linib qoldi. Musulmon turklar ko'p o'tmay arab alifbosi asosida yangi yozuv yaratdilar. Natijada ular ikki — qadimdan davom etib kelayotgan turkiy-uyg'ur va islom ta'sirida qabul qilingan arab xatidan foydalana boshladilar. Uyg'ur yozuvi O'rta Osiyoda XV asrning oxirlariga qadar

arab xati bilan yonma-yon qoʻllanildi. Biroq, islom taʼsiridan yiroqdagi turk-buddistlar yozuv anʼanasini uzmay, XVIII asrda ham undan foydalanganlari maʼlum.

Muhimi shundaki, uygʻur xati oʻz tarixi davomida, hatto arab alifbosi bilan yonma-yon qoʻllangan chogʻlarda ham, turk davlat va saltanatlarining asosiy rasmiy yozuvi boʻlib keldi. Mahmud Koshgʻariy turklarning yozuvi haqida maʼlumot berar ekan, arab xatini emas, uygʻur xatini keltiradi. U yozadi: «Barcha xoqonlar va sultonlarning kitoblari, yozuvlari qadimgi zamonlardan shu kungacha Qashqardan Chingacha — hamma turk shaharlarida shu yozuv bilan yuritilgan» (MK, I, 50). Temuriylar zamonida yashab oʻtgan tarixchi Ibn Arabshoh ham ushbu yozuvning «chigʻatoyliklar»da shuhrat topganligini taʼkidlab, yozadi: «Ular («chigʻatoyliklar») oʻzlarining tilxat, maktub, farmon, xat, kitob, bitim, solnoma, sheʼr, qissa, hikoyat, hisob, xotira va devonga tegishli hamma ishlarini, chingizona tuzuklarini shu yozuvda yozadilar. Bu yozuvni yaxshi bilgan ularning orasida xor boʻlmaydi. Chunki bu ularda rizq ochqichidir».

Alifbo tizimi va imlo prinsiplari

Uygʻur alifbosida harflar oʻn sakkizta. Mahmud Koshgʻariy oʻzining «Devonu lugʻatit-turk» asarida uygʻur alifbosini keltiradi va har bir shakl ostida arab harflari bilan ularning maʼnosini ham beradi (MK, I, 47). Buni transkripsiyada koʻrsatadigan boʻlsak, oʻn sakkiz harfli mazkur alifbo tubandagi koʻrinishga ega boʻladi: a w x v z q y k ð m n s b ě r š t l.

Alifboda harflar soni oz boʻlishiga qaramay, uygʻur yozuvining imlo prinsiplari puxta ishlangan edi. Qator harflarga bir emas, bir qancha tovushni ifodalash vazifasi yuklatilgan. Ayniqsa, yozuvning keyingi bosqichida (XI–XV asrlarning yodgorliklarida) baʼzi tovushlarni farqlash maqsadida qoʻshimcha nuqta va ishoratlardan unumli foydalanilgan. Matnlarning imlo prinsiplari, ularda qoʻllanilgan qoʻshimcha ishoratlar yozuvning imkoniyatlari keng boʻlganligidan dalolat beradi. Shuning uchun ham uygʻur xati uzoq yuzyilliklar mobaynida turkiy tilning fonetik-orfoepik talablarini bimalol qondirib keldi.

Alifbo tarkibidagi harflarning koʻpvazifalilik xususiyati haqida Mahmud Koshgʻariy alohida toʻxtalgan edi. Uning taʼkidlashicha,

turkiy tildagi yetti tovush uygʻur yozuvida maxsus belgisiga ega emas. Bular: p, ž (sirgʻaluvchi), ğ, g, ŋ hamda arabcha j, f lardir. Ushbu tovushlar yuqorida koʻrsatilgan harflar bilan ifoda etilgan yoki ular singari ifodalanib, qoʻshimcha belgilar bilan farqlangan (MK, I, 48). Bundan yozuvda quyidagi tovushlar bir xil harflar orqali ifoda etilganligi ayon boʻladi: k-g, x-ğ, ğ-j-ž, w-f. Sonor ŋ esa yozuvda ikki harf (n+k) bilan berilgan.

Uygʻur alifbosi tugal bir tizimga ega. Alifbodagi harflarning oʻz oti ham bor. Ularning oti harf anglatgan tovushga «fatxa» qoʻshib hosil qilingan: a, wa, xa, va, za, qa, ya, kā, ḍa, ma, na, sa, ba, ča, ra, ša, ta, la. Yodlashni qulaylashtirish maqsadida alifbo harflarini tartib bilan uchta-uchtadan birlashtirilib, awaxa, vazaqa, yakāḍa, manasa, bačara, šatala tarzida oʻqilgan.

Uygʻur alifbosidagi harflardan uchta, oʻrni bilan, unilarni ifodalashga xizmat qilgan: <a> harfi [a]-[ā~e] unililarini, [y] undoshini ifodalovchi <ya> harfi [ī]-[i~e] ni, <va> harfi esa [u]-[ū]-[o]-[ō] unililarini anglatadi.

Yozuvda hatto old va orqa qator unililar ham farqlangan. Yozuvning bu xususiyati sugʻd xatini turkchallashtirish jarayonida vujudga kelgan edi. Chunonchi, sugʻdcha yozuvda choʻziq [a:] tovushi qisqa [a] dan qoʻshaloq alif orqali yozilishi bilan farqlangan. Turklar sugʻd xatini oʻzlashtirish chogʻida uning baʼzi prinsiplarini oʻz tillariga moslashtirib olganlar. Sugʻd xatida choʻziqlikni anglatuvchi grafik belgilar uygʻur yozuvida choʻziq-qisqalikni emas, turkiy til uchun muhimroq boʻlgan old va orqa qator unililarini farqlashga xizmat qila boshladi. Turfondan topilgan qadimgi budda, moniy matnlarida soʻz boshida qoʻshaloq <aa-> harfi orqa qator [a] ni, oddiy <a-> esa old qator [ā(~e)] unlisini ifodalagan. Keyinchalik orqa qator [a] tovushi uchun ham oddiy <a-> harfidan foydalaniladigan boʻldi. Soʻz boshi va birinchi boʻgʻinda old qator ingichka [ō]-[ū] unililarini ifodalash uchun ham qoʻshaloq belgidan foydalanilgan: «va» harfidan soʻng «ya» ulangan. Old qator lablangan unililar yozuvda shu usul bilan orqa qator [o]-[u] unililaridan farq qiladi.

Matnlarda choʻziqlikni ifodalash uchun baʼzan harflarni qoʻshaloq yozish hollari kuzatiladi. Masalan: oot — oʻt, olov, ööč — oʻch, qasos, uul — asos, yool — yoʻl, tūūš — tush.

Muhim xususiyatlardan yana biri shuki, uygʻur xatida unililar muntazam yoziladi. Mahmud Koshgʻariy yozuvning bu xususiyatiga

to'xtalib, talaffuzda o'rni yo'qligiga qaramay (bunda qisqa unlilar nazarda tutilmoqda — Q. S.) fatxa o'rnida «alif», zamma o'rnida «vav», kasma o'rnida «ya» yozish qoida ekanligini ta'kidlagan edi (MK, I, 49). U misol tariqasida ayrim so'zlarning uyg'ur va arab yozuvlarida yozilish tartibini ham bergan. Arab xatida — KeLiN, uyg'ur xatida — KELiN; arab xatida — TaPaN, uyg'ur xatida — TAPAN (tuya tovoni) (MK, I, 384).

Qadimgi turkiy tilning uyg'ur yozuvidagi yodgorliklari

Uyg'ur xatida yetib kelgan yozma merosning katta bir bo'lagini adabiy, diniy-falsafiy asarlar tashkil qiladi. Ularni yaratilgan davri, mazmuniga ko'ra quyidagi guruhlarga bo'lish mumkin:

1. Tangrichilik (ko'k tangri) diniy e'tiqodi davrida yaratilgan asarlar. Bunga uyg'ur yozuvida bitilgan “O'g'uzxoqon” dostonini misol keltirish mumkin. Asar qo'lyozmasi XIII–XIV asrlarda ko'chirilgan bo'lishiga qaramay, dostonning ildizlari turklarda tangrichilik diniy e'tiqodi amal qilgan davrlarga borib tutashadi.

2. Moniychilik davrida yaratilgan asarlar. Moniychilik davridan “Xuastuanift” tavbanomasi, she'riy asarlar va turli matnlarning parchalari saqlangan.

3. Buddaviylikka oid asarlar. Buddaviylik davridan nihoyatda ko'p asarlar qolgan. Ular diniy-falsafiy mazmundagi she'riy hamda nasriy yo'l bilan yozilgan yirik-yirik asarlardir.

4. Nasroniy mazmunli asarlar. Qadimgi turk muhitida nasroniylikning keng yoyilib ketmaganidan bo'lsa kerak, turkiy tildagi nasroniy mazmunli asarlar oz qolgan.

5. Islom davrida yaratilgan asarlar. Yusuf Xos Hojibning “Qutadg'u bilig”, Adib Ahmad Yugnakiyning “Hibatu-l-haqoyiq” asarlari, shuningdek, ta'lim-tarbiya, bilimning qadr-u qimmatini haqidagi she'riy parchalar islom davriga oid ilk yodgorliklardir.

Endi uyg'ur yozuvida bitilgan yodgorliklarning muhimlari xususida so'z yuritamiz.

“O'g'uzxoqon” dostoni. O'g'uzxoqon haqidagi rivoyatlar turkiy badiiy adabiyotning eng eski, shuning bilan birga, keng tarqalgan namunalari dandir. Rivoyatlarning eng eskisi uyg'ur xatida bitilgan bo'lib, turkshunoslikda “O'g'uzxoqon” dostoni yoki “O'g'uznoma” deb ataladi.

Ushbu dostonning ildizi miloddan burungi chog'larga tutashadi. Dostonda turkiy xalqlarning qadimgi inonch-qarashlari, turkiy qavmlarning kelib chiqish tarixi aks etgan. "O'g'uzxoqon" uzoq asrlar davomida sayqal topib, takomillashib kelgan xalq dostonidir.

"O'g'uzxoqon" dostonining qo'lyozmasi hozir Parijdagi Milliy kutubxonada (Suppl. turk, 1001) saqlanmoqda. Qo'lyozmada dostonning boshlanishi ham, yakuni ham yo'q. Matnning jami 42 sahifa (21 varaq). Har sahifada uyg'ur yozuvli matn 9 qatordan bitilgan bo'lib, jami 376 satrdir. Qo'lyozmaning bitilgan sanasi ma'lum emas. Xat uslubiga qaraganda, chamasi, XIII–XIV asrlarda ko'chirilgan ko'rinadi.

"Xuastuanift"ning qadimgi turkiy versiyasi. "Xuastuanift" moniylikning falsafiy-ta'limiy asaridir. Ilk o'rta asrlarda asarning o'rtanacha eroniy, sug'dcha, turkiy, xitoycha versiyalari keng tarqalgan edi. Tavbanomaning turkiy versiyasi turk moniy falsafasining, shuning bilan birga, qadimgi turkiy til va moniylik davri turk adabiyotining qimmatli obidasidir.

Asarning to'liq oti — N(i)go'saklarniŋ suy'in yazuq'in öküngü Huastuan(i)ft. Ushbu jumladagi n(i)go'sak — sug'dchadan o'zlashgan bo'lib, "tinglovchi" ma'nosini anglatadi, u moniy diniy jamoasida nisbatan quyi darajani bildirgan; suy yazuq — juft so'z, "gunohlar, yozuqlar" degan ma'noni bildiradi; öküngü esa hozirgi "o'kinuv, tavba qiluv" so'ziga teng. Shulardan kelib chiqib, asarning to'liq otidan "nig'o'shaklarning yozuqlarini o'kinuvchi "Xuastuanift" degan ma'no kelib chiqadi.

"Xuastuanift"ning turkiy tarjimalari uyg'ur va moniy yozuvlarida bitilgan. Qo'lyozmalari hozir Sankt-Peterburg, London va Berlin fondlarida saqlanmoqda.

1. "Xuastuanift"ning Sankt-Peterburgda saqlanayotgan nusxasi. Ushbu qo'lyozma Rossiya FA Sharqshunoslik institutining Sankt-Peterburg bo'limida saqlanmoqda. Asar uyg'ur xati bilan o'ram qog'ozga bitilgan. Matnning bosh qismi chirib, titilib ketgan. Saqlanib qolgani 160 satrdan iborat. Yozuv shakli, xat uslubiga ko'ra mazkur matnni uyg'ur yozuvli yodgorliklarning eng eskisi deyish mumkin.

2. Asarning Britaniya Muzeyida saqlanayotgan nusxasi. Ushbu qo'lyozma moniy xatida bo'lib, boshlanishi yo'q. Saqlangani 338 qatordan iborat.

3. Berlinda saqlanayotgan nusxalar. Mazkur nusxalar asardan qolgan uzindilar bo'lib, moniy hamda uyg'ur yozuvlarida. Chunonchi, Berlin

fondida saqlanayotgan TIIY60; TM343 raqamli uzindilar uyg'ur yozuvidadir.

“Xuastuanift”ning moniy xatidagina emas, uyg'ur xatida ham bitilganligi o'z davrida asarga e'tibor katta bo'lganidan, uning turk moniy jamoalarida keng yoyilganidan dalolat beradi.

Olimlarning fikricha, “Xuastuanift” boshlab qadimgi eroniy tillarning birida yaratilgan. Keyinchalik, moniy ta'limotini kengroq yoyish maqsadida, boshqa tillarga ham o'girilgan. Uning turkiy versiyasi, taxminan, VIII asrda yaratilgan. Asar tilining ko'k turk yodgorliklari tiliga juda yaqinligi, uyg'ur yozuvli nusxaning xat uslubi, shuningdek, asarning moniy yozuvida ham tarqalganligi ana shundan guvohlik bermoqda.

“Xuastuanift” o'n besh bo'limdan iborat. Bo'limlari bōlūg deyilgan. Har qaysi bo'lim o'zining tartib ko'rsatkichi bilan boshlanadi: ikinti, üçünç, törtünç, bişinç, altınç va b. Bo'limlar: T(ā)ḡrim amtī yazuqda boşunu ötünür-biz (Tangrim, endi gunohdan xalos etgin deya o'tinurmiz) yoki T(ā)ḡrim amtī ökünür-biz, yazuqda boşunu ötünür-biz (Tangrim, endi o'kinurmiz, gunohdan xalos etgin deya o'tinurmiz) jumalari bilan yakunlanadi. Shundan so'ng m(a)nastar hirza ~m(a)nastar qırza [moniy yozuvli nusxalarda: m(a)nastar hirza ~m(a)nastar hirz] duosi keladi. Ushbu duo formulasi o'rtancha eroniy tillardan o'zlashgan bo'lib, tangridan “Gunohimizni kechir!” [mna:sta:r hi:rz-a] deya qilingan iltijoni anglatadi. Ushbu duoni tarjima qilmay, o'ziday qo'llash moniychi turklarda rusum bo'lgan.

«**Maytri simit no'm bitig**». Bizgacha yetib kelgan turk budda diniy-falsafiy yodgorliklaridan biri «Maytri simit no'm bitig» (“Maytri bilan uchrashuv kitobi”) asaridir.

Asar asli sanskrit tilida yaratilgan. Buddha ta'limotining yirik bilimdonlaridan biri Aryachantri uni sanskritcha nusxadan tohar tiliga o'girgan. Toharcha nusxadan esa Partanarakshit Karnavajiki qadimgi turkiyga tarjima qilgan.

Hozirgi vaqtda “Maytri simit no'm bitig”ning toharcha va qadimgi turkiy tildagi versiyalari ma'lum. Tohar tilidagi ikki qo'lyozmasi Qorashahardan topilgan. Turkiy versiyalari esa uyg'ur xatida bo'lib, Turfondan topilgan. Ushbu yodgorliklar hozir Berlin va Urumchi qo'lyozma fondlarida saqlanmoqda.

“Maytri simit no'm bitig”ning Qumul yaqinidan topilgan qo'lyozmasi mavjud nusxalar orasida alohida o'rin tutadi. Uyg'ur yozuvli ushbu qo'lyozma hozir Urumchidagi tarix muzeyida

saqlanmoqda. Qo'lyozma ancha uringan, ayniqsa, so'nggi varaqlari titilib ketgan, parokanda. Shunga qaramay, qo'lyozmaning ahamiyati katta. Xati nafis, e'tibor bilan bitilgan kitob. Aftidan, katta bir amaldor buyurtmasiga ko'ra tayyorlangan ko'rinadi.

Asarning turkiy tilga tarjima qilingan vaqti noma'lum. Asarning til xususiyatlari, mavjud nusxalarning xat uslubiga ko'ra u taxminan VIII asrda turkiyga o'girilgan deyish mumkin.

"Oltun yorug". Turk-budda adabiyoti va falsafasining qimmatli asarlaridan yana biri "Oltun yorug" sutrasidir.

"Oltun yorug" buddizmning mahayana mazhabiga oid asar bo'lib, ilk o'rta asrlarda sanskrit, xitoy va qadimgi turkiy versiyalarda tarqalgan edi. Asarning sanskritcha oti "Suvarnaprabhasa", turkiy versiyasining to'liq oti "Altun önlüg yaruq yaltrıqlıg qopta kötrülmış nom iligi" ("Oltin tusli tovlanuvchi hammadan ustun no'm tojdori") dir. Matnda asar nom bitig, nom erdini, çin erdini, sutur, nom iligi sutur, sutur nom deb qayd etiladi. Bu atamalardan: nom bitig — "no'm kitob", nom erdini — "no'm javohir", çin erdini — "chin javohir", sutur — "sutra" degan ma'noni anglatadi.

Asar boshda anatkak (sanskrit) tilidan tabg'ach (xitoy) tiliga tarjima qilingan. So'ngra beshbaliqlik Shingqu Sheli tudung uni tabg'achchadan qadimgi turkiy til(turk uyg'ur tili)ga tarjima qilgan. Bu xususda oltinchi bo'lim to'rtinchi tegzinch yakunida: Bodisatv Gitsu Samtso atlig' açari ānātkāk tilintin tawğaç tilinçä ewrilmiş ... bişbaliqlıg Sınqu Seli tudun tawğaç tilintin türk uygur tilinçä ikiläyü ewirmış (budisatva Gitsu Samtso' ismli ustoz anatkak tilidan tavg'ach tiliga o'giran ... beshbaliqlik Singqu Seli tudung tavg'ach tilidan turk uyg'ur tiliga o'giran) jumlasini o'qiyimiz.

Säkiz uluğ orunlartaqı çaytilarnıñ ögdisi deb nomlangan bo'lim yakunida shunday qayd etiladi: Säkiz uluğ orunlartaqı çaytilarnıñ ögdisin men Amogaşiri açari ānātkāk tilintin türk uygur tilinçä täñri burxan toğmiş ud yilin törtünç ay tört yigirmikä ağdarıp öz iligin qoduru tegintim (Sakkiz qutlug' manzildagi ibodatxonalarining madhiyasini men Amogashiri ustoz anatkak tilidan turk uyg'ur tiliga tangri burxon (ya'ni Budda) tug'ilgan sigir yilining to'rtinchi oy o'n to'rtinchi kunida o'girib o'z qo'lim bilan tamomlab tugattim). Ushbu qayddan anglashiladiki, mazkur bo'limni Amogashiri degan kishi anatkak tilidan turk uyg'ur tiliga tarjima qilgan va uning tarjima varianti asar tarkibiga kiritilgan.

Asarning boshqalariga qaraganda to'liq qo'lyozmasini S. Y. Malov 1910-yili Sharqiy Turkistonga uyushtirilgan ilmiy ekspeditsiya chog'ida Gansu o'lkasidan topgan (mazkur qo'lyozma fanda vingshigu nusxasi deb yuritilmoqda). Keyinchalik bu yurtidan asarning boshqa uzindilari ham topildi.

Vingshigu nusxasi hozir Rossiya FA Sharqshunoslik institutining Sankt-Peterburg bo'limida saqlanmoqda. Qo'lyozma 1687-yili Dunxuanda ko'chirilgan.

“Oltun yorug'” o'n ikki bo'lim(böltüg)dan tuzilgan. Qism(tegzinç)lar boshida ularning sarlavhasi va tartib ko'rsatkichi qayd etiladi.

Qo'lyozma qadimgi hind potxi kitob usulida.

“**Syuan-szan kechmishi**”. Budda asarlaridan yana biri “Syuan-szan kechmishi” deb ataladi.

“Syuan-szan kechmishi”ning xitoycha va qadimgi turkiy versiyalari ma'lum. Turkiy versiyasi bundan ming yil muqaddam Quchu uyg'ur davlatida xitoy tilidan “Tsi-in-chun no'm bitig” nomi bilan tarjima qilingan. Asarning bittagina qo'lyozmasi qolgan, u uyg'ur xatidadir. Qo'lyozma hozir bo'laklarga bo'lingan holda Parij, Pekin, Sankt-Peterburgda saqlanmoqda. Aftidan, qo'lyozma kitob avval bir yerdan topilgan, keyinchalik har xil yo'llar bilan turli fondlarga borib tushgan.

“Syuan-szan kechmishi” tan sulolasi davrida o'tgan no'mchi sayyoh Syuan-szanning Budda yashagan o'lkalarga muqaddas safari xususidagi memuar bo'lib, o'zida o'nlab afsona va rivoyatlarni, budda falsafasi, qadimgi Sharq xalqlarining ijtimoiy-siyosiy, madaniy turmushiga, ular yashagan mamlakatlar geografiyasi, tarixiga oid ma'lumotlarni jamlagan. Asarning ikkala versiyasi ilk o'rta asrlarda budda olamida keng tarqalgan edi.

O'z zamonasining mashhur buddashunosi, no'mchi achari (ulug' ustoz) nomini olgan Syuan-szan (turkiy matnda Xuinso) budda yo'riqlari, qonun-qoidalari bitilgan no'm bitiglarni olib kelish istagida g'arbga — buddizm yurti Hindistonga safar qilgan sayyohlardan edi. U o'n yetti yil davomida (629-645-yillar) bir yuz yigirmadan ortiq mamlakat va o'lkalarda bo'ldi. Budda tug'ilgan tuproqqa borib, u yerdan olti yuz no'm bitig keltirdi. So'ngra tevaragiga budda sutra va shastarlarining bilimdonlarini yig'ib, asarlarni anatkak tilidan tag'achchaga tarjima qildilar.

Syuan-szan budda no'mlarining mag'zini tushunish va ularni sharhlashda zamon olimlaridan o'zib ketgan edi. Shuning uchun **budda**

ta'limotining bilimdoni, ulug' ustoz — samtso' achari otini olgan. U qutlug' safari chog'ida ko'rgan-kechirganlarini hikoya qiluvchi "G'arb mamlakatlari xotiralari" ("Kirügi ellär ödigi") otlı asar yozgan. Keyinchalik uning shogirdi Xuey-li (turkiy matnda Xuilip) ana shu esdaliklar asosida "Syuan-szan kechmishi" asarini yozdi. Biroq Xuey-li bu asarnı tugata olmadi. Uning o'limidan keyin ushbu asarnı Syuan-szanning boshqa bir shogirdi Yan-szun (matnda Xinsun) yozib tugatdi. Asarnı X asrda yashab o'tgan olim va tarjimon beshbaliqlik Shingqu Sheli tutung qadimgi turkiy tilga o'giran.

Matnda asarning to'liq oti "Bodisatv tayto Samtso ačarinıñ yoriğın uqıtmaq atlığ Tsi-in-čün tigmä kävi nom bitig" deb yozilgan. Bu yerda kävi — "epik" degan ma'noni anglatadi. Shunda u "Tan sulolasi davrida o'tgan bo'disatv Samtso' achari (ya'ni Syuan-szan)ning hayoti haqidagi Tsi-in-chun otlı epik no'm bitig" degan tushunchani beradi. Yana asar nom bitig deb qayd etilgan. Nom so'zi, odatda, qonun kitoblarini bildirgan. Bundan anglashiladiki, ushbu asar ham buddiylikning qonun kitoblaridan edi.

Qo'lyozma potxi kitob shaklida. U butunicha saqlanmagan. Varaqlarining ko'pi yo'qolgan, ayrimlari titilib, bo'laklarigina qolgan. Qo'lyozma ko'p varaqlanganidanmi, girdi uringan, ba'zi satrlarining yozuvini ham ilg'ab bo'lmaydi. Kitob to'liq bo'lmasa-da, saqlanib qolgan bo'laklari asosida asarning tuzilishi, mazmunini tiklashning bir qadar imkoni bor.

Qadimgi turk she'rlari. Eng eski turkiy yozma yodgorliklar orasida qadimgi turk-moniy hamda budda muhitida yaratilgan she'rlar muhim o'rin tutadi.

Moniylik davri turk adabiyotida ba'sık, küg, taq'sut, küg taq'sut kabi she'r turlari amal qilgan, budda adabiyotida esa qadimgi küg~kög, taq'sut~tağ'sut, qo'suq~qo'suğ, yir~ır bilan bir qatorda şlok (<skr. śloka), padak (<skr. padaka), kārānt (<skr. grantha) singari yangi turlar yuzaga keldi. Moniy she'riyatida Tong tangriga atalgan alqovlar, Moniyga bag'ishlovlar, o'lim va jahannamni tavsif etuvchi, hatto muhabbat mavzuidagi she'rlar bor. Turk-budda adabiyotida Buddha, Maytri, bo'disatvlarga madhiyalar, hikmatlar bitilgan, ezgulik, to'g'rilikning fazilati, xotima duolari she'rga solingan. She'rlarning ko'pi turk ijodkorlari tomonidan yaratilgan, ayrimlari boshqa tillardan qadimgi turkiy tilga tarjima qilingan.

Turk-moniy muhitida yashab ijod etganlardan Aprincho'r tigin,

budda adabiy muhitida ijod etgan shoirlardan Singqu Seli (Shingqu Sheli) tudung, Ki-Ki, Piratya Shiri, Asig' tutung, Chisuya tutung, Qalim Keyshi kabilarning oti ma'lum.

Qadimgi turk-moniy hamda budda adabiy muhitida yaratilgan she'riy asarlar hozirgi kezda Berlin fondidagi Turfon xarobalaridan topib keltirilgan matnlar orasida saqlanmoqda. Mazkur she'rlarni A. f. Lekok, V. Bang, R. R. Arat transkripsiyasi, tarjimasi va izohlari bilan nashr ettirganlar.

Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" dostoni. Balasag'unlik Yusuf Xos Hojib o'zining "Qutadg'u bilig" dostonini 1069-1070-yillar Koshg'arda yozib tugallagan.

Eski turkiy tilda qut — "qut, baxt", -ad — fe'l yasovchi, -ğu — sifatdosh qo'shimchasi, qutadğu — "qutlantiruvchi, qut beruvchi" degan mazmunda. Bilig — "bilim" degani, biroq muallif uni "kitob, bilimlar kitobi" ma'nosida qo'llagan. Qutadğu bilig — "Qut beruvchi bilim; qut beruvchi bilimlar kitobi" degan ma'noni anglatadi.

Asar 13 ming misradan ziyodroq bo'lib, masnaviyda bitilgan. "Qutadg'u bilig"ning uch yirik qo'lyozmasi ma'lum. Ularning biri uyg'ur, ikkisi arab yozuvida. Uyg'ur yozuvlisi fanda hirot (yoki vena) nusxasi, arab yozuvli qo'lyozmalardan biri namangan (yoki farg'ona), ikkinchisi qohira nusxasi deb yuritiladi.

Asarning uyg'ur yozuvli qo'lyozmasi hijriy 843, qo'y yili, muharram oyining to'rtinchi kuni (=1439-yilning 16 iyunida) Hirotida ko'chirib tugallangan. Bu xususda kitobning oxirida shunday yozilgan: Tug'andi Qutadğu (bilig) kitabi tarix sekiz qirq uch yilda qoy yil muharram ayni t'rti Haruda. Yoki boshqa bir yerda: Tarix sekiz yuz qirq uctä qoy yil axiri muharram ayni t'rt yan'isi Haru šahrinda bitildi.

Ushbu qo'lyozmani Hasan Qora Sayil Shams baxshi ko'chirgan. Qo'lyozma kitob hozir Vena Milliy kutubxonasida (A.F.13) saqlanmoqda.

Arab yozuvli qo'lyozmalardan biri Namangandan topilgan. Hozir Toshkentda O'zbekiston FA Sharqshunoslik institutida saqlanmoqda (1809 raqamli qo'lyozma). "Qutadg'u bilig"ning ushbu qo'lyozmasi boshqa nusxalarga qaraganda to'liq. Lekin asarning ayrim bo'limlari yo'q. Xususan, kitobning xotimasi tushib qolgan. Shuning uchun uning ko'chirilgan davri va kotibi ma'lum emas. Lekin xat uslubiga qarab, qo'lyozma, taxminan, XIII asrda ko'chirilgan deyish mumkin.

Arab yozuvli boshqa bir qo'lyozmasi Qohiradan topilgan. Hozir ham o'sha yerda saqlanmoqda. Qo'lyozma 392 betdan iborat bo'lib,

ora-chora uning varaqlari, hatto ayrim boblari ham tushib qolgan. Buning ham oxiri yo‘q. Xat turidan, chamasi, XIV asrda ko‘chirilgan ko‘rinadi.

Adib Ahmad Yugnakiyning “Hibatu-l-haqoyiq” dostoni. Adib Ahmad Yugnakiyning “Hibatu-l-haqoyiq” dostoni o‘tmishda uch xil atalgan. Asarning kunimizga qadar yetib kelgan A nusxasida uning oti «‘Atabatu-l-haqoyiq” (“Haqiqatlar eshigi, ostonasi”), B va C nusxalarida “Hibatu-l-haqoyiq” (“Haqiqatlar tortig‘i”), D nusxasida esa “Gayibatu-l-haqoyiq” (“Yashirin, g‘oyibiy haqiqatlar”) deb atalgan.

Dostonning uchta yirik qo‘lyozmasi ma‘lum (A, B, C nusxalar).

Asarning A nusxasini 1444-yili Samarqandda Zaynul Obidin baxshi ko‘chirgan. Asar uyg‘ur yozuvida bo‘lib, oradagi arabcha oyat, hadis, bayt va sarlavhalar arab xatida. Qo‘lyozma hozir Istanbuldagi Ayosofiya kutubxonasida (4012 raqami ostida) saqlanmoqda.

«Hibatu-l-haqoyiq»ning B nusxasi Istanbuldagi Ayosofiya kutubxonasida saqlanayotgan 4757 raqamli majmua tarkibidadir. Ushbu majmuani 1480-yili Istanbulda Shayxzoda Abdulrazzoq baxshi ko‘chirgan. Bu haqda qo‘lyozmaning 159-sahifasidagi ta‘rixda shunday qayd etiladi: Tarix sekiz yuz saksan dördtdä to‘nuz yilī zulqada ayīnī on yetisidā šamba kūni tamam boldī. Qutluğ bolsun, davlat kelsün, mehnat ketsün tep Shayxzada Abdulrazzaq baxšī Qustantaniyada bitidi.

Ushbu qo‘lyozmada matn uyg‘ur xatida yozilib, qatorma-qator arab yozuvi bilan izohlab chiqilgan.

Asarning C nusxasi Istanbul To‘pqopi saroy kutubxonasida saqlanayotgan bir majmua tarkibidadir. Majmuaning kotibi va ko‘chirilgan sanasi ma‘lum emas. “Hibatu-l-haqoyiq”ning ushbu nusxasi arab xatida bitilgan.

Ayrim asarlar orasida “Hibatu-l-haqoyiq”dan olingan uzindilar ham yetib kelgan (D, E, F, G nusxalar).

Bo‘lim yuzasidan savol va topshiriqlar

- 1. Turkiy-run yozuvi ilk bor topilgan paytda bu yozuvni turli tomondan o‘rganishga hissa qo‘shgan olimlarning xizmatlarini ayting.*
- 2. Turkiy-run alifbosining paydo bo‘lishi to‘g‘risida qisqacha so‘zlab bering.*
- 3. Uyg‘ur yozuvining nomlanishi tarixini qisqacha aytib bering.*
- 4. Uyg‘ur yozuvining imlo printsiplarini aytib bering.*
- 5. Uyg‘ur yozuvidagi yodgorliklarga qisqacha tavsif bering.*

UCHINCHI BO'LIM

QADIMGI TURKIY TILNING FONETIK XUSUSIYATLARI

Tayanch tushunchalar: fonema; unli tovushlar, orqa qator unlilari, old qator unlilari, lablanmagan va lablangan unlilar, turkiy singarmonizm; undosh tovushlar, tovush o'zgarishlari.

Unlilar tizimi

Qadimgi turkiy til tovush qurilishining muhim belgilaridan biri unda unlilar hosil bo'lish o'rniga ko'ra old va orqa qator unlilariga bo'linadi. Old qator unlilari "ingichka", orqa qator unlilari esa "yo'g'on" talaffuz qilinadi. Masalan, asig, adaq, bar-, qagan, yarliqa-, qara- so'zlaridagi [a] unlisi orqa qator, "yo'g'on" tovush sifatida talaffuz etiladi; ädgü, täjri, birlä, bilgä so'zlaridagi [ä] fonemasi esa old qator, "ingichka" tovush sifatida talaffuz qilinadi. Buni boshqa unlilar talaffuzida ham yaqqol kuzatish mumkin. Tovushlarning hosil bo'lish jarayonidagi ayni hodisa fonologik xarakterga, ya'ni ma'no farqlash xususiyatiga ega: at (ot, hayvon) — ät (et, go'sht); til (til, nutq) — til (nutq a'zosi); ot (olov) — öt (o't qopchasi), bol- (bo'lmoq) — böl- (bo'lmaq), tor (tuzoq) — tör (to'r, yuqori o'rin); uç- (uchmoq, o'lmoq) — üç (3, son). 4

Muhimi, so'zning fonetik-fonologik tabiati ana shu unlilarga moslashadi. So'zning birinchi bo'g'inida old qator unlilar kelsa, keyingi bo'g'inlarda ham old qator unlilar qatnashadi. Yoki, teskarisi, birinchi bo'g'inda orqa qator unlisi qatnashsa, keyingi bo'g'inlar unlisi ham orqa qator unlilari bo'ladi. Shundan kelib chiqib, so'zlar "yog'on" yoki "ingichka" talaffuz etiluvchilarga bo'linadi.

Yodgorliklarning yozuv va fonetik xususiyatlari qadimgi turkiy tilda sakkizta unli fonema amal qilganidan dalolat beradi. Bular: [a], [ä], [i], [i], [o], [ö], [u], [ü]. Bulardan:

- [a] — orqa qator, "yog'on", keng, lablanmagan unli;
- [ä] — old qator, "ingichka", keng, lablanmagan unli;
- [i] — orqa qator, "yog'on", tor, lablanmagan unli;
- [i] — old qator, "ingichka", tor, lablanmagan unli;
- [o] — orqa qator, "yog'on", keng, lablangan unli;
- [ö] — old qator, "ingichka", keng, lablangan unli;
- [u] — orqa qator, "yog'on", tor, lablangan unli;
- [ü] — old qator, "ingichka", tor, lablangan unli.

Qadimgi turkiy tilning unlilar tizimi tovushlar qatori, tor-kengligi, lablanish-lablanmasligiga ko'ra o'zaro qarama-qarshi juftliklarni yuzaga keltirgan: orqa qator "yog'on" [a], [i], [o], [u] unlilari old qator "ingichka" [ä], [i], [ö], [ü] unlilariga; keng [a], [ä], [o], [ö] unlilari tor [i], [i], [u], [ü] unlilariga; lablanmagan [a], [ä], [i], [i] unlilari lablangan [o], [ö], [u], [ü] unlilariga qarama-qarshi turadi.

[a] unlisi [ä] unlisiga qarama-qarshi turadi. [a] unlisi "yog'on" talaffuz qilinuvchi so'zlarda keladi: at — ot, aq — oq-, aš — osh, ovqat, azuq — oziq, adaq — oyoq, adg'ir — ayg'ir, qatun — xotun, malika, sariğ — sariq, yay — yoz, sayu — sari, qara — qora, ara — ora.

[ä] unlisi esa "ingichka" talaffuz qilinuvchi so'zlarda keladi: tilä — tila-, emgäk — zahmat, ertäki — burungi, eski.

[i] unlisi [i] unlisiga qarama-qarshi turadi. [i] unlisi "yog'on" talaffuz qilinuvchi so'zlarda keladi: it — it, iğaç — daraxt, biç — kes-, bich-, yış — o'rmonli tog', yilqı — yilqi, sıgta — yig'la-, qışla — qishla-, qızıl — qizil.

[i] unlisi esa "ingichka" talaffuz qilinuvchi so'zlarda keladi: iç — ich-, ilgärü — oldinga, bil — bil, tik — tik-, kir — kir-, tirig — tirik.

[o] unlisi [ö] unlisiga qarama-qarshi turadi. [o] unlisi "yog'on" talaffuz qilinuvchi so'zlarda keladi: ot — o't, olov, ton — kiyim, qoń — qo'y, yol — yo'l, bodun — xalq.

[ö] unlisi esa "ingichka" talaffuz qilinuvchi so'zlarda keladi: öz — o'z (olmosh), ög — ona, kök — osmon, törü — siyosat, bök — to'ymoq, köl — ko'l, böri — bo'ri.

[u] unlisi [ü] unlisiga qarama-qarshi turadi. [u] unlisi "yog'on" talaffuz qilinuvchi so'zlarda keladi: uç — uchmoq, o'lmoq, uçuz — arzon, qarzsiz, uya — in, uya; avlod, uluğ — ulug', buluğ — tomon, qul — qul.

[ü] unlisi esa "ingichka" talaffuz qilinuvchi so'zlarda keladi: küñ — joriya, tükäti — tugal, küç — kuch, küz — kuz, yüz — yuz, tüš — inmak, kü — ovoza, dovrug'.

Qadimgi turkiy bitiglar tilida so'zning boshi yoki birinchi bo'g'inida kelgan [ä] hozirgi o'zbek tilida yopiq [e] ga aylanadi. Masalan: ä|>el|>, käl|>kel, yär|>yer kabi. Lekin [e] tovushining qachondan paydo bo'lganligi xususida tugal bir xulosani aytish mushkul. Gap shundaki, eng eski davrlarga oid ko'k turk, uyg'ur yozuvidagi bitiglarining imlo xususiyatlari bu tovushning o'sha kezlardayoq shakllanganidan dalolat berib turadi. Qadimgi turkiy tilda yopiq [e] unlisi mustaqil fonema emas, balki [ä] ning fonetik varianti sifatida amal qilgan: [ä]~[e].

Hozirgi o'zbek tilidagi keng [ö] tovushining o'rnida qadimgi turkiy tilda orqa qator, "yog'on" [a] talaffuz qilingan: ağrıq, bala, bar, tağ kabi.

Muhimi, qadimgi turkiy imlodan ana shu unlilar tizimini matnda berish prinsiplari puxta ishlab chiqilgan edi. Bu borada ko'k turk, uyg'ur yozuvlarining ancha qulayligi bor. Turklar qadimgi yozuvlarni qo'llash jarayonida katta tajriba orttirgan edilar. Imlo an'analari keyinchalik ham davom etdi.

Arab alifbosi asosidagi turkiy yozuvda unlilarni ifodalash uchun alifbodagi uchta harf — «alif», «vav», «ya» hamda harakatlar, turli ishoratlardan foydalanilgan.

Turkiy tildagi unlilar imlosi xususida «Attuhfatu-z-zakiyatu fillug'atit turkiyya» asarining muallifi shunday yozadi: «Bilgilki, turk tilida shakl yo'q. Shakl yo'qligi uchun bir qancha aniqsizlik va xatolar paydo bo'lar edi. Shuning uchun ana shu aniqsizlikdan qutilish uchun ot, fe'l va hurufni yozishda maxsus shakl qo'llash usulini qabul qildilar. Ya'ni «fatha» o'rni «alif», «kasra» o'rni «ya», «zamma» o'rni «vav» qo'llay boshladilar» (Attuhfa, 10). «Turk tilida shakl yo'q» deyilganda turkiy imlodan unlilarni ifodalashga xizmat qiladigan harakatlar yo'qligi nazarda tutilmoqda. Ayni yo'l bilan imlodan unlilarni to'liq ifodalash usuli joriy etilgan.

Unlilar cho'ziqligi

Turkiy tillarda unlilar cho'ziqligi ikki xil ko'rinishda amal qiladi: “birlamchi” hamda “ikkilamchi” cho'ziqlik. “Ikkilamchi” cho'ziqlik keyingi hodisa bo'lib, tovush o'zgarishi, ko'proq, so'zdagi undoshning tushishi natijasida yuzaga keladi. Masalan: bigiz>biiz, shahar>shaar, o'g'ul>uul singari. “Ikkilamchi” cho'ziqlik shevalarda, og'zaki nutqda tez-tez kuzatiladi.

“Birlamchi” cho'ziqlik tovush o'zgarishi natijasida yuzaga kelgan emas, turkiy tillarda azaldan bor.

Turkshunoslikda ayrim turkiy tillarda amal qilayotgan “birlamchi” cho'ziq unlilar masalasi tugal yechimini topganicha yo'q. Muhimi shundaki, hozirgi turkman adabiy tilida, shuningdek, o'zbek xorazm shevalarining o'g'uz guruhlarida “birlamchi” etimologik cho'ziq unlilar hozir ham amal qilmoqda. Biroq, mazkur unlilarning yuzaga kelish tarixi, yozma yodgorliklar tilida tutgan o'rni xususida aniq-taniq xulosaga kelish mushkul.

Yozma yodgorliklar tilida “birlamchi” cho'ziqlik ora-chora uchray turadi. Buni matnlarda cho'ziq unlilarning maxsus ifoda etilganligida ham ko'rish mumkin. Chunonchi, uyg'ur xatida cho'ziqlikni ifodalash uchun ba'zan harflarni qo'shaloq yozish hollari kuzatiladi. Masalan:

yiil — yel, shamol, küü — dovrugʻ, ovoza, süü — lashkar, cherig, süülä — qoʻshin tort-, yüüz — 100, yuul — buloq, chashma, oot — oʻt, olov, yooğ — yuqori, choʻqqi, uul — asos, yool — yoʻl.

Arab yozuvli turkiy matnlarda [a] ning choʻziqligini ifodalash uchun qoʻshaloq “alif” harfidan foydalanilgan. Masalan, “Devonu lugʻatit-turk”da: a:č — och, suq, a:š — osh, ovqat, a:l — hiyla, a:w — ov.

Matnlarda lab unlilarining choʻziqligini ifodalashda qoʻshaloq “vav”dan foydalanilgan: ööl — hoʻl.

Maʼlumki, arab yozuvli turkiy matnlarda unlilar “alif”, “vav”, “ya” harflari yoki harakatlar bilan ifoda etilgan. Unlilarning “alif”, “vav”, “ya” harflari bilan yozilishini baʼzi olimlar choʻziqlikning ifodasi deb biladilar. Bu fikrga qoʻshilish qiyin. Mazkur imlo xususiyati faqat choʻziqlik bilan bogʻliq emas. Bunga turkiy yozuv anʼanasining davomi sifatida yondashilgani maʼqul. Sababi shundaki, uygʻur xatida unlilar, choʻziq-qisqaligidan qatʼi nazar, yozuvda mantazam tarzda ifoda etilavergan. Turklar arab xatini oʻzlashtirganlarida imlodagi ana shu prinsipni saqlab qoldilar. Shunga binoan, arab xati asosidagi turkiy yozuvda unlilar uchun “alif”, “vav”, “ya” harflaridan foydalaniladigan boʻldi.

Taʼkidlash kerakki, yozma yodgorliklar tilida “birlamchi” choʻziq unlilar fonema darajasida amal qilgani dargumon. Harqalay, ular oddiy unlilarning fonetik varianti sifatida qoʻllangan koʻrinadi.

Undoshlar tizimi

Urxun va yenisey bitiglarining yozuv, fonetik-fonologik xususiyatlari bitiglar tilida quyidagi undosh fonemalar amal qilganidan dalolat beradi: [b], [p], [d], [t], [q], [k], [ğ], [g], [z], [s], [č], [š], [y], [l], [m], [n], [ń], [ŋ], [r].

Qadimgi turk davridayoq sharqiy turk lahjalarida (qadimgi uygʻur va moniy yozuvli yodgorliklar tilida) [w] va [x] fonemalari amal qila boshlagan.

[v] fonemasini Mahmud Koshgʻariy ikki tovush sifatida talqin qilgan edi: [w] hamda [v]. U [w] ni “[b] bilan [f] maxrajleri orasidagi” tovush deb taʼriflaydi (MK, 1, 68). XI–XIII asrlarning arab yozuvli matnlarida ularning ikkovi mustaqil harflar bilan ifoda etilgan. Chunonchi, [w] tovushi «Devonu lugʻatit-turk»da keltirilgan turkiy misollarda, «Qutadgʻu bilig»ning arab yozuvli qoʻlyozmalarida (fe) harfi bilan berilgan.

Tub turkiy soʻzlarda [w] tovushi [v] ga qaraganda ustunlik qiladi. Masalan, QB da: küwänč, aw, suw, ew.

Mahmud Koshg'ariyning yozishicha, [v] bilan [w] dialektal xususiyatni farqlagan: [v] bilan so'zlash o'g'uz va ularga yaqin turuvchilarga, [w] bilan so'zlash esa boshqa turklarga xos bo'lgan. E'tiborni tortadigan yeri, devonda bir so'zning ikki xil varianti aralash qo'llanilgan: tavar (MK, I, 137) // tavar (MK, I, 237). Bir so'zning ikki xil talaffuz etilishi mumkinligini muallifning o'zi ham ta'kidlaydi: uvut // uwut (uyat), yalavač // yalawač (payg'ambar), yava // yawa (tursus mevasi) (MK, I, 111).

Ko'k turk alifbosida [w~v] fonemasi uchun maxsus harf yo'q. Muhimi shundaki, ko'k turk bitig'lari bilan deyarli oldinma-ketin yaratilgan uyg'ur yozuvli qadimgi turfon matnlarida bu tovush uchun alohida belgi bor. Arab yozuvli matnlarda [w~v] bilan kelgan so'zlar ko'k turk bitig'larida , <b'> harflari bilan yozilgan. Bu hodisa ko'k turk alifbosidagi , <b'> harflari, o'rni bilan, [w] tovushini ham ifoda etgan degan xulosaga olib keladi. Misollarga e'tibor bering: tabğaç (tawğaç) — tabg'ach, tabisğan (tawisğan) — tovushqon, sab (saw) — so'z, xabar, sub (suw) — suv.

Ko'k turk xatida <x> harfi yo'q. O'rni faqat <q> keladi: qatun, qağan, qan. Bu so'zlardagi [q] arab yozuvli matnlarda [x] ga o'zgaradi: xatun, xaqan, xan. Biroq, bu hodisani tamoman tovush o'zgarishiga yo'ymaslik kerak. Sababi, "Qutadg'u bilig" asarining tilida qadimgi [q] li varianti ustivor. Masalan: qalī (agar), qalīq (osmon), yaqšī va b. Keyinchalik bu so'zlardagi [q] tovushi [x] ga o'zgaragan: xalī, xalīq, yaxšī kabi.

XI–XIII asrlarning yozma yodgorliklarida turkiy so'zlarda so'z ichi va oxirida tishora [δ] undoshi ham uchraydi (buning uchun arab alifbosida alohida harf ham bor. Masalan, "Qutadg'u bilig"ning namangan nusxasida: eδgū — ezgu, boδun — xalq, qaδğu — qayg'u, qoδ— qo'y-(fe'l) va b.

Muhimi shundaki, ko'k turk va qadimgi uyg'ur alifbolarida tishora [ä] tovushi uchun alohida belgi yo'q. Arab yozuvli matnlardagi [ä] li so'zlar ko'k turk bitig'larida <d>, <d'> harflari bilan yozilgan. Ushbu so'zlardagi <d>, <d'> harflari [d] bilan bir qatorda tishora [δ] tovushini ham ifodalagan chiqar: edgū (eδgū), adīğ (aδīğ), quđī (quđī), qadğu (qaδğu).

Tishora [δ] undoshi jarangsiz [d] ga variant sifatida qo'llanilgan [d~δ].

Urxun bitig'larida hozirgidan farqli holda [ń] tovushi ham qo'llangan (yozuvda maxsus harf yoki ikki harf birikmasi — ҮН bilan ifoda etilgan).

Bu tovush quyidagi soʻzlarda keladi: Toʻnuquq, aʼnig, qon, cʼigan. Koʻk turk bitiglarida [n] bilan kelgan soʻzlar uygʻur yozuvli qadimgi turfon matnlarida yoki arab yozuvli yodgorliklarda [y] bilan keladi: ayig — yovuz, tuban, bemaʼni, qoy, cigay — “qashshoq, yoʻqsil”.

Qadimgi [n] ni Mahmud Koshgʻariy arab xatida <n> harfi bilan keltirgan. Uning yozishiga qaraganda, [y] li soʻzlarni [n] ga aylantirish dialektal xususiyatdir. Soʻz oʻrtasi va oxirida kelgan [y] ni argʻular [n] ga almashtirganlar: qoy — qon «qoʻy», cigay — cʼigan «kambagʻal», qayu — qanu «qaysi» (MK, I, 67). Bu misollarning bari koʻk turk bitiglaridagi [n] sonor [n] ga variant sifatida ([n~n]) qoʻllanganidan dalolat beradi.

[n] // [y] mosligi hozirgi oʻzbek tilida ham uchrab turadi: qanda~qayda. Yoki qadimgi [n] hozir qoʻllaydigan qani, qanča kabi soʻzlarimizda ham saqlanib qolgan.

Uygʻur yozuvli qadimgi turfon bitiglarida oʻzlashgan soʻzlarda sirgʻaluvchi [z] tovushi qoʻllanilgan: azun.

Sirgʻaluvchi [z] tovushi arab yozuvli turkiy matnlarda <z> harfining ustiga uch nuqta qoʻyib ifoda etilgan: azun — dunyo.

Eski turkiy til davridan boshlab arab, fors tilidan oʻzlashgan soʻzlarda [f], [h] fonemalari ham qoʻllana boshladi.

Arab alifbosida bitilgan turkiy matnlarda arab va fors tillaridan oʻzlashgan soʻzlarga nisbatan yozuv prinsipi amal qilgan. Bunday soʻzlar arabcha matnlarda qanday yozilsa, turkiy matnlarda ham oʻshanday yozilavergan. Lekin ulardagi arab tiligagina xos boʻlgan va arab tilidan oʻzlashgan soʻzlarda qoʻllanilgan sa:, ha:, da:t, za:, ‘ayn, ha tovushlari turkiy til talablariga boʻysungan holda talaffuz etilgan. Masalan: ‘adl — adl, ‘Ali — Ali, sana: — sano, hamd, masal — maqol.

Qadimgi turk davriga oid budda, moniy matnlarida sanskrit, sugʻd va boshqa qadimgi eroniy, tabgʻach (xitoy) tillaridan oʻzlashgan soʻzlar ham qoʻllanilgan. Muhimi shundaki, ushbu oʻzlashmalar turkiy tilning fonetik-fonologik qoidalariga, talaffuz oʻlchamlariga boʻysundirilgan. Masalan, moniychilar tavbanomasi “Xuastuanift”da asarning har qaysi boʻlimi m(a)nastar xirza ~ m(a)nastar qirza degan jumla bilan yakunlanadi. U “Yozugʻimizni kechirgaysan!” degan maʼnoni beradi. Bu diniy formula oʻrtancha eroniy tillarida «mnastar hirz-a» shaklida boʻlgan. Oʻzlashmalarning turkiy tilga mos holda qoʻllanilganligini boshqa shuning singari misollarda ham kuzatishimiz mumkin. Yana “Xuastuanift”dan misollar keltiramiz: p(a)duaxtag (<sugʻd. pɔwʼxtg) tangrining oti, Paduaxtag, vusanti (<sugʻd. βwsʼnty) roʻza, moniylikning

farzlaridan biri, xormuzta (<sug'd. xwrzmzt') — Xo'rmuzta tangri, xuastuan(i)vt (<sug'd. xw'stw'nft) — asarning nomi, barišti (<sug'd. bryšty) — farishta, burxan (<tavg'. fo, bvyr "budda") — burxon; tangrining elchisi, yalavoch, buši (<tavg'. buši, po-ši) hayr, sadaqa, ehson, čaydan (<er. jādū-dāna) — ibodatxona, č(a)xsap(a)t (anat. čiksapada) — din ko'rsatmalari; aqoid, dintar (<sug'd. δynd'r)-moniviyalar rohibi.

Tovush o'zgarishlari

So'z ichida unli'larning tushishi. So'zning qo'shimcha olishi natijasida oradagi unli tushirilishi mumkin: o'g'lan — o'g'illar <o'gul so'zidan; si'g'ta-yig'la— <si'git — yig'i; tegrā — tegra, atrof < tegir — o'girmoq; ilt~elt — olib bor— <ilit~elit-.

[b] // [m] hodisasi. Hozirgi o'zbek tilida [m] bilan keladigan so'zlar urxun bitiglarida [b] bilan kelgan. [b] bilan barobar, qadimgi turkiy tilning boshqa bir shevalarida [m] lashish ham amal qilgan. Ko'k turk bitiglaridagi [b] uyg'ur yozuvli budda, moniy yodgorliklarida [m] ga o'zgaradi: bāngū // māngū — mangu; buŋ // muŋ — mung; biŋ~biŋ // miŋ — ming; bān // mān — men; bin- //min— min-.

[d~ä] > [y] // [g] hodisasi. Qadimgi turkiy tilga [d] lashish xos; [y] yoki [g] lashish nisbatan oz uchraydi. Hozirgi o'zbek tilida [y] yoki [g] bilan keladigan so'zlar qadimgi yodgorliklarda [d] bilan aytilgan. XI—XII asrlarda [d] bilan yonma-yon uning [δ] varianti ham qo'llanilgan. Qadimgi [d] li so'zlar "chig'atoy turkiysi" davridan boshlab [y] yoki [g] ga o'zgara boshladi: qadimgi turk.: qadīn~qađīn — hozirgi o'zb.: qayīn; qadimgi turk.: kedim~keđim — hozirgi o'zb.: kiyim; qadimgi turk.: qodīr~qodī — hozirgi o'zb.: quyī; qadimgi turk.: adīg~adīg — hozirgi o'zb.: ayīq; qadimgi turk.: bedūg~beđūg — hozirgi o'zb.: bŷyŷk; qadimgi turk.: bod~bođ — hozirgi o'zb.: boy; qadimgi turk.: ud~uđ — hozirgi qirg'.: uy (sigir). Qiyoslang, eski o'zb.: uy yīlī — sigir yili.

Hozirgi o'zbek tili [y] lashgan til sanaladi, shunga qaramay, qadimgi [d] li shakli ham saqlanib qolgan. Masalan, MK da: quduđ~quđuđ — hozirgi turk.: quyu, o'zb.: quduq (lekin quđī emas, quyī). Yana qiyoslang, hozirgi o'zb.: idiš yoki idiš-ayaq.

[ń] > [y] hodisasi. Ushbu hodisaga ko'ra qadimgi turkiy yodgorliklarni ikki guruhga ajratish mumkin: ko'k turk yozuvidagi urxun bitiglarini tili [ń] lashish hodisasi amal qilgan. Urxun bitiglaridagi [ń] li so'zlar uyg'ur yozuvidagi moniy, budda matnlarida [y] ga o'zgaradi.

anıġ~anyıġ~anıġ > ayıġ — yovuz; ċıġań > ċıġay — qashshoq; qanıu > qayu — qaysi; qıtań > qıtay — xitoy; qoń~qoyn~qon > qoy — qo'y. So'z boshidagi [0] // [y] hodisasi.

ıġla- // yıġla- yig'la-; ır // yır — yir, qo'shiq; ig // yig — kasallik; inċkă // yinċkă — ingichka; irin // yirin — yiring; ir // yir — shimol (qutb).

So'z boshida unlidan oldin [h] yoki [x] ning orttirilishi. Mahmud Koshg'ariyning yozishicha, so'z boshida unlidan oldin [h] tovushi orttirib so'zlash xo'tanlilar va kanjaklar tiliga xos edi: ular ana ni hana, ata ni hata deganlar (MK, I, 68). Bu hodisa hozirgi o'zbek tilida ham uchraydi: "ingichka" talaffuzli so'zlarda [h], "yog'on" talaffuz qilinuvchi so'zlarda esa [x] tovushi orttiriladi: qadimgi turk.: öküz — hozirgi o'zb.: höküz; qadimgi turk.: öl — hozirgi o'zb.: höl; qadimgi turk.: ürk — hozirgi o'zb.: hürk; qadimgi turk.: awuč — hozirgi o'zb.: xawuč.

Tovushlarning o'rin almashinuv (metateza) hodisasi. Qadimgi turk.: yağmur (yağ — "yog'moq" so'zidan) — eski o'zb.: yamğur — hozirgi o'zb.: yamgır. Yoki, qadimgi turk.: öġret (öġ — "aql" so'zidan) — hozirgi turk.: öġret (talaffuzi: öyret) — o'zb.: öġät.

Hozirgi o'zbekchadagi quyidagi so'zlar ham tovushlarning o'rin almashinuv hodisasi tufayli hosil bo'lgan: ġam çek-. Bu o'rinda çek-fe'li keç- ning o'zgargan shaklidir. Yoki yana: paypoq (<pay-qop). Qiyoslang: qolqop.

Singarmonizm

Qadimgi turkiy yozma yodgorliklar tilida singarmonizm temir qonun sifatida amal qiladi. Qadimgi turkiy tilning fonetik qurilishi, morfofonologik tizimi ana shu qonunga bo'ysunadi.

Singarmonizm deb so'zdagi tovushlarning hamda qo'shimchalarning talaffuziga ko'ra o'zaro uyg'unlashuvi, moslashuviga aytiladi. Qadimgi turkiy tilda singarmonizmning quyidagi turlari kuzatiladi:

I. Unlilar uyg'unligi. Bu qonun ikki xil:

1) *Tanglay uyg'unligi*: so'zdagi tovushlarning bir-biriga va qo'shimchalarning o'zakka qatorda va "yo'g'on-ingichkalikda" moslashuvi. Mazkur qonunga ko'ra o'zak-negizga qo'shiladigan affikslar ham fonetik variantlardan iborat bo'ladi. Masalan, ot yasovchi -ġ, -g affiksi: qapıġ — eshik, bilig — bilim; jo'nalish kelishigi affiksi -qa, -kă: qaġanqa — xoqonga, äbkă — uyga; yoki -ġaru, -ġärü affiksi: oġuzġaru — o'g'uzga, ilgärü — oldinga (Sharqqa).

2) *Lab uyg'unligi*: birinchi bo'g'indagi unliga keyingi bo'g'indagi unlining yoki o'zakning oxirgi bo'g'inidagi unliga qo'shimchadagi unlining lablanish jihatdan moslashuvi: *ālimiz — davlatimiz, sūmūz — lashkarimiz, atīm — otim, bodunum — xalqim.*

Bu qonunga ko'ra ham bir qator affikslarning lablangan unlili va lablanmagan unlili variantlari bo'lgan. Jumladan: qaratqich affikslari -nīŋ, -niŋ; -iŋ, -iŋ larning -nuŋ, -nūŋ; -uŋ, -ūŋ variantlari, sifat yasovchi -liŋ, -lig ning -luŋ, -lūŋ variantlari ham bor va b.

II. Undoshlardagi *jaranglilik va jarangsizlik uyg'unligi*. Mazkur qonunga muvofiq o'zak-negiz jarangsiz undosh bilan tugasa, qo'shimchani birinchi tovushi ham shunga moslashadi, ya'ni jarangsiz undoshli bo'ladi: otqa — olovga, tilākkā — tilakka. O'zak-negiz unli tovush, jarangli undosh yoki sonor bilan tugagan bo'lsa, unda affikslarning jarangli undosh bilan boshlanuvchi varianti qo'shiladi: yulŋuĉ — ombir, barduq — borgan.

Ko'k turk yodgorliklari tilida o'zak-negiz unli, jarangli undosh yoki sonor bilan tugagan hollarda ham qo'shimchani faqat jarangsiz undoshli varianti qo'shiluvi mumkin. Jumladan, urxun bitiglarida jo'nalish kelishigining, asosan, -qa, -kā variantigina qo'llangan. O'zak-negizning oxirgi tovushi qanday bo'lishidan qat'i nazar, ayni shakli qo'llangan: taŋqa — toqqa, Tāmīr qapīŋqa — Temir qopiqqa, yārkā — yerga, ōgūzkā — daryoga va b. Bu xususiyat keyingi davrlarda ham qisman davom etdi. Jumladan, "Qutadg'u bilig"da, "Devonu lug'atit-turk"dagi turkiy matnlarda ham bu shakl ustun. Shuning bilan bir qatorda, uning -ŋa, -gā varianti ham uchraydi. Ko'rinadiki, turkiy tillar tarixida jaranglilik va jarangsizlik uyg'unligi keyinchalik muqum bir hodisaga aylangan.

Jaranglilik va jarangsizlik uyg'unligi qonuniga muvofiq holda affikslar ikki xil variantda amal qilgan: biri — jarangli undosh bilan boshlanuvchi va ikkinchisi — jarangsiz undoshlar bilan boshlanuvchi variantlar. Masalan, sifatdosh qo'shimchalari: -duq, -dūk / -tuq, -tūk; -daĉi, -dāĉi / -taĉi, -tāĉi, ravishdosh qo'shimchasi -ŋalī, -gali / -qalī, -kāli va b.

Bo'lim yuzasidan savol va topshiriqlar

1. *Qadimgi turkiy tilda nechta unli fonema bor? Har bir unliga tavsif bering.*
2. *Qadimgi turkiy tildagi cho'ziq unli va undoshlarga tavsif bering.*
6. *Qadimgi turkiy tildagi tovush o'zgarishlari (b//t, b //m va b. tovushlar) ning asosiy xususiyatlarini izohlab bering.*

TO‘RTINCHI BO‘LIM

QADIMGI TURKIY TIL LEKSIKASI

Tayanch tushunchalar: leksik qatlam, dialekt, shumer tili, qabilalar tillari, o‘zlashgan qatlam, xitoycha, so‘g‘dcha so‘zlar, ko‘p ma‘nolilik, semantik birlik, metafora, omonimlar, evfemizm, sinonimlar, antonimlar.

Qadimgi turkiy til leksikasi mazkur tilning qaysi dialektlar asosida shakllanganini ko‘rsatishi bilan diqqatga sazovor. Shuningdek, ma‘lum bir davrga oid nutq xususiyatlari, xalqning ijtimoiy-siyosiy, madaniy hayoti, dunyoqarashi, xullas, insoniyatning moddiy, ma‘naviy va maishiy hayoti bilan bog‘liq hamma jihatlar leksikada aks etadi.

Ma‘lum asarning leksik qatlami o‘sha davr adabiy til xususiyatlarini, boshqa xalqlar bilan madaniy, siyosiy aloqalarni ko‘rsatish uchun ham asosiy omillardan biri sanaladi. Shuningdek, ijtimoiy-siyosiy munosabatlar tarixi ham ilk bor leksikada aks etadi. Masalan, ayrim olimlar (jumladan, O‘ljas Sulaymonov) qadimgi turkiy til bilan dunyodagi eng qadimgi til bo‘lgan shumer tili o‘rtasidagi qarindoshlik aloqalarini asoslamoqchi bo‘lganlarida ham har ikkala tildagi umumiy leksik qatlamga va leksik ma‘noga tayanadilar: shumer. *ne* — qadimgi turk. “*na*”; shumer. *me* — qadimgi turk. “*mān, ban*”; shumer. *ze* -qadimgi turk. “*sān*” va h. Yoki turkiy tillarning ilk bosqichi bo‘lgan Oltoy davrida turkiy, mo‘g‘ul, tungus, manchjur, yapon, koreys tillarining yagona til bo‘lganini dalillashda ham turkolog olimlar mazkur tillardagi o‘zakdosh so‘zlarni asos qilib oladilar.

Qadimgi turkiy tilning leksik qatlami ham o‘ziga xos. Bu tilning leksikasidagi o‘ziga xoslik shundan iboratki, qadimgi turkiy qabilalarning tillaridagi leksik qatlam, tilning boshqa sathlariga qaraganda, qadimgi turkiy adabiy tilning shakllanishida katta vazifa bajargan.

Qadimgi turkiy til leksikasi asosan turkiy so‘zlardan iborat. O‘zlashgan qatlam oz miqdorni tashkil etadi. Bu qatlam, asosan, atoqli otlardan, ma‘lum bir diniy tushunchalarni ifodalovchi so‘z va terminlardan iborat. Urxun-yenisey yodgorliklarida o‘zlashgan qatlam xitoycha, so‘g‘dcha so‘zlardan iborat bo‘lib, taxminan bir-ikki foizni tashkil qilsa, eski uyg‘ur-turk yozma yodgorliklarida nisbatan ko‘p. Jumladan, birgina “Oltun yorug‘” dagi so‘zlarning o‘n besh foizini sanskritcha, xitoycha, tibetcha, so‘g‘dcha so‘zlar tashkil qiladi. O‘zlashgan qatlamning ko‘pligiga sabab shuki, ijtimoiy, madaniy, diniy tushunchalar qadimgi turkiylar madaniy muhitiga ko‘plab kirib

keldi va shu munosabat bilan o'zlashgan qatlam miqdori kengaydi.

Mazkur o'zlagan qatlam so'zlari bir ma'noni ifodalaydi. Bir ma'nolilik tilda, xususan qadimgi turkiy tilda ham keng tarqalgan bo'lib, yuqoridagi o'zlashgan so'zlar termin xususiyatiga ega bo'lgani uchun ham bir ma'no ifodalaydi. Ammo umumtil leksikasidan kirgan so'zlarning ko'p ma'no ifodalashi keng tarqalgan.

Ko'p ma'nolilik

Ko'p ma'nolilik qadimgi turkiy tilga ham xos xususiyatlardan biridir. Masalan, köngül so'zining qadimgi turkiy tilda quyidagi ma'nolari bor:

1. Yurak, qalb: söz köngülkä singdi (DLT, III, 391) — so'z yurakka o'rnashdi; El kunlärning köngüllärinä köp tälüm boldi qayghu (O'g'uznoma) — El- yurtlarning yuraklari ko'p qayg'ularga to'lib-toshdi.
2. Istak, xohish: Öz köngülinçä barsun (yurid. hujjat.) — o'z xohishi bo'yicha ish tutsin.
3. His-tuyg'u: Täbränçsiz jajılmaqşız ulugh jarlıqançuçi köngül turghurup bu maning sävär amraq ätüşızimİN tütär män, idalajur män (Oy, 616) — Men ikkilanmasdan g'oyat mehribonlik his-tuyg'ularini qo'zg'atib, o'zimning bu sevimli tanamdan voz kechypman.
4. Fikr: KöngüllärİN turghurmaq, ornatmaq ärsär qalti bu üç türlüg bİlgä bilİglär İçİntä köngülüg jaratmaq ornatmaq ärür (Oy, 289) — Fikrlarini qaror toptirish esa quyidagicha: bu uch turli haqiqiy bilimdan fikrni qaror toptirib mukammal qilmoqdir.

Köngül so'zi bu ma'nolaridan tashqari, qo'shma fe'l shaklida ham bir qator ma'nolar hosil qiladi. Bu ma'nolar qo'shma fe'lning yetakchi fe'l qismi natijasida paydo bo'lgan: 1. Köngül açi- — qayg'uga, g'amga bot(moq); qatigh ünñ jighlayu köngülläri açiyu (Oy, 636) — qattiq ovoz bilan yig'lab, qayg'urib; 2. Köngül açil- — yaxshilanmoq; köngül açildi (DLT, I. 194) — kayfiyat yaxshilandi; köngül örüt — ista(moq): jana jämä bodis(a)tvlar bashtinqi orunda köngül öritmishlärintä soqançigh ärdini atlıgh samati dyanigh öritürlär (Oy, 323) — yana bo'disatvlar birinchi o'rinni istaganlarida, ajoyib xazina degan samati mushohadasini qo'zg'atadilar.

Köngül so'z birikmasi tarkibida qo'llanganda, birikma bir ma'noni ifodalaydi: köngül bilig (Oy, 594) — ong, idrok; köngül qaçigh — tafakkur, "ruh": köngül qaçiq ärmäksız nomugh törüg itärür (Oy, 364) — Tafakkur maqsadga muvofiq bo'lmagan no'm qonunini rad qiladi.

Misollardan ko'rinadiki, bu so'zning ko'p ma'nolilik xususiyati kontekstda yuzaga chiqadi.

Qadimgi turkiy tildagi ko'p ma'noli so'zlarda umumiy semantik birlik mavjudligi uchun ham yuqoridagi aloqa yuzaga chiqadi. Misol uchun qadimgi turkiy tildagi jinçkä sifatiga e'tibor beraylik.

1. Bu so'zning bosh ma'nosi qadimgi turkiy tilda "nozik", "tor" ma'nosini ifoda etadi: jinçkä torqu (DLT III, 380) — nafis ipak kiyimlik (DLT III, 390); joling qilqa jinçkä (Qb, 435) — yo'ling soch tolasiday nozik. 2. Dono, aqlli: täring jinçkä savlarda bilgä biligläri birikmih ol (Uyg'.) — chuqur dono so'zlarda haqiqiy bilimlari birikkandir. 3. Mayda: jana çighu tashin jinçkä soqip (Uyg'.) — yana ichu toshini mayda qilib; 4. Juda yaxshi, chuqur, ikir-chikirigacha: qaja tüş körügli tüşhüng jinçkä köp (Qb, 314) — Ey tush ko'ruvchi, tushingni yaxshilab tekshir. 5. Aniq, tushunarli: sözin jangzatur sözkä jinçkä ajur (Qb, 54) — so'zini boshqa so'zga o'xshatadi, aniq gapiradi.

Mazkur so'zdagi umumiy ma'no "nimaningidir yoki kimningdir nozik xususiyati"dan iboratdir deb aytish mumkin. Umuman, ko'p ma'noli so'zlarning ma'nolari o'rtasida ma'lum mazmun munosabatlari bor. Ana shu mazmun munosabatlari turli predmetlar, hodisalar o'rtasidagi ma'no aloqalarini tushunarli qiladi.

Metafora qadimgi turkiy til leksikasida ham, hozirgi turkiy tillardagi kabi, ko'p ma'nolilikni hosil qiluvchi vositalardan biri bo'lib, so'zning ma'no taraqqiyotida asosiy omillardan biridir. Bunday holda metaforik ko'chim asosida yotadigan o'xshashlik "ichki" bo'lishi, ya'ni o'xshashlik tashqi belgilariga ko'ra emas, balki sezgi, tasavvur yoki baho asosida yuz berishi mumkin. Mana shu asosda, ijtimoiy-siyosiy tushunchalarni ifodalovchi so'zlar ham metaforik ma'no ifodalaydi. Masalan, arqish so'zi bosh ma'nosida "karvon" ma'nosini ifodalaydi: azon täzgür alda arqish jorip (Qb, 388) — olam bo'ylab kezar, mamlakatlar bo'ylab karvon yurib. "Arqish" so'zining "xabarchi, chopar" ma'nosi ham bor: ötrü ol arqish vajram jel täg barip (Uyg'.) — keyin bu xabarchi vayram shamoliday ketib. Mahmud Koshg'ariy "arqish" so'ziga "yurtidan uzoqqa ketgan bir kishiga yuborilgan [xabar yetkazuvchi] odam" deb izoh berib: "aning arqishi kaldi — uning elchisi keldi" (DLT, 1, 123) misolini keltiradi. Shu so'zga Mahmud Koshg'ariy "bu so'z maktub, noma ma'nosida ham qo'llanadi" deb izoh beradi. Bu so'z "arqish"ning uchinchi ma'nosidir.

Ko'p ma'noli so'zlarning hamma ma'nolari va semantik variantlari o'zaro aloqalar tufayli ma'lum tartib asosida tashkil topadi, bir ma'no ikkinchisiga tayanch bo'ladi. Misollarimizdagi "ko'ngil"ning to'g'ri ma'nosi "qalb, yurak", "jinçkä"ning to'g'ri ma'nosi "yupqa",

“arqish”ning to‘g‘ri ma‘nosi “karvon”dir. Bu so‘zlarning boshqa ma‘nolari ijtimoiy ehtiyoj tufayli yangi predmet yo hodisani nomlash asosida yaratiladi.

Qadimgi turkiy til leksikasining asosiy qismi barqarordir. Bu barqarorlikni hozirgi o‘zbek tili bilan qadimgi turkiy til leksikasi qiyosida ko‘rish mumkin. Garchi qadimgi turkiy tildagi grammatik shakllar o‘zgargan bo‘lsa-da (masalan, kelishik qo‘shimchalari, jamlik son hosil qiluvchi qo‘shimchalar, sifatdosh shakllari), aksariyat so‘z o‘zaklari saqlangan. Misol uchun Kul tigin bitigtoshining I-satridan parchani olib ko‘raylik: *üzä kök tängri asra yaghiz yir qilintuqta äkin ara kisi oghli qilinmis* — yuqorida ko‘k osmon, ostda qora yer qilinganda, ikkovining orasida inson bolalari yaratilgan.

Bu parchadagi asra va yaghiz so‘zlaridan tashqari barchasi hozirgi o‘zbek tiliga ayrim fonetik va grammatik shakllar o‘zgarishlari bilan yetib kelgan, bu so‘zlarning ma‘nolari saqlangan. So‘zlarning bir ma‘noliligi va ko‘p ma‘noliligi bilan bir qatorda, qadimgi turkiy tilning o‘z doirasidagi so‘z shakllari o‘xshashligi ma‘no jihatdan farqlanishga olib keladi.

Evfemizm

Qadimgi turkiy tildagi evfemizmlar ham ko‘chimning bir turi bo‘lib, noxush salbiy hodisa va harakatlarni “niqoblash” orqali anglatadi. Evfemizmlar nutqda okkazional ma‘no ifodalab, anglashilgan hodisaning tub mohiyatini yashirish uchun qo‘llanadi. Quyidagi so‘zlar qadimgi turkiy tilda evfemizmga misol bo‘la oladi: *Kül tigin qonj yilqa yiti yigirmikä uçdi* (Ktu, 53) — Kultigin qo‘y yilining yigirma yettisida uchdi (üçdi — “o‘ldi” ma‘nosida qo‘llangan); *çakravart ilig qaça qiyilghuça ärsär* (Oy, 395) — Chakravart xon qachon qiyilsa (qiyilghuça — “o‘lsa” ma‘nosida qo‘llangan).

Omonimlar

Omonimlarning tilda paydo bo‘lish sabablari turlicha: 1. So‘z tarkibida tovushlarning tarixan o‘zgarishi sabab bo‘ladi. 2. Boshqa tillardan so‘z o‘zlashtirilishi sabab bo‘ladi. 3. Ko‘p ma‘noli so‘zning yagona ma‘nosi o‘rtasidagi bog‘liqlikning yo‘qolishi sabab bo‘ladi.

Omonimlarning paydo bo‘lishidagi birinchi va uchinchi sabab turkiy tillar taraqqiyotida keyingi hodisa bo‘lib, ikkinchi sabab qadimgi turkiy tilga mos. Ayrim misollar keltiramiz.

Qadimgi turkiy tilda, xususan, urxun yodgorliklari tilida *bod* so‘zi ko‘p uchraydi. Bu so‘z “urug‘, qabila” ma‘nosini bildiradi (*bodun* —

“xalq” soʻzi ham shu *bod* soʻzidan): Türk sir bodun jārıntā bod jāmā, bodun jāmā joq ārtāçi ārtı (Mch, 3) — Turk sir xalqi yerida urugʻ ham, xalq ham yoʻq boʻladigan edi. Bu soʻz qadimgi turkiy tilda omonimik xususiyatga ega boʻlib, “tana”, “qomat”, “boʻy” maʼnolarini ham ifodalaydi: Bodum ārdi oq tæg āgildi bodum (Qb) — Tanam oʻqday edi, egildi tanam; Besh ozunlugh orunta qilinç ijin tüşinçā bod sin kōrkin tægünür (Oy, 366) — Besh olam oʻrnida (oʻz) ishiga muvofiq ravishda qomat koʻrkiga yetishadi.

Qadimgi turkiy tildagi soʻz shakl bilan soʻzning oʻzak holati baʼzan mos kelib qoladi. Bunday holatda tilda omoforma paydo boʻladi. Qadimgi turkiy tildagi omoformaning xususiyati shundaki, soʻzlar yozilishiga koʻra, shaklan mos kelib, mazmunan tamomila boshqa soʻzlardir. Bunday holat, odatda, turli soʻz turkumlari doirasida ham, bir soʻz turkumi doirasida ham yuz beradi: Kirishkā körü sen çiqish qil (Qb) — Daromadni koʻrib, sen sarf qil; Kirishkā bir baqir bertim (Uygʻ.) — Kamon ipi uchun bir tanga berdim.

Birinchi gapdagi harakat nomi (kirishkā) bilan ikkinchi gapdagi otning (kirishkā) shaklan mos kelishi qadimgi turkiy tildagi omoformadir.

Qadimgi turkiy tilda koʻp uchraydigan hodisalardan biri omograflardir. Omograflar bu davrda omoformaga nisbatan koʻp uchraydi. Buning sababi shuki, soʻz oʻzaklaridagi qattiq va yumshoq unlilarning mustaqil fonema sifatidagi vazifasi omograflarni paydo qiladi: *yor-* (yur- DLT, I, 455) — *yör-* (yech— uraghut oghlin beshiktin yördi — xotin bolasini beshikdan yechdi — DLT, III, 58); *ir* (uyatga qolgan — DLT, I, 36) — *ir* (tosh — Uygʻ.) *ir* (togʻning kungay tomoni DLT, I, 464) — *ir* (irilla- DLT, I, 172). Qadimgi turkiy tilda omofonlar ham bor, ular nutqda keskin farq qilmasa ham, yozuvda farqlanadi: *söküşh* (haqorat — DLT, I, 368) — *soqush-* (— toʻqnash— Irq b.) ; *iglä-*(kasal boʻl — Oy, 1) — *ighla-* (yigʻla, KR, 5); *qanagh* (qon oldirish —Uygʻ.) — *qanaq* (qaymoq — DLT, I, 383); *qarsaq* (qush nomi — DLT, I, 473) — *qarshagh* (kiyimning uzunligi, oʻlchovi — DLT, I, 464).

Sinonimlar

Sinonimlarning turli belgilari bor. Qadimgi turkiy tilda sinonimlarning quyidagi koʻrinishlarini ajratish mumkin: 1. Oʻxshash maʼnoli soʻzlar sinonimlar qatorini hosil qiladi. 2. Yaqin maʼnoli soʻzlar sinonimlar qatorini hosil qiladi. 3. Bir tushunchani anglatuvchi yoki bir buyumni bildiradigan soʻzlar sinonimlar qatorini hosil qiladi. Maʼlum kontekstda

sinonimik qator tarkibidagi u yoki bu soʻzni qoʻllash ekspressiv-stilistik xususiyat hosil qiladi.

Sinonimlar qadimgi turkiy tilda bir kontekst doirasida qoʻllanishi mumkin. Bu sinonimlar hodisalarning turli ottenkalarini ifoda etish uchun, harakatning shiddatli, kuchli tarzda yuz berganini va turlicha namoyon boʻlishini ifoda etish uchun xizmat qiladi. Bunday sinonimik qatorni Kultigin yodgorligida koʻramiz: Yoʻlligʻ tigin turkiy qavmlarning beboshligi oqibatida boshiga tushgan kulfatlarni ifoda etish uchun harakatni kuchli tarzda ifodalashga alohida eʼtibor bergan: ... igidmish qaghaning sabin almatin, yir sayu barding, qop anta alqintigh, ariltigh (Ktk, 9) — Tarbiyat qilgan xoqoningning soʻzini olmay, har qayerga ketding, u yerlarda butunlay gʻoyib boʻlding, nom-nishonsiz ketding.

Parchadagi *alqintigh* va *ariltigh* soʻzlari bir sinonimik qatorni hosil qilgan boʻlib, maʼlum darajada mazmunan va ekspressivlik jihatidan matnda bir-biriga zidlik bor. Bu zidlik shunisi bilan belgilanadiki, *ariltigh* feʼli *alqintigh* feʼliga nisbatan kuchli salbiy maʼnoni ifoda etadi. *Ariltigh* feʼli, asosan, matnda sinonimik qator hosil qilgan holda qoʻllangandagina, zidlik maʼnosi yuzaga chiqadi.

Ungin yodgorligining birinchi satrida ana shunday zid maʼnoni yanada aniqroq koʻrish mumkin: Äçümiz apamiz Bomin qaghan tört bulungugh *qismis*, *yighmis*, *yaymis*, *basmis*. Ol yoq boltuqta käsrä äI *yitmis*, *içghinmis*, *qaçishmis* — Ota-bobomiz Boʻmin xoqon (dunyoning) toʻrt tarafini qisgan, (bir joyga) yiqqan, magʻlub qilgan, bosgan. U xoqon vafot etgandan keyin xalq yoʻqolib ketgan, tarqalib ketgan, (har tomonga) qochib ketgan.

Qadimgi turkiy tildagi sinonimik qatorni shunday ifodalash mumkinki, “faqat maʼlum kontekstda nomuhim boʻlib qoladigan semantik belgilariga koʻra zid qoʻyilgan soʻzlar sinonim boʻla oladi”¹.

Yuqorida keltirilgan misollardan koʻrinib turibdiki, qadimgi turkiy tildagi sinonimlarning asosiy xususiyatlaridan biri sinonimik qator holida qoʻllanishidir. Ayniqsa, “Oltin yorugʻ”da sinonimlarga xos bu xususiyat aniq koʻzga tashlanadi. Agar soʻz turkumlari boʻyicha sinonimik qator holida qoʻllanishiga eʼtibor berilsa, feʼllarning va feʼl shakllarining sinonimik qatori eng koʻp uchrashi kuzatiladi: ... barça qorqup, bāIinglāp *iraq tashtilar*, *qaçtilar* (Oy, I, 3a) — ... hammasi qoʻrqib, vahimaga tushib, uzoqroq(qa borib) turdilar, qochdilar; ... tört apiramanilarigh *savlap*, *sözlap* (Oy, I,

¹ Шмелёв Д. Н. Современный русский язык. — М.:1977, 196-бет.

14a) — ... to'rt atiramanlarni (ya'ni komillikning sifatlarini) hikoya qilib, so'zlab... ; ... bir tatighligh ärtügin *birtürkalir uqtirghalir* üçün... (Oy, II, 4a) — ... bir xil lazzat ekanini bildirish, uqdirish uchun... ; birgäri turup yumqi *ögsärlär küläsrlär* (Oy, II, 40b) — ... birga jam bo'lib, birga hamd-u sano o'qisalar, (sizni) sharaflasalar; Alqunu barça qamagh açigh ämgäklärintin *ozghurayin, qutqarayin* (Oy, II, 41a) — Hammasini jamiki azob-uqubatlardan ozod qilay, qutqaray; Shmnu süüsin *utayin, yighatayin* (Oy, II, 41a) — Shmnu lashkarini mag'lub qilay, yiqitay; ... ürük ozati *bishrunmayin, ögrätäyin, tägäyin* (Oy, II, 36a) — ... doimo mukammal qilib borayin, o'rgatayin, (ulug'likka) yetkazayin.

Ot turkumidagi so'zlar sinonimik qatorni hosil qiladi: ... adruq adruq adinlarqa *asigh tüsi* ... (Oy, II, 9a) — ... turli-tuman boshqalarga foyda, manfaat... ; ... adruq adruq *ish, kütüglärin* bütürür ärsär (Oy, II, 9b) — ... turli-tuman ish, amallarini bitirsalar; Qayu näçä ulugh *iliglärkä qanlarqa* yazmiş... (Oy, II, 42a) — Har qancha katta hukmdorlarga, xonlarga (nisbatan) gunoh qilgan... ; ... kintä açä yada ötünäyin ärişh öküsh *alp, siqish, ämgäklärig* (Oy, II, 38a) — ... ochiqchasiga bayon qilib, tushuntirib beray ko'p mashaqqat, jabru jafu azoblarni!

Sifat turkumidagi so'zlar sinonimik qatorni hosil qiladi: ... *arigh, süzüg* burxanlar oruninta (Oy, II, 8a) — ... toza, pok burxonlar o'rnida... ; Burxanlar nomi yämä olar oruninta *ülgüsüz sansiz*... arililurlar (Oy, II, 8a) — Burxonlar no'mi yana ularning o'rnida hisobsiz, son-sanoqsiz... (turlarga) ajraladilar; ... ülgüsüz qolusuz busush qadghularqa... (Oy, II, 42a) — ... o'lchovsiz, son-sanoqsiz g'am-qayg'ularga...

Bir necha sinonimik qatorning uyushgan holda qo'llanishi ham "Oltin yorug'"da diqqatga sazovor hodisadir. Qayu näçä *öngätinçsiz uzun igin basitmish* tinlighlar ärsär *küçsirämish yavrumish törümish umughusuz inaghsiz* irinçlärig alqunung barçaning ämgäklärin kitärtäçi öngättürtäçi bolayin (Oy, II, 40a) — Har qancha shifolab bo'lmaydigan, davomli xastalik bilan og'riğan jonzotlar bo'lsa, zaif, umidsiz, ishonchsiz, baxstsizliklarni, hammaning azoblarini bartaraf qiladigan, yaxshilaydigan bo'layin.

Qadimgi turkiy tilda sinonimlarning bu tarzda qo'llanishi, birinchi navbatda, hodisalarning turli ma'no nozikliklarini tavsiflash, harakat va hodisalarning turli tomondan, mukammal zohir bo'lishini ko'rsatish, harakatning shiddatini ko'rsatish va boshqa qator maqsadlar bilan bog'liq. Ikkinchidan, sinonimlar qatorining kontekstda qo'llangani qadimgi turkiy adabiy tilning shakllanishi va ma'lum mezonga tushib borayotgani bilan ham izohlanadi. Shuning uchun ham dialektlardan, boshqa tillardan so'z olish hisobiga sinonimik qator yaratilgan. Quyidagi misolga e'tibor

beraylik: jirtinçü mängisingä bodulmish kishi män (Uyg‘.) — (Men) olamning shodligiga bog‘langan odamman; ontin singar yirtinçüdäki qamagh üç ödki bodi biliglig burxanlar (Oy) — Oldingi olamdagi jamiki uch zamonga oid dono bilimli burxonlar; Bu yüz ming azunlarimin ödäçi biltäçi bolayin (Oy, II, 41b) — Yüz ming olamlarimni anglab, biladigan bo‘layin; Bu yirtinçü yir suvqa qoturu atqanmaq yapshinmaq alp ämgäk titir (Oy, II, 38a) — Bu olamga butunlay bog‘lanib qolmoq jabru jafo, azob-uqubatdir.

Mazkur parchalarda tibet tilidan kirgan *yirtinçü* va so‘g‘dchadan kirgan *azun* so‘zlari bor. Har ikkalasi ham “olam” deganidir. Ayni paytda bu so‘zlar qadimgi turkiy tildagi *yär suv* bilan sinonimik qatorni hosil qiladi. Qadimgi turkiy tilda “olam” ma’nosini ifodalash uchun *yär suv* bo‘lgani holda, *yirtinçü* va *azun* so‘zlarini bu tilda istifoda etish uchun zarurat bor edi. Zarurat shundan iborat ediki, olam haqida tibet tilidagi tushunchani turkiy tilga olib kirish asosiy maqsad bo‘lgan edi. Shuning uchun IX–X asrdagi qadimgi turkiy tilda “olam” ma’nosini ifodalash uchun VII–VIII asrdagi *yär suv* mustaqil holda iste’moldan chiqa boshlagan ko‘rinadi, shu bois ham ko‘pincha “olam” ma’nosi *yirtinçü yär suv* shaklida qo‘llana boshlagan.

Xuddi shu hodisani “inson, odam” ma’nolarining qadimgi turkiy tildagi ifodasida ham ko‘rish mumkin. VII–VIII asrdagi qadimgi turkiy tilda yuqoridagi ma’no faqat *kisi* so‘zi bilan ifodalangan. IX–X asrdagi qadimgi turkiy tilda esa *kisi* ma’nosini ifodalash uchun og‘uz va qipchoq dialektlaridan *yalanguq* so‘zi kirib keldi va faol qo‘llana boshladi. V. V. Radlov “Turkiy tillar lug‘ati”da ham *yalanguq* so‘zi “inson” ma’nosida qo‘llanganini qayd etgan va “Qutadg‘u bilig”dan misol ham keltirgan¹. Shuningdek, “Devonu lug‘atit-turk”da ham bu so‘zning ma’nolari ochib berilgan².

Sinonimlarning yuqoridagiday ko‘rinishlarining paydo bo‘lishida madaniy-tarixiy muhit muhim rol o‘ynagani shubhasiz. Faqat madaniy-tarixiy muhit *yirtinçü*, *azun*, *yär suv* nima uchun umumiy distributiv³ sharoitga ega ekanini yoki dialektlardan so‘z olish hisobiga distributiv sharoit paydo bo‘lganini izohlash mumkin. Shu tufayli ham ma’lum bir leksik birlik qadimgi turkiy tilda o‘rnashib, ma’no jihatdan shu so‘zga

¹ В. В. Радлов. Опыт словаря тюркских наречий. — том III часть 1, Санкт-Петербург, 1905, 179-бет.

² Mahmud. Koshg‘ariy. Devonu lug‘atit-turk, III jild, Toshkent, O‘zbekiston Fanlar akademiyasi nashriyoti, 1963, 395-бет.

³ distributsiya (*lot.* taqsimlamoq, bo‘lmoq) tahlil — tilni tadqiq etish usullaridan biri bo‘lib, matndagi alohida birliklarning muhitini o‘rganishga asoslanadi.

teng boshqa soʻz isteʼmoldan chiqa boradi. Madaniy-tarixiy muhit, oʻz navbatida, maʼlum bir davrdagi til mezonini yaratadi.

Antonimlar

Qarama-qarshi maʼnoga ega boʻlgan leksik birliklarning semantik munosabatlari koʻrinishlari antonimlardir. Qadimgi turkiy tilda ham antonimlarni belgilash mezonlari mavjud. Birinchi mezon shuki, leksik birlik kontekstda antonimlarni hosil qiladi: *üzä kök tängri asra yaghiz yār* (Ktu, 1) — Yuqorida koʻk osmon, pastda qora yer. Bu parchadagi *üzä — asra, kök — yaghiz* antonimlarni hosil qilgan.

Antonimlarni qadimgi turkiy tildagi muhim xususiyatlaridan biri shuki, soʻzlarning zid maʼnosi kontekstda oʻzaro bir-biriga bogʻliq holda yuzaga keladi: *Bäglik uri oghling qul bolti, silik qiz oghling küng bolti* (Ktu, 7) — Bek boʻladigan oʻgʻling qul boʻldi, suluv qizing choʻri boʻldi.

Mazkur parchadagi *bäglik — qul, silik qiz — küng* antonimlar qutbini hosil qiladi. Quyidagi parchada ham shu hodisa bor, yaʼni antonim faqat kontekstda yuzaga chiqadi: ... tinlighlar yilqi azunintaqi ämgäktin ozup, kisi azuninta toghdilar (Oy, 1, 8a) — ... jonzotlar hayvonot olamidagi azoblardan xalos boʻlib, insoniyat olamida tugʻildilar; özluk ölürmäkning ayigh qilinçi nätäg aghir ärsär, ölürmämäkning yämä buyan ädgü qilinçi yämä ança oq ülgüsüz, qolusuz titir (Oy, 1, 12a) — Tirik jonzotlarni oʻldirish yovuz qilmish (ekani) naqadar ogʻir boʻlsa, oʻldirmaslik yanada olijanoblik, toʻgʻri ishlar yanada shunchalar ulugʻvor, beqiyosdir.

Bu parchadagi *özürmäk* va *özürmämäk* feʼllarining boʻlishli va boʻlishsiz shakli antonimlar hosil qilgan. Faqat *—mä* qoʻshimchasining zidlik hosil qilishi tufayli antonim hosil boʻlib qolmagan, balki maʼnoda zidlik bor. Bu parchadagi boshqa antonim juftlar (ayigh qilinçi — buyan ädgü qilinç, aghir — ülgüsüz) ham *özürmäk* va *özürmämäk* antonimiga bogʻliqdir.

Iboralar

Qadimgi turkiy tildagi iboralar bevosita va bilvosita matnlarning xususiyatlariga bogʻliqdir. Jumladan, Urxun-yenisey yozma yodgorliklarida iboralar kam uchraydi. Iboralarning asosiy belgisi — obrazlilik boʻlib, bu esa oʻz navbatida tilni taraqqiy ettirib boruvchi omillardan biridir, ayni paytda iboralar nutq taʼsirchanligi uchun ham asosiy vositalardan biridir.

IX–X asrlardagi yozma yodgorliklarda esa iboralar ancha sermahsul. Ayniqsa, “Oltin yorugʻ”da iboralarning shunday koʻrinishlari uchraydiki,

bu iboralarni kitobiy deb atash mumkin. Zotan, ayrim tillarning tarixiy leksikasida kitobiy iboralar bor¹. Bu iboralar bevosita tarjima jarayonida yuz beradi. “Oltin yorug‘” ham tarjima asari bo‘lgani uchun asliyat tilidagi iboralarning muqobilini qadimgi turkiy tildan topish imkoni bo‘lmagani uchun tarjimonlar o‘ziga xos, yangi iboralar yaratganlar. Bu iboralarni qadimgi turkiy tildagi individual ibora deb atash mumkin, chunki bu iboralar keyingi davr tilida uchramaydi:... **ädgü qilinçlıgh kımı, köprük itgil, yaratghil** (Oy, I, 8b) — ezgu ishlar(ning) kema, ko‘prik(ini) yaratgin; **nom tılgänin äwritgäli** köngül turghur sunlar (Oy, III, 16b) — no‘m g‘ildiragini aylantirgani istak paydo qilsinlar; **nom tılgänin äwritgäli** ötüğçi bolsar (Oy, III, 18a) — no‘m g‘ildiragini aylantirgani xizmatkor bo‘lsa; **nom tılgänin äwirtkäli** ötüğçi bulsar — no‘m g‘ildiragini aylantirgani iltimoschi bo‘lsa. Xullas, **nom tılgänin äwritgäli** iborasi turg‘un birikma shaklida “Oltin yorug‘”da takrorlanib kelaveradi— bu qandaydir g‘ildirakni aylantirishni emas, balki buddaviylikning maxayana ta‘limotiga rioya qilishni anglatadi: **nom tılgänin äwritgäli**. Bu turg‘un so‘z birikmasi tarkibidagi *tılgän* iborani hosil qilish uchun asos bo‘lgan. Bu ibora garchi tarjima mahsuli sifatida paydo bo‘lgan bo‘lsa-da, leksik-grammatik jihatdan tom ma’noda qadimgi turkiy tilga xos.

Quyidagi ibora ham individual, faqat “Oltin yorug‘” tiliga xosdir: ... bılıksız bılıkkä örlütüp t(ä)rs tätrü körüm üzä **köngülüm köküzüm tätrilip** (Oy, III, 5b) — Nodonlikka yetishib, ters tasavvur bilan ko‘nglim, qalbim (ham) teskari bo‘lib qoldi.

Ibora shakliy jihatdan gappa teng, ammo bu iboraning sintaktik tuzilishini erkin konstruksiya asosida paydo bo‘lgan gap bilan vazifa jihatdan tenglashtirib bo‘lmaydi. Bu turdagi, ya‘ni shakliy tomondan gappa teng iboralarga bir butun sintaktik vazifa yuklanadi.

“Oltin yorug‘”da shunday iboralar borki, ular erkin sintaktik birliklarga o‘xshab ko‘rinsa ham, qadimgi turkiy tilda iboraning o‘ziga xos ko‘rinishi, deb baholash mumkin: burxan nomunung ulugh törlüg küçingä, **közününgä artuqraq süzüg kiritgünç köngül öritip** (Oy, II, 8b) — burxan no‘mining ulug‘, xosiyatli kuch-qudratiga ko‘p pok, ishonchli fikr uyg‘otib... Bu parchada ibora **örit**— fe‘lining ma’nosi tufayli kelib chiqqan. Bu fe‘l orttirma nisbat shaklidagina ibora hosil qilishi mumkin. “Qadimgi turkiy lug‘at” (Древнетюркский словарь. — М. : 1969,,

¹ Qarang: Д. Н. Шмелёв. Современный русский язык., 290-б.

388-bet)da bu fe'lining *ör-* fe'lidan hosil bo'lgani izohlangan, ammo *ör-* o'zak holatida ibora hosil qila olmaydi, chunki ko'chma ma'no ifodalamaydi. *köngül örit*— turg'un birikma shaklida qo'llanadi, bu esa *örit*— fe'lining *köngül* ga leksik jihatdan emas, balki ma'no jihatdan bog'liq bo'lgani sababli yuz beradi.

Qadimgi turkiy tilda, xuddi hozirgi o'zbek tilidagi iboralarga shakl va ma'no jihatdan teng bo'lgan iboralar ham qo'llanadi.

Inçip iğläyü birla ök *saw söz qodup* (Oy, I, 2b) — U shunchalik (qattiq) xastalandiki, tildan qolib... Bu ibora og'zaki nutqqa xos bo'lib, qadimgi turkiy tilda turg'un birikma sifatida shakllangunga qadar, uzoq tarixiy taraqqiyot yo'lini bosib o'tgan.

Ayrim hollarda iboraning ta'sirchanligini oshirish uchun ibora tarkibida sinonimlar qatori qo'llanadi: ... köngülläri *uyalip siqilip batmish* (Oy, II, 42a) — ko'ngullari buzilib, siqilib, vayron bo'lgan.

Quyidagi ibora esa yuqoridagi iboraning antonimidir: Kūsämish (kü)süşläri k(ä)ntü k(ä)ntü *köngülläri bützün qanzunlar*... äd tawarqa äsilgä(li bolmaz)unlar (Oy, II, 43b)— Orzu qilgan istaklari, o'zlarining ko'ngillari but bo'lsin, qonsin... mol-dunyoga oshno bo'lmasinlar.

Umuman, qadimgi turkiy tildagi iboralarni ajratishda qadimgi turkiy til mezonlari asosida qaraladi.

Qadimgi turkiy tilning leksik qatlami

Qadimgi turkiy tilning leksik qatlami asosan XII asrgacha bo'lgan turkiy tillar davriga mansub. X—XII asr tilidagi leksik qatlamda ayrim o'zgarishlar bor. Bu o'zgarishlar qadimgi turkiy matnlardagi oz miqdordagi arab-fors so'zlari hisobiga bo'ldi.

Bir qator asarlarning sanskrit, xitoy, tibet tillaridan qilingan tarjimalari hisobiga qadimgi turkiy til leksik qatlami boyidi. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, VII—XIII asrlardagi urxun-yenisey yodgorliklariga nisbatan X—XII asrlardagi uyg'ur-turk yozuvidagi turkiy tillar leksik qatlami boy ekani ma'lum bo'ladi. Bunga sabab, bir tomondan, qadimgi turkiy tilning qo'llanish hududi kengaydi, ikkinchidan, adabiy tilning grammatik qurilishida kitobiylik ustun bo'la bordi, so'z yasaliş imkoniyatlari kengaydi, stilistik vositalar tizimida turli-tuman xususiyatlar paydo bo'ldi. VII—IX asrdagi qadimgi turkiy til leksik qatlami so'zlashuv nutqiga asoslanib, unda o'g'uz dialekti yetakchilik qilgan bo'lsa, IX—X asrlardagi qadimgi turkiy adabiy til leksik qatlamida, chet so'zlardan tashqari, turli dialektlardan — o'g'uz, qipchoq va boshqa qator dialektlardan

kirgan soʻzlar ham asosiy qatlamni tashkil qiladigan boʻldi, yaʼni oʻgʻuz qabilasi tilidan boshqa qabilalar tili ham adabiy til shakllanishiga asos boʻldi. Shuning uchun bu davr adabiy tili keng hududdagi turkiy qavmlar tili sifatida faoliyat koʻrsata boshladi. Yuqorida aytganimizday, sanskrit, xitoy tillaridan qilingan tarjimalar natijasida bu tillarning tasviriy ifoda vositalariga xos xususiyatlar taʼsir etdi. VII– IX asrdagi qadimgi turkiy til leksik qatlamida mavhum tushunchalarni ifodalash yorqin koʻzga tashlanmagan boʻlsa, IX–X asrlardagi qadimgi turkiy adabiy tilda ifoda vositalari kengaydi.

Qadimgi turkiy tilga kirib kelgan bir qator sanskritcha, xitoycha, soʻgʻdcha, tibetcha soʻzlar turli diniy-axloqiy tushunchalarni, aqidalarni ifodalash vositalari sifatida muhim ahamiyat kasb etdi: buyan (sanskrit. — ezgu ish), bodi (sanskrit. — mukammallikka erishish), bushi (xit. — sadaqa), çin (xit. — haqiqat), çinzu (xit. — mutlaq mavjudotlar), yang (xit. — tarz, xil), kshanti (sanskrit. — tavba), nirvani (soʻgʻd. — hayajon, kuchli hissiyot), nom (soʻgʻd. — diniy qonun, diniy taʼlimot) va h.

Chetdan kirgan soʻzlardan soʻz yasaliş hodisasi bu davr adabiy tilida uchraydi. Shuni si diqqatga sazovorki, soʻz yasalganda, yasama soʻz alohida holatda ham, sinonimlar qatorida ham qoʻllangan. Ötrü tägin togha çighay *bushiçi* män tip tidi (Uygʻ, 67) — Shunda shahzoda: “Men nochorman, qashshoqman”, deb javob berdi; Kishi azuninta toghduqta joq çighay ärinç yarlıgh *bushiçi* qoltghuçi bolmişlar (Oy, III, 12a) — Insoniyat olamida tugʻilganlarida (ular) qashshoq, baxtiqaro kambagʻal boʻlganlar.

Bunday soʻz yasalişining qadimgi turkiy tilda mavjudligini shu bilan izohlash mumkinki, *bushiçi* yasama soʻzi hali qadimgi turkiy adabiy tilga singmagani uchun, bu soʻzning sinonimi boʻlgan mavjud turkiycha *qoltghuçi* ni qoʻllashga ehtiyoj boʻlgan. Bunday soʻz qoʻllash usuli asosan “Oltin yorugʻ”da uchraydi. Bunday soʻz yasaliş usuli, shubhasiz, adabiy tilning leksik qatlami boyishiga xizmat qilgan. Umuman, jamiyat hayotidagi oʻzgarishlar, birinchi navbatda, leksik qatlamda aks etadi. Tilga doimo yangi soʻzlar kirib turishi bilan birga, tilda azaldan mavjud boʻlib kelgan soʻzlar yangi hodisalarga, tushunchalarga tatbiq qilina boshlaydi. Ayrim soʻzlar tildan chiqib ketadi yoki oʻzining oldingi maʼnosini yoʻqotadi. Masalan, urxun yodgorliklarida *ulus* soʻzi *äl* soʻzi bilan birga (*äl ulus* tarzida) “davlat, mamlakat” maʼnosini bildirgan boʻlsa, IX–X asrlarga kelib *ulus* ning maʼnosi kengaydi, bu soʻz mustaqil holda “qishloq, makon” maʼnolarini ifodalaydigan boʻldi. Bu hodisalarning hammasi qadimgi turkiy tilning leksik tarkibi doimo ilgarilab borganini

yuzaga chiqaradi. Qadimgi turkiy yodgorliklarning leksik qatlami yuzasidan statistik ma'lumot ham bu fikrni tasdiqlaydi. Urxun-yenisey yodgorliklarida 1500 — 2000 atrofida so'z mavjud bo'lsa, birgina "Oltin yorug'"ning o'zida 3500 dan ortiq so'z bor. Shu tariqa, qadimgi turkiy til doimo yangi so'zlar bilan boyib borgan.

Har bir tilning leksik qatlami muhim ijtimoiy, tarixiy hodisa hisoblanadi. Til tarixi xalq tarixi va madaniyat tarixiga bog'liq holda o'rganishni talab qiladi. Zotan, ma'lum bir xalqning, shuningdek, qadimgi turkiy qavmlarning so'z boyligi ularning hayotida katta madaniy hodisa hisoblanadi. Bunday vaziyatda, so'zsiz, dialekt tushunchasi emas, balki ma'lum dialektlarning tarixan shakllanish yo'li muhim ahamiyat kasb etib, shunga diqqat qaratish taqozo etiladi. Qadimgi turkiy adabiy tilning shakllanishida bir qator dialektlarning ishtirokini "dialektlar munosabatlarining rang—barangligi" (V.M.Jirmunskiy) deb atash mumkin. Bu jarayon — dialektlarning adabiy tilga asos bo'lganini ko'rsatuvchi dalillar leksik qatlamda aniq ko'rinadi. Qolaversa, qadimgi turkiy tildagi ma'lum leksik birliklarning qaysi dialektlarga mansubligini dalillovchi asosiy ishonchli manba Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'atit-turk" asaridir. Mahmud Koshg'ariy asaridagi so'zlarga izoh berganda, ayrimlarining qaysi dialektlarga mansubligini alohida ta'kidlab ko'rsatadi. Bunga sabab — qadimgi turkiy adabiy tildan hali keng o'rin olmagan so'zlar bo'lgani uchun ham Koshg'ariy izoh berishni lozim ko'rgan. Qolaversa, Mahmud Koshg'ariy izoh bergan so'zlarning aksariyati qadimgi turkiy yozma yodgorliklardan o'rin olgan. Qadimgi turkiy yodgorliklardagi leksik qatlamning dialektal xususiyatlarini yaxshiroq tasavvur qilish va qadimgi turkiy adabiy tilning shakllanishida qaysi dialektning roli muhim bo'lganini ko'rsatish maqsadida quyida "Devonu lug'atit-turk"dan yuqoridagi so'zlar lug'ati havola qilindi.

Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'atit-turk" asarida tillarga va dialektlarga mansubligi ko'rsatilgan so'zlar:

aba II *tibet.* — ota

aba III *kipchoq.* — ayiq

aba I *o'g'uz.* — ona

açi *barsog'on* — keksa ayol

adaq *qipchoq, yamaq, suvorin* — oyoq

adigh I *o'g'uz, qipchoq, yag'mo* — ayiq

adin *chigil* — boshqa

adruq *o'g'uz* — boshqa

aftabi *o'g'uz, arg'u* — ko'za 90

aghil II *o'g'uz* — qo'y qiyi
ajaq I *o'g'uz* — idish
ajbang *chigil* — kal
ajigh III *o'g'uz qipchoq, yag'mo* — ayiq
ajluq: ajluq ajluq *o'g'uz* — shunday, shunday
ajriq *o'g'uz* - ajriq
ajruq *o'g'uz* — ayrim, boshqa
ajt- *o'g'uz* — ayt(moq)
alduz- *o'g'uz* — oldir(moq), o'g'irlatmoq
aligh *o'g'uz, qipchoq* — yomon
aliq II *o'g'uz* — qush tumshug'i
alma *o'g'uz* — olma
aluq *o'g'uz* — kal
andagh *chigil* — shunday
andan *o'g'uz* — keyin
ang I *o'g'uz* — yo'q
angla- *o'g'uz* — angla(moq), tushun(moq)
ap I *o'g'uz* — kuchaytiruv yuklamasi
apa *lqarluq, turkman* — ona
aq I *o'g'uz* — oq; **aq saqal** *o'g'uz* — oq soqol,
 soch-soqoli oqargan kishi.
arigh II *barsag'aon* — chodir pardasi
armaghan *o'g'uz* — sovg'a
arsaliq *o'g'uz* — hayvonlarning xunasasi
arsu *o'g'uz* — sifati past, qiymati kam
aruq I *qipchoq, o'g'uz* — oriq, charchagan
ast *chigil* — tor yo'l, tor ko'cha
ashaq *o'g'uz* — tuban, (tog'ning) quyisi
ashat- *o'g'uz* — oshatdi, yegizdi
ashliq II *o'g'uz* — don, bug'doy
av I *o'g'uz* — ov
avus *bulg'or* — mum
axsa- *yamak, yaboqu* — oqsa(moq)
azaq II *bulg'or, qipchoq, suvorin, yamaq* — oyoq
azun *chigil* — olam, dunyo
bajat I *arg'u* — Xudo
bajiq *o'g'uz* — to'g'ri (so'z)
bajnaq *o'g'uz* — go'ng
bajram *o'g'uz* — bayram

bal qipchoq, *o'g'uz, suvorin* — asal
balçiq *o'g'uz* — balchiq, loy
balıq II *uyg'ur* — shahar
balıqlan- I *arg'u* — loyga bulg'an(moq)
balıqlan- III *uyg'ur*. —shaharli bo'l(moq)
balıqlıgh I *arg'u* — botqoqli, balchiqli
banzi kanjak — uzum pishig'idan keyin ishkomda qolgan uzum
baqir- *o'g'uz* — baqir(moq), bo'kir(moq)
bart I *o'g'uz* — suv ichiladigan idish
bashaq II *chigil* — boshmoq, to'puq
bashmaq qipchoq, *o'g'uz* — to'piq
bashmaqılan- *o'g'uz* — sandal — chuvak kiy(moq)
bashtar *arg'u* — o'roq
beklan- I *o'g'uz* — berkil(moq), mustahkamlan(moq)
beklash- I *o'g'uz* — bekitish(moq), berkitishga yordam ber(moq)
beklat- I *o'g'uz* —qamattir(moq)
bekmas *o'g'uz* — shinni
bel III: bel qil- *chigil* — to'ydir(moq)
ban *o'g'uz* — men
benäk I *arg'u* — chaqa pul
bi II *o'g'uz* — bir xil o'rgimchak, qurt
bildüz- *o'g'uz* — bildir(moq)
bistä tuxsi, *chigil, yag'mo* — saroy xo'jayini
bistik I *chigil* — yigirish uchun mo'ljallangan paxta
bistik II *arg'u* —pilik
bitig III *o'g'uz* — tumor
bitrik *arg'u* — pista
bishigh *yag'mo* — pishiq, pishgan
bodun *chigil* — xalq
boj I *o'g'uz* — qabila, urug'
boj II *o'g'uz* — yeyiladigan bir o'simlik
bojun II *dz > j dilektida* — xalq
borsuq *o'g'uz* — bo'rsiq
boshan- *arg'u* — taloq qilin(moq)
boshat- *arg'u* — taloq qil(moq)
boshu- *arg'u* — taloq qil(moq)
böktä *o'g'uz* — xanjar
bujur- *o'g'uz* — buyur(moq)

bushaq *o'g'uz* — tajang, asabiy (odam)
butiq II *koshg'ar*. — kichik mesh
bük II *arg'u* — burchak
büküm *o'g'uz* — xotinlar etigi, maxi
büt- II *qipchoq* — (o't) un(moq)
çaghi *arg'u* — sotish uchun olib boriladigan mol
çaha *kanjak* — chaqmoqtosh
çaltur- *o'g'uz* — chaldir(moq), eshittir(moq)
çanaq *o'g'uz* — yog'ochdan ishlangan idish
çap- II *uyg'ur* — chapla(moq)
çapil- I *uyg'ur* — chaplan(moq)
çapit- I *uyg'ur* — hamla qil(moq)
çaptur- I *uyg'ur* — suvat(moq)
çaq- I *o'g'uz* — (orani) buz(moq), (gap) chaq(moq)
çaqrish- *o'g'uz* — chaqirish(moq)
çarun *yag'mo* — chinor daraxti
çashir *o'g'uz* — chodir
çat I *o'g'uz* — quduq
çat- *o'g'uz* — chatishtir(moq)
çatipa *chigil* — ariq qazishga, to'g'on bo'g'ishga
 chiqmaganlardan qishloq
 oqsoqoli oladigan soliq
çatir II *kujo* — chodir
çauvli *kanjak* — simdan to'qilgan chovli
çavli I \ \ **javli** *kanjak* — olov uchun yoqiladigan
 yong'oq po'chog'i, shaftoli danaklari
çaxshaq II \ \ **jaxshaq** — *qorluq* — quritilgan meva
çefshang *chigil* — qo'y junini qirqadigan qaychi
çekäk *chigil* — chechak kasalligi
çeknä *yag'mo* — omoch bilan haydalgan yer
çekük *o'g'uz* — temirchining bolg'asi
çekürgä *o'g'uz* — chigirtka
çer II \ \ **jär** *o'g'uz* — vaqt
çerig II *o'g'uz* — vaqt
çerlik I *o'g'uz* — vaqt
çeshkäl *qanjak* — sopol, tosh va uning siniqlari
çet- *o'g'uz*, *qipchoq* — yetish(moq)
çetük *o'g'uz* — mushuk
çigit *arg'u* — chigit, paxta urug'i

çil o'g'uz — yomonlik
 çighan arg'u — kambag'al
 çomuq o'g'uz — bir xil qarg'a
 çoq I o'g'uz — past, tuban
 çor: çor ot o'g'uz — o'ralgan o't
 çomali chigil — chumoli
 çomça o'g'uz — cho'mich
 çöngäk chigil — yog'och chelak
 çufgha II qipchoq, o'g'uz — yo'l boshlovchi, rahbar
 çun- o'g'uz, qipchoq — yuvin(moq)
 çuliman: çuliman ish kanjak — chuvalgan ish
 çünük yag'mo — chinor daraxti
 dagh II arg'u — yo'q emas
 daghi o'g'uz — va, yana
 deda o'g'uz — ota
 deva o'g'uz — tuya
 dünüşgä kanjak — tunbosh qushi
 eghrig arg'u — qo'pol
 ejla o'g'uz — shunday
 ekin o'g'uz — ekin
 eldrük barsag'on, uch — isiriq
 elk'n qipchoq, o'g'uz — musofir
 elrük uch — isiriq
 emät o'g'uz — xo'p, yaxshi
 emdi o'g'uz — endi
 emir o'g'uz — tuman, bulut
 endäk o'g'uz — sath
 epmäk qipchoq, o'g'uz, tuxsi, yag'mo — non
 eträk o'g'uz — rangi sariq odam
 ev o'g'uz — uy
 evät qipchoq, tuxsi, yag'mo — tasdiq yuklamasi
 evät o'g'uz — tasdiq yuklamasi
 eza o'g'uz — opa
 gizri arg'u — sabzi
 hana kanjak, xo'tan — ona
 hata kanjak, xo'tan — ota
 idish I arg'u, o'g'uz, tuxsi, yag'mo, yamaq — idish
 ilik I o'g'uz — ilik
 imir o'g'uz — qosh qoraygan payt

imtili chigil — o‘ylamasdan
ingäk II o‘g‘uz — urg‘ochi toshbaqa
iligh qipchoq, o‘g‘uz — iliq
jaba I o‘g‘uz — nam
jabaqulaq yaboqu, yamak — boyqush
jabaquluq // jubaquluq yaboqu, yamak — isitma titratishi
jabi chigil — egar ustiga qo‘yiladigan yostiq
jafa II : jafa jer — o‘g‘uz — sovuqdan saqlangan yer
jagh o‘g‘uz — yog‘; **jagh ügür** o‘g‘uz — kunjut
jajghuq qipchoq — baytal emchaklarining uchi
jal- I qipchoq — yon(moq)
jalafar uyg‘ur — shoh elchisi
jalghu o‘g‘uz — shafqatsiz, muruvvatsiz odam
jalnguq III o‘g‘uz, qipchoq, suvor — cho‘ri
jan- II pchoq — yon(moq)
janga II o‘g‘uz — qirg‘oq
jarat- o‘g‘uz — mo‘ljalga mos qildi
jarligh II chigil — xoqonning xati, farmoni
jarmaqan o‘g‘uz — in‘om, sovg‘a
jartmaq uyg‘ur — pul, tanga
jas I o‘g‘uz — o‘lim, halokat
jasiq turk — yoy idishi, sadoq
javlaq o‘g‘uz, qipchoq — yomon, yovuz
jaz- II o‘g‘uz — yozdi, bitdi
jazaq yag‘mo, tuxsi — o‘tloq
jazghuq qipchoq — baytal emchaklarining uchi
jaziqçi o‘g‘uz — sovchi
je- yaboqu — nes—nobud qil(moq)
jemat ayrim dialektlarda — xo‘p, mayli
jeng- o‘g‘uz, qipchoq — yeng(moq)
jengaç o‘g‘uz — qisqichbaqa(?)
jer- o‘g‘uz — jerk(moq), ta‘zirini ber(moq)
jerdash o‘g‘uz — hamshahar
jersgü: aja jersgü chigil — ko‘rshapalak
jidzigh: jidzigh ot koshg‘ar — isiriq
joghdu turk — tuyalarning bo‘yni ostidagi uzun jun
jol: jol jorasun o‘g‘uz — oq yo‘l
jordaçi o‘g‘uzdan boshqa dialektlarda — sovchilar
 orasida aloqa qiluvchi

jorighçi o'g'uz — sovchilar orasida aloqa qiluvchi
jorinça o'g'uz — yo'ng'ichqa
jubaquluq *yaboqu, yamak* — istima titratishi
jubila- o'g'uz, *qipchoq* — alda(moq)
judzugh *kanchak* — so'kish (bolalarga nisbatan)
jumghaq: jumghaq tana uch — kashnich urug'i
jumurlan- o'g'uz — yig'il(moq), to'plan(moq)
jun- I *turk* — yuvin(moq)
jung (jüng?) *arg'u, yag'mo, qorluq* — paxta
jupla- o'g'uz — alda(moq)
jüş o'g'uz — to'planish, to'polon, tiqilinch
jura o'g'uz — tevarak—atrof
jut- o'g'uz, *qipchoq* — yut(moq)
jügrüg: jügrüg bülgä o'g'uz — idroki bor odam
jükündäçi o'g'uz — ibodat qiluvchi odam
jükündüçi o'g'uzdan *boshqa dialektlarda* —
 ibodat qiluvchi odam
jükünç *qipchoq* — ibodat, sajda
jürçüngäk *chigil* — quti
jüzärlük o'g'uz — isiriq
keçä I o'g'uz — namat
keçi o'g'uz — echki
kel-: **keldüm** *arg'u* — (men keldim)
keläçü o'g'uz — nutq, hikoya qilib berish
keltür- o'g'uz — keltir(moq)
kemī o'g'uz, *qipchoq* —kema
kendük *kanjak* — katta sopol xum
kenpä *kanjak* — o'simlikning bir turi
kep o'g'uz — qolip, shakl
ker- II *qarluq* — vovilla(moq)
kerägü *turkman* — chodir
keräy I o'g'uz — soch olish uchun ishlatiladigan ustara
keräm I *yuqori va quyi chin tilida* — yerto'la
kerish I o'g'uz — dovon cho'qqisi
kerit- *qarluq* — vovillat(moq)
kestär *uch* — loydan yasalgan xum
kesh o'g'uz va *qipchoqlar tilidan tashqari* — o'qdon
keshür o'g'uz — turp
ketü *qipchoq* — mayib, majruh

kevlī kanjak — daryo og‘zi
kibā o‘g‘uz — oz vaqt, qisqa zamon
kīmī o‘g‘uzlardan boshqa dialektida — kema
kīshī yag‘mo — xotin; **kīshī al** — uylan(moq)
kök II o‘g‘uz, qipchoq — urug‘, qabila
köklash- bulg‘or — ulfatlashishga ahd qil(moq)
köm: köm kök o‘g‘uz — juda ko‘k
kön- II arg‘u — yon(moq)
köpçük o‘g‘uz — egarning ustiga qo‘yiladigan yopuq
körkä kanjak — yog‘och kosa, zarang kosa
közün- arg‘u — ko‘rin(moq)
kübān o‘g‘uz — to‘qim, egar
küç: küç jaghi chigil — kunjut moyi
küz- o‘g‘uz — qo‘riqla(moq)
küzäç arg‘u — idish
kümürgän o‘g‘uz — tog‘ piyozi
künçäk o‘g‘uz — cho‘ntak
küs- I o‘g‘uz — xafa bo‘l(moq)
küvük I: küvük mush chigil — yovvoyi mushuk
küvük II o‘g‘uz — poxol
küvüz o‘g‘uz — yungdan to‘qilgan palos
küzä(t)täçī o‘g‘uz, qipchoq — qorovul, qo‘riqchi
küzäk arg‘u — jinglak soch
la I o‘g‘uz — ta‘kid yuklamasi
lav bulg‘or — muhr uchun mum
lish I chigil — so‘lak, tupuk
lish II igil — balg‘am
luçnüt kanjak — hashar
mandar o‘g‘uz — ishq pechak
maraz II rg‘u, yag‘mo — yollangan ishchi
mendiri chigil — to‘y rasm—rusumlari
mingar o‘g‘uz — buloq
mughuzghaq arg‘u — asalariga o‘xshash hashorot
mush chigil — mushuk
mükim turk — ayollar poyafzalining bir turi
mükim turk — ayollar poyafzalining bir turi
mün I yag‘mo — sho‘rva, uvralik sho‘rva
namiza chigil — xotin tomondan qarindosh
oba o‘g‘uz — urug‘, qabila

oghla *arg'u* — o'g'lon
oghur IV *o'g'uz* — badal, evaz
oghur V *o'g'uz* — muvaffaqiyatli, xayrli
oghurlan- II *o'g'uz* — tenglashtiril(moq), qiymati beril(moq)
ojuq *o'g'uz* — poliz qo'riqchisi
ong II *chigil* — o'ng tomon
op I *arg'u* — xirmon yanchuvchi ho'kizlarning o'rtasidagi ho'kiz
osughla- *kanjak* — kalitsiz och(moq)
ota- I *yag'mo, yamak* — yoqmoq
ota- II *o'g'uz* — davola(moq)
otran *yag'mo* — kiyim
öd II *o'g'uz* — teshik
ötünç *o'g'uz* — qarz
öjáz *o'g'uz* — chivinning bir turi
öjlä *o'g'uz* — choshgoh
ön- *uyg'ur* — otlan(moq), jo'na(moq)
öndür- *uyg'ur* — otlantir(moq), jo'nat(moq)
öng II *o'g'uz* — o'ng tomon
örän *o'g'uz* — buzilgan, yomon narsalar
örçük *o'g'uz* — o'rilgan soch
örgän *o'g'uz* — qalin arqon
ötki *chigil* — badal, evaz
ötünç II *o'g'uz* — qarz
özı *chigil* — ikki tog' o'rtasidagi o'tish joyi
pamuq *o'g'uz* — paxta
parçam *o'g'uz* — belgi, nishon
qa- *yag'mo* — taxladi
qaziq *arg'u* — yog'och idish
qajin *o'g'uz* — qayin
qajing *yag'mo, tuxsi, qipchoq, yabaqu, tatar, qaytumul va o'g'uzlarda* — qayin
qajir I *o'g'uz* — qum
qajtar- *o'g'uz* — qaytar(moq)
qalida *o'g'uz* — bo'yin tumor
qanaq *arg'u, bulg'or* — qaymoq
qanu *arg'u* — qaysi
qar- I *o'g'uz* — qorishtir(moq)
qara I: **qara qush** *o'g'uz* — tuya paypog'i

qaraqala- *yag'mo* — talon—taroj qil(moq)
qaril- *o'g'uz* — aralashtir(moq)
qarinça *o'g'uz* — chumoli
qarinçaq *o'g'uz* — chumoli
qarit *turkman* — haqorat
qartur- I *o'g'uz* — qordir(moq), aralashtirgiz(moq)
qat I *o'g'uz* — yonida, —da
qat II *kay, qipchoq, tatar, chumul, yamak* — meva
qatlan- II *qipchoq, o'g'raq, yamak* — meva ber(moq)
qatqıç *arg'u* — bir xil hasharot
qatut II — *barsag'an* — mag'iz, danak, urug'
qazin *qipchoq* — xotinning otasi, qaynota
qiftu *chigil* — qaychi
qirnaq *kay, qipchoq, o'g'uz, chumul, yaboqu, yamak, yasmil* — joriya, cho'ri
qiz kishi *arg'u* — baxil odam
qizil I: **qizil süçik** *tuxsi, chigil, yag'mo* — may
qoç I *o'g'uz* — qo'y
qon I *arg'u* — qo'y
qonshi *o'g'uz* — qo'shni
qonuqla- *o'g'uz* — mehmonlarni qabul qil(moq)
qoru *qipchoq* — tikan
qosh: **qosh biçäk** *arg'u* — qaychi
qoshun *o'g'uz* — qo'rg'oshin
qova I *o'g'uz* — chelak
qovuz I *o'g'uz* — jin tegish asari
quçghundi *chigil* — piyoz
quzuzlan-*arg'u* — eridan ajralgan ayolga uylan(moq)
qum I *chigil* — qum
qur V *o'g'uz* — quruq
qurman *o'g'uz, qipchoq* — o'q—yoy soladigan idish
qurt II *o'g'uz* — bo'ri
qushghaç *o'g'uz* — chumchuq
sagh III *o'g'uz* — o'ng tomon
sagh V *o'g'uz* — aql
saghur- I *qarluq* — yut(moq)
saghur- II *barsag'an* — tupur(moq)
saltur- *o'g'uz* — ixtiyoriga tashla(moq)

saman *chigil* — somon
samda *chigil* — oyoqqa kiyiladigan sandal
sasiq *uch* — sopol
satgha- III *o'g'uz* — o'rinma-o'rin qil(moq)
satghash- III *o'g'uz* — qarzlarini uzish(moq)
satlan- *chigil* — botin(moq), jur'at qil(moq)
savash- *o'g'uz* — savash(moq)
savçi I *o'g'uz* — payg'ambar, elchi
savçi II *o'g'uz* — sovchi
saxt *o'g'uz* — kamar, to'qa va egarning boshiga o'rnatish uchun oltin, kumushdan ishlangan ziynat
seça *o'g'uz* — chumchuq
semürgük *barsag'on* — bulbulga o'xshash qush
sengäk *o'g'uz* — suv ichiladigan idish
sin II *kanjak* — sen
sidrim *o'g'uz* — charm qayish
sighra *o'g'uz* — ikki tog' orasidagi dara (vodiy)
simsimraq *chigil* — ovqatning bir turi
sindu I *o'g'uz* — qaychi
sinuq *o'g'uz* — siniq
siq II *o'g'uz* — kichik, ahamiyatsiz
sirt II *o'g'uz* — kichik tepa
sirtla- I *o'g'uz* — tepalikka ko'taril(moq)
soghur- *qorluq* — qurut tayyorla(moq)
soghut I *qorluq* — qatiqdan tayyorlangan pishloq
soq- III *o'g'uz* — chaq(moq)
sor- I *o'g'uz* — so'ra(moq), surishtir(moq), izla(moq)
söğüş II *o'g'uz* — qovurish uchun sara qo'y yoki echki go'shti
sökäl *o'g'uz* — kasal
sökti II *barsag'on* — kepak
sujran *o'g'uz* — minoraga o'xshash har qanday uzun narsa
sulaq *qipchoq* — taloq, qora jigar
suqun- *uch* — yuvin(moq)
susghaq *qorluq, qipchoq* — cho'mich
suvuq *qipchoq* — uzun, ammo qili kam dum
süm: **süm süçik** *o'g'uz* — juda shirin
sürçäk *o'g'uz* — kechki yig'ilish, o'tirish

shav uch — bir xil o't
shebāng chigil — yo'g'on temir, so'yil
shenbuj kanjak — tungi ziyofat
shin chigil — taxta
shünük yag'mo — chinor daraxti
shüt xo'tan — urug' (kelib chiqish ma'nosida)
talaq qipchoq — taloq, qora jigar
tamaq o'g'uz, qipchoq — tomoq, bo'g'iz
tamar o'g'uz — tomir (qon tomiri ma'nosida)
tana uch, arg'u — kunjut urug'i
tang II arg'u — elak
tapçang kanjak — uch oyoqli shoti
taq- o'g'uz — bog'la(moq), taq(moq)
taquq turkman — tovuq
taquqlugh o'g'uz — tovug'i bor
tarxan arg'u — bek
tas I o'g'uz — yomon
tashiq- yag'mo, tuxsi, qipchoq, yaboqu turkman — tashqari chiq(moq)
tat I yag'mo, tuxsi — islomni qabul qilmagan uyg'urlar yoki xitoylar
tavar o'g'uz — jonli, jonsiz mol, tovar
tegin- chigil — erish(moq), yetish(moq)
tegül o'g'uz — unday emas, tugul
tek I o'g'uz — shunchaki
telü o'g'uz — telba, aqli zaif
temürkän o'g'uz — o'qning temirli uchi
tengälgüç o'g'uz — bir xil qush
terinçäk o'g'uz — xotinlarning yengi yo'q ust kiyimi
tering o'g'uz — keng va chuqur
tes: tes tegirmä o'g'uz — oshirish yuklamasi
tevā o'g'uz, qipchoq suvor — tuya
toz chigil — qushning bir turi
toz- chigil — to'y(moq)
toghril II kanjak — go'sht va dorivorlar bilan to'ldirilgan ichak
tonguz: tonguz märdäki ayrim turk. — to'ng'iz bolasi
topul- o'g'uz — (kiyimni) yech(moq)
toqi- o'g'uz — taqillat(moq), to'q-to'q ur(moq)
toqin- o'g'uz — uril(moq)

toqul- I o'g'uz — uril(moq)
toz- III *yamak, suvar, bulg'or, qipchoq* — to'q bo'l(moq)
tügī o'g'uz — po'sti olingan tariq
tül I o'g'uz — (qo'zilash, bolalash) vaqti
tülak I o'g'uz — tullash vaqti
tülät- o'g'uz — tug'dir(moq)
tön- o'g'uz — qayt(moq)
törüt- o'g'uz — yarat(moq)
töz- *qipchoq* — och qol(moq)
tudriç *arg'u* — go'ng
tughragh I o'g'uz — xonning shaxsiy muhri
tughraghlän- II o'g'uz — muhr qo'y(moq)
tildra- o'g'uz — yoyilib ket(moq)
tulun II *turk tillarining birida* — chakka
tömrük o'g'uz — doira, childirma
tümsä *arg'u* — minbar
tünäk *barsag'on* — zindon, qamoq
tushrum *arg'u* — pishirilgan ip koptogi
tüväk *chigil* — tuppak
uç I o'g'uz — biron narsaning uchi, oxiri
uçan *qipchoq* — ikki yelkanli qayiq
ud *chigil* — sigir
uzluq I *arg'u* — cigirlar kechasi yotadigan joy, molxona
uliç *qorluq* — bolalar erkalatilganda aytiladigan so'z
ulush *chigil* — qishloq
uma I *tibet* — ona
urgha *arg'u, o'g'uz* — baland daraxt
urq o'g'uz — arqon
urra o'g'uz — erkaklardagi churra
us II o'g'uz — mohir, idrokli
us- I o'g'uz — o'yla(moq), mushohada qil(moq)
utan- o'g'uz — uyal(moq)
uzlang o'g'uz — buqalamun
übgük *chigil* — sassiqpopishak
ügürmäk o'g'uz — taxtiravon
uhī *kanjak, xo'tan* — boyo'gli
üjük II o'g'uz — tepalik joylar

ükil qipchoq — ko‘p, bir talay
ürüng 1 chigil — oq
ütrük o‘g‘uz — ayyor
xaju qipchoq, o‘g‘uz — qaysi
xamir o‘g‘uz — amir
xanda qipchoq, o‘g‘uz — qayerda
xijar: xijar maraz arg‘u, yag‘mo — haqli ishchi, muzd
xiz qipchoq, o‘g‘uz — qiz
zänçü qipchoq, o‘g‘uz — marvarid, dur
zoghdu qipchoq, o‘g‘uz — tuyaning bo‘ynida
osilib turadigan jun

Bo‘lim yuzasidan savol va topshiriqlar

1. Qadimgi turkiy tilning leksik qatlamiga qisqacha ta‘rif bering.
2. Qadimgi turkiy tildagi ko‘p ma‘nolilikning hosil bo‘lish yo‘llarini izohlang.
3. Qadimgi turkiy tilda evfemizmlar qanday hosil bo‘lgan? Misollar keltiring.
4. Qadimgi turkiy tildagi omonimlarning paydo bo‘lish sabablarini izohlang.
5. Qadimgi turkiy tilda sinonimlarning qanday ko‘rinishlarini ajratish mumkin?
6. Boshqa tillardan va dialektlardan so‘z olish hisobiga sinonimik qator hosil bo‘lishining sabablarini tushuntiring.
7. Qadimgi turkiy tildagi antonimlarni belgilash mezonlarini tushuntirib bering.
8. Qadimgi turkiy tilda iboralarning hosil bo‘lish sabablarini izohlab bering.
9. Qadimgi turkiy tilning leksik qatlamini qisqacha tavsiflang.

BESHINCHI BO‘LIM

QADIMGI TURKIY TILNING MORFOLOGIK XUSUSIYATLARI

SO‘Z YASALISHI

Tayanch tushunchalar: morfema, tarixiy morfema; so‘z tarkibi, o‘zak, negiz, qo‘shimcha; so‘z yasovchi qo‘shimchalar bilan so‘z yasash, analitik usul bilan so‘z yasalishi.

Morfema haqida tushuncha

Morfema ma‘no anglatuvchi eng kichik, bo‘linmas elementdir.

Morfema analizida tarixiylik va hozirgi holat masalasini aniq farqlay olish kerak. Tilning tarixiy taraqqiyoti jarayonida so‘zning morfem tarkibi o‘zgarib turadi. Jumladan, hozirgi o‘zbek tilida i \ddot{s} l \ddot{a} , ba \ddot{s} la so‘zlarini i \ddot{s} -l \ddot{a} , ba \ddot{s} -la shaklida morfemalarga ajratamiz. Bunga, ikkala yasama so‘z o‘zaklarining leksik ma‘no anglatishi, ularning mustaqil holda qo‘llana olishi, -l \ddot{a} , -la qo‘shimchasining fe‘l yasovchi ekanligi asos qilib olinadi. Biroq, i \ddot{m} l \ddot{a} so‘zi hozirgi o‘zbek tili nuqtai nazaridan morfemalarga bo‘linmaydi; -l \ddot{a} ni fe‘l yasovchi deb qaraganimizda ham, o‘zak alohida turishida leksik ma‘no ifodalamaydi (im qaddi deyilganda ham yasama so‘z holida qo‘llanadi). Tarixan, aksincha, i \ddot{m} l \ddot{a} dagi im — “parol, belgi” ma‘nosini bildirgan, shuning uchun uni o‘sha davr normasiga tayanib ikkiga ajratish mumkin. Yoki alda so‘zini ham hozirgi norma asosida morfemalarga bo‘la olmaymiz. Tarixan uni ikki morfemaga ajratish mumkin: al-da. Bulardan: -da — fe‘l yasovchi, al esa «hiyla, nayrang» ma‘nosini bildiradi. Bunda til tarixida o‘zaklarning mustaqil qo‘llanila olgani, qo‘shimchalarning esa yasovchi sifatida harakat qila olgani asos qilib olinadi. Masalan, al so‘zi o‘tmishda mustaqil holda ham qo‘llanilgan: Awč̄i neč̄ä al bilsä, ađıḡ anča yol bilir — Ovchi qanchalik hiyla bilsa, ayiq ham qochib qutilish yo‘llarini shu qadar biladi (MK, I, 94).

Endi ula- so‘zida bu qolipdagi yasaliş yo‘q. Uning o‘zagi — ul. Qadimgi turkiyda ul — “asos, tag-tug”; ula- — “asosini biriktir-, bog‘la-” degani.

Hozirgi o‘zbek tilidagi qut \ddot{il} , qutqar so‘zlarini morfemaga bo‘lish mumkin emas. Lekin tarixan ular morfemalarga bo‘linadi: qut- \ddot{r} -l, qut-qar. Keyingi so‘zdagi -qar fe‘l yasovchi qo‘shimcha, masalan, ba \ddot{s} qar ham shu qolipda yasalgan. Qadimgi turkiyda qut bir qancha

ma'nolarda qo'llangan. Shulardan biri "qut, baxt" ma'nosi. Masalan, Yusuf Xos Hojib dostonining oti "Qutadġu bilig" shundan olingan, "Qutga, baxt-u saodatga yetkazuvchi bilim" degani. Qut so'zi "erk, ozodlik" ma'nosida ham qo'llangan. Masalan, qadimgi turk eposi "O'g'uzxoqon" dostonida shunday jumla bor: Men seġā bařimnī, qutumnī berā-men (OD, 22, 6). Buni ruschaga "Я отдаю тебе свою голову, свою душу" deb o'g'irganlar (DTS,471). Aslida, bu jumladagi qut ni "jon" ("душа, жизненная сила, дух") deb emas, "erk, ozodlik" deb anglamoq kerak. Bu o'rinda xonga bosh egish, taslim bo'lish haqida so'z bormoqda. Shunga ko'ra, matnni "Men senga boshimni, erkimni beraman" deb o'g'irgan ma'qul. Ana shunda "senga erkimni beraman; senga bo'yunsinaman" degan ma'no kelib chiqadi. Hozirgi o'zbek tilidagi qutīl, qutqar ham o'sha so'zdan: qutīl — "ozod bo'l-", qutqar — "ozod qil-" degani.

Qadimgi turklarning shunday maqoli bo'lgan: Er qutī belij, suw qutī terij. Buni ruschaga «Достоинство мужа — в страхе, ценность воды — в глубине» deb tarjima qilganlar (DTS,94). Uyg'urcha tarjimasida bu maqolni "Erning quti (baxti) qo'rqmaslikda, suvning quti cho'ngqurlikda" deb o'g'irganlar. Ushbu qadimgi turk maqolida qut — "quvvat, kuch-qudrat" ma'nosidadir. Shunga ko'ra maqol "Erning (yigitning) jasurligi qutqu chog'ida (to's-to'polonda) bilinadi, suvning qudrati tubida (bilinadi)" degan ma'noni beradi.

So'zning morfem tarkibi matn yaratilgan davr me'yorlariga asoslanib belgilanadi. Tarixiy taraqqiyot, til me'yorlarining harakatlanishi oqibatida ba'zan o'zak, ba'zan esa qo'shimchalar iste'moldan chiqishi mumkin. Ba'zida ikkalovi unutilib, bir komponentga birikib ketadi. Natijada ularni ma'noli qismlarga bo'lishning iloji qolmaydi. So'zning bunday holatini tabiatdagi ayrim kristallarga qiyoslash mumkin. Tabiatdagi ayrim qattiq moddalar qachonlardir suyuq yoki yumshoq holatda bo'lgan, hozir ular zaranglashib, bo'linmas holga kelib qolgan.

Tilda me'yoriy, odatiy holatlar bilan bir qatorda, tarixiy holatni ko'rsatuvchi, lekin hozir harakat qilmaydigan relikt (qoldiq) hodisalar ham uchrab turadi. Bu hodisa so'zning morfem tarkibiga ham aloqador. Xuddi shunday relikt holatlar hozirda «kristall» holiga kelib qolgan so'zning o'zagi, unutilgan qo'shimchasi yoki har ikki komponenti bo'lvi mumkin.

Qadimgi turkiy tilda *apa* so'zining "ona; opa, egachi" ma'nolari bilan bir qatorda "katta, ulug'" ma'nosi ham bor. Masalan, ko'k turk

bitiglarida *apa tarqan* atamasi uchraydi. Bu soʻz tarkibidagi *tarqan* ~ *tarxan* unvondir. Mahmud Koshgʻariyning yozishicha, *tarxan* — bek. Islomiyatdan oldin qoʻllanilgan ism (argʻucha) (MK, I, 409). *Apa tarqan* atamasi tarkibidagi *apa* — “katta, ulugʻ, bosh” maʼnosida; *apa tarqan* — “katta tarxon, bosh tarxon, bosh qoʻmondon” degani.

Apa ~ *aba* “katta, ulugʻ” maʼnosida aqrabolik (qarindosh-urugʻchilik) otlari tarkibida ham keladi. Masalan, eski oʻzbek tilida (“chigʻatoy turkchasi”da) *aba*ga soʻzi qoʻllangan. Navoiy soʻzi bilan aytganda, turklar “atanıñ *apa* (vā) inisin *aba*ga” deganlar (ML, 176). Mazkur soʻz *apa* ~ *aba*+*a*ga — “katta ogʻa” degan maʼnoni anglatadi.

Hozirgi oʻzbek tilida ham *apa* ning “katta, ulugʻ” maʼnosi qoldiq shaklida ayrim soʻzlar tarkibida saqlangan: *apa*gayi (<*apa*+*ayi*) — soʻzmasoʻz “ulugʻ ona, katta ona” degani, amakining xotini; *apa*(g)*dada* yoki *apa*gada — birinchisi *apa*+*dada* (“katta *dada*”)dan, keyingisi *apa*+*ada* (“katta *ota*”)dan. *Apa*gdada — aslida *dadaning* yoki *onaning* buvasi. *Apa*gada esa *otaning* yoki *onaning* otasi; *apa*gbuwi (<*apa*+*buwi*) — maʼnosi “katta *buvi*” degani; *apa*qi (<*apa*-*qi*): -*qi* — soʻz yasovchi qoʻshimcha. *Apa*qi — asl maʼnosi “*apa*, *ya*ʼni katta *tugʻishgan* (*amaki* yoki *togʻa*)ga tegishli” degani, amakining yoki *togʻaning* xotini.

Baʼzi aqrabolik otlaridagi da uzvida ham “katta, ulugʻ” maʼnosi mujassam. Masalan: *dada*, kelib chiqishi *da-ada* dan, maʼnosi — “katta *ada*”, *ya*ʼni *buva*. Ushbu soʻzda *da*— *uzvi boʻlmasa*, unda “katta, ulugʻ” maʼnosi ham ifodalanmaydi. Demak, “kattalik” maʼnosi ayni uzv orqali anglashilayotgani tabiiy. Toshkentda “*ota*”ni *dada* deguchilar bor.

Yana bir misol: *ta*ga (<*ta*-*a*ga) “katta ogʻa” degani, *onaning* akasi yoki ukasi. “Chigʻatoy turkchasi”da bu soʻz *ta*gay~*ta*gayi shaklida qoʻllangan. Navoiyning taʼkidicha, turklar “*ananıñ a*ga (vā) inisin *ta*gayi” deganlar (ML, 176). Mahmud Koshgʻariy devonida bu soʻz *ta*gay shaklida berilgan. Lekin uning maʼnosini muallif “*amaki*” deb izohlagan (MK, III, 256). Qadimgi turkiy til morfem tuzilishiga koʻra *ta*gay ~ *ta*gayi soʻzi tarkibidagi *ta* uzvida “katta, ulugʻ” maʼnosi mujassamlashganligini kuzatish mumkin: *ta*gay (<*ta*-*a*gay).

Shuning kabi, *daya* soʻzida “katta *aya*” maʼnosi bor.

Harqalay, *dada*, *ta*ga, *daya* soʻzlari tarkibidagi *ta*~*da* uzvida “katta, ulugʻ” maʼnosi mujassamlashgani haqiqatga yaqin. Mazkur *ta*~*da* uzvini ayrim olimlar xitoychadagi “katta, ulugʻ, bosh, yirik” maʼnosini beruvchi *da* soʻziga bogʻlaydilar. Biroq, ayrim asl turkiy soʻzlar tarkibida uning mavjudligi bu qarashni tamom inkor etadi (masalan, *ta*g soʻzida).

Shunga binoan, uni boshqa tillar ta'sirida turkiyga o'zlashgan deb qaramaslik kerak. U berisi bilan xun davri, ehtimol, oltoy davridan kelayotgan qoldiq bo'lsa ajab emas.

Demak, yozma yodgorliklar grammatik jihatdan tahlil qilinganda so'zlarni morfemalarga ajratishda zamonaviy me'yorlarga asoslanib (ya'ni hozirgi o'zbek tili normalariga tayanib) emas, balki bitiglar yaratilgan davr tilining grammatik normalariga tayangan holda ish ko'riladi.

So'zning tarkibi

So'zlar tuzilishiga ko'ra *tub* va *yasama* bo'ladi. *Tub so'zlar* asli muayyan ma'noni bildiruvchi morfem birlikdir. Ot, sifat, son, fe'l singari mustaqil so'z turkumlari ham, shuningdek, yordamchi so'z turkumlari ham *tub* so'zlar bo'lavi mumkin. Masalan, otlar: *ī* — "o'simlik, buta", ot — "dori-darmon", ig — "kasallik", qaz — "g'oz", qoñ — "qo'y", sōz — "so'z"; fe'llar: ba— "bog'la-", te— "de-", ay— "ayt", uq— "uq", al— "ol-", ked— "kiy-", ber— "ber-", ũrk— "hurk" va b. *Yasama so'zlar* esa o'zakka yasovchi qo'shimcha qo'shish yoki mustaqil so'zlarning grammatik birikishi tufayli yuzaga keladi.

So'z tarkibi deyilganda, o'zak, negiz hamda so'zning sintaktik munosabatini ta'minlovchi turli qo'shimchalarning birligi, so'zning morfologik tizimi (strukturasi) tushuniladi. So'z tarkibini tahlil qilishda, avvalo, leksik hamda grammatik ma'no anglatuvchi komponentlarni ajratib olish lozim. So'z tarkibi leksik hamda grammatik ma'no anglatuvchi komponentlar birligidan iborat bo'ladi.

So'zning leksik ma'no bildiruvchi komponentlariga o'zak hamda negiz kiradi. *O'zak* — so'zning eng kichik leksik ma'noli bo'lagi. *Negiz* esa so'zning ma'nosini beruvchi, eng katta leksik ma'noga ega bo'lgan bo'lagidir. Masalan: *tīn-* fe'liga ot yasovchi -č qo'shimchasini qo'shib, *tīnč* oti yasalgan. *tīnč* so'zining o'zagi (eng kichik leksik ma'noli bo'lagi) *tīn-*, negiz esa ot yasovchi -č qo'shimchasini qo'shish natijasida hosil bo'lgan *tīnč* so'zidir. Endi bu so'zga -ī qo'shimchasini qo'shib, *tīnčī* fe'lini yasaymiz. Bunday holda negiz ham o'zgaradi: yangi yasalgan so'z negiz bo'ladi. Lekin o'zak o'sha-o'sha turaveradi. Shuning uchun bir o'zakdan yasalgan so'zlarni o'zakdosh so'zlar deb ataymiz. Keltirilgan *tīnč*, *tīnčī* so'zlari o'zakdosh (bir o'zakdan yasalgan) so'zlardir. Demak, *tīnčī* so'zining tarkibi shunday: $tīn + č + ī = tīn - > tīnč > tīnčī$ -. Yana bir misol: qatīgīr (qattiq qilib, mahkam qilib) so'zining tarkibi shunday: "qot-" anglamidagi qat- fe'liga sifat yasovchi

-iğ qo'shimchasini qo'shib qatığ so'zi, unga esa -ti ravish yasovchisini qo'shib qatıǵtı so'zi yasalgan. Bu so'zni o'zak-negizga ajratish tartibi ham yuqoridagi so'z kabidir: qat-> qatıǵ>qatıǵtı.

So'zning grammatik ma'no bildiruvchi komponentlariga qo'shimchalar kiradi. Muhimi shundaki, so'z tarkibiga yasovchi qo'shimchalargina emas, yasovchi bo'lmagan qo'shimchalar (so'z o'zgartuvchi, shakl yasovchi) ham kirib ketadi. Chunki ularning bari so'zni shakllantirishga, uning leksik-semantik, morfologik, sintaktik-stilistik o'rnini ta'minlashga xizmat qiladi.

Til tarixida ham qo'shimchalar uch xil ko'rinishda uchraydi: so'z yasovchi, so'z o'zgartuvchi va shakl yasovchi.

So'zlarning morfologik usulda yasalishi

So'zlarning morfologik usulda yasalishi o'zak yoki yasama so'zga yangi bir so'z yasovchi qo'shimcha qo'shish bilan boshqa bir so'z hosil qilinishidir.

Turkiy tillar tarixida, yozma yodgorliklar tilida so'zlar qat'iy qonunlar asosida yasalgan. Yasama so'z ma'no jihatdan o'ziga bog'liq bo'lgan o'zakdan, o'sha so'zning har qaysi emas, aynan tutash ma'noli semasidan urchiydi. Agar yasama so'zning morfem sostavi chuqur tahlil qilinsa, o'sha ildizga yetib boriladi. Masalan, hozirgi o'zbek tilida "o'tni yulish jarayoni"ni anglatuvchi otaq so'zi "o'tni yul-" ma'nosidagi ota-fe'lidan, u esa "o'simlik" anglamidagi ot so'zidan yasalgan. Yodgorliklarda otači degan atama uchraydi, "tabib, davolovchi" degani. Bu so'zning o'zagi "o't, o'simlik" emas, balki "dori, em" ma'nosidagi ot dir, undan ota-, ya'ni "davola-" fe'li, unga -či qo'shimchasini qo'shib otači oti yasalgan. Demak, otači so'zining ildizi "davolamoq" ma'nosidagi ota-, uning negizida "dori" ma'nosidagi ot ga bog'lanadi. Yodgorliklar tilida, boshqa bir ota- fe'li ham uchraydi, masalan: otuñ ota- deydi, bu "o'tin qala-, o'tin yoq-" degani. Endi bu fe'l "o't, olov" anglamidagi ot dan. Hozirgi o'zbek tilida otaw degan so'zimiz bor, bitiglardagi ko'rinishi — otağ. Hozirgi ma'nosiga qaraganda, bu so'zning o'zagi, harqalay, "olov" ma'nosidagi ot dir. Undan "o't qala-" ma'nosidagi ota-, unga joy nomi yasovchi -ğ qo'shimchasini qo'shib, otağ so'zi yasalgan, bu "o't yoqib qishni o'tkazadigan joy" ma'nosini beradi. Qiyoslang: qışlaq (<qış-la-q)— "qishni o'tkazadigan, qishlaydigan joy"; yaylağ (<yay-la-ğ) - "yozni o'tkazadigan yer, yaylov".

Hozirgi ayrim o'zbek shevalarida "dazmol"ni ütük deydi. Bu so'z

o'zaging "olov" ma'nosidagi ot ga bog'liqligi yo'q. Chunki, Mahmud Koshg'ariy uni ütük shaklida keltirgan (Agar bu so'z ot dan yasalganida uni singlarmonizm qoidasiga ko'ra otuq shaklida keltirgan bo'lur edi). Ahamiyatlisi, Koshg'ariy devonida ütidi fe'li ham keltirilgan (MK, III, 268), bu «dazmolladi» degani. Demak, ütük o'sha fe'ldan ekanligi ayon. Qiyoslang, Alisher Navoiyning "Muhokamatu-l-lug'atayn" asarida ta'kidlanishicha, "üt— kallanī otqa tutup tükün aritur ma'nodadir".

Yana quyidagi misollarga e'tibor bering: rangni bildiruvchi yašil — "yosh, yangi" ma'nosidagi yaš so'zidan yasalgan (yaš-il). E'tiborga sazovorki, "Qutadg'u bilig"da osmonning sifati yašil so'zi bilan berilgan: yašil kök. Ko'k turk bitiglarida uni kök tājri deydi: kök — rangni bildiradi, tājri esa "osmon" degani. "Qutadg'u bilig"da osmonga nisbatan qo'llanilgan yašil sifati, o't, maysa rangini emas, balki "tiniq, beg'ubor" ma'nosini beradi: yašil kök — "tiniq, musaffo osmon".

Umr vaqti anglamidagi yaš ham ayni so'zdan urchigan; umrning muayyan vaqti: bir yaš — insonning bir yillik umri. yaš, yaš yigit, yaš bala deyilganda "hali ko'p yashamagan, o'smir" tushuniladi (chog'ishtiring, qadimgi turkiy tilda: yašlīg — yoshi katta, keksa; yašlīg er — keksa kishi. Hozirgi turk tilida: yašli (yaš-li) — "keksa, uzoq yashagan kishi"). Yaša (yaš-a) fe'li ham ayni o'zakdan. Endi yašin, yašna (<yašin-a) so'zlari boshqa bir o'zakdan yasalgan (chog'ishtiring: čaqin, čaqna; bu ham yuqoridagi qolipda bo'lib, o'zagi čaq-; čaqmaq čaqdī; yoki: gügürt čaq-, ot čaq-). Harqalay, yašin so'zining o'zagida "yorug', nur" ma'nosi borligi ayon. Qadimgi turkiyda: yašu— yorug'lik sochmoq. Chog'ishtiring, QB da: Yašiq — Quyosh. Yaruq ham o'sha qolipda yasalgan, yaru— "yorug'lik sochmoq" so'zidan.

Affiksatsiya usuli bilan so'z yasashida so'zning ichki va tashqi tomoniga e'tibor qaratiladi. So'zning ichki tomoni ma'no, semantika bilan bog'liq. Tashqi belgisi uning tovush tomonidir. Qadimgi turkiy tilda yasama so'z ana shu ikki jihat birligidan yuzaga kelgan. Demak, o'zak bilan yasalgan negiz o'rtasida ham ma'no, ham fonetik jihatdan bog'liqlik bo'lmog'i kerak.

Yodgorliklar tilida so'z yasovchi affikslarning vazifasi muhim. Har bir affiks, o'ziga tegishli doirada harakat qiladi, muayyan ma'noni anglatuvchi so'zlar guruhini yasaydi, chegaradan chiqmaydi. Sinonimiya qurshoviga tushgan taqdirda ham, eshi yo'l bersagina, uning vazifasini bajaradi.

Yana har affiksning fonetik variantlari ham bo'ladi. Variantlarning

bari “bir affiks”, har qaysisi “o’sha affiksning ko‘rinishi” deb qaraladi. Ular o‘zakka singarmonizm qonuni asosida birikadi; biri boshqasining o‘rnida kela olmaydi. So‘zning morfem qurilishini tekshirganda bu qonuniyatlarni unutmazlik kerak.

Qo‘shma so‘zlar va ularning yasalishi

Turkiy tillar tarixida so‘z yasashning analitik usuli ham amal qilgan. Bunday usul bilan yasalgan so‘zlar yodgorliklar tilida keng qo‘llaniladi.

Ko‘k turk bitiglarida: berjgütaş, bitigtaş — bitigtosh, sübaşı — lashkarboshi. AH da: qarabaş — cho‘ri, xizmatkor.

Ko‘k turk bitiglarida qutb otlari ham shunday usulda yasalgan: kün toğsuq — kun chiqar (Sharq), kün ortusı — Janub, kün batsıq — kun botar (G‘arb), tün ortusı — Shimol.

Qadimgi turkiy tilda qo‘shma so‘z holida yasalgan yer otlari (toponimlar), daryo va ko‘l otlari (gidronimlar) ham tez-tez uchrab turadi: Temir qapıg, Qaraqum, Qara köl, Yincü ögüz, Yaşıl ögüz.

Qo‘shma so‘z holida yasalgan toponimlar ko‘proq joy nomini bildiruvchi so‘zlardan tuzilgan bo‘ladi.

Qadimgi turkiy tilda “shahar” ma’nosida baliq, uluş, kân~ken, kent~kend, ordu so‘zlari qo‘llangan. Bu so‘zlarni ba’zi shahar otlarining tarkibida ham uchratamiz. Masalan: Beşbaliq, Quzuluş, Quzordu. Yoki: Ötükan, Tärkan, Äbäkän, Čimgän otlari tarkibidagi kân~ken~gän ham, chamasi, “shahar” ma’nosini anglatadi.

Quzuluş, Quzordu ham qo‘shma so‘z holiday toponimlardir. Chunonchi, Mahmud Koshg‘ariy uluş so‘ziga izoh bera turib, yozadi: bu so‘z chigillar shevasida “qishloq”ni anglatadi. Balasag‘un va ularning yuqori yonidagi arg‘ular tilida “shahar” demakdir. Shuning uchun Balasag‘un shahrini Quzuluş deydilar (MK, I, 94). Olimning boshqa bir o‘rinda qayd etishicha, bu shaharning Quzordu nomi ham bo‘lgan (MK, I, 145).

Quzordu “Qutadg‘u bilig”ning uyg‘ur yozuvli hirot qo‘lyozmasida ham uchraydi: Munungi turug‘lağ Quzordu eli (Uning turar yeri Quzo‘rdu elidir)(QB, 7). Bu jumlada asar muallifi Yusuf Xos Hojibning tug‘ilgan yeri — Quzo‘rdu (ya’ni Balasag‘un) nazarda tutilmoqda.

Quzuluş, Quzordu nomlari tarkibidagi quz, aftidan, “kunga ters”, “kun botar” ma’nolarini bildiradi. Chog‘ishtiring: Mahmud Koshg‘ariy lug‘atida: quz tağ — tog‘ning quyosh tushmaydigan joyi (MK, III, 196); hozirgi o‘zbek tilida: kungäy — kun tushadigan joy; quzğay —

kunga teskari joy. Yoki turkchada: Güney — Janub, Kuzey — Shimol. Shundan kelib chiqib, Quzuluş, Quzordu — “kun botardagi shahar” degan ma’noni bildiradi,

Endi Beşbaliq haqida. Mahmud Koshg’ariyning yozishicha, bu uyg’ur viloyatidagi besh shahardan biridir (MK, I, 136).

Bu nomning etimologiyasi haqida Koshg’ariy yozadi: baliq — johiliya davridagi turklar va uyg’urlar tilida “shahar”. Uyg’urlarning eng katta shaharlariga Beşbaliq deyilishi shundandir. Beşbaliq — “besh shahar” demakdir. Uyg’urlar boshqa bir shaharlariga Yangibaliq — “yangi shahar” deyдилar (MK, I, 360).

Shahar nomlarining yasashida, ba’zan, Markaziy Osiyo xalqlari tillarida yagona prinsiplar amal qilganligini kuzatamiz. Masalan: Beşbaliq — turkiy nom, Panjkent — forsiy.

Qo’shma so’z shaklidagi kishi otlari ham bor. Masalan, Qutlubars, Qulbars, Aybars, Qaraqush, Alaquş, Aydoğdi, Kündoğdi, Kündoğmiş, Quştemür, Esändemür, Temürxan, Temürtaş.

Murakkab fe’l: saw “so’z, gap, xabar” degan ma’noni beradi. Bundan: saw älit— xabar yetkazmoq, saw k(ä)lür— so’z tashimoq.

So’zlarni juftlash orqali yangi so’z yasash

So’zlarni juftlash yo’li bilan yangi ma’no hosil qilish, asosan, badiiy matnlarga xos.

Ko’k turk bitiglarida ot va sub so’zlari juft holda qo’llanib, “dushman, yov” ma’nosini anglatadi: biriki bodunuğ ot sub qilmadim — birikkan xalqni (bir-biriga) o’t-suv [ya’ni yov] qilmadim (K, 27).

Bitiglarda yer va sub so’zlari juft holda qo’llanib, “tuproq, o’lka, yurt, vatan” ma’nosini anglatgan: Kögmän yer-sub idiziz qalmazun tiyin — Ko’gman yer-suvi egasiz qolmasin deya (K. 20). Täñri Umay iduq yer-sub basa berti erinç — Tangri Umay bilan yer-suv(imiz yovni) bosib berdiku (Ton, 38).

Alqış so’zi “olqish, maqtov, madh” degan ma’noni anglatadi. U alqış öttüg shaklida ham qo’llaniladi, bunda “ibodat, duo” degan ma’noni bildiradi.

Yoki: äw so’zi “uy” degani, matnlarda äw barq shaklida ham qo’llaniladi, bu shakli “uy-joy, turar joy; ro’zg’or” ma’nolarini beradi. Shuning singari: aniğ yawlaq — yomon, bo’lmaq’ur, aş içkü — ovqat, iş tuş — teng-to’sh, o’rtoqlar, og’aynilar.

Adaş so’zi “o’rtoq” degani, matnlarda adaş qudaş shaklida ham

qo'llaniladi, bu "do'stlar, yor-u birodorlar" ma'nosini beradi.

Yoki *ät* — "go'sht, tana", *öz* — "o'zlik", *ätöz* esa "vujud, jism, tana" ma'nosini beradi.

QB, 6 da: *tüş-tej*. So'z tarkibidagi *tüş* ham "teng" ma'nosidadir, *tüş-tej* — "tengdosh, barobar" degani. Yoki, yana solishtiring, hozirgi o'zb.: *tenjur*. Qadimgi turkiy tilda: *qur* — "esh, teng" degani. X. 36 da: *qur bolti* — *esh bo'ldi*.

Hozirgi o'zbekchada uwalı-juwalı so'zimiz bor. Bu so'z qadimgi turkiy tildagi uya so'ziga bog'lanadi. Qadimgi turkiy tilda uya ikki ma'noda qo'llanilgan: 1) birodar, yaqin kishilar, tug'ishganlarni anglatgan (E, 15, 3; MK, I, 113). Bu so'z Adib Ahmad Yugnakiyning "Hibatu-l-haqoyiq" asarida ham uchraydi: Ata bir, ana bir, uyalar, bu xalq — Ota bir, ona bir, barcha xalq qardosh, birodordir (AH, 291). Asar ko'chirilgan davr tilida uya so'zining "birodor, do'st" ma'nosi unutilgan ko'rinadi. Shuning uchun bo'lsa kerak asarning C nusxasida uyalar so'zining ostiga biradarän deb yozib qo'yilgan. 2) "yashash joyi, uya" ma'nosini anglatadi. Masalan, IB, 31 da: uya — in, uya.

Uya so'zining "yashash joyi, uya" ma'nosi hozirgi o'zbek tilida ham bor: Quş uyasida körgänini qiladi. Turk tilida bu so'z yuva shaklida qo'llanmoqda: Yuvayı yapan dişi quştur (Uyani qurgan moda qushdir). Hozirgi o'zbek tilidagi uwalı-juwalı tuzilishiga ko'ra juft so'zdir: uwa~yuwa~juwa — bir so'zning turli fonetik variantlari bo'lib, u "avlod, tug'ishganlar" ma'nosini beradi. Uwalı-juwalı so'zi tarkibidagi birinchi -li qadimgi turkiy tilda amal qilgan teng bog'lovchining qoldiq shaklidir. Keyingisi esa hozir sifat yasovchi sifatida tushuniladi. Ushbu so'z ayni shaklda "serfarzand, avlodli" ma'nosida.

Yozma yodgorliklarda so'zlarni takrorlash yo'li bilan ham yangi ma'no hosil qilinadi. Masalan, adruq — "ayri" degani, matnlarda adruq adruq shaklida ham qo'llaniladi, bu "turli, har xil" ma'nosini beradi.

SO'Z TURKUMLARI

Tayanch tushunchalar: so'zlarning turkumlanish prinsiplari, mustaqil so'z turkumlari, yordamchi so'z turkumlari.

Otlarda ko'plik, egalik, kelishik.

Fe'ning vazifadosh shakllari: sifatdosha, ravishdosha, masdar alomati; fe'ning buyruq-istak shakli, shart ko'rsatkichi, bo'lishli-bo'lishsizlik, fe'l nisbatlari, shaxs-son ko'rsatkichlari, fe'l zamonlari.

OT

Otlarning yasalishi

Morfologik usulda otlar ikki xil asosdan — ot(ismlar)ga va fe'llarga yasovchi qo'shimchalar qo'shish yo'li bilan yasaladi.

1. Otdan (ismlardan) ot yasovchi qo'shimchalar. Bular:

-čī, -čī affiksi. Ushbu qo'shimcha kasb-kor, yumush egasi ma'nosini anglatuvchi ot yasaydi. Ko'k turk bitiglarida: yog'či — azachi, sig'it'či — yig'ichi, ayg'učī — maslahatchi, yer'či — yerni (hududni) yaxshi biladigan kishi; Huast. da: nom'čī — diniy ta'lim beruvchi, pir, ustoz; ötäg'či — qarzdor, ba'zan ötäg'či birim'či shaklida ham qo'llaniladi; tājri'či — xudojo'y, dindor; MK da: ota'či — tabib, tariğ'či — dehqon, em'či — shifokor, etük'či — etikdo'z; AT da: suw'či — dengizchi, kema'či — kema boshlig'i, kapitan.

Alisher Navoiyning yozishicha, mansabning yo hunarning va yo peshaning izhori uchun ba'zi so'zlar so'ngida -čī, -čī qo'shimchasini orttirurlar. Mansabda andoq-ki: qor'či, sučī, hiza:na'či, kerāk yaraq'či, čögān'či, nizā'či, šükür'či, yurt'či, šilān'či, axta'či; hunar va peshada andoq-ki: quš'či, bars'či, qoruq'či, tamğā'či, jibā'či, yorğā'či, xalva'či, kema'či, qoy'či. Qush hunarida ham bu istiloh bordir. Andoq-ki: qaz'či, quš'či, turna'či, kiyik'či, tawušqan'či (ML, 178).

-daš~daš, -dāš~dāš affiksi. QB da: qadaš — qarindosh, qoldaš — qo'ldosh, könjüldaš — ko'ngildosh; MK da: qarındaš — qarindosh, yerdāš — yerdosh, bir yerlik, emükdāš — emikdosh, bir onani emgan.

-liq, -lik, -liğ, -lig / -luğ, -lük, -lug, -lüg affiksi. QB da: qariliq — qarilik, uluğluq — ulug'lik, sağliq — xushyorlik, yaruqluq — yorug'lik, yigitlik — yigitlik, esānlik — esonlik, čėčāklik — gulzor; MK da: tawarliq — xazina, ačliq — ochlik, qağunluq — qovun poliz, tariğliq — ombor, eliglik — qo'lqop, közlük — ko'zoynak; AH da: čīğayliq — qashshoqlik, suqluq — suqlik, toqluq — to'qlik.

-čuq affiksi. KTT, 24 da: yančuq — to'rva.

-duruq, -dürük / -turuq, -türük affiksi. KTT da: kömüldürük — o'tning ko'krak yopqichi. Hozirgi o'zb.: boyunturuq.

-duq, -dük affiksi. MK da: burunduq — tuya anjomi, boshbog'.

-daq, -däk affiksi. MK da: bağirdaq — siyalik.

-çuq, -čük affiksi. MK da: yançuq — kissa, hamyon, örcük — o'rama soch.

-qay, -ğay, -kây, -gây affiksi. Hozirgi uyg'ur.: täskây (täris-kây), küngây; o'zb.: terskây, küngây; quzğay.

-duz, -düz / -tuz, -tüz affiksi. QB da: yulduz (qiyoslang, taqlidiy so'z: yalt-yult), kündüz.

2. Fe'ldan ot yasovchi qo'shimchalar. Bular quyidagilardir:

-q, -k / -ğ, -g affiksi. Ko'k turk bitiglarida: o'tlaq — o'tloq, töşäk — to'shak; qapığ — eshik, darvoza (QB da: qapuğ), körüg — kuzatuvchi, josus; QB da: kečik — kechuv joyi, tiläk — tilak, yöläk — yordamchi, bezäk — bezak, tapuğ — xizmat, bilig — bilim, aytığ — savol; MK da: qışlağ — qishloq, yaylağ — yaylov, suwlağ — suv toshgan yer, tariğlağ — ekinzor, quşlağ — qushlar makoni, tutuğ — garov, qonuq — mehmon; AH da: qılıq — odat; ölüg — o'lik, tirig — tirik.

Navoiyning yozishicha, mazkur qo'shimchani mahal va makonga qo'shib, bir fasl yo bir amrga mansub qilurlar. Andoq-ki: qışlaq, yaylaq, awlaq, quşlaq (ML, 178).

Yoki yana solishtiring, hozirgi o'zb.: qışlaq, yaylaw (<yay-la-ğ/q; yay — "ko'klam", yaylağ — "ko'klamni o'tkazadigan yer" ma'nosida). Bu so'zlarning qadimgi matnlarda qo'llanilishiga e'tibor bering: Talim qara quşman, yaşil qaya yaylağim, qizil qaya qışlağim-ol — Yirtqich burgutman, yashil qoya yozni o'tkazar yerim, qizil qoya qishlar yerimdir (IB, 51).

-m affiksi. QB da: alim — olim, berim — berim; MK da: aqim — oqim, sağim — sog'im, tizim — tizim, bog', biçim — bichim, ölüm — o'lim. Hozirgi uyg'ur.: qatlam, aldām — aldov, bağlam, uqum — tushuncha, kiyim, ösüm — o'sish,

-maq, -māk affiksi. MK da: čaqmaq — chaqmoq, qışmaq — ilmoq.

-qin, -ğin / -qun, -ğun, -kin, -gin / -kün, -gün affiksi. MK da: tutğun — tutqin, qačğin — qochqin. Hozirgi o'zb.: basqin, taşqin, yangin, uçqun, yalqin, köçkin, sürgün, epkin.

-qan, -kän -ğan, -gän affiksi. Hozirgi uyg'ur.: tuqqan — tug'ishgan, qapqan, čeqilğan — chaqmoq.

-qiç, -ğič, -kiç, -giç / -quç, -ğuç, -ktüç, -güç affiksi. Buyum, narsa, qurol otini yasaydi. Ko'k turk bitiglarida: ačquç — ochqich, kalit; MK

da: bičguč — qaychi. Hozirgi o'zb.: qirg'ič, očirg'ič (<očurguč); uyg'ur.: basquč, qirguč, körsätküč, yälpigüč.

-qaq, -ğaq, -kāk, -gāk affiksi. QB da: yatğaq — qorovul, turğaq — soqchi; MK da: orğaq — o'roq, turğaq — sir oluvchi qo'shin, tirsgāk — tirsak.

-ma, -mä affiksi. MK da: tügmä — tugma, süzmä — suzma, kesmä — soch kesmasi. Hozirgi o'zb.: surma, qatlama, süzmä.

-qu, -ğu, -kü, -gü affiksi. MK da: bičgu — pichoq, süpürgü — supurgi, külgü — kulgu; QB da: yegü — yegulik, kedgü — kiyim.

-n affiksi. MK da: aqın — sel, yig'in — yig'in, ekin — ekin, egin — yelka, kift, boğun — bo'g'un; QB da: tügün — tugun. Hozirgi uyg'ur.: eqin — sel, jirgin; o'zb.: yig'in, otun, qyun, tügün, kelin.

Ushbu affiks joy, makon otini ham yasaydi: qorğan — (qor-ğa — «qo'ri, himoya qil» so'zidan) — qo'rg'on. Yoki, solishtiring: Qazan (<Qaz-ğa-n) (qaz-ğa — «g'alaba qozon» so'zidan) — shahar nomi, Qozon. Lekin «idish» ma'nosidagi qazan so'zining o'zagi qaz- fe'liga bog'lanadi. Qiyoslang: hozirgi o'zb.: qazımaq, qazıq ham shu asosdan.

-č affiksi. QB da: qilınč — qilmish, fe'l-atvor, saqınč — eslash, sewinč — sevinch; MK da: ötünč — qarz, urunč — pora, ökünč — o'kinch; AH da: sökünč — so'kinch; Huast. da: yükünč — yukunch (yükün — «yukunmak, sig'inmoq, topinmoq» fe'lidan).

-š affiksi. MK da: uruš — urush, toquš — jang, kurash, čiqış — foyda, kečiš — kechuv; QB da: alqış — olqish (alqa — «maqta» so'zidan), qarğış — qarğ'ish (qarğa so'zidan), söküş — so'kish; AH da: ülüş — hissa.

-man, -mān affiksi. MK da: sıqman — uzumni siqadigan vaqt, sökmām — alp, qahramon.

-ğa, -gä affiksi. MK da: bilgä — donishmand, olim, hakim, ögä — aqlli odam, bilimdon.

-sıq, -sığ, -sik, -sig / -suq, -suğ, -sük, -süg affiksi. Ko'k turk bitiglarida: kün toğsuq — kun chiqar (sharq), kün batsıq — kun botar (g'arb). Qiyoslang, MK da: kün toğsuğ, kün batsığ.

-t affiksi. MK da: ögüt — nasihat, pand.

Ko'plik

Qadimgi turkiy tilda ko'plikning grammatik ko'rsatkichlari, asosan, quyidagilar:

1. Ko'plikning -lār, -lar qo'shimchasi. MK da: bilgälār — donolar,

alplar — pahlavonlar, qapuĝlar — eshiklar. Yoki “Xuastuanift” da: y(a)ruq tãnrilãr — yorug‘ tangrilar, arĝ dintarlar — pokiza rohiblar.

Hozirgi o‘zbek adabiy tilining uslubiy talablariga ko‘ra otlardan oldin ularning son ko‘rsatkichi keltirilsa, otga -lar qo‘shimchasi qo‘shilmaydi. Qadimgi turkiy tilda esa bunday o‘rinlarda ham otlarga ko‘plik affiksi qo‘shilishi mumkin. Masalan, “Oltun yorug‘” asarida: iki iãilãri — ikki akasi, üç tiginlãr — uch shahzoda, iki tigitlãr — ikki shahzoda, yeti enũklãri — (barsning) yetti bolasi.

2. Otlardagi ko‘plik yozma yodgorliklar tilida -n qo‘shimchasi bilan ham yasalgan. Masalan, QB da: tũrkãn — turklar, erãn — erlar, mardlar. MK da: oĝlan iĝlašdĩ — bolalar yig‘lashdi, erãn alpĩ oqĩštĩlar — mardlar bir-birlarini chorladilar. Yodgorliklarda oĝlan va erãn so‘zlari birlik shaklida ham qo‘llanilgan: oĝlan suw tũkdi — o‘g‘lon suv to‘kdi (MK, II, 27).

3. Qadimgi turkiy tilda rudiment holida ko‘plikning -t qo‘shimchasi ham uchraydi. Bunday ko‘plik -n ning -t ga o‘zgarishi bilan hosil qilingan. Masalan, “Oltun yorug‘” asarida: tigin — shahzoda, tigit — shahzodalar. Lekin asarda uning ko‘pligi tiginlãr~tigitlãr shakllarida ham qo‘llanilaveradi.

Bunday usul bilan yasalgan ko‘plikka yana bir misol: tarqan — tarxon (unvon), tarqat — tarxonlar.

4. Turkiy tillar tarixida ko‘plik -z affiksi bilan ham yasalgan. Bunga quyidagi so‘zlarni misol keltirish mumkin: menjiz — yuz, kũkũz — ko‘krak, omuz — yelka, mũnũz — shox, aĝiz — og‘iz (uning ikki chakakdan iborat ekanligi nazarda tutilgan).

Bunga kũz so‘zini ham misol keltirish mumkin. Solishtiring: kũr — fe‘l (-r — fe‘l yasovchi), kũz (-z — ko‘plik qo‘shimchasi).

Asli bu so‘zlarga -z qo‘shilishi orqali “ikkilik, juftlik” nazarda tutilmoqda. Biroq, turkiy tilda “ikkilik” yo‘q. Biror narsaning bittasi birlikda, ikkinchisi qo‘shilsa, ko‘plikka aylanadi. “Ikkilik” — ko‘plik degani. Shunga ko‘ra -z affiksi, ikkilik, juftlik yasovchi emas, ko‘plik yasovchidir.

Biz va siz olmoshlaridagi z ham ko‘plik qo‘shimchasidir. S. Y. Malovning yozishicha, bu olmoshlar quyidagi usulda hosil bo‘lgan: bi+si=biz (men+sen=biz); si+si=siz (sen+sen=siz).

-z qo‘shimchasi fe‘llarga qo‘shilib, ularning shaxs va sonini bildiradi. Masalan, tinglovchi birligi bardĩn, ko‘pligi esa bardĩnz bo‘ladi. Yoki, ko‘k turk bitiglarida tinglovchi birligi bardĩĝ shaklida qo‘llanilgan: Qaĝanĩnĩn sabĩn almatĩn yer sayu bardĩĝ. — Xoqoningning so‘zini

olmayin har yerga tarqab ketding (Ka, 9). Buning ko'pligi hozirgi ayrim turkiy tillarda (xususan, tatar tilida) — bardig'iz. Hozirgi o'zb.: baris'ij kerak, ko'pligi — baris'ijiz kerak. Yoki: keliñ — keliñlar — keliñiz. Keliñiz so'zidagi -iñ — hurmatni bildiradi, -iz esa ko'plikni ifodalaydi.

5. Qadimgi turkiy yodgorliklar tilida ko'plik -ağut qo'shimchasi bilan ham hosil qilingan degan qarashlar bor. Biroq bu qo'shimcha bilan yasalgan so'zlar ko'plikni bildirmaydi. Masalan, STs da: alpağut — pahlavon, bayağut — boyon.

Egalik

Otlarda bir so'zlovchining egalik belgisi -m affiksidir: bašim, közum, elim. So'zlovchi ko'p kishi bo'lganda -miz, -miz qo'shimchasi qo'llaniladi: bašimiz, közimiz, elimiz, biligimiz, saqin'chim(i)z.

So'zning oxirgi bo'g'ini lablangan unlili bo'lganda ushbu qo'shimcha ba'zan -muz, -müz shaklida ham qo'shiluvi mumkin. Masalan, "Xuastuanift" da: muñumuz, köñülümüz.

So'zlovchi o'zi haqida so'z yuritganda, odatda, özüm deb ishlatadi va bunga qo'shimcha qilib ta'kidni kuchaytirish uchun ba'zan bän olmoshini ham qo'shib qo'llashi mumkin: Kältürtim-ök türk bodunuğ Ötükän yärkä bän özüm bilgä Toñuquq. — Keltirdim ham turk xalqini O'tukan yerga men o'zim bilga To'nyuquq (Ton, 17).

Tinglovchi birligining egaligi -ñ qo'shimchasi bilan hosil qilinadi: bašij, közün, eliñ.

Tinglovchi ko'pligining egalik belgisi -ñiz, -ñiz / -ñuz, -ñüz dir: bašijiz, közünüz, eliñiz.

O'zga birligining egalik belgisi -i (-si), -i (-si) qo'shimchasidir: baši, közi, eli.

Muhimi shundaki, "O'g'uzxoqon" dostonida egalikning o'zga birligi lab unlisi bilan tugagan bo'g'inlarga -u (-su), -ü (-sü) shaklida ham qo'shib kelgan: añağusu — qiyofasi, közü — ko'zi, köküzü — ko'ksi, üçägüsü — uchalasi. Bunday fonetik xususiyat hozirgi turk tilida ham saqlangan.

O'zgarlar ko'pligining egaligi qarashlilikning ko'plik shakliga birlikning egalik belgisini qo'shib hosil qilinadi. Misol: sözlari.

Turkiy tillar tarixida egalik bu seniñ (bu seniki), bu munuñ (bu buniki), bu anlarniñ (bu ularniki), bu bizim (bu bizniki), bu sizniñ (bu sizniki), bu aniñ (bu uniki), bu menim (bu meniki) shaklida ham ifoda etilgan. Bu so'zlardagi -ñ / -m qo'shimchasi narsaning asl egasini (kimga qarashli, kimga oid ekanligini) bildiradi.

Egalikning bu shakli hozirgi turk tilida ham qo'llanilmoqda: bu

senindir, bu onlarındir, bu sizindir, bu bizimdir, bu benimdir. Yoki, solishtiring, hozirgi o'zb.: menimčä (-im "men"ga emas, "mening fikrim"ga taalluqli, "fikir"ning "men"ga qarashli ekanligini bildiradi): men(iņ fikr)imčä > menimčä. Yoki, yana bir misolni qiyoslang: meniņča. -niņ qo'shimchasi "men"ga taalluqli, -čä esa "mening fikrim"ga taalluqli. Bu o'rinda egalik qo'shimchasi -im qisqargan (<meniņ(fikrim)čä).

Turk tilshunosligida benim evim, benim kitabım, ev benim, kitab benim birikmalaridagi -im affiksi tamlama eki (qaratqich qo'shimchasi) deb emas, balki iyelik eki (egalik qo'shimchasi) deb ishlatiladi. Turk tilshunosligidagi talqinlarga ko'ra benim evim, benim kitabım birikma hoida kelsagina, isim tamlaması dir. -im affiksi funksional jihatdan tamlayan eki bo'lib keladi. ev benim, kitab benim shaklida gapga aylanadi. -im ning olmoshga birikuv usuli ham tarixan menimčä so'zidagi kabi kechgan.

E'tiborga sazovorlisi shundaki, yenisey bitiglarida siz olmoshiga ham uning kimga qarashliligini bildiruvchi -im qo'shimchasi qo'shiladi: sizim "siz mening yaqinlarim" degan ma'no anglashiladi: Quyda qunčuyuma, sizim oğlumqa bōkmādim — Uyda malikalarimga, siz (mening yaqinlar)im, o'g'linga to'y madim (E, 14, 2).

Hozirgi o'zbek tilida oidlik, qarashlilik -niki qo'shimchasi bilan hosil qilinadi: meniki, seniki, unıki, bizniki, sizniki, . -m esa ba'zan she'riyatda, badiiy-ko'tarinki uslubda qo'llaniladi, xolos.

-niki tarkibidagi -ki oidlikni, mansublikni bildiruvchi (hozirgi grammatikalarda sifat yasovchi deya talqin etilmoqda) affiksdir. Qadimgi shakli: -qı, -ğı, -ki, -gi. Qiyoslang, qadimgi turkiy tilda: üzäki — yuqorigi, yayqı — bahorgi. Hozirgi o'zbek tilida: qıski, yazgi, kečki, ertäki, aldingi, keyingi. Bu misollarda: qıski — "qishga oid, qishga qarashli", yazgi — "yozga oid, yozga mansub" degan ma'nolarni anglatadi va b. -niki tarkibidagi -ni esa qadimgi -niņ, -niņ, -nuņ, -nüņ qo'shimchasining qoldig'idir. Bu qo'shimcha bilan yasalgan so'zlarga -qı, -ğı, -ki, -gi qo'shilishi bilan u ham o'zgarishga uchragan: meniki (<meniņ-ki).

Hozirgi o'zbek tilida bu, šu ko'rsatish olmoshlarining egalik qo'shimchalarini olishi natijasida so'z tarkibida fonetik o'zgarish sodir bo'lgan: bunım, bunıņ, bunısi; šunım, šunıņ, šunısi so'zlari tarkibidagi -n— tarixan ko'rsatish olmoshlari(bul, šul)dagi -l bo'lib, tilning rivojlanishi, grammatik qoidalarning qat'iylashuvi sababli -n ga aylangan va har uchala shaxs egalik affikslarini qo'shishda yana tiklangan.

Kelishik

Kelishik kategoriyasi turkiy tillarning bosh qonuniyatlaridan biridir. Tilning tarixiy taraqqiyoti davomida tilimizning ichki qonuniyatlari, o'zgarishi oqibatida uning soni ba'zan o'zgarib ham turgan. Hozirgi tilshunoslikda ularning soni nechta ko'rsatilayotganidan qat'i nazar, kelishik kategoriyasi turkiy tillarda qadimdan bor, bundan keyin ham saqlanib qoladi. Bu kategoriya boshqa tillarning ta'sirida qisqaradi yoki tildan chiqib ketadi, deb qarash umuman xato.

Kelishik qo'shimchasi o'zbek tilida ot, otlashgan so'zlar, barcha ism guruhiga qo'shila oladi. Ot, sifat, son, olmoshni ism guruhi deganimiz bilan har birining o'ziga xos grammatik xususiyati bor. Hech qachon bir turkumga xos kategoriya ikkinchisiga o'tib qo'ya qolmaydi. Son, sifat, olmosh asl holatida otga xos qo'shimchalarni ololmaydi. Gapda avval ot o'rnini egallaydi, ot niqobiga kirgandan keyingina, uning vazifasini bajarish huquqini oladi va o'z qurshovida boshqa so'zlarga ot kabi ta'sir eta boshlaydi.

Qadimgi turkiy tilda kelishiklar soni yettita. Ularning turlari va qo'shimchalari quyidagichadir:

1. Bosh kelishik: maxsus qo'shimchasi yo'q; otning bosh ko'rinishi nazarda tutiladi.

2. Qaratqich kelishigi: -nīŋ, -niŋ / -nuŋ, -nüŋ; -iŋ, -iŋ / -uŋ, -üŋ.

3. Jo'nalish kelishigi: -qa, -kă / -ġa, -gă; -a, -ă; -ġaru, -ġărü / -qaru, -kărü; -ġar, -ġăr / -qar, -kăr; -ru, -rū; -ra, -ră.

4. Tushum kelishigi: -ġ, -g (-iġ, -ig / -uġ, -üg); -n; -mī, -ni; -ī, -i.

5. O'rin-payt kelishigi: -da, -dă / -ta, -tă.

6. Chiqish kelishigi: -dan, -dăn / -tan, -tăn / -dīn, -din / -tīn, -tin / -dun, -dün; -da, -dă / -ta, -tă.

7. Vosita kelishigi: -n (-īn, -in / -un, -ün).

Qadimgi turkiy tilda qaratqich belgisi -nīŋ, -niŋ / -nuŋ, -nüŋ bilan birga -iŋ, -iŋ / -uŋ, -üŋ dir.

Qaratqich ba'zan belgisiz ifodalanishi ham mumkin. Masalan: Kōrüg sabī antaġ — kuzatuvchining so'zi shunday (Tōn, 9).

Jo'nalish kelishigining qo'shimchasi ham bir necha xil bo'lgan. Qadimgi turkiy tilda jo'nalishning -qa, -kă varianti ustun edi. Urxun yodgorliklarida jo'nalishning -ġa, -gă varianti o'rnida ham -qa, -kă qo'llanilgan: taġqa — toqqa, qapīġqa — qopig'qa, yerkă — yerga, ögüzkkă — daryoga. Jo'nalishning -ġa, -gă varianti yenisey yodgorliklaridagina qo'llanilgan: qunċuyīmġa — bekachimga, edgügă — ezguga.

Yodgorliklar tilida jo‘nalishning -ğaru, -qaru, -gärü, -kärü qo‘shimchasi keng qo‘llanilgan: oğuzğaru — o‘g‘uzga, o‘g‘uz tomon, yoq(q)aru — yuqoriga, ilgärü — ilgariga, ebgärü — uyga. Masalan, To‘nyuquq bitigida: Öndän qağangaru sü yorilim, tāmīs. — Sharqdan xoqonga lashkar yo‘llaylik, debdi (Ton, 29). Tabğaçgaru Qonī sāñünüg idmīs, Qitanğaru Tonra Sāmīg idmīs. — Tabğ‘achga Qo‘ni sangunni yuboribdi, Qitanga To‘ngra Semni yuboribdi (Ton, 9).

Jo‘nalishning -a (-ya), -ä (-yä) affiksi: qağanīma — xoqonimga, bodunuma — xalqimga, qanīña — xoningga, inimä — inimga, biriya — o‘ngga, yīraya — so‘lga. Qağanīma ötünüp sü ältidim. — Xoqonimga o‘tinib, lashkar eltdim (Ton, 18).

-ru, -rū affiksi: anjaru — unga qarab. -ra, -rā: tašra — sirtga, tashqariga, ičrā — ichga, ichkariga.

Eng eski yodgorliklar tiliga xos bo‘lgan -ğaru, -qaru, -gärü, -kärü belgisining qoldiqlarini hozirgi o‘zbek tilida ham uchratamiz. Hozirgi tašqarī, yuqarī, ičkārī, teskārī so‘zlaridagi -qarī, -kārī qadimgi jo‘nalish qo‘shimchasining qoldiqlaridir (<taš-qaru, yuq-qaru, ičkärü, ters-kärü). Lekin u hozirgi tilimizda o‘z vazifasini yo‘qotib, o‘zi birikkan so‘zga qo‘shilib ketgan. Bu so‘zlar ayni holatida jo‘nalish ma‘nosini anglatadi. Ular tarkibidagi qaratqichning qadimgi ko‘rsatkichi o‘z vazifasini yo‘qotganligi sabab so‘zlashuvda ularga jo‘nalishning hozirgi ko‘rsatkichini qo‘shib ham, qo‘shmay ham qo‘llash mumkin: tašqarī ciqdi — tašqarīgā ciqdi, ičkārī kirdi — ičkārīgā kirdi, teskārī ögirildi — teskārīgā ögirildi kabi.

Qadimgi turkiy tilda tushum kelishigining -n; -nī, -ni; -ī, -i affikslari bilan bir qatorda -ğ, -g (-iğ, -ig, -uğ, -üg) affiksi ham keng qo‘llanilgan: bodunuğ — xalqni, süg — lashkarni, tašīğ — toshni, isig — ishni. Masalan, To‘nyuquq bitigida: Türk Bilgā qağan türk sir bodunuğ, oğuz bodunuğ igidü olurur. — Turk Bilga xoqon türk sir xalqini, o‘g‘uz xalqini boshqarib turibdi (Ton, 62). Altun yışīğ aša kältimiz, Ärtis ögüzüg káčā kältimiz. — Altun yishni oshib keldik, Ertish daryosini kechib keldik (Ton, 37).

Bitiglardan misollar keltiramiz: Elligig elsirätidimiz, qağanliğīğ qağansiratdīmīz, tizligig sökürtimiz, bašliğīğ yūküntürtimiz — Davlatlini davlatsizlantirdik, xoqonlini xoqonidan judo qildik, tizzasi borni cho‘ktirdik, boshi borni yukuntirdik (K. 18). Türgäs bodunuğ uda basdīmīz. — Turgas xalqini qo‘qqisdan bosdik (K. 37). Čīğāñ bodunuğ bay qiltīm, az bodunuğ öküš qiltīm. — Qashshoq xalqni boy qildim, oz xalqni ko‘paytirdim (Ka. 10).

-n qo‘shimchasining misoli: yabğusīn, šadīn anta öltürti — yabğ‘usini, shadini o‘sha yerda o‘ldirildi (Ton, 41–42).

O‘rin-payt kelishigining qo‘shimchasi -da, -dä, -ta, -tä dir: qağanta — xoqonda, tağda — tog‘da, eldä — elda.

Chiqish kelishigini ifodalash uchun -dan, -dän, -dän, -din, -tan, -tän, -tän, -tin, -dun, -dün bilan bir qatorda -da, -da, -ta, -tä ham qo‘llanilgan.

Ko‘k turk bitiglarida: Türgäs qağanta körüg kälti. — Turgash xoqondan (sir bilish uchun jo‘natilgan) ko‘ruvchi keldi (Ton, 29).

Qadimgi turkiy tilda hozirgidan farqli holda yettinchi — vosita kelishigi ham qo‘llanilgan. Bu kelishik belgisi -n bo‘lib, o‘zak-negizning fonetik-fonologik tabiatiga bog‘liq ravishda -n, -in, -un, -ün shakllariga ega bo‘ladi. Matnlardan misollar: Süçig sabän, yımşaq ağın arıp, ıraq bodunuğ anča yağutır ermis — Shirin so‘zi bilan, nafis ipakligi bilan avrab, yiroq xalqni shunday yaqinlashtirar ekan (Ka. 5); Tabğaç bodunqa beglik urı oğlın qul boltı, silik qız oğlın küj boltı. — Tabğ‘ach xalqiga bek bo‘ladigan o‘g‘il bolasi bilan qul bo‘ldi, suluv qiz bolasi bilan cho‘ri bo‘ldi (K. 7); Todunčusuz uwutsuz suq yäk üçün saqınčın sözün qılınčın y(ä)mä közin körüp qulqaqm äsıdıp tilin sözläp äl(i)gin sunup adaqın yorıp ürkä üzüksüz ämgätir-biz. — Tö‘ymas, uyatsız, suq iblis uchun xayol qilib, so‘z bilan, ish bilan, yana ko‘z bilan ko‘rib, quloq bilan eshitib, til bilan so‘zlab, qo‘l bilan sunub, oyoqda yurib, (besh tangri yorug‘ini) uzluksiz azoblaymiz (Huast. 144-147); Quş qanatın, er atın. — Qush qanoti bilan, er oti bilan (kuchli) (MK, I, 70); Aş tatığı tuz, yuğrın yemäs. — Oshning toti tuz bilan, lekin laganda quruq tuzning o‘zini yeyilmaydi (MK, III, 38).

Qadimgi yozma yodgorliklar tiliga xos bo‘lgan vosita kelishigining qoldiqlari hozirgi o‘zbek tilida ham uchrab turadi. Jumladan, qışın-yazın, ertän so‘zlari tarkibidagi -n, -in vosita ma‘nosini anglatadi. Ularni ko‘makchilar bilan almashtirib qo‘llash mumkin: qışi bilän, yazı bilän, qış boyı, yaz boyı; ertä bilän. Yoki açın-toqın, yüpün so‘zlari tarkibida ham vosita kelishigining ko‘rsatkichi saqlangan.

XIV–XV asrlarga kelib, turkiy tilda kelishiklar soni bittaga qisqardi. Qadimgi yodgorliklar tilida ko‘p qo‘llanilgan vosita kelishigi bu davrda uchramaydi. Uning vazifasini o‘rin-payt kelishigi va birlä~bilä~ilä, boyı kabi ko‘makchilar bajara boshlaydi.

Shuningdek, «chig‘atoy turkiysi»da boshqa kelishiklar tizimida ham o‘zgarish sodir bo‘ldi. Masalan, tushum kelishigining qadimgi -ğ, -g (-ığ, -ig, -uğ, -üg) affiksi iste‘moldan chiqdi. Qaratqichning qadimgi -ğaru, -qaru, -gärü, -kärü; -ğar, -qar, -gär, -kär; -ru, -rü; -ra, -râ ko‘rsatkichlari ham keyingi davrlarda uchramaydi.

Urxun-enisey bitiglari, “Qutadg‘u bilig” asari, “Devonu lug‘atit turk”da chiqish kelishigi ba‘zan -da, -da, -ta, -tä affiksi bilan ham ifoda etilgan. «Chig‘atoy turkiysi»da chiqish kelishigi bu shaklda uchramaydi.

Shu o‘rinda Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” va hozirgi o‘zbek adabiy tilidagi kelishik shakllarini solishtirib ko‘raylik:

Kelishiklar	“Qutadg‘u bilig”da	Hozirgi o‘zbek adabiy tilida
1. Bosh k.	-	-
2. Qaratqich k.	-niñ, -niñ, -nun, -nün; -ñ, -in, -un, -ün	-niñ, -niñ
3. Jo‘nalish k.	-qa, -ğa, -kā, -gä; -a, - ä; -gärü; -gär; -ru, -rū; -ra, -rā	-gä (-qa, -kā)
4. Tushum k.	--ğ, -g (-iğ, -ig, -uğ, - üğ); -n; -nī, -nī; -ī, -i	-nī, -ni
5. O‘rin-payt k.	-da, -dā, -ta, -tä	-da, -dā (talaffuzda: - ta, -tä)
6. Chiqish k.	-dan, -dān, -dīn, -din, - tan, -tān, -tīn, -tin, - dun, -dūn; -da, -da, - ta, -tä	-dan, -dān (talaffuzda: -tan, -tān)
7. Vosita k.	-n (-in, -in, -un, -ün)	

Otlarda jins

Turkiy tillarda rod kategoriyasi yo‘q, lekin jins bor. Jins inson va boshqa jonzodlarga xos. Jinsning grammatik ko‘rsatkichi (qo‘shimchasi) yo‘q. So‘zning ma‘nosiga qarab inson yoki jonzodning jinsini farqlash mumkin. Insonlarda. “erkak va xotin (ayol)”, hayvonlarda “erkagi — urg‘ochisi (tishisi)”, qushlarda “nari va modasi”, parrandalarda “xo‘rozi va makiyoni” deyiladi. Tilimizda yana har birining o‘z oti bor. Sudraluvchilar, hasharotlar va suv hayvonlarining harakati, qiliqlariga qarab, ularning jinsini aniqlash mumkin bo‘lsa-da, ularga ot qo‘yilmagan: “erkagi yo urg‘ochisi” deb qo‘ya qolamiz.

Kul tigin bitigida urī oğul, qiz oğul so‘zlari ishlatilgan. Ushbu misollardagi urī — “o‘g‘il” degani, oğul esa “farzand” ma‘nosida. “O‘g‘uzxoqon” dostonida erkāk oğul deydi, bu so‘z “o‘g‘il bola; o‘g‘lon”

degan ma'noni beradi. Hozirgi o'zbekchadagi o'g'il bala, qiz bala ham ayni ma'nodadir (bala — "farzand" degani). Yoki yana qiyoslang, hozirgi o'zb.: erkak kishi, xatir kishi. Bu o'rinda kishi — "inson, odam" ma'nosini anglatadi.

"Irq bitigi"da: erkak yont — erkak ot, erkak buza'gu — erkak buzoq, tetir bu'gra — erkak tuya. "O'g'uzxoqon" dostonida: erkak bo'ri — erkak bo'ri.

"Irq bitigi"dan bir o'rnak keltiramiz: Aq bisi qulunlamis, o'run ingani botulamis, qunchuy urilanmis. — Oq biyasi qulun tug'ibdi [qulunlabdi], oq ingani bo'ta tug'ibdi [bo'talabdi], malika o'g'il tug'ibdi. Mahmud Koshg'ariya: inak buza'guladi — sigir buzoq tug'di.

SIFAT

Yozma yodgorliklar tilida morfologik usulda sifatlar otlar va fe'llardan yasalgan.

1) Otdan sifat yasovchi qo'shimchalar:

-liq, -lig, -lik, -lig / -luq, -lug, -luk, -lug affiksi. Huast. da: adaqlig — oyoqli, ayig qilmclig — gunohkor, agulug — og'uli, zaharlangan, zaharli, aksuklug — gunohkor, aybdor, nuqsonli, butlug — butli, oyoqli, kuclug — kuchli; QB da: yara'g'lig — yaroqli, owutlug — andishali, uquslug — zakovatli, biliglig — bilimli, erklig — erkli, erkin, turlug — turli, har xil, unlug — mashhur, taniqli.

-siz, -siz / -suz, -suz affiksi. QB da: yaraqsiz — yaroqsiz, tubsuz — tubsiz;

-qi, -ki affiksi. Otlarga qo'shilib, «oidlik, qarashlilik» ma'nosidagi sifat yasaydi. MK da: ozaqi bilgalar — burungi donishmandlar, qutqi er — xushmuomala kishi, ewdaki taqagu — uydagi tovuq; AH da: ozaqi masal — qadimgi maqol. Qiyoslang, hozirgi o'zb.: qishi, yazgi, ertaki, kecki.

-cil, -cil affiksi. MK da: yamgurecil yer — yomg'irchil yer, tucil yer — sershamol yer, igcil — kasalmand.

-saq, -sak affiksi. QB da: bag'irsaq — mehribon, ulug'saq — ulug'vor.

-sig, -sig affiksi. QB da: qulsig — qulsifat, beqsig — beksifat, ersig — javonmard.

2) Fe'ldan sifat yasovchi qo'shimchalar:

-qir, -gir / -qur, -gur, -kir, -gir / -kur, -gur affiksi: uygur (uy — "bir, ittifoq" so'zidan. Qiyoslang: sut uyidi ~ sut uwidi). Hozirgi o'zb.: tapqir, chapqir, uqur, chonqir (<chonqur), keskir, otkir (<otkur), sezgir.

-qin, -gin / -qun, -gun, -kin, -gin / -kun, -gun affiksi. Hozirgi o'zb.: turgun, uygun (uy — “bir, yagona” so'zidan), joşqin, xargin.

-g/q, -g/k affiksi. IB da: yaruq — yorug', ravshan; QB da: quruğ — quruq, bo'sh, uduğ — uyg'oq; AH da: açığ — achchiq, yumşaq — yumshaq, sücüg — shirin.

-qaq, -kāk -ğaq, -gāk affiksi. Hozirgi o'zb.: yapışaq, tırışaq, tayğaq, uyuşaq.

-nč affiksi. To'nyuquq bitigida: bulğanč — bulg'angan, parokanda (xalq), tarqanč — tarqoq (xalq).

-rı, -ri affiksi. Ko'k turk bitiglarida: egri. Hozirgi o'zb.: toğrı (toğ — “tik” so'zidan), ayrı, egri, bügri (<bükri).

-qaş, -kāş affiksi. Hozirgi o'zb.: ayqaş (ay — “bo'lak” so'zidan). Chog'ishtiring: ayri, ajra so'zlari ham shu o'zakdan), uyqaş (uy — “bir, umum” so'zidan), čalkāş.

-l affiksi. MK da: tükāl — tugal, qizil — qizil, yaşil — yashil.

-čig, -čig affiksi. Quş balası qusinčig, it balası oxšančig — Qush bolasi yirganchiq, it bolasi o'xshanchiq (MK. III. 250).

-din, -din affiksi. Hozirgi o'zb.: aydin.

-un, -ün affiksi. QB da: tolun — to'lin (oy), tüzün — to'g'ri, chin.

Qadimgi turk yozma adabiy tilida qiyosiy daraja -raq, -rāk affiksini qo'shish yo'li bilan hosil qilinadi. Masalan, QB da: örürāk (yuqoriroq), yaruqraq (yorug'roq).

Orttirma darajani bildiruvchi “juda” ma'nosida edi~edi so'zi qo'llaniladi. Masalan, “Qutadg'u bilig”da: Eđi kečki söz-ol masalda kelir. — Bu ta'birda keladigan juda eski so'zdir (QB, 107). Eđi yaqşir aymış azıgılg kür er. — Juda yaxshi aytibdi oziqli, jasur kishi (QB, 279).

Yodgorliklarda belgining ortiqligi yoki kamligini bildiruvchi vositalar ham bor. Belgining ortiqligi so'zning birinchi bo'g'iniga [p] tovushini qo'shib, uni takrorlash yo'li bilan hosil qilingan. Masalan, “O'g'uzxoqon” dostonida: ap-aq, qip-qizil, qap-qara.

SON

Qadimgi turklarda “nol” yo'q, chunki “nol” — yo'q son. Sanoq “bir”dan boshlanadi. Inson tug'ilgan chog'da bir yosh sanalgan, ona qornidagi davri qo'shib hisoblangan. Bir yil o'tgach, ikkiga to'lgan va hokazo.

“Bir” — bu so'zlovchi demak, ya'ni “men”dir (mening o'zim, men turgan yer yoki men tutgan narsa). “Men” qadimgi turkiy tilda bi bo'ladi.

Bu soʻz biri~berü koʻmakchisining tarkibida ham saqlangan. -rü — joʻnalish kelishigi qoʻshimchasi, berü — “men tomon” degani, hozirgi oʻzbekchada beri deyiladi. Masalan: beri kel, köpdän beri. Bir ning tarkibidagi bi — soʻzlovchi(“men”)dir. Demak, sanoq soʻzlovchining oʻzidan boshlanadi.

Iki ning asli ilki dir (il-ki>ilki>iki. Hozirgi oʻzb.: ikki). Qadimgi turkiyda il — “old” degani. “Poygak” ham il boʻladi, antonimi tör dir. il ning qutb (“Sharq”) maʼnosi ham bor, chunki Sharq old tomonda. -ki- “oidlik”ni bildiruvchi qoʻshimcha, ilki — “oldindagi, dastlabki, avvalgi” degan maʼnoni beradi. Lekin mantiqqa koʻra “soʻzlovchi(bir)dan keyingi”dir. Shuning uchun tartibda ikkinchi boʻlib turadi.

Boshqa bir qator sonlarda ham yasaliş bor:

“Yigirma” soni iki dan hosil boʻlgan: iki-r-mi>yiki-r-mi>yigirmi.

Yoki: alti-miš>altmīš, yeti-miš>yetmiş, sekiz on>säksän, toquz on>toqsan.

Sonlar toʻrt darajalidir:

Birliklar: 1 — bir, 2 — iki~äki, 3 — üç, 4 — tört, 5 — biş~bäs~beş, 6 — alti, 7 -yiti~yäti~yeti, 8 — säkiz~sekiz, 9 — toquz.

Oʻnliklar: 10 — on, 20 — yigirmi, 30 — otuz, 40 — qırq, 50 — ilig~älig~elig~elli, 60 — altmīš, 70 — yitmiş~yätmiş~yetmiş, 80 — sekiz on~säksän, 90 — toquz on~toqsan.

Yuzliklar: 100 — yüz, 200 — iki yüz, 300 — üç yüz va boshqalar.

Minglar: 1000 — biñ~mīñ yoki biñ~miñ, 2000 — iki biñ, 3000 — üç biñ va boshqalar.

Yodgorliklarda tümän soʻzi 10 000 ni bildirgan. Bundan yirik sonlarga uning koʻpaytmasi qoʻshib aytilgan: beş tümän — 50 000, säkiz tümän — 80 000, on tümän — 100 000 va b. Qoʻllanilishiga misol keltiramiz: Tabğaç oñ tutuq bes tümän sü kelti — Tabğʻach oʻng tutuqning besh tuman qoʻshini keldi (X, 25). Yaris yazida on tümän sü täriltili. — Yaris dashtida oʻn tuman [yuz ming] lashkar terildi (Ton, 36). Čača säñün säkiz tümän sü birlä sünjüšdüm — Chacha Sangunning sakkiz tuman lashkari bilan urushdim (X, 26). QB. 287 da: miñ tümän — 10. 000000.

Ikki xonalilar misoli: bir tümän artuqı yeti biñ — 17000.

Qadimgi turkiy tilda ikki xonali sonlarda quyidagi tartib amal qilgan:

1. Avval birlik aytilib, keyin shu son qoʻshilgan oʻnlik emas, balki undan yuqori oʻnlik aytilgan: yeti yigirmi — buning bilan “(oʻndan oshib) yigirma tomon yettita son qoʻshildi (=oʻn yetti)” degan maʼno anglashiladi. Yana misollar: tört yigirmi — oʻn toʻrt, bis yigirmi — oʻn besh, sekiz yigirmi — oʻn sakkiz, alti otuz — yigirma olti, iki qırq —

o'ttiz ikki, iki ālig — qirq ikki, ũch yetmiš — oltmish uch, yeti yetmiš — oltmish yetti, sākiz yetmiš — oltmish sakkiz, toquz sākiz on — yetmish to'qqiz. Ko'k turk bitiglaridan misollar: Kũl tigin qo'q yilqa yiti yigirmikā uēdi. Toquzunē ay yiti otuzqa yoġ ertũrtimiz. — Kul tigin qo'y yilida, (birinchi oyning) o'n yettinchi (kunida) o'ldi. To'qqizinchi oyning yigirma yettisida azasini o'tkazdik (K, III). Eki otuz yašima Tabġaē tapa sũladim — Yigirma ikki yoshimda Tabġ'ach tomon lashkar tortdim (X. 25-26). Mān toquz yigirmi yil šad olutrum, toquz yigirmi yil qaġan olurtum, il tutdum — Men o'n to'qqiz yil shad bo'lib turdim, o'n to'qqiz yil xoqon bo'lib turdim, davlatni tutdim (Xa. 9). Āltāris qaġan bilġasin ũchũn, alpīn ũchũn Tabġaēqa yāti yigirmi sũnũšdi. — Eltarish xoqon allomasi bilan bo'lgani uchun, alpi bilan bo'lgani uchun Tabġ'achga o'n yetti bor jang qildi (Ton, 48-49).

2. Hozirgiga yaqin bir tartib bo'lib, faqat o'nlikdan so'ng artuqī so'zi qo'shilgan: otuz artuqī tōrt — o'ttiz to'rt. Zamonlar o'tib o'nlikka qo'shilayotgan artuqī so'zi qisqarib, hozirgi ko'rinishga aylangan: otuz tōrt.

Matnlardan misollar keltiramiz: Qirq artuqī yeti yoli sũlāmis. — Qirq yetti yo'la lashkar tortgan (K, 15).

Ko'p xonali sonlarning o'qilish tartibi shunday: 85 — biš toquz on / sākiz on biš; 45360 — tōrt tũmān, biš miŋ, ũch yũz, altmiš;

Bitiglarda "yarim" ma'nosini sũjar so'zi bildiradi: Sũjar sũsi ebig barqīġ yulġali bardī, sũjar sũsi sũnũšġali kelti — Qo'shinining yarmi uyjoyini bo'shatgani bordi, yarim qo'shini jang qilgani keldi (X. 32).

Sonlarning tartib ko'rsatkichi boshlab -nē shaklida edi. "Birinchi" tartib ko'rsatkichi qadimgi turkiy tilda birinē shaklida, ba'zan bir shaklida ham qo'llanilgan. Bularning o'rni ilki, baštīnqī so'zlari ham ishlatilgan. "Ikkinchi" tartib ko'rsatkichi ikinti~ikindi yoki ikinē deyilgan. Qolgan sonlarga birday qo'shilaveradi: ũchũnē, tōrtũnē, bišinē, altīnē, yitinē, sākizinē, toquzunē, onunē. Ikki xonali sonlarda tartib o'zgaradi: bir yigirminē, iki yigirminē, ũch yigirminē, tōrt yigirminē singari.

XI-XII asrlardan boshlab -nē tartib ko'rsatkichining -nēi, -nēi shakli ham qo'llanila boshladi: ũchũnēi, tōrtũnēi, bišinēi, altīnēi, yitinēi, sākizinēi, toquzunēi, onunēi singari.

O'zgaga ishora qilinganda sonning bosh shakliga -sī, -si qo'shimchasi orttiriladi: birisi, ikisi, ũčisi, tōrtisi, bešisi, altīsī, yetisi.

Aslida, qoidaga ko'ra, unli bilan tugovchi sonlarda -sī, -si, undosh bilan tugovchi sonlarda esa -ī, -i dir: biri, ikisi, ũči, tōrti, beši, altīsī, yetisi.

Tabġaē, oġuz, qītaŋ, bu ũčāġũ qabasar, qaltaē-biz. — Tabġ'ach, o'g'uz, qitan — bu uchovi qamal qilsa, (qurshovda) qolajakmiz (Ton, 12).

Üçägün qabsap, sülälim, anı yoq qısalım, tämis. — Uchovlab yopirilib, lashkar tortaylik, uni yo'q qilaylik, debdi (Ton, 21).

Qadimgi turklarda yil sanog'i

Qadimgi turklarda yillar muchal hisobi bilan yuritilgan. Bu sanoqqa ko'ra o'n ikki yil o'n ikki hayvon oti bilan yuritilgan. Muchal har o'n ikki yilda aylanib keladi. Qadimgi turkiy yodgorliklar tilida yil nomlari va ularning ketma-ketligi quyidagicha:

1. Siçgan, Küskü — sichqon
2. Ud — sigir
3. Bars — bars
4. Tawişgan, tawşan — quyon
5. Loo~luu — ajdar
6. Yılan — ilon
7. Yont~yund — ot
8. Qoñ~qoyn~qoy — qo'y
9. Biçin — maymun
10. Taqıqu, taqağu — tovuq
11. İt — it
12. Lağzin, toņuz — to'ng'iz

Turkiy muchal yil nomlarini Mahmud Koshg'ariy ham o'zining "Devonu lug'atit-turk" asarida keltirgan. Uning tartibi shunday:

1. Siçgan yili — sichqon yili.
2. Ud yili — sigir yili.
3. Bars yili — bars yili.
4. Tawişgan yili — quyon yili.
5. Nek yili — timsoh yili.
6. Yılan yili — ilon yili.
7. Yund yili — ot yili.
8. Qoy yili — qo'y yili.
9. Biçin yili — maymun yili.
10. Taqağu yili — tovuq yili.
11. İt yili — it yili.
12. Toņuz yili — to'ng'iz yili.

OLMOSH

So'zlovchi birligini bildiruvchi olmosh (kishilik olmoshi) ko'k turk bitiglarida bän~ben, uyg'ur, moniy yozuvli yodgorliklarda män~men

yoki min dir. Soʻzlovchi koʻpligini bildiruvchi olmosh — biz.

Bir tinglovchini bildiruvchi olmosh — sän~sen, sin, koʻp tinglovchini bildiruvchi olmosh esa — siz yoki sizlär.

Oʻzga kishini bildiruvchi — ol, oʻzga kimsalarni bildirganda esa olar~ular~anlar shaklida qoʻllaniladi.

Oʻzga kishi birligini anglatadigan kishilik olmoshi ol~ul kelishik qoʻshimchalari bilan turlanganda an- shaklini oladi: aña, anı, anıñ, anda kabi. Hozirgi oʻzbek tilida u olmoshi joʻnalish, makon, chiqish kelishiklari bilan turlanganda orada -n undoshi hosil boʻladi: ungä, unda, undan. Bular eski oʻzbek tilida («chigʻatoy turkiysi»da) aña, andın shaklida qoʻllangan. Biroq oʻzak va qoʻshimcha orasidagi -n “orttirma” emas. U kishilik olmoshining qadimgi turkiy tildagi -nıñ qoʻshimchasi bilan qoʻllangan holatining qoldigʻidir: u-n-da (<a-nıñ-da), u-n-dan (<a-nıñ-dın//a-nıñ-dan).

Kishilik olmoshlarining turlanishi quyidagicha:

Birligi:

bän~ben; bāni~beni; bāniñ~beniñ; bāñä~beñä~baña

män~men~min; māni~meni~mini; māniñ~meniñ~miniñ;
māñä~meñä~maña; mändä~mendä~mindä~mintä, mindidä, mintäda;
menidin~minidin

sän~sen; sāni~seni~sini; sāniñ~seniñ~siniñ; sāñä~señä~saña;
säändä~sendä~sindä, sintädä, sinidä, sintidä; sānidin~senidin~sinitin

ol; anı; anıñ; aña, añar; anta~anda, antada; antın, anıdın

Koʻpligi: biz; bizni; bizniñ, biziñ; bizkä~bizgä, biziñä;
bizintä~bizindä, biznidä, biznidin

siz, sizlär; sizni, sizlärni; siziñ, sizniñ, sizlärniñ; siziñä, sizä, sizlärniñä,
sizlärkä; sizintä, siznidä, sizlärnä, sizdä; siznidin

olar; olarnı; olarnıñ; olarqa; olarda; olardın

Qadimgi turkiy tilda oʻzlik olmoshlari ikkita: öz va kentü~kendü. Öz aslida «jon» degani. U “kishi, shaxs, odam” maʼnosini ham bildiradi. Masalan, «Qutadgʻu bilig»da:

Muñar meñzätü keldi emdi bu söz,

Esitkil munı sen, aya eđgü öz —

Bunga mos keladi endi bu soʻz,

Sen buni eshitgil, ey ezgu kishi (QB, 2678).

«Irq bitigi»da: özün uzun bolzun — umring uzun boʻlsin (IB, 47).

Yozma yodgorliklarda kántü va öz olmoshlari juft holda qoʻllanilib kelishi mumkin, bunda “oʻz oʻzim” degan maʼnoni beradi. Masalan: K(ä)ntü özümüzni küntä ayda öñbiz tidimiz ärsär. — Oʻz-oʻzimizni

Kundan, Oydan yuqori qoʻygan boʻlsak (Huast. 8-9); Ayiḡ qilinčqa irinčükä kántü özümüzni ämgätir-biz. — Yovuz ishlarga, gunohga oʻz-oʻzimizni urib, azoblanamiz (Huast. 139–140).

Koʻrsatish olmoshlari: bu, ol, ošbu~ušbu, šul, ošu, ošul.

Bu koʻrsatish olmoshi kelishik qoʻshimchalari bilan turlanganda qoʻshimcha tarkibidagi sonorning taʼsirida mu- shaklini oladi. Masalan, OD da: munī, mundin~mundun.

Bu koʻrsatish olmoshining turlanishi quyidagicha:

Birligi: bu; bunī~munī; bunuḡ~munuḡ; muḡa, buḡar~muḡar; bunda~munda~munta; muntada, muntuda; mundin

Koʻpligi: bular; bularnī; bularniḡ; bularqa; bularda; bulardin

Ol koʻrsatish olmoshi turlanganda esa an- shaklini oladi. Yana OD dan: anuḡ, andin~andan.

Soʻroq olmoshlari: kishilar uchun kim?, narsa-buyum, voqea-hodisalar uchun nāčä?, nā?, nekü?, nelüḡ?, nekülüḡ?, nečük?, nečükin?, nädä?, qaltī? (qanday, qay tarzda?), qayu? (qaysi?), qanī? qanta? qantan? qanča? qačan? olmoshlari qoʻllaniladi. Bularning ichida nāčä?, nā?, nekü?, nelüḡ?, nekülüḡ?, nečük?, nečükin?, nädä? olmoshlarining oʻzagi bir — hammasi nā~ne? dan yasalgan. Shuningdek, qayu?, qanī?, qanta?, qantan?, qanča?, qačan? olmoshlarining ham oʻzagi bir — qayu~qanu? ga bogʻlanadi. qačan? olmoshi qay+čag+in dan yasalgan.

Jamlash-belgilash olmoshlari: qamuḡ~qamaḡ (hamma), qamaḡi (hammasi), bari (bari).

Yodgorliklar tilida nāḡ (hech, hech bir) boʻlishsizlik olmoshi qoʻllaniladi.

RAVISH

Ravishlar ish-harakatning belgisini, belgining belgisini bildiradi. Qadimgi turkiy tilda ham ravishlar holat, oʻrin-payt, maqsad, miqdor-daraja maʼnolarini bildiradi.

Morfologik usulda ravishlar quyidagi qoʻshimchalar bilan yasalgan: -la, -lä affiksi. MK da: tünlä keldim — tunda keldim; Bir tilkü terisin ikilä soymas — Bir tulki terisini ikki bor shilinmaydi.

-ča, -čä affiksi. Koʻk turk bitiglarida: Äkinti kün kälti, örtčä qizip kälti. — Ikkinchi kun keldi, yongʻinday qizib keldi (Ton, 40). QB da: tiläkčä — tilagancha, keräkčä — keragicha, kezikčä — navbat bilan.

-di, -di, -ti, -ti affiksi: tükäti — tugallik bilan, butkul, ädgüti — yaxshilab, ariti — pokizalik bilan. Koʻk turk bitiglarida: Yelmä, qarḡu

edgüti urğil — Yelma, qorovulni yaxshilab qo'y (Ton, 34). Sabimın tükäti eşidgil — So'zimni tugal eshitgil (Ka, 1). ... bu sabimın edgüti eşid, qatıgdı tıŋla — ... bu so'zimni yaxshilab eshit, diqqat bilan tingla (Ka, 1). Yoki IB da: Qatıgtı ba, edgüti ba — Qattiq bog'la, yaxshilab bog'la.

-layu, -läyü affiksi. MK da: arslanlayu kökrädım — arslon kabi na'ra tortdim, İvriq başı qazlayu, sağraq tolu közläyü — İvriqning boshi g'oz kabi, idish to'la ko'z kabi.

-täg~teg affiksi. MK da: čegürkä~teg sü — chigirtkadek lashkar.

Hozirgi o'zbek tilida ushbu affiks -dek~däy~day shakllarida qo'llanilmoqda: kökdek~kökdäy, qoy-dek~qoyday.

Mazkur qo'shimcha tarixan teg- fe'lidan hosil bo'lgan ko'rinadi. Qiyoslang, QB, 151 da: tiläkkä tegir — tilakka yetadi. Hozirgi o'zb.: aǵzi ašgä tegdi degändä — “og'zi oshga yetdi deganda” ma'nosini beradi. QB, 287 da: mundaǵ — bunday.

-siǵ, -sig affiksi. MK da: qulsıǵ er — qul singari kishi, Bu qarı ol oǵlansıǵ — bu qariya o'sha o'g'lon singari.

Ot guruhidagi so'zlar kelishik qo'shimchasini olganda ravishga aylanishi mumkin. Masalan: Ilǵarü Šantuŋ yazıqa tägi sülädım, taluyqa kičig tägmädım. Birǵarü Toquz ärsänkä tägi sülädım, Tüpütkä kičig [täg]mädım. — Sharqqa — Shantung dashtiga qadar lashkar tortdim, dengizga bir oz yetmadım. Janubga — To'quz arsanga qadar lashkar tortdim, Tuputga bir oz yetmadım (Ka, 3).

Yoki yana bir misol: Anta ötrü oǵuz qopun kälti. — Shundan so'ng o'g'uz butunlay (taslim bo'lib) keldi (Ton, 16).

Yodgorliklarda -raq, -rāk qo'shimchasi ravishlardagi qiyosiy darajani ta'minlagan. Ortirma daraja ked~keđ, eŋ kabi so'zlar yordamida ifoda etilgan: Tıltǵ keđ köđäzgil, köđäzildi baş. — Tilingni juda saqlagil, boshing ham saqlanadi (QB, 173); Bularda eŋ üstün Sekántir yurır. — Bulardan eng yuqorida Sakantir yuradi (QB, 127).

Ravishlar juft holda ham qo'llaniluvı mumkin. Masalan, ädgüti “yaxshi, durust” degani, matnda u ädgüti arıtı shaklida qo'llanilib, “ixlos bilan, ehtirom bilan” ma'nosini beradi. Misoli: Bir ayqı č(a)xsap(a)t(ı)ǵ ädgüti arıtı tutu umad(ı)m(ı)z ärsär. — Bir oylik din ko'rsatmalarini ezgulik bilan, ixlos bilan tuta olmagan bo'lsak (Huast. 132-133).

FE'L

Matnda ham, nutqda ham gap so'zlovchi tomonidan tuziladi. Faqat

harakat va holatning bajaruvchisi aniq yoki majhul bo'luvi mumkin.

Harakat va holatni bajaruvchi shaxs aniq bo'lganda so'zlovchi birligida men, ko'pligida biz tushuniladi. Tinglovchi birligida sen, ko'plikda siz nazarda tutiladi. Bajaruvchi o'zga bir kishi bo'lganda ul, ko'pchilik bo'lganda alar nazarda tutiladi. Fe'llar har qachon ham o'z bajaruvchisiga bo'ysunadi: ko'rinishini o'shanga qarab o'zgartiradi. Tek fe'lning masdar shakligina (oqımaq, kelmäk kabi) bu qoidaga bo'ysunmaydi.

Fe'llarning yasalishi

Qadimgi turkiy tilda fe'llar quyidagi qo'shimchalar bilan yasalgan:

-a, -ä / -ı, -i / -u, -ü affiksi.

Ushbu affiksning -a, -ä variantiga o'rnaklar. Ko'k turk bitiglarida: yaša — yasha-, ötä — nasihat qil-; MK da: yašin yašnadi — yashin yashnadi, er qışlağda yazadi — kishi qishloqda yozni o'tkazdi, er aš ašadi — kishi osh yedi; QB da: ota — davola-, tona — to'n kiy-, kiyim kiy-.

-ı, -i variantiga o'rnaklar. MK da: öklidi nän — narsa ko'paydi, ton öliidi — to'n ho'l bo'ldi.

-u, -ü variantiga o'rnaklar. MK da: tawar qızudı — mol qimmatlashdi, ew tarudı — uy toraydi, yer keñüdi — yer (maydon) kengaydi; QB da: bayu — boyi-.

-la, -lä affiksi. Ko'k turk bitiglarida: qılıçla — qilichla-, qilichdan o'tkaz-, atla — ot sol-, sülä -lashkar tort-, IB da: aq bisi qulunlamış — oq biyasi qulun tug'ibdi, qulunlabdi; örün ingäni butulamış — oq ingani bo'ta tug'ibdi, bo'talabdi; QB da: yilla — yasha-, emlä — davola-, kezlä — saqla-.

-da, -dä / -ta, -tä affiksi. MK da: ol meni ündädi — u meni undadi, ol anıñ ađaqın bağdadı — u uning oyog'ini chaldi, ol yağını sandadı — u yov izidan bordi.

Qiyoslang, hozirgi o'zb.: alda (al — qadimgi turkiy tilda «makt, hiyla» degani), ündä.

-ıq, -ik affiksi. Kul tigin bitigida: taşıq — sirtga, tashga chiq-, içikdi — ichga kirdi, (qal'aga) kirdi. Uyg'ur yozuvli qadimgi yodgorliklarda: tağıq — toqqa chiq-, yolıq — yo'liq-. QB da: atıq — nom chiqar-, birik — birik-.

-ad, -ađ, -at, -äd, -äđ, -ät affiksi. Ko'k turk bitiglarida: qulad — qul qil-, yoqad — yo'qot-, bašad — bosh bo'l-, küñäd — joriyaga aylantir-. Uyg'ur yozuvli qadimgi yodgorliklarda: ulğad — ulg'aytir-, yigäd — yaxshilat-, edäd — mol-mulki qil-. Yoki QB da: muñad — mungli qil-, qutad — baxtlantir-, baxtgä yetkaz-. Qutadğu bilig ~ Qutađğu billig ham

shundan. Bu nom “Qutlantirguchi, baxtga yetkazuvchi bilim” degan ma’noni beradi. Hozirgi o‘zbek tilida bu qo‘shimcha yoqat- so‘zining tarkibidagina saqlanib qolgan (yoq-at).

-qar, -ġar, -kär, -gär affiksi. MK da: ol meni atġardī — u meni otga mindirdi, ol at otġardī — u otni o‘tlatdi, ol at suwġardī — u otini sug‘ardi, ödläk küzġardī — kuz bo‘ldi. Hozirgi o‘zb.: başqar, qutqar (qut — «erk, ozod» so‘zidan), suġar (<suwġar).

-r affiksi. MK da: qīzardī — qizardi, qarardī — qoraydi, ot yaşardī — o‘t yashil bo‘ldi, yashardi, sargardī — sarg‘aydi, örünjardī — oqardi. AH da: eskir — eskir.

-sira, -sirā affiksi. Bu qo‘shimcha «istash, zor bo‘lish» ma’nosidagi fe‘llar yasaydi: qaġansira — xoqoniga zor qilmoq, elsirā — eliga zor qilmoq. Ko‘k turk bitiglarida: Elligig elsirātdimiz, qaġanliġiġ qaġansiratdīmiz — Eli borni (elidan ayirib) eliga zor qildik, xoqonlini (xoqonidan judo qilib) xoqonga zor qildirdik (K. 18). “Türük bodun ölrāyin, uruġsiratayin” tir ermis — “Turk xalqini o‘ldirayin, urug‘ini qoldirmayin (urug‘iga zor qilayin)” der ekan (K. 10). Uyg‘ur yozuvli qadimgi matnlarda: tīnsira — tinchini yo‘qotmoq, tatīġsira — ta‘mini unutmoq, küčsirā — kuchini yo‘qotmoq, öġsirā — aqldan ozmoq. Hozirgi o‘zbek tilida ham bu affiks ayni ma’nodagi fe‘llar yasaydi: xatīnsiradī — xotin istadi, ersirādī — erni istab qoldi, qansiradī — qon istadi.

-sa, -sā affiksi. MK da: ölsādi — o‘lmoq istadi, ölümsādi — o‘limni istadi. Uyg‘ur yozuvli matnlarda: barīġsa — borishni istamoq, körüġsā — ko‘rishni istamoq, tapīġsa — xizmat qilishni istamoq, suwsa — suvsas-

-sī, -si affiksi. MK da: suwsīdī — suv ochdi, yaġsīdī — yog‘li bo‘ldi, ačīġsīdī — achidi, quruġsīdī — quriy boshladi.

-sīn, -sin affiksi. MK da: ewni ewsindi — uyni uy sanadi, oġul ersindi — o‘g‘il o‘zini erkakday tutdi.

-ran, -rān affiksi. QB da: öġrān (öġ — “aql” so‘zidan). Hozirgi o‘zb.: öġgān.

Sifatdosh

Qadimgi turkiy tilda sifatdoshlar quyidagi ko‘rinishda uchraydi:

-dačī, -dāčī / -tačī, -tāčī affiksli sifatdosh. Boldačī buzaġu öküzi ara belgülig — Bo‘ladigan buzoq ho‘kizlar orasida belgi beradi (MK, I, 480).

-qučī, -küci / -ġuči, -güči affiksli sifatdosh. MK da: barguči — yuruvchi, boruvchi, turġuči — turuvchi, yashovchi, taġqa aġquči —

toqqa chiquvchi, ewgä kirgüchi — uyga kiruvchi, bitig bititgüchi — xat yozdirguchi.

-asi, -äsi affiksli sifatdosh. MK da: Bu turasi yer tegül — bu turadigan yer emas, bu bizgä keläsi boldi — u bizga keladigan bo'ldi. Hozirgi o'zb.: keläsi, öläsi.

-qu, -kü / -gü, -gü affiksli sifatdosh. MK da: bu ya qurğu oğur ermäs — bu yoy quradigan vaqt emas, ol bizgä kelgü boldi — u bizga keladigan bo'ldi. Hozirgi o'zbek tilida ba'zan tovush o'zgarishi ham yuz bergan: aqawa (<aqağū) suw.

-ğsaq, -gsäk affiksli sifatdosh. MK da: ol er ewgä barığsaq-ol — u kishi uyga boradigan, ol berü kiligsäk erdi — u bu yerga keladigan edi.

-ğli, -gli affiksli sifatdosh. AH da: oqığli kişi — o'qigan kishi. Hozirgi o'zb.: yatığli kişi, sewikli~süyüklü.

-ma, -mä affiksli sifatdosh. MK da: örmä saç — o'rma soch, tikmä nāñ — tikilgan narsa, köçürma oçaq — ko'chirma o'choq.

-r / -ar, -är / -ir, -ir / -ur, -ür affiksli sifatdosh. MK da: Qaynar öğüz keçigsiz bolmas — Oqar suv kechiksiz bo'lmas.

-mıš, -miš / -mıs, -mis / -muš, -müš / -mus, -müs affiksli sifatdosh. MK da: qazmıš arıq — qazilgan ariq, barmıš kişi — borgan kishi.

-duq, -dük / -tuq, -tük affiksli sifatdosh. MK da: meniñ barduqım barmaduqım — mening borgan-bormaganim, seniñ kördükiñ körmädükiñ bir — sening ko'rgan-ko'rmaganing bir.

-ndi, -ndi affiksli sifatdosh. MK da: sarqındi suw — sarqitlangan suv, qazındi tupraq — qazindi tuproq, keşindi ton — kiyilgan kiyim, süzündi suw — suzilgan (tozalangan) suv. Hozirgi o'zb.: kelgindi kişi, yuğundi suw.

-qan, -ğan, -kän, -gän affiksli sifatdosh. AH da: körgän — ko'rgan, eşitkän — eshitkan.

-ğma, -gmä affiksli sifatdosh. Ko'k turk bitiglarida: keligmä — keladigan.

Ravishdosh

Qadimgi turkiy tilda fe'ning ravishdosh shakli quyidagi ko'rinishda uchraydi:

-a, -ä affiksli ravishdosh: aça — ochib, başa — bosib, ağa — ko'tarilib, adıra — ayirib, sança — sancha, biçä — bichib, kesä — kesib, kezä — kezib. Ko'k turk bitiglarida: Altun yışıg aša kältimiz, Ärtis ögüzüg kaçä kältimiz. — Altun yishni oshib keldik, Irtish daryosini kechib keldik

(Ton, 37). MK da: Etil suwı aqa turur — Etil suvi oqib turar.

-u (-yu), -ü (-yü) affiksli ravishdosh. Matnlardan misollar: Käyik yäyü, tabisğan yäyü olurur ärtimiz. — Kiyik yeb, tovushqon yeb kun kechirar edik (Ton, 8). Kişi sözläşü, yilqı yızlaşu — Kishi so‘zlashib, yilqi hidlashib (bir-birini biladi) (MK, III, 114). Ötrü ol awıçğa ıǵlayu xanqa inča tip ötündi. — So‘ng u qariya yig‘lab xonga shunday deya o‘tindi (AT, 283).

-p / -b affiksli ravishdosh. başlap — boshlab, berip — berib, qodup — qo‘yib, eşitip — eshitib, tip — deb. Matnlardan o‘rnaklar: Tewäy münüp qoy ara yaşmas — Tuya mingan qo‘ylar orasiga yashirina olmaydi (MK, III, 68); Qaç qata taluyqa kirip, bişär yüz erin barıp, asan tükäl kelmiş erti. — Necha bor dengizga kirib, besh yuzcha er bilan borib, sog‘-omon qaytgan edi (AT, 283).

-pan, -pän / -ban, -bän affiksli ravishdosh. IB da: olurupan — o‘tirib, yattpan — yotib.

-mađip, -mäđip affiksli ravishdosh. MK da: eđkärmađip oq atar — o‘ylamayin o‘q otar.

-qalı, -käli / -ǵalı, -ǵäli affiksli ravishdosh. MK da: tutuşqalı — tutish uchun, urǵalı — urgani, urish uchun.

-qınça, -kinča / -ǵınça, -ginča / -qunça, -künča / -ǵunça, -günča affiksli ravishdosh. MK da: Öküz adaqı bolǵınça buzaǵu başı bolsa yig — Ho‘kizning oyog‘i bo‘lgandan ko‘ra, buzoqning boshi bo‘lgan yaxshi.

-yın, -yin affiksli ravishdosh. Taşra yoriyur tiyin kü ešidip balıqdaqı taşıqmış, taǵdaqı inmiş — Tashqarida yuribdi, degan xabarni eshitib, shahardagi tashga chiqibdi, tog‘dagi inibdi (K, 11–12).

-matı, -madı, -mäti, -mädi / -matın, -madın, -mätin, -mädin affiksli ravishdosh. Bunča işig kücüǵ bertükgärü saqınmatı “türk bodun ölüräyin, uruǵsiratayın”, — ter ermiş. — Shuncha mehnatini, kuchini sarf etganiga ham andisha qilmay: “Turk xalqini o‘ldirayin, urug‘ini qoldirmayin”, — der ekan (K, 10); İgidmiş qaǵanıñın sabın almatın yir sayu bardıǵ — Tarbiyat qilgan xoqoningning so‘zini olmayin har yerga ketding (K, 9).

Masdar alomati

Turkiy masdar ikki xildir: biri — fe‘l masdari, ikkinchisi — sifat yoki otga qo‘shilib xoslangan masdarlar.

Fe‘l masdarlaridan biri -maq, -māk qo‘shimchasini qo‘shish bilan yasalgan turidir. Bu qo‘shimcha shaxs ko‘rsatkichini olmagan fe‘llarga qo‘shilib keladi: almaq, turmaq, ketmāk, kelmāk.

Fe'ning boshqa bir masdari shaxs ko'rsatkichini olmagan so'zlarga -š (-iš, -iš, -uš, -üş) qo'shimchasini qo'shib hosil qilingan: uruš kabi.

Ismlardagi masdar yasovchilardan biri -liq, -lik, -luq, -lük dir.

Sonlarning birlik, ikilik, üçlük, törtlük shakli ham ism masdariga misoldir.

Bu qo'shimcha fe'l masdarga qo'shib ism masdarini hosil qilishi ham mumkin: almaqliq, bermäklik.

Ismlardagi masdarning boshqa belgilari ham bor. Masalan, muddat uzoqligini bildiradi: aylıq, yilliq, künlük.

Fe'ning buyruq shakli

Buyruq fe'ning bosh shaklida bo'ladi yoki unga maxsus qo'shimchalar qo'shish yo'li bilan hosil qilinadi. Buyruq tinglovchiga yoki g'oyibga bo'ladi. G'oyib buyrug'i o'zak-negiz oxiriga -sin, -sin, -sun, -sün qo'shimchasini qo'shib yasalgan. Bu qo'shimcha -zun, -zün shaklida ham qo'llanilgan: Kögmän yer-sub idisiz qalmazun tiyin — Ko'gman yurti egasiz qolmasin deya (K, 20).

Tinglovchi buyruq birligi fe'ning bosh shaklining o'zidir: kel-, ket-, al-, tut-, başla-, sözlä-. Ko'pligi fe'ning bosh shakliga -ijiz, -iñiz qo'shimchasi qo'shib hosil qilingan: keliñiz, ketiñiz, sözläñiz, barñiz. Bir guruhga buyruq qilishda oxirgi -z (-iz, -iz) tushiriladi: keliñ, ketiñ, sözläñ, barñ.

Ba'zan yodgorliklar tilida tinglovchi ko'pligini ifodalash uchun -ij, -iñ hamda -iñlär, -iñlar qo'shimchalari aralash qo'llanilgan. Masalan, "Irq bitigi" da: Anča biliñlär: edgü-ol (IB. 1) // Anča biliñ: edgü-ol (IB. 2) — Buni biling, ezgudir. Yoki AT. 283 da: Kim taluyqa barayin tisär kiriñlär, oğlum tiginkä eş boluñlar. — Kim dengizga boraman desa, (saroyga — qoshimga) kiringlar, o'g'lim shahzodaga esh bo'linglar; Amtñ siz qatağlanıñ, birlä barñ, yerçi boluñ. — Endi siz bardam bo'ling, birga boring, yo'l ko'rsatuvchi bo'ling.

O'zga buyruq birligi kelsin, ketsin, ko'pligi kelsinlär, ketsinlär tarzida qo'llangan. Masalan: Tiginig asan tükäl kelürzünlär. — Teginni eson-omon keltirsinlar (AT, 283).

Muhimi shundaki, "Qutadg'u bilig" da o'zga buyrug'ining birligi -su, -sü / -sun, -sün hamda -sunı, -süni shakllarida yasalgan: Yağa tursu yağmur, yazılsu çeçäk — Yomg'ir yog'avorsin, chechaklar ochilsin (QB, 114); Qutadsu atı, bersü eki jihan — Oti qutli bo'lsin, (xudo unga) ikki jahonni bersin (QB, 85); Tuta bersü täñri bu taxt birlä baxt — Tangri unga taxt bilan baxtni beraversin (QB, 89); Ažun qalmasunı siziñsiz

quruğ — Dunyo sizsiz quruq qolmasin (sizdan ajramasin) (QB, 105).

“Hibatu-l-haqoyiq”da oʻzga buyrugʻining birligi -su, -sü / -sun, -sün shakllari bilan hosil qilingan: atī qalsu — nomi qolsin, yad qilsu — yod qilsin, asīğ alsu — foyda olsin, tükäl bilsü — tugal bilsin. Yoki: sewinsün — sevinsin, kelmäsün — kelmasin, külmäsün — kulmasin.

Buyruqning boʻlishlisi ham, boʻlishsizi ham -ğın, -qın, -gin, -kin qoʻshimchasi bilan taʼkidlanadi: yatqın, turmağın, kelgin, ketkin. Bu qoʻshimcha tinglovchi buyrugʻiga qoʻllanadi. Oʻzga buyrugʻiga qoʻllanmaydi.

Soʻzlovchining buyruq-istagi feʼl negizga -ayım, -äyım; -alım, -älim; -alıq, -äylik qoʻshimchalarini qoʻshib yasaladi. Koʻk turk bitiglarida: terilälım — terilaylik, sü yorilım — lashkar tortaylik.

“Hibatu-l-haqoyiq”da soʻzlovchining buyruq-istagi -ayın, -äyın qoʻshimchasi bilan hosil qilingan: qilayın — qilay, ayayın — aytay, bezäyın — bezay.

Buyruq (amr) va tinglovchiga xitob feʼl oʻzagiga -qıl, -ğıl, -kil, -gil qoʻshimchasini qoʻshish bilan ham hosil qilingan.

Bularning boʻlishsiz shakli esa -mağıl, -mägıl qoʻshimchasi bilan hosil qilingan: ačmağıl, töšämägıl kabi.

Boʻlishsizlik

Boʻlishsizlik belgisi tinglovchi buyrugʻining birlik shaklidan keyin qoʻshiladigan -ma, -mä dir. Bu faqat kelasi zamonga bogʻliq: alma, almaj. Oʻzga buyrugʻida boʻlishsizlik shakliga -sun, -sün, -sın, -sin qoʻshimchasi orttiriladi: almasın, almasınlar. Soʻzlovchining buyruq-istagi almalım, almayım, almayıq shaklida ifoda etilgan.

Boʻlishsizlik belgisining -maz, -mäz shakli ham bor. U shaxs-son qoʻshimchalari bilan qoʻllanadi. Birinchi shaxsda kelmäzmän, kelmäzbiz, ikkinchi shaxsda kelmäzsän, kelmäzsiz, uchinchi shaxsda kelmäz, kelmäzlär deyiladi. Bu affiksning -mas, -mäs varianti ham bor: kelmäsmän.

Oʻtgan zamon boʻlishsizligi: kelmädım, kelmädik, kelmädıñ, kelmädıñiz, kelmädılär.

Kelasi zamon boʻlishsizligi: kelmägäymän, kelmägäybız, kelmägäysän, kelmägäysız, kelmägäylär.

Boʻlishsiz shart feʼlida soʻzlovchi kelmäsäm, kelmäsäk degan, tinglovchiga kelmäsän, kelmäsäniz, oʻzgaga nisbatan kelmäsä, kelmäsälär deyilgan.

Bo'lishsizlikning yana bir belgisi **-siz**, **-siz** affiksidi: Azıqsız kettim, aqčasız keldim degandagi kabi.

Bo'lishsizlik ba'zi hollarda yoq so'zi bilan ham ifodalanadi.

Fe'llarda shaxs-son ko'rsatkichi

Fe'llarda so'zlovchi birligining shaxs-son ko'rsatkichi **-mān~**-men qo'shimchasidir. Masalan, OD da: dost tutar-men — do'st tutar-men, duşman tutar-men — yov tutarmen. AT, 283 da: Bir-kiā amraq oğlumun siziñā tutuzur-mān. — Birgina suyukli o'g'limni sizga tutqazayapman. So'zlovchi ko'plik uchun kelasi zamon fe'llarida **-biz**, **-bız**, o'tgan zamon fe'llarida **-q**, **-k** qo'shimchasi ishlatiladi.

O'zga shaxs birligi **-i**, **-i** qo'shimchasi bilan hosil qilinadi. Ko'plik uchun esa birlik shakliga **-lar**, **-lār** qo'shimchasi qo'shiladi.

So'zlovchi fe'llardagi shaxs-sonni quyidagicha ifodalaydi:

Birlikda: ayur-men, kelür-men.

Ko'plikda: ayur-bız, otunur-bız.

Tinglovchi uchun birlikda: aldñ, keldñ. Ko'plikda: aldñız, keldñız.

O'zga birligi uchun: aldī, keldi. Ko'plik uchun: aldīlar, keldīlār.

Agar shaxs ta'kidlab ko'rsatilmoqchi bo'lsa, undan oldin kishilik olmoshi orttiriladi. So'zlovchi birlikda men aldīm, men keldim, ko'plikda biz aldīq, biz keldik. Tinglovchi birlikda sen aldñ, sen keldñ, ko'plikda siz aldñız, siz keldñız.

Ol sub qudī bardīmız, sanagañ tüşürtümüz, atıgı ĩqa bayur ertimiz... kün yemā, tün yemā yelü bardīmız. Qırqızıg uqa basdīmız. — Ul suvning quyisiga bordik. (Lashkarni) sanagani tushirdik. Ot(lar)ni butaga boylar edik... . Kun-u tun yelib bordik. Qırqizni qo'qqisdan bosdik (Ton, 27).

“Xuastuanift” asarida so'zlovchi ko'pligining shaxs-son ko'rsatkichi ikki xil shaklda: unli bilan tugagan fe'l shakllariga **-mız**, **-miz**, undosh bilan tugagan fe'llarga esa **-biz** shaklida qo'shilgan: öktünür-biz, ötünür-biz, sözläyür-biz, işläyür-biz, yazuqluğ-biz.

Yana bir muhim belgisi, asarda fe'lning o'tgan zamon, shaxs-son qo'shimchalari ham o'zak-negizga moslashadi: so'zning oxirgi bo'g'ini lablanmagan unlili bo'lsa, zamon, shaxs-son qo'shimchalari **-timız**, **-timiz** / **-dımız**, **-dimiz** shaklida qo'shiladi: sözlädımız, biltimiz, ürkitdimiz, açıtdımız, ağırdımız. Agar so'zning oxirgi bo'g'ini lablangan unlili bo'lsa, **-tumuz**, **-tümüz** / **-dumuz**, **-dümüz** shaklida qo'shiladi: yüküntümüz, ölürdümüz, öz ötäğçi boltumuz.

-siz affiksi tinglovchi birligida ba'zan hurmat ma'nosini ham bildiradi:

Ötrü ol awičğa ĩġlayu xanqa inčä tip ötünti: Täñrim, ne munj taq boltı-kim, antağ täñri-teg, erdäni-teg ögükünğüzni ölüm yiriñä ĩdur-siz? — So'ng o'sha qariya yig'lab, xonga shunday deya iltijo qildi: “Tangrim, qanday musibatkim, shunday tangridek, javohirdek suyuklığingizni [ya'ni o'g'lingizni] o'lim yeriga yuboryapsiz?” (AT, 283).

Shart ko'rsatkichi

Qadimgi turkiy tilda shart ko'rsatkichi -sar, -sär shaklida bo'lgan. So'zlovchi birligi va ko'pligi, tinglovchi birligi va ko'pligining shart ko'rsatkichi ham o'zga ko'rsatkichi (-sar, -sär) kabi ifoda etilavergan, lekin ma'noda farq bor. Shartning kimga yoki nimaga tegishliligini egadan anglash mumkin. Masalan, ko'k turk bitiglarida: İraq ersär, yablaq ağı birür, yağıuq ersär, edgü ağı birür — Yiroq bo'lsa, yomon ipaklik berur, yaqin bo'lsa, yaxshi ipaklik berur (Ka, 7). Ötükän yiş olursar, bängü el tuta olurtaçı-sän — O'tukan yishda turilsa, elni mangu tutib turajaksan (Ka, 8). Üzä täñri basmasar, asra yer tilinmäsär, türük bodun, eliñin, törünjin kim artatı? — Yuqoridan osmon bosmasa, pastda yer yorilmasa, turk xalqi, davlatini, hukumatini kim buzdi? (K, 22). Eltäriş qağan qazğanmasar, udu ben özüim qazğanmasar, el yemä, bodun yemä yoq ertäçi erti — Eltarish xoqon zafar qozonmasa, unga ergashib mening o'zim zafar qozonmasam, el ham, xalq ham yo'q bo'lajak erdi (Ton, 54-55). Bilgä Toñuquq qazğanmasar, ben yoq ertim ersär... — Bilga To'nyuquq zafar qozonmaganda edi, men bo'lmasam edi (Ton, 59); Amti men bu erdäni birlä barsar, men qamağ tınıġlarqa artuq asıġ tusu qilu umağay-men. — Endi men bu javohir bilan borsam, men hamma jonzodlarga ortiq foyda keltira olmayman (AT, 284).

Qadimgi -sar, -sär keyinchalik -sa, -sä shaklini oldi.

“Qutadg'u bilig”da ham so'zlovchi birligi va ko'pligi, tinglovchi birligi va ko'pligi uchun shart ko'rsatkichi -sa, -sä shaklida qo'llanaveradi:

Uđir erdiñ ersä, tur, ač emdi köz,

Eđitmädiñ ersä, eđit mendä söz —

Uxlayotgan bo'lsang, tur, endi ko'zingni och,

Eshitmagan bo'lsang, so'zimni eshit (QB, 80).

Keltirilgan misolda shartning tinglovchiga qarashliligi uđir erdiñ, eđitmädiñ so'zlari orqali ifoda etilgan.

Qali edgü bulmaq tiläsä özünj. — Agar ezgulik topmoq tilasang (QB, 224).

Apañ ekki ažun qulur ersä sen. — Agar ikki dunyoni istar esang (QB, 223).

Özüm ‘uzrīn aysam yemā iymānū. — Agar iymanib o‘z uzrimni aysam (QB, 188).

Qalī bulsaŋ, iŋlāt, uĉup kökkä teŋ. — Agar ularga yetishsang, ishlat, uchib ko‘kka ko‘taril (QB, 212).

“Hibatu-l-haqoyiq”da ham tinglovchi sharti -sa, -sä bilan ifoda etilgan: Aqī erni öggil ögär ersä sen. — Sahiy erni maqtagil maqtar ersang sen (AH, 227).

Fe‘l nisbatlari

Yozma yodgorliklar tilida fe‘lning birgalik nisbati -š qo‘shimchasi bilan yasaladi.

Fe‘lning orttirma nisbati quyidagi qo‘shimchalar bilan yasalgan:

-t affiksi. MK da: ol anī sīxtattī — u uni yig‘latdi, ol anī tilätti — u uni tilantirdi.

-r, -ur, -ür affiksi. MK da: ol anī ewdin köĉürdi — u uni uydan ko‘chirdi.

-tur, -tür / -dur, -dür / -tīr, -tir / -dīr, -dir affiksi. MK da: ol qapuĝ aĉturdī — u eshikni ochtirdi, ol suw töktürdi — u suvni to‘ktirdi.

-qur, -kür / -ĝur, -gür affiksi. MK da: ol meni tođĝurdī — u meni to‘ydirdi.

-z, -uz, -üz affiksi. MK da: uraĝut oĝlīŋa sūt emüzdi — xotin bolasiga sut emizdi, ol suw tamuzdī — u suv tomizdi.

-duz, -düz affiksi. MK da: ol tawar alduzdī — u mol oldirdi, ol meŋä iŋ bildüzdi — u menga ish o‘rgatdi.

O‘tgan zamon fe‘li

O‘tgan zamon fe‘lining o‘zga birligi -dī, -di / -tī, -ti, bo‘lishsiz shakli -madī, -mädi qo‘shimchasi bilan hosil qilinadi. Misoli: Türk bodun ölti, alqīntī, yoq boltī, türk sir bodun yārintā bod qalmadī. — Turk xalqi o‘ldi, tugadi, yo‘q bo‘ldi, turk sir xalqi yerida (hech bir) uruĝ‘ qolmadi. (Ton, 3-4).

O‘zga ko‘pligi o‘zga birlik shakliga -lar, -lär qo‘shimchasini qo‘shib hosil qilinadi.

O‘tgan zamon fe‘lining so‘zlovchi birligi -dīm, -dim / -tīm, -tim, bo‘lishsiz shakli -madīm, -mädim qo‘shimchasini qo‘shish bilan hosil qilingan.

O‘tgan zamon fe‘lining tinglovchi birligi -dīŋ, -diŋ, -tīŋ, -tiŋ, bo‘lishsiz shakli -madīŋ, -mädiŋ qo‘shimchasi bilan yasaladi: ĉīzdīŋ — yozding, ĉīzmadīŋ — yozmading. Tinglovchi ko‘pligi -dīŋīz, -diŋīz, -

tiñiz, -tiñiz, bo'lishsiz shakli -madñiz, -mädiñiz qo'shimchasi bilan yasaladi: čizdiñiz — yozdingiz, čizmadñiz— yozmadingiz.

Hozirgi zamon fe'li

Bunday fe'l shakli hozirgi zamon uchun yoki ham hozirgi, ham kelasi zamon uchun mushtarak bo'ladi. Undosh bilan tugagan fe'llarda a, ä, unli bilan tugagan fe'llarda y undoshi orttiriladi.

Ham hozirgi, ham kelasi zamonga ehtimoli bo'lgan fe'llar misoli: kelirmän, kelirbiz, kelirsän, kelirsiz, kelir, kelirlär.

Hozirgi zamon fe'lining tinglovchi birligi o'zakka -ar-sen, bo'lishsiz shakli esa -maz-sen qo'shimchasini qo'shish bilan hosil qilinadi. Tinglovchi ko'pligi hosil qilinmoqchi bo'lganda tinglovchi birligidagi -sen qo'shimchasi -siz bilan almashtiriladi.

O'zga birligi fe'l o'zagiga -ar, bo'lishsiz shakli esa -maz qo'shimchasini qo'shish bilan hosil qilinadi. Tinglovchi ko'pligi birlikdagi bo'lishli va bo'lishsiz shakliga -lar qo'shimchasini qo'shib hosil qilinadi.

So'zlovchi birligi -ar-men, bo'lishsiz shakli -maz-men qo'shimchasi bilan hosil qilingan. So'zlovchi ko'pligida so'zlovchi birligidagi -men qo'shimchasi -biz bilan almashtiriladi.

Kelasi zamon fe'li

Kelasi zamon fe'li -ğay, -qay, -gäy, -käy affiksi bilan hosil qilinadi. Bo'lishsiz shakli -mä, -ma qo'shimchasini qo'shish bilan hosil qilinadi.

Amti ečim taluyqa barip erdäni kelürsär, taqi ağırlıg bolğay, men taqi uçuz bolğay-men, tep saqınti. — “Agar akam dengizga borib javohir keltirsa, u yana ham qadr topadi, men esa yana qadrsiz bo'laman”, — deb o'yladi (AT, 284).

Bođun tili yawlaq, seni sözlägäy,

Kiši qılqır kirtüč, etiñni yegäy —

Xalqning tili yomon, seni so'zlaydi,

Kishilarning fe'l-atvori hasadgo'y, etingni yeydi (QB, 164).

Yodgorliklarda kelasi zamonning -ğay, -qay, -gäy, -käy affiksi -ğa, -qa, -gä, -kä shaklida ham qo'llaniladi: Biligsiz ne bilgä bilig qıymatı — Bilimsiz bilimning qadrini qayerdan ham bilardi (QB, 462).

Turur / durur fe'li haqida

Turkiy tillarda, xususan, o'zbek tilida gapning kesimi ko'pincha

fe'ldan tuziladi. O'rni bilan, boshqa so'z turkumlari (ot, sifat, son va b.) ham kesim bo'lib keluvi mumkin. Biroq, ismlar guruhiga mansub so'zlar kesim bo'lib kelganda, muhim bir hodisani inobatga olmoq kerak. Masalan, hozirgi o'zb. Bu uy čirayli hamda Meniŋ niyatim šu gaplarining tuzilishiga e'tibor beraylik. Keltirilgan ikkala gapning kesimi fe'l emas. Ammo ushbu kesimlar sifat va olmoshdangina iborat emas. Ularda biz kesim deb sanayotgan sifat va olmoshdan keyin ta'kidni bildiruvchi mantiqiy -dir turibdi: Bu uy čirayli(dir); Meniŋ niyatim šu(dir). Buning singari misollarni yana keltirishimiz mumkin: ularning hammasida ham kesim o'rni mantiqiy -dir tasavvur etiladi va bundayin "ot-kesimli" gaplarning mantiqiy kesimi yana fe'lga qaytadi.

Hozir biz qo'llayotgan -dir qadimgi turkiy tildagi turur ning qisqargan shaklidir (turur / durur > tur / dur > dir).

Qadimgi yodgorliklar tilida gapning kesimi, asosan, fe'l bo'lib keladi: Türk bodun ölti, alqmti, yoq bolti. — Turk xalqi o'ldi, tugadi, yo'q bo'ldi (Ton, 3).

Yozma yodgorliklar tilida -ol ham kesimlik belgisi bo'lib, fikr tugalligi, aniqligini bildirib keladi. Misollar:

Türk bodun yämä bulğanč-ol, tämis. Oğuzi yämä tarqanč-ol, tämis. Turk xalqi ham sarosimadadir, — debdi. — O'g'uzi ham tarqoqdir", - debdi (Ton, 22).

Kišidin kişikā qumaru söz-ol,

Qumaru sözi tutsa asgī yüz-ol —

Kishidan kishiga (qolar) yodgorlik so'zdir,

Yodgorlik so'ziga amal qilsang, foydasi yuzdir (QB, 187).

Özün mänjü ermāz, atŋ mänjü-ol. — O'zing mangu emas, oting mangu (QB, 226).

Gapda fe'ldan boshqa so'z turkumlari ham kesim bo'lib kelishi mumkin. Biroq, har qanday holatda ham, u mantiqan fe'l-kesimni talab qiladi. Qadimgi turkiy tilda buni turur fe'li ta'minlaydi. Quyidagi misolga e'tibor qarataylik: Qul yaŋi, it böri. — Qul — dushman, it — bo'ri (MK, I, 324). Qo'shma gap shaklidagi ushbu maqoldagi birinchi gapning kesimi — yaŋi, ikkinchisidiki — böri. Ikkala gapning kesimi shu turishida mantiqan turur fe'lini talab qiladi. Demak, ushbu maqolning qisqarishga uchramagan, tiklangan shakli Qul yaŋi (turur), it böri (turur) bo'ladi.

Til tarixida fe'lning shaxs-son ko'rsatkichi ham gap kesimini shakllantira oladi. Masalan: Qutluŋ čigši-ben. — (Men) Qutlug' chigshiman (E, 19, 1); Bilgā To'nuquq-ben. — (Men) Bilga To'nyuquqman (Ton, 1); Antaŋ küčlüg-män. — Shunday kuchliman (IB, 20).

E'tibor berilsa, keltirilgan misollarda shaxs-son qo'shimchalari to'g'ridan to'g'ri ot yoki sifatga bog'lanayotgani yo'q. Ular mantiqan kesimlikni ta'minlayotgan turur fe'liga bog'lanmoqda. Shuni inobatga olganda keltirilgan gaplarning tiklangan holati: Qutluğ čigši (turur)-ben; Bilgä Toñuquq (turur)-ben; Antağ küčlüğ (turur)-mān shakllarini oladi.

Boshqa bir misol: Alp čerigdä, bilgä tirigdä (MK, I, 369). Ushbu gapning kesimlari mantiqan tugallikni bildiruvchi "bilinadi", "sinaladi" fe'llarini talab etadi. Ana shu fe'l-kesimning qisqarishi natijasida to'ldiruvchi kesim vazifasini o'tamoqda. Shuning uchun bu gapni "Alp jangda, dono majlisda sinaladi" deya anglamoq kerak.

Yana bir o'rnak: Qoldačıqa miñ yağaq, barča bilä ayruq tayaq. — Tilanchiga mingta yong'oq, barchasiga qo'shimcha suyanadigan tayoq (ham ber) (MK, I, 394). Ushbu gap mantiqan "bergil" fe'lini talab qiladi. Shuning uchun tiklangan ko'rinishini quyidagicha o'qish mumkin: Qoldačıqa miñ yağaq (bergil), barča bilä ayruq tayaq (ma bergil).

Turkiy tillarda (til tarixida ham, hozir ham) kesim, asosan, fe'l bilan ifodalanadi. Uslubiy talablar, tejamkorlik qonunidan kelib chiqqan holda boshqa so'z turkumlari ham kesim bo'lib kela olishi mumkin. Biroq, har qanday holatda ham biz kesim deya sanayotgan so'zimiz mantiqan fe'lni talab qilaveradi. Til tarixida kesimlikni turur fe'li ta'minlagan bo'lsa, hozirgi o'zbek tilida esa uning vazifasini -dir bajaradi. Ko'pincha bu qo'shimcha ot kesimlarda zamon ko'rsatkichi sifatida fakultativ shaklda mavjuddir.

Ko'makchi fe'llar

Yozma yodgorliklar tilida ayrim fe'llar ko'makchi fe'l vazifasida ham qo'llanadi. bol-, qil-, bar-, ber-, id-, elt-, qal-, kel-, kör-, u-singari so'zlar ko'makchi fe'l vazifasida ham qo'llanadi.

Ko'makchi fe'llarning muhim xususiyati, ular qo'shma fe'l yasash uchun ham xizmat qiladi. Qo'shma fe'llar ot yoki sifat bilan ko'makchi fe'llar birikuvidan, shuningdek, ravishdosh bilan ko'makchi fe'l birikuvidan tuzilgan bo'ladi.

Ot yoki sifat bilan ko'makchi fe'l birikuvidan tuzilgan fe'llar ikki xil: 1) ot yoki sifat + bol- qolipida tuzilgan fe'llar: qağan bol- xoqon bo'l-, qul bol- qul bo'l-, qari bol- qari bo'l-, kergäk bol- o'lmak, vafot etmak, yaği bol- yov bo'l-; 2) ot yoki sifat + qil- qolipida yasalgan fe'llar: bay qil- boy qil-, qul qil- qul qil-, küñ qil- joriya qil-, uruš qil- urush qil-.

Ravishdosh bilan ko'makchi fe'l birikuvidan tuzilgan fe'llar. Bunday

fe'llar bar-, ber-, id-, elt-, qal-, kel-, kör-, u- ko'makchi fe'llari ko'magida tuziladi: adriilu bar- ayrilib ket-, uca bar- vafot et-, yeliu bar- yelib bor-, tezip bar- qochib ket-; qazganu ber- qozonib bermak, tikä ber-tika ber-, tuta ber- tutib ber-; yitürü id- yo'qotmoq, sanča id-sanchmoq; sürä elt- suru ber-; yatu qal- yotib qol-; udu kel- ta'qib etib turmoq, yürä kel- yurib kel-; yelü kör- yelib ko'r-; artatı u- buza bilmak; udu yori- uzoq vaqt izlamak.

er- to'liqsiz fe'li haqida

Hozirgi o'zbek tilida e- to'liqsiz fe'l bo'lib, u edi, ekän, emiš, emäs, esä singari shakllarda amal qiladi. Bulardan emäs bo'lishsiz fe'llar yasaydi, esä bog'lovchidir.

To'liqsiz fe'lining edi, ekän, emiš shakllari alohida qo'llanilmaydi, lekin fe'llar bilan qo'llanilganda harakat-holatning davomiyligini bildiradi. Otlar (ism guruhidagi so'zlar) bilan qo'llanilganda esa uni kesimga aylantiradi va b.

Hozirgi e- to'liqsiz fe'li qadimgi turkiy tilda är-~er-, uning zamon, mayl shakllari esa ärdi~erdi, ärkän~erkän, ärmış~ärmis / ermiş~ermis, ärmäz~ärmäs / ermäz~ermäs, ärsä~ersä shakllarida qo'llanilgan.

Ma'lumki, är-~er- avval mustaqil bo'lib, keyinchalik to'liqsiz fe'lga aylangan. U yozma yodgorliklar tilida ikki xil ko'rinishda uchraydi:

1) Hozirgi o'zbek tilida bo'lgani singari to'liqsiz fe'l bo'lib keladi:

Türk bodun Tabgäçqa körür ärti. — Turk xalqi Tabg'achga qaram edi (Ton, 1).

Äki ültügi atlıg ärti, bir ültügi yadağ ärti. — Ikki qismi otlig' edi, bir qismi yayov edi (Ton, 4).

2) Mustaqil fe'l bo'lib, "mavjudlik" ma'nosini bildiradi. Misollarga e'tibor bering:

Näj näj sabım ärsär, bängü taşqa urtum. — Har qanday so'zim bo'lsa, mangu toshga yozdim (Ka. 11).

Anča qazganmıs, itmis älimiz, törümüz ärti. — Shunday qozonilgan, tiklangan elimiz, hukumatimiz (bor) edi (K. 12).

Ol antağ osuğluğ çoğluğ yalıñlıg küçlüg küsünlüg elig xannıñ uluğr xatunınta toğmıs körgäli sewiglig, körklüg meñizlig üç oğlanı erti. — O'sha tadbirli-cho'g'li, shon-shavkatli elig xonning katta xotinidan tug'ilgan ko'rkli-suyukli, istarasi issiq uch o'g'loni bo'lar edi (Oy, 607—608).

Et-öz ersär, beksiz meñsüz titir. — Et-o'z mavjud bo'lsa, beqaror-u, o'tkinchi turur (Oy, 613).

Yodgorliklarda er- fe'li erdilär erdi, erdi ersä shakllarida ham uchraydi. Masalan, "O'g'uzxoqon" dostonida: O'sul o'g'ulnuñ öñlügi čiraği kök erdi, ağızi atas qizil erdi, közlari al, sačları, qašları qara erdilär erdi. — O'sha o'g'ilning yuz-chiroyi ko'rkli edi, lablari otash misol qizil edi, ko'zlari xumor, sochlari, qoshlari qora edi (OD, 1, 5-7).

"Qutadg'u bilig"da: Uđir erdiñ ersä, tur ač emdi köz. — Uxlayotgan ersang, tur, endi ko'zingni och (QB, 80).

Hozirgi kimsä so'zi tarixan kishilikni bildiruvchi kim hamda "mavjudlik («*существо*»)" ma'nosidagi ersä so'zlarining birikuvidan yasalgan: kimsä<kim+ersä. Yoki hozirgi narsä so'zi "buyum, narsa" ma'nosidagi näñ hamda ersä so'zlarining birikuvidan hosil bo'lgan: narsä<näñ+ersä. Yana qiyoslang: o'zbek tili tarixida qo'llangan nāmār-sä(<nāmā+ersä) so'zi "narsa, buyum" ma'nosini bildiradi.

YORDAMCHI SO'ZLAR

Bog'lovchilar

Hozirgi o'zbek adabiy tilida uyushiq bo'laklar hamda juft so'zlarda ishlatiladigan va yoki -u bog'lovchilarining o'rni qadimgi turkiy tilda ... li ... li bog'lovchisi qo'llanilgan. Misol: Saqintim, turuq buqali samiz buqali arqda bilsar, samiz buqa, turuq buqa tayin bilmaz armis. — (So'ng) o'ylab qoldim: "(Birov) turuq buqa bilan semiz buqani tezagidan bilsa, (birov bu) semiz buqa, (bu) turuq buqa deya bilmas emish [ya'ni semiz buqa bilan turuq buqani ajratolmas ekan]" (Ton, 5-6); Bu sawig ilig begli xatunli eshidip... — Bu xabarni elig bek va xotini eshitib ... (Oy, 625); Adigli tonuzli art uza soqusmis ermis. — Ayyiq va to'ng'iz tepalik ustida to'qnashibdi (IB. 6); T(ä)ngirli yakli nada otrü sunüsmis y(a)ruqli q(a)rali q(a)lti qatilmis yirig t(ä)ngirig kim y(a)ratmis tipan bilt(i)m(i)z. — Tangri va iblis nima sabab urushdilar, yorug'lik bilan zulmat qanday qilib qorishdilar, yerni, osmonni kim yaratganini bildik (Huast, 73-75).

Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asarida biriktiruvchi bog'lovchilardan ham bog'lovchisi-da qo'llanilgan: Fida qildi barin, näñi ham özin. — Barini — narsasini hamda o'zini fido qildi (QB, 55); Ularniñ tanuqi kelir ham barir. — Ularning sovg'asi keluvchi ham ketuvchidir [ya'ni o'tkinchidir] (QB, 109).

Ya bog'lovchisi inkorni bildiradi. U takrorlanib ham ishlatiluvchi mumkin:

Yurimaz ya yatmaz, uđimaz uđuğ,

Ya menzäg ya yanzag kötürmäz bođuğ. —

U yurmaydi yo yotmaydi, uxlamaydi, (u) uygʻoq,

Yo mengzaydigan, yo oʻxshaydigan sifati yoʻqdir (QB, 16).

“Yoki” bogʻlovchisining oʻrnida azu bogʻlovchisi qoʻllanilgan. Ushbu bogʻlovchi ora-chora takror holda ham ishlatiladi: Azu muñ tūcūn azu bušī birgāli qizgānīp yiti tūrlūg bušī arīg nomqa tūkāti birū umadīmiz ārsār. — Yoki qaygʻu-musibatga atab ehson bergani qizgʻanib yetti xil ehson, chin aqoidga butkul bera olmagan boʻlsak (Huast, 107–108); Anīñ oxšāgī yoq azu menžāgi. Uning oʻxshaydigani yoki mengzaydigani yoʻq (QB, 15); Esiz-mu señā yeg azu eđgū-mu / Söküş-mu qilur-sen azu ođdi-mū. — Senga esizlik yaxshimi yoki ezgulikmi? Soʻkilishni istaysanmi yoki maqtovnimi? (QB, 240).

Hozirgi “goho” bogʻlovchisining oʻrnida ara bogʻlovchisi qoʻllanilgan. U jumlada takrorlanib kelishi ham mumkin: Ara ođdilūr til, ara mīñ sōkūš. — Til goho maqtaladi, gohida ming soʻkish eshitadi (QB, 174).

Hozirgi oʻzbek tilida -ki bogʻlovchisi ergash gapni bosh gapga bogʻlashga xizmat qiladi. Oʻzbek tilshunosligida -ki bogʻlovchisi fors tilidan oʻzlashgan, sodda gaplari -ki bogʻlovchisi bilan birikkan qoʻshma gaplarni forsiy qolipda yuzaga kelgan, deb qarovchilar ham bor. Taʼkidlash kerakki, turkiy tillardagi -ki bogʻlovchisi tarixan -kim ning qisqargan shaklidir (-kim>-ki). Qadimgi turkiy yodgorliklar tilida kim ikki xil vazifada keladi:

1) kishilik olmoshidir. Masalan: Kim taluyqa barayīn tesār, kirīñlār, ođlum tigīnkā eš boluñlar. — Kim kergākin barča bergāy-biz. Kim yerči suwčī, kemāči bar ersār, yemā kelzūn. — Kim dengizga boraman desa, qoshimga kiringlar, oʻgʻlim shahzodaga esh boʻlinglar. Nima kerak boʻlsa, barini bergaymiz. Kim yoʻl boshlovchi, dengizchi, kema boshqaruvchisi boʻlsa, u ham kelsin (AT, 283);

2) bogʻlovchi boʻlib keladi, qoʻshma gaplarda ergash gapni bosh gapga bogʻlash uchun xizmat qiladi. Quyidagi misollarga eʼtibor bering: Luu xanlarīnta Čintamani erdāni bar-kim, tūlūglūg qutluğ kiši ol erdāni bulsar, qamağ tīnliğlarqa asīg tusu qilur. — Ajdar xonlarida Chintamani javohiri bor-kim, nasib etgan baxti bor kishi oʻsha javohirni topsa, hamma jonzodlarga foyda keltiradi (AT, 283); Men bu muntuda yigrāk Čintamani erdāni alğali barayīn-kim, qayu tīnliğlarqa tūzū tūkāti asīg tusu qilu usar-men. — Men bu yerda qolib yaxshiroq Chintamani javohirini olish uchun borayin-kim, qay jonzodlarga tugal foyda keltira olaman (AT, 284).

Hozirgi “agar”, “garchi” bogʻlovchilari oʻrnida qalī~xali, apañ~abañ bogʻlovchilari qoʻllanilgan. Masalan, “Qutadgʻu bilig” da: Qalī mundağ

ersä yorfq otu ur. — Garchi shunday ekan, o'rtacha yo'riq tut (QB, 172); Apaŋ iki aŋun qulur ersä sen. — Agar ikki dunyo farog'atini tilar bo'lsang (QB, 223).

Ko'makchilar

Ko'makchilar vosita, maqsad, sabab, vaqt, makon va shu kabi munosabatlarni bildirish uchun qo'llaniladigan so'zlardir.

Yodgorliklar tilida birlä~bilä, üçün, üzä~üzrä, icrä, içindä, ara, ötrü, tapa~taba, uzu, basa, soŋ, qat, aŋnu, burun, tegin ko'makchilari qo'llanilgan.

üzä ko'makchisi: Toquz oŋuz bodun üzä qaŋan olurti, tir. — To'quz o'g'uz xalqi ustidan (bir) xoqon taxtga o'tirdi, — der (Ton, 9).

tegin ko'makchisi: Qirq yilqa tegin bay čigay tüzlänür — Qirq yilgacha boy bilan kambag'al tenglashadi (MK, I, 333).

“So'ng” ma'nosida soŋ, basa, ötrü so'zlari, hozirgi “keyin” so'zining o'rnida kedin, kenä so'zlari qo'llanilgan.

Yuklamalar

Yuklamalar so'z va gapga qo'shimcha ma'no yuklaydi. Ular so'roq, taajjub, kuchaytiruv va ta'kid, ayiruv, inkor ma'nolarini bildiradi.

Qadimgi turkiy tilda yuklamalar ikki xil ko'rinishda uchraydi: qo'shimcha shakliga kelib qolgan yuklamalar va so'z-yuklamalar.

Yämä yuklamasi ta'kidni bildiradi: Ältäris qaŋan qazŋanmasar, udu bän özüm qazŋanmasar, äl yämä, bodun yämä yoq ärtäči ärti, qazŋantuqin üçün, uduŋuzum, qazŋantuqum üçün äl yämä äl bolti, bodun yämä bodun bolti. — Eltarish xoqon zafar qozonmaganida, uning bilan mening o'zim zafar qozonmaganimda, yurt ham, xalq ham yo'q bo'lar edi. (Xoqon) zafar qozongani uchun, mening hushyorligim, zafar qozonganim uchun, el ham el bo'ldi, xalq ham xalq bo'ldi (Ton, 54-56).

Yodgorliklar tilida -mu, -mü so'roq yuklamasi, ta'kidni bildiruvchi -la, -lä; -ču, -čü; -oq, -ök; -mat, -mät; uš yuklamalari amal qilgan.

-mu, -mü so'roq yuklamasining misoli: Ayur: körmädiŋ-mü bu xaŋan yuzin. -Aytur: Ko'rmadingmi bu xoqon yuzini? (QB, 79).

-oq, -ök yuklamasining misoli:

Taqi ma nekü ersä arzu tiläk,

Bayat-oq bolu bersü arqa yöläk —

Tag'in qanday tilak va orzularing bo'lsa, xudoning o'zigina madadkor bo'laversin (QB, 118).

uʃ yuklamasining misoli: E bilgä, özüm uʃ tapuğči senjä. — Ey dono, oʻzim sening xizmatindingadirman (QB, 200).

-mat, -mät yuklamasining misoli: Seni sen-mät öggil, kesildi sözüm. — Seni sening oʻzinggina hamd qil, soʻzimni kesdim (QB, 32).

Boʻlim yuzasidan savol va topshiriqlar

1. *Qadimgi turkiy tilda morfemaga ajratish printsiplariga tavsif bering.*

2. *Morfologik usul bilan soʻz yasalishiga misollar keltiring.*

3. *Qadimgi turkiy tilda qoʻshma soʻzlar hosil boʻlish qonuniyatlari qanday? Misollar keltirib, izohlang.*

4. *Soʻzlarni juftlash orqali yangi soʻz yasash usullarini sharhlab, misollar keltiring.*

5. *Qadimgi turkiy tilda ot turkumiga oid soʻzlarning oʻziga xos belgilari va kategoriyalarini aytib bering.*

6. *Qadimgi turkiy tilda vosita kelishigi qanday hosil boʻladi?*

7. *Qadimgi turkiy tildagi son soʻz turkumining hozirgi turkiy tillardan farqi qaysi jihatlarda koʻrinadi?*

8. *Qadimgi turkiy tildagi feʻl soʻz turkumining hozirgi turkiy tillardagi feʻl soʻz turkumidan farqi qaysi jihatlarda koʻrinadi?*

9. *Qadimgi turkiy tildagi koʻmakchi va toʻliqsiz feʻllarning farqini aytib bering.*

10. *Qadimgi turkiy tildagi yordamchi soʻzlarning oʻziga xos jihatlari va hozirgi turkiy tillardagidan farqli jihatlari ayting.*

OLTINCHI BO‘LIM

QADIMGI TURKIY TILNING SINTAKTIK- STILISTIK XUSUSIYATLARI

Tayanch tushunchalar: so‘z birikmasi, gap, tobe so‘z, hokim so‘z, ergash gap, bosh gap, fe‘l kesim, ot kesim, ergashtiruvchi bog‘lovchi, nutq fe‘llari, sintaktik qurilish, kesimlik ko‘rsatkichi.

Har qanday nutq faoliyati gap hosil qilishdan iborat. Nutq jarayonida so‘zlovchining ongida bir necha tasavvurlar jami bog‘lanadi, shuningdek, tinglovchining ongida ham o‘sha tasavvurlarning bog‘lanishini qo‘zg‘atiladi. Ana shu tasavvurlar va ularning ifodasi ramzi gapdir.

Qadimgi turkiy tildagi so‘z birikmalari mazmun munosabatlariga ko‘ra uch turga bo‘linadi: aniqlovchili, obyektli, subyektli.¹

Aniqlovchili munosabat ikki turli bo‘ladi: 1) predmet va shaxsni aniqlaydi: chighay bodun — kambag‘al xalq; 2) harakatning holatini aniqlaydi: ... taluyqa kiçig tægmadim (Ktk, 3) — dengizga bir oz yetib bormadim.

Obyektli munosabat. Grammatik jihatdan tobe so‘z ilova qilinayotgan predmetning hokim so‘z orqali anglashiladigan belgisini anglatadi: türk bağlar türk atın it(t)i (Ktu, 7) — turk beklari turkcha otini (o‘zlaridan) olib tashladi.

Subyektli munosabat. Tobe so‘z hokim so‘zdan anglashiladigan harakatni bajaruvchini yoki holat egasini anglatadi. Bu munosabat izofaning bir turidir. Izofaning mazkur turi moslashuv orqali hosil qilinadi: aniqlovchi qaratqich kelishigi shaklini, aniqlanmish esa III shaxs egalik qo‘shimchasini oladi: bilgā qaghaning boduni (Oa, 3) — dono xoqonning xalqi; qaghaning sabin almating (Ktk, 9) —

¹ A. N. Kononov yuqoridagi kitobida komplektiv munosabatni to‘rtinchi turdagi so‘z birikmasi sifatida qayd etadi. Bu munosabatga ko‘ra, tobe so‘z qo‘shimcha mazmun uchun xizmat qilib, hokim so‘zdagi axborot yetishmovchiligini to‘ldiradi: tōrt bulung (Ktu, 2) — to‘rt tomon; ikinti kün (Ton. 39) — ikkinchi kun; adgū bilgā kisig adgū alp kisig joritmaz armis (Ktk, 6) — yaxshi bilimli kishini, yaxshi bahodir kishini yaqinlashtirmas ekan. Bu turdagi mazmun munosabati qadimgi turkiy tilda aniqlovchili munosabatdan keskin farq qilmagani uchun alohida tur sifatida ajratmadik.

Xoqoningning soʻzini olmading; ol qanim aliming bāngūsi (Ye, 24, 2)
— Bu xoqonim (va) elimning māngu (tosh)ji.

Predikatlar. Qadimgi turkiy tilda predikatlar semantik—grammatik xususiyatlariga koʻra, anʻanaviy soʻz turkumlariga kirmaydigan soʻzlar boʻlib, qadimgi turkiy tilda ikki tarkibli gaplarning kesimi vazifasida keladi. Mazkur predikatlar mavjudlik (bar) va yoʻqlik (joq)ni ifoda etadi: Ol iki kishi bar ārsār (Ton. 10) — Oʻsha ikki kishi bor boʻlsa; ...tabghač sūsī bar ārmīsh (Ton. 30) — (Ularning orasida) tabgʻach qoʻshini bor ekan.

Predikativ soʻz bā- (taxminan “ega boʻlmoq”, “egallamoq” maʼnosida)dan hosil boʻlgan¹. Bu feʼl oʻzagi morfologik jihatdan quyidagicha taraqqiyot yoʻlini bosib oʻtgan: 1) ikkilamchi feʼl — bā- +r (-r orttirma daraja qoʻshimchasi)> bārīr — feʼlning aorist shakli; 2) harakat nomi — bā- +j = bā- +r (sinonimik xususiyatga ega): bāj bār ārtīm (Y, 47,5) — (Men) boy—mulk egasi edim; “Oltin yorugʻ”da bār bajaghut tarzida qoʻllanib, bu juft soʻz ham “boy—badavlat” maʼnosini ifoda etadi: bār bajaghut bolghali... — boy—badavlat boʻlgani...

Quyidagi baj barimligh shakli ham yuqoridagiday “boy—badavlat” maʼnosini ifodalaydi: Azun azunda baj barimligh ādgū āvtā barqta toghajin (Oy, II, 44a) — Hamma olamda boy—badavlat, yaxshi uy—joyda tugʻilayin.

Joq predikati ham asli feʼldan hosil boʻlgan: jō- aslida “mavjud boʻlma—” maʼnosini ifoda etgan. V.V.Radlovning sakkiz jildlik (III jild, 397—bet) lugʻatida joq- “yoʻqot—”, “halok qil—” maʼnosini ifoda etadi. Qadimgi turkiy tildagi jitmāk (yoʻqolmoq, gʻoyib boʻlmoq) maʼnosidagi feʼl bilan joq oʻzakdosh hisoblanadi: jitti nāng (DLT, II 314) — narsa yoʻqoldi.

“Oltin yorugʻ”da bar pretikati ārūr zamon koʻrsatkichi bilan birga qoʻllanadi va kesimning hozirgi zamonga oidligini koʻrsatadi: Yalanguz maning āvīmtā ök bār ārūr (Oy, I 9b)- Faqat mening uyimda bor. Moniylik oqimidagi yozma yodgorliklarda ham ārūr zamon koʻrsatkichi bilan birga qoʻllanadi: āvīmtā jāmā ökūsh taqighu qushlar bar ārūr (Mon.) — Uyimda yana koʻp tovuq, qushlar bor.

Qadimgi turkiy tilda tarkibli ot kesimning yordamchi qismi boʻlib ārūr qoʻllanadi. Bu feʼl bar predikati tarkibida hozirgi zamon maʼnosi ifodasi uchun qoʻllanganini koʻrdik. ārtūrning qadimgi turkiy tildagi oʻziga xos yana bir xususiyati shuki, faqat ot kesimda hozirgi zamon koʻrsatkichi sifatida emas, balki har qanday zamondagi feʼl kesim tarkibida ham qoʻllanadi. Jumladan, quyidagi misolda oʻtgan zamon sifatdoshi ārūr bilan birga kelgan:

...arigh süzüg burxanlar oruninta oq ornanu y(a)rliqamish ärürlär (Oy, II, 8a) — ... toza, pok burxonlar o‘rniga (chiqib) joylashib, marhamat topgan bo‘ladilar.

Sifatdosh oborotini hosil qilishda ham ärür ishtirok etadi: Özi antagh öngsüz blgüsüz ärüp (Oy, II, 10 b) — (Uning) mohiyati shu tariqa rangsiz, belgisiz bo‘lib...

Bu fe‘lning turli vazifa bajarishi shuni ko‘rsatadiki, o‘tgan zamon sifatdoshi tarkibida qo‘llanganda, ärür zamon ko‘rsatkichi vazifasida emas, balki bog‘lama vazifasini bajarib, harakatni ta‘kidlash ma‘nosini ifoda etadi.

Qadimgi turkiy tilda gap turlari. Qadimgi turkiy tilda gapning mazmunga ko‘ra turlari hozirgi turkiy tillardagidan keskin farq qilmaydi. Ammo ba‘zi gap turlarida farqli xususiyatlar bor. Bular quyidagilardir:

1. So‘roq gaplarda yuklama, hozirgi turk tilidagi singari, fe‘l kesimdan oldingi bo‘lakka qo‘shiladi: Qağan-mu qisayin tädim (Ton, 5) — Xoqonni qo‘lga olaymi dedim.

Qadimgi turkiy tilda ikki tarkibli gaplar ega va kesim orqali shakllanadi. Ayrim sodda gaplarda ega ikkita bo‘lishi ham mumkin (ammo uyushgan ega emas) va bu tur alohida gap turini hosil qiladi. Sodda gapda ikkita ega ifodalanganda, eganing biri ot bilan, ikkinchisi olmosh bilan ifodalanadi. Bunday eganing kesim bilan moslashuvi olmosh orqali ifodalangan ega talabi bilan yuz beradi: Bän ança tirmän bän bilgä Tonyuquq altun jishigh asha kältimiz (Ton. 37–38) — Men shunday deyman: men — dono To‘nyuquq Oltin yishni oshib keldik; Ban özüm bilgä Tonyuquq Ötükän järig qonmish täyin äsidip... (Ton. 17) — Men o‘zim dono To‘nyuquq O‘tukan yeriga o‘rnashibdi, deb eshitib...

Qadimgi turkiy tilda sodda gaplarning yana shunday turi qo‘llanadiki, harakatni bajaruvchi ega ot turkumidan bo‘lib, ega tarkibida egalik qo‘shimchasi ifodalanmaydi, olmosh — ega kesim bilan shaxsda moslashmaydi. Kesimga esa shaxs-son qo‘shimchalari qo‘shiladi: Bilgä qaghan atisi Yoligh tigin män aj artuqi tört kün olurup bitidim bädiztim (Bx 1) — Bilga xoqonning jiyani Yo‘llig‘ tigin men bir oy to‘rt kun o‘tirib, bu yozuvni bitidim, bezatdim; Türk bilgä qaghan bu ödkä olurtim (Ktk, 1) — (Men) turk dono xoqoni bu taxtga o‘tirdim; (Bilgä) qaghan bitigin Yoligh tigin bitidim (Bx 1) — (Bilga) xoqon bitigini (men) Yo‘llig‘ tigin bitidim.

Sodda gap tarkibidagi eganing qaysi shaxsга taalluqli ekani jumla mazmunidan anglashilib turadi. Quyidagi gapning egasi shakl tomondan III shaxsга taalluqli bo‘lsa ham, mazmunan birinchi shaxsга tegishli bo‘lib, kesim bilan moslashadi:

Bu tōrtünç tǵzınç nom ǵrdınıǵ irinç ç(a)xshapit mǵngǵal toyin awqyang ismin radna wçir ikǵgü nung ötügingǵ Sin taghiqu kün tolu bolti (Oy, IV, 74a) — Mazkur toʻrtinchi toʻplam noʻm xazinasini ojizona vaʻda (bilan) baxtli rohib Avqang Ismin (va) Radnavachir — ikkovining iltimosiga koʻra, sakkizinchi — tovuq kuni toʻliq tamomladi.

Bu gapda *baxtli rohib* — ega vazifasida kelgan.

Qadimgi turkiy tilda eganing joʻnalish kelishigida qoʻllangani ham diqqatga sazovordir: Içra ashsiz, tashra tonsiz (Ktk, 10) — Ichi oshsiz, tashi toʻnsiz.

Inversiya hodisasi tufayli gap oʻrtasida undalma, gap soʻngida esa ega qoʻllanadi: Ärtüingü tanglançigh mungadinçigh titir t(ä)ngirim bu nom ǵrdinning tütrüm täring yörügi (Oy, II, 28a) — Nihoyatda ajoyibu gʻaroyib deyiladi, ey tangrim, bu noʻm xazinasining mazmundor talqini!

Eganing bu tartibda qoʻllanishi matnning xususiyatiga bogʻliq, yaʻni emotsional nutqdagina shu tartibda qoʻllanishi mumkin.

Bir tarkibli gaplar bir bosh boʻlak orqali ham ifodalanadi, ammo bu boʻlakni ega ham, kesim ham deb boʻlmaydi. Notoʻliq gaplardan farqli ravishda bir tarkibli gaplarda “etishmaydigan” bosh boʻlak kontekstdan ham, gap vaziyatidan ham anglashilmaydi. Bu gap xususiyati, asosan, qadimgi turkiy tilda vokativ gaplarda bor: I Namu Buddaya. Namu Darmaya. Namu Sangaya (Oy, I, 1a, II, 1a) — Buddaga taʻzim. Darmaga taʻzim. Sangaga taʻzim.

Gapning bu turi — ifoda usuliga koʻra bir aʻzoli gap, tinglovchi va soʻzlovchi tomonidan turlicha qabul qilinishi mumkin: soʻzlovchi uchun psixologik kesim hisoblangan harakatni tinglovchi koʻproq ega sifatida qabul qilishi mumkin².

Bir tarkibli gaplarning bir turi — shaxsi noaniq gaplarda harakatning yoki holatning bajaruvchisi nomaʼlum boʻladi. “Oltin yorugʻ”da bu gap turi koʻp qoʻllanadi: Bu titir ornanmamaqligh nirvan (Oy, II, 11b) — Bu deyiladi joylasha olmaydigan nirvon; Kinki tüzünlärkä ötük bolsun (Oy, I, 18b) — Keyingi aslzodalarga iltimos boʻlsin; Kinkilärkä ulanmaqi bolsun (Oy, IV, 74b) — Keyingilarini davom ettirish nasib boʻlsin; Yämä qutlugh bolsun (Oy, IV, 74a) — Qutlugʻ boʻlsin.

2. Shart ergash gapli qoʻshma gaplarda ergash gap va bosh gapning kesimi shaxsda moslashmaydi: ol yirgärü barsar, türk bodun öltächisän (Ktk, 8) — U yoqqa borsang, (ey) turk xalqi, oʻlasan. Män qazghanmasar türk bodun öltächü ärti (Mch, 33) — Men gʻalaba qilmaganimda, turk xalqi oʻladigan edi.

Aslida bunday vaziyat ergash gapning gap bo‘lagidan boshqa narsa bo‘lmaganligini ayon qiladi. Ergash gap mustaqil gap sifatida shakllangan, deb xulosa chiqarish uchun ergash gapning kesimi shaxsda shakllanishi kerak degan qoida qabul qilingan.

3. Quyidagi gapda esa ega va kesim shaxsda moslashganda, shaxs-son qo‘shimchasi, hozirgi turkiy tillardan farqli ravishda, tarkibli kesimning birinchi qismiga qo‘shiladi: Ya Kuu tau, tinlighlarigh ölürtting ärsär, y(ä)mä ämin yürüntägin tükäl qilghali udung (Oy, I, 8a) — Ey Ku tau, jonzotlarni o‘ldirgan bo‘lsang ham, yana buning davosini oxirigacha qilgani bel bog‘lading.

4. -duq, -tiq shaklli sifatdosh kesim vazifasida kelganda ham ergash gapda shaxs-son qo‘shimchasi ishlatilmaydi: Män qazghantuq üçhün türk bodun qazghanmish ärinch (Mch, 33) — Men g‘alaba qilganim uchun turk xalqi g‘alaba qilgan, shekilli.

5. Ko‘chirma gaplar o‘rtasida ayrim hollarda qo‘shimcha axborot tashish uchun gaplar qo‘llanadi: Bän äbgärü tühäyin tidi. Qatun yoq bolmish ärti. Ani yoghlatayin tidi (Ton, 30–31) — “Men uyga boray”, dedi. Malika vafot etgan edi. “Uning marosimini o‘tkazay”, dedi.

6. Qadimgi turkiy tilda inversiya hodisasi ham uchraydi. Odatda, logik urg‘u olgan undalma gap oxirida keladi. Bunday holat ham og‘zaki nutqning mahsulidir: Ötükän jish olursar bangu äl tütä olurtachi san **türk bodun** (Ktk, 8) — O‘tukan yishni manzil qilsang, abadiy davlatni saqlab turasan, (ey) turk xalqi. Ot kesim gap boshida keladi: **Bu ärür köngültäkt** kkirlärig kitäröp nom tözin aritmaqqa tayanip dyan bramitigh bütürmäk (Oy, 1V, 23b, 5–8) — Shudir ko‘ngildagi kirlarni ketkazib, no‘m mohiyatini toza qilmoqqa umid bog‘lab, mushohada qilish fazilatini paydo qilmoq (degani).

Qadimgi turkiy tilda har bir uyushgan bo‘lak grammatik jihatdan shakllangan bo‘ladi. Quyidagi gap bo‘laklari uyushib keladi:

a) kesim uyushadi: Qamugh baliqqa tagdim, qunladim, altim (Ung, 1) — Hamma shaharga yetib bordim, talon-taroj qildim, bosib oldim.

“Oltin yorug‘” dostoni tilida kesimning uyushib kelishi ancha faoldir: ... çin kirtü arigh süsüg tözin **örtärlär kkiriktürürlär** (Oy, 1V, 22b 5-6) — ... chinakam, haqiqiy, pok ildizini kuydiradilar, kir qiladilar; ... armaqsizin sünmäksizän y(i)ti qinigh qatighlanmaqin **tawranurlar qatighlanurlar** (Oy, 1V, 18b 11-12) — ... charchamasdan, to‘xtamasdan, jiddiy qoniqish (bilan) intiladilar, harakat qiladilar.

b) to'ldiruvchi uyushib keladi: *jilqisin, barimin, qizin quduzin* kälirtim (Mch, 15) — yilqisini, mol-mulkini, qizini, ayolini olib keldim; ... tört türlüg äriktä *simtaqsizin* dyanta *ürükün amilin* ärürlär (Oy, IV, 22a 8-10) — to'rt turli kuch-qudrat bilan, tirishqoqlik bilan, mushohada (qilish) bilan doimo sukut saqlaydi.

d) aniqlovchi uyushib keladi: *közün körmädük qulqaqin üsidmädük* bodunimin (Mch, 11) — Ko'zi bilan ko'rmagan, qulog'i bilan eshitmagan xalqimning... ; bu on türlüg çinju tigmä *ärtüktäg çin kirtü arigh süzüg* köngül tözin aritmaqlari üzä ürük uzati simtaghsizin dyanta ürükün amilin ärürlär (Oy, IV, 23, 1-5) — bu o'n turli Chinzu degan yashirin chinakam, haqiqiy, pok, toza ko'ngil mohiyatini pok qilmoqlari bilan, doimo tirishqoqlik bilan mushohada qilish orqali xotirjam bo'ladilar.

Qadimgi turkiy tilda qo'shma gaplar mazmun jihatdan hozirgi turkiy tillardagidan farq qilmaydi. Faqat ergash gapli qo'shma gaplarning hosil bo'lishida täjin, tip kabi bog'lovchi so'zlar va ani üçhün ergashtiruvchi bog'lovchisi ishtirok etadi. Ergash gapli qo'shma gaplarda ergashuv munosabati tä-//ti- bog'lovchi so'z orqali ifodalanganda, odatdagi sxema quyidagicha bo'ladi: ergash gap + täjin + bosh gapning kesimi.

Mazkur bog'lovchi so'z aniqlik maylidagi fe'l kesimdan va ot kesimdan keyin kelganda, quyidagi mazmun munosabatlarini ifodalaydi:

a) izoh munosabatini: tashra jorijur täjin kü äsidip (Ktu, 11-12) — Tashqarida yuribdi deb xabar eshitib... tägmäçimän täjin saqintim (U, 2) — Hujum qilmayman, deb o'yladim.

b) sabab munosabatini: arghish idmaz täjin sülädim (Mch, 25) — Karvon yubormaydi, deb hujum qildim.

Bu fe'l istak va buyruq maylidagi fe'ldan so'ng maqsad munosabatini ifodalaydi: bodunigh igidäjin täjin... (sungushdim) (Ktu, 28) — xalqini bo'ysundiray deb (lashkar tortdim).

Täjin turli holat munosabatlarini ham ifodalaydi: Qangim bagha tängrikän täjin anta jorimish isig küchig barmish (U, 5) — Otam Bag'a tangrikan deb u yerda yurgan, mehnatini, kuchini bergan.

Qadimgi turkiy tilda tip (deb) shakli ham asosan, izoh, sabab va maqsad munosabatlarini ifodalaydi:

a) izoh munosabati: jaghuq ärsär ädgü aghi birür tip ancha boshghurur ärmis (Ktk, 7) — yaqin bo'lsa yaxshi ipak beradi, deb shunday pishiqlar ekan.

b) sabab munosabati: jadagh jabiz bolti tip alghali kälti (Mch, 32) — yayov, kuchsiz bo'ldi, deb (bizni asirga) olgani keldi;

d) maqsad munosabati: ani anitajin tip sülädim (Mch, 41) — uni jazolayin deb lashkar tortdim.

Kesim buyruq va istak maylidagi fe'ldan ifodalanganda, ti- fe'li maqsad munosabatini ifodalaydi:

Ba'zan ti- fe'li bog'lovchi ma'nosida emas, balki leksik ma'nosini saqlagan holda qo'llanadi: kimkä älig qazghanurman tir ärmis (Ktu, 9) — Kimga davlatni egallab beryapman, der ekan.

Qadimgi turkiy yodgorliklarning sintaktik—stilistik xususiyatlari o'ziga xosligi Kul tigin va To'nyuquq yodnomalari qiyosida ko'rinadi. Garchi leksik qatlamda va morfologik tuzilishida bu yodgorliklar o'rtasida yaqinlik bo'lsa ham, sintaktik qurilishida farqlar bor. Har ikkala yodgorlik deyarli bir paytda — VIII asrning boshida yaratilgan. Kul tigin va Bilga xoqon yodnomalaridagi tantanavor, ko'tarinki, epik sokin uslub To'nyuquq yodnomasining o'tkir munozara uslubiga qarama-qarshidir. Kul tigin yodnomasidagi epik sokin va ko'tarinki uslub, birinchidan, mazkur yodgorliklar mualliflarining matn tuzish mahoratiga, ikkinchidan, yodnomalarda voqealarni bayon qilish usullariga bog'liq. Kul tigin va Bilga xoqon yodnomalarining mualliflari Yo'llig' tigin bo'lib, goh turk xalqining g'alabalari, gohida mag'lubiyatlari to'g'risida voqealarni hikoya qilganda, bayon usuli ham almashadi — epik sokinlikdan kuchli hayajonga, kuchli hayajondan afsus-nadomatga o'tadi. To'nyuquq yodnomasining muallifi To'nyuquqning o'zi bo'lib, asarning boshidan oxirigacha bayon usuli deyarli o'zgarmaydi.

Qadimgi turkiy yodgorliklarda ergashtiruvchi vosita sifatida bog'lovchilarning ishtirok etmasligi oddiy holatdir. Bog'lovchisiz qo'shma gaplar mazmun va ohang jihatidan bir butunlikni tashkil etadi. Qo'shma gap qismlari bog'lovchilar yoki bog'lovchi vazifasidagi so'zlar yordamida emas, balki sof sintaktik vositalar orqali bog'lanadi. Bunday holatda tashqi tomondan qo'shma gap qismlarida mazmun va ohang tugalligi bo'lmaydi, kommunikativ mustaqillik ham ifodalanmaydi.¹

Qadimgi turkiy tilda bog'lovchisiz ergash gapli qo'shma gaplar aksariyat hollarda ikki qismdan tashkil topgan bo'lib, har ikkalasi ham mustaqil gap sifatida shakllangan. Qo'shma gapning boshqa turlaridan farq qiladigan jihati ham shunda. Qismlardan biri ergash gap, ikkinchisi bosh gapdir.

¹ И. С. Поспелов. О грамматической природе и принципах классификации бессоюзных сложных предложений — “Вопросы синтаксиса современного русского языка” to'plamida, M.: 1950, 343-bet.

Qadimgi turkiy tildagi bog‘lovchisiz ergash gapli qo‘shma gaplarning yana bir xususiyati shundan iboratki, bosh gap fe‘l kesimining leksik ma‘nosi ergashish mazmunini aniqlashtirib, yuzaga chiqaradi. Ergash gapni boshga gapga bog‘lovchi fe‘l kesimlarga nutq fe‘llari va his-tuyg‘u ma‘nosini ifodalovchi fe‘llar kiradi. Qo‘shma gapning ergash gap qismi bosh gapga bog‘langanda, yuqoridagi tur fe‘llarning leksik ma‘nosini bosh gap yuzaga chiqaradi.

Bog‘lovchisiz ergashish qadimgi vositalardandir. Bu vosita shart mayli shakli bilan bir qatorda bog‘lovchisiz ergash gapli qo‘shma gapni hosil qiladi¹.

Bog‘lovchisiz ergash gapli qo‘shma gaplarning xarakterli xususiyatlaridan yana biri shuki, bosh gapning kesimi yuqoridagi nutq fe‘llaridan biri bilan ifodalanganda, qo‘shma gapning bosh va ergash gap qismlari joylashuvi erkin bo‘ladi. Bunday paytda qo‘shma gapning qaysi qismiga urg‘u berilsa, o‘sha qismi mazmun tomondan asosiy o‘ringa chiqadi. Qadimgi turkiy tildagi qo‘shma gapning shu tartibda tuzilishi shuni ko‘rsatadiki, ergash gap — birinchi, bosh gap — ikkinchi o‘rinda kelishi mumkin. Kesim his-tuyg‘u ma‘nosini ifodalovchi fe‘llar bilan ifodalanganda esa ko‘pincha bosh gap birinchi o‘ringa chiqadi. Qadimgi turkiy tildagi ergash gapli qo‘shma gaplarda bu xususiyat fors tilidan kirib kelgan *ki*, *çünki*, *zira* kabi ergashtiruvchi bog‘lovchilarning turkiy tillarda tez o‘zlashtirilishi uchun zamin hozirladi. Misollarga murojaat qilaylik:

Nutq fe‘llari.

1. *ti-* // *tä-* ... *a sülälim...* , *tädim* (Ton, 23) — (Unga) hujum qilaylik, dedim. *Türk sir bodun yärintä idi yorımazun, usar, idi yoq qısalım tir-män* (Ton, 11–12) — Turk sir xalqi yerida ega yurmasin. Uddalansa, egasini yo‘q qilaylik, derman.

Misollardan ko‘rinadiki, bu fe‘l ma‘lum shakllarda muallif nutqini yetkazishda gaplarni bir-biriga bog‘laydi. Yana misollarga murojaat qilaylik: . *Ol sabıĝ äsidip, qaĝanıım: Bän äbgärü tüšäyin, tädi* (Ton, 30) — Bu so‘zni eshitib, xoqonim: “Men uyga tushayin”, dedi. *Ol sabıĝ äsidip, qaĝanĝaru ol sabıĝ it(t)ım: Qantayın sabıĝ yana kälti, olurun, täyin tämis* (Ton, 33–34) — Bu so‘zni eshitib, xoqonga bu so‘zni

¹ Bu haqda qarang: A. H. Кононов. О сложноподчиненном бессоюзном предложении в турецком языке. — Краткие сообщения Института Востоковедения АН СССР, вып. XX11, М.: 1956, 13–18-betlar.

yubordim: “Qanday qilay?” (Uni) soʻzi qaytib keldi: “Oʻtiring”, deb aytgan emish.

Misollardan maʼlum boʻlishicha, muallif nutqini yetkazish uchun, xuddi hozirgi turkiy tillardagidek, oʻziga xos konstruksiya qoʻllangan: muallif gapi keltirilgan misollarda ega (*qapanim*) va kesim (*tädi*) oʻrtasida qoʻllangan, *tädi* bu oʻrinda ergash gapning kesimidir.

Qoʻshma gapning ergash gap qismiga logik urgʻu tushsa, u birinchi oʻringa chiqadi. Bunday paytda ohangni kuchaytirish maqsadida *anča* soʻzi qoʻllanadi: *Täñri anča tämis ärinč: Qan bärtim* (Ton, 2) — Tangri shunday degan shekilli: “Xon berdim”.

Muallif nutqini yetkazish uchun yana boshqa konstruksiya qoʻllanadi. Bu konstruksiyaning xususiyati shundan iboratki, muallif nutqi, yaʼni qoʻshma gapning ergash gap qismi *tä-* feʼlining ikki shakli orasida qoʻllanadi va bu konstruksiyalar qadimgi turkiy til uchun odatdagi mezon hisoblanadi: *Türgäs qağan anča tämis: Bänim bodunum anta ärir, tämis, Türk bodun yämä bulğanč-ol, tämis. Oğuzi yämä tarqanč-ol, tämis* (Ton, 21–22) — Turgash xoqoni shunday debdi: «Mening xalqim oʻsha yerdadir, debdi». Turk xalqi ham sarosimadadir», — debdi. “Oʻgʻuzi ham tarqoqdir”, — debdi. *Bän anča tärmän, bän bilgä Toñuquq: Altun yışığ aša kältimiz... tädi* (Ton, 37) — Men shunday deyman —men, dono Toʻnyuquq: Oltin yishni oshib keldik... dedi.

Qadimgi turkiy tilda *antagh*, *antäg* soʻzi muallif nutqini olib kirish uchun qoʻllanadi. Bunday holda muallif nutqi *ti-* feʼli shakllari bilan tugaydi: *Körüg sabi antağ: Toquz oğuz bodun üzä qağan olurti, tir* (Ton, 9) — Koʻruvchining xabari shunday: “Toʻquz oʻgʻuz xalqi ustidan (bir) xoqon taxtga oʻtirdi”, — der. *Türgäs qağanta körüg kälti, sabi an-täg: Öñdän qağanğaru sü yorilim, tämis* (Ton, 29) — Turgash xoqondan (sir bilish uchun joʻnatilgan) koʻruvchi keldi. (Keltirgan) xabari shunday: “Sharqdan xoqonga lashkar yoʻllaylik”, — debdi. *Tiliğ kälürti, sabi antağ: Yaris yazıda on tümän sü täriltili, tär* (Ton, 36) — Til (asir)ni tutib keltirdi, (uning) soʻzi shunday: “Yaris dashtida oʻn tuman lashkar tizilgan”, — debdi.

Ammo ayrim gaplarda muallif gapining kesimi vazifasida *antagh*, *anča* soʻzlar qoʻllanmaydi, ammo koʻchirma gap qoʻllanaveradi. Bu soʻzlarning muallif nutqida qoʻllanmasligi ogʻzaki nutq xususiyatlarining qadimgi turkiy tildagi matnlarda aks etishi bilan bogʻliq. Shuning uchun soʻzlar vazifasini ohang bajaradi: *Üč körüg kişi kälti, sabi bir: qağani sü taşıqdi, on oq süsi qalisiz taşıqdi, tär* (Ton, 33) — Uch aygʻoqchi odam

keldi, so'zi bir: "Xoqoni lashkar bilan maydonga chiqdi, o'n o'q lashkari bekamu ko'st maydonga chiqdi", — der.

3. ay- "ayt(moq)" fe'li. Bu fe'l muallif nutqini bevosita yetkazishda ishlatiladi va ta- fe'li ham qo'llanadi: *Bilgā To'nuquqa — bānā aydi: Bu sūg ālt, tādi, aqī yanip kōñlūñčā ay, bān sāñā nā ayayin, tādi* (Ton, 32) — Bilga To'nyuquqqa — menga aytdi: "Bu lashkarni elt, — dedi. — Saxiyligu qattiqqo'llikni ko'nglingga qarab qil, men senga nima ham derdim", — dedi.

His-tuyg'u ma'nosini ifodalovchi fe'llar. Ergash gapli qo'shma gaplarda bosh gapning kesimi ti- fe'lidan tashqari, saqin- (o'ylamoq, g'amga botmoq, afsuslanmoq); o'glash- (maslahatlashmoq, fikr yuritmoq); otun- (iltimos qilmoq, so'ramoq); o'glā- (maslahat bermoq, xabardor qilmoq) kabi nutq fe'llari orqali ham ifodalanadi.

1. saqin- "o'ylamoq, fikr yuritmoq" fe'li. *Saqintim, turuq buqali sāmiz buqali arqda bilsār, sāmiz buqa, turuq buqa tāyin bilmāz ārmis, tāyin anča saqintim* (Ton, 5-6) — (So'ng) o'ylab qoldim: "(Birov) ozg'in buqa bilan semiz buqani tezagidan bilsa, (birov bu) semiz buqa, (bu) turuq buqa deya bilmas emish [ya'ni semiz buqa bilan ozg'in buqani ajratolmas ekan]", — deb shunday o'yladim.

2. otun- (iltimos qilmoq, yolvormoq, so'ramoq): *Anta otrū qağanima otuntim, anča otuntim: Tabğaç, oğuz, qitan, bu üçägü qabasār, qaltaçı-biz, öz içi tağın tutmis-täg-biz... anča otuntim* (Ton, 12-14) — Shundan keyin xoqonimga o'tindim. Shunday o'tindim: "Tabg'ach, o'g'uz, qitan — bu uchovi qamal qilsa, (13) (qurshovda) qolajakmiz, (xuddi) vujudning ichu tashini tutgandek bo'lamiz... shunday o'tindim.

Ikkala konstruksiya shunisi bilan diqqatga sazovorki, birinchisi *saqintim* fe'l kesim bilan boshlanadi va *saqintim* fe'li bilan tugaydi. Ikkinchisi *otuntim* fe'li bilan boshlanib, shu fe'l bilan tugaydi. Har ikki konstruksiya ham xuddi "qolip konstruksiya"ga o'xshaydi.

His-tuyg'u ma'nosini ifodalovchi fe'llar nutq fe'llari bilan birga "qolip konstruksiya"ni hosil qiladi. *Ol yolun yorisar, unč tādīm, saqintim, qağanima otuntim, sū yoritdim, atlat, tādīm* (Ton, 24-25) — "O'sha yo'l bilan yurilsa, ma'qul", — dedim, shunday xayol qildim. Xoqonimga o'tindim, lashkarni yo'lga soldim, "ot sol!" — dedim.

3. o'glās- (maslahatlashmoq, muhokama qilmoq, hukm qilmoq) fe'li: *Ol üç qağan oğlāšip Altun yış üzā qabasālīm timis, anča oğlāšmis, oñrā türk qağanğaru sūlālīm, timis* (Ton, 20) — O'sha uch xoqon fikrlashib: "Altun yish uzra bostirib boraylik", — debdi, shunday

fikrlashibdi. — “Sharqqa — turk xoqoniga lashkar tortaylik”, — debdi.

Mazkur misolda *ögläs-* fe’li muallif nutqini bevosita olib kiradi, *ti-fe’li* esa tugallaydi. Bu va yuqorida keltirilgan misollar shuni tasdiqlaydiki, “qolip konstruksiya” muallif nutqini bevosita yetkazishda qadimgi turkiy til uchun asosiy mezon hisoblanadi.

Qadimgi turkiy tilning sintaktik qurilishiga xos xususiyatlardan yana biri ajratilgan bo’laklarning qo’llanishidir.

1. Ega ajratiladi. Ajratilgan ega To’nyuquq yodnomasida uchraydi: Türk bilgä qaghan ilinga bititdim ban bilgä Tonyuquq (Ton. 58) — Turk dono xoqon davlatida (bu yodgorlikni) yozdirdim men — **dono To’nyuquq**.

2. To’ldiruvchi ajratiladi: *Ol äki kişi bar ärsär, säni tabğacığ ölürtäci tir-män, öñrä qitanıñ ölürtäci tir-män, bāni oğuzuğ ölürtäci-ök tir-män* (Ton, 10–11) — O’sha ikki kishi bor bo’lsa, seni— Tabg’achni o’ldiradi, deyman, sharqda qitaniyni o’ldiradi, deyman, meni — o’g’uzni o’ldiradi-yov, deyman. *Bilgä Toñuquqa — bāñä aydi* (Ton, 31) — (U) dono To’nyuquqqa — menga aytdi.

Qadimgi turkiy yodgorliklarning sintaktik qurilishini kuzatish shuni ko’rsatadiki, mualliflar har qanday fikrni ixcham, ma’noli tarzda yetkazish uchun o’ziga xos vositalarni topganlar. Keltirilgan sintaktik konstruksiyalar hozirgi turkiy tillardagi bir qator sintaktik hodisalarni tushunish va izohlash uchun ham qulaylik tug’diradi.

Barcha qadimgi turkiy yodgorliklarning sintaktik qurilishi bir xil emas. Urxun yodgorliklari orasida matnning sintaktik qurilishi uslubning farqlanishiga olib keladi. Ayni paytda “Oltin yorug”ning sintaktik xususiyatlari urxun yodgorliklarinikidan tamomila farq qiladi. Birinchidan, “Oltin yorug” tilida sifatdosh va ravishdosh oborotlari ko’p qo’llanadi: Tinligh atqaqligh täng köngül ärsär, qiti ämgäksiz mängisiz tinlighlar üzä biliksiz saqinçin kitärip, ämgäklig tinlighlar üzä öwkä saqinçin kitärip, mängilig tinlighlar üzä azlanmaq saqinçin kitärip qamaghuni birtäk täng tüz alqu ämgäklärintin ozghurghali kösämək ärür (Oy, IV, 33b) — Jonzotga bog’langan (va) teng (ko’radigan) qalb esa quyidagichadir: azobsiz (va) shod bo’lmagan jonzotlarda aqlsiz o’yga barham berib, azob tortuvchi jonzotlarda g’azabli o’ylarga barham berib, shod jonzotlarda ochko’zlik o’ylariga barham berib, hammasini birday jamiki azoblaridan xalos qilishni ko’zlaydi.

Inversiya hodisasi emotsional nutq jarayonida hosil bo’ladi:

... anin m(ä)n qiltim ärsär, qamagh ayigh qilinçlarigh. Yawiz yawlaq

kishilärkä yaqin barip, köni qiyirghaq köngülning tölüki oghurinta yoq çighay bolup, täwkür tiltaghinta anin m(ä)n qiltim ärsär, qamagh ayigh qilinçlarigh suylarigh. (Ädgü)lärig qilghali taplamasar m(ä)n... inçip qorqinç ayinç tiltagh (inta) ötkürü azu y(ä)mä ärsiz ... nom oghurinta ... m(ä)n qiltin ärsär ... qamagh ayigh qilinçlarigh. Azu qorqu yinigh köngül tiltaghinta azu y(ä)mä öwkä qaqigh üçkäk oghurinta ulati açmaq suwsamaq ämgäkkä siqilip anin m(ä)n qiltim ärsär, qamagh ayigh qilinçlarigh. Ash içkü ton kädim tiltaghinta, azu y(ä)mä tishi tinlighqa budulmaq yapshinmaq oghurinta nizwaniligh oot üzä örtänip anin m(ä)n qiltim ärsär, qamagh ayigh qilinçlarigh (Oy, II, 34b) — ... bularni men qilgan edim — jamiki yomon qilmishlarni! Yovuz, yomon odamlarga yaqin borib, to'g'ri, g'arib ko'ngulning qudrati tufayli kambag'al, qashshoq bo'ldim, yolg'on sababidan buni men qilgan edim — hamma yovuz qilmishlarni, gunohlarni! (Yaxshi ish)larni qilishni ma'qullamasdan, men... shu tariqa vahimayu qo'rquv sababidan zaiflashtirdim yoki yana kuchsizlantirdim (soxta) nom tufayli ... men qilgan edim jamiki yomon qilmishlarni! Yoki qo'rquv, ojiz ko'ngil tufayli, yo yana g'azabu jahl (qilish), adovat (saqlash) tufayli, yana ochqash, chanqash azobiga yo'liqtirdim, bularni men qilgan edim — jamiki yomon qilmishlarni! Ovqat yeb, (kiyim) kiyish sababidan, yoki yana ayol zotiga yopishmoq, unga ilakishmoq tufayli kuchli hissiyot alangasida kuydim, buni men qilgan edim — jamiki yomon qilmishlarni!

Qadimgi turkiy tilda, xususan “Oltin yorug’”da shunday gap turlari uchraydiki, bu konstruksiyalarni inversiya hodisasi bilan izohlashning o'zi kifoya qilmaydi. Bunday vaziyatda grammatik ega va kesim bilan psixologik ega va kesim vaziyatini nazarda tutish lozim. Grammatik me'yor bilan psixologik me'yor o'rtasidagi munosabat gapning bosh bo'laklari qaysi so'z turkumiga bog'liqligi bilan belgilanadi. Bunday gap turi ega va kesim ot turkumi orqali ifodalangan yoyiq gaplarga aloqador. Gap boshidagi grammatik kesim doimo psixologik egadir. *Qayular ol bish tip tisär...* (Oy, IV, 24b) — “Qaysilar o'sha beshovi?” deb so'rasalar... ; *Bu ärür burxanlarqa budistwlarqa bütmiş ishlig bilgälärkä irmädin uzati yaqin tapinmaqqa tayanip bilgä bilik bramitigh bütürmäk* (Oy, IV, 25b) — Shudir burxonlarga, bo'disatvlarga ishongan do'st-u donishmandlarni ta'qib qilmasdan, uzoq (vaqt) yaqin(lashib yurib) sajda qilmoqqa umid qilib, aql-bilim fazilatini paydo qilmoq (degani).

III shaxs kesimlik ko'rsatkichi bog'lovchisiz qo'shma gapdagi har

bir gapning kesimi tarkibida qoʻllanadi. Emotsional nutq kesimlik koʻrsatkichining har bir sodda gap tarkibida qoʻllanishiga sabab boʻladi: ... bu sutur aghiliq *ol*, <bu winay aghiliq *ol*>, bu abidarim aghiliq *ol*, bu sutiran tigmā tōzgā yarashi atlgħ bōlūk *ol*, bu ikilāyü sözlāmish bōlūk *ol* (Oy, IV, 35b) — bu — sutra xazinasidir, <bu — vinay xazinasidir>, bu — abidarim xazinasidir, bu — “sutra degan asosga muvofiq keladigan” nomli boʻlakdir, bu ikkinchi marta soʻzlagan boʻlakdir.

Bu uz yürüklärin itgħlig alp shlöklüg bōlūk *ol*, bu kántün yrliqamish bōlūk *ol*, bu tiltaqlarin yrliqamish bōlūk *ol*, bu yölāshürüg bōlūk *ol*, bu tüzün titsilarning öngrä azunlartaqi sawlarin uqitu yrliqamish bōlūk *ol* (Oy, IV, 36a) — Bu — yaxshi maʼnolar bilan bezalgan, nozik sheʼri bor boʻlakdir, bu — keyin marhamat qilingan boʻlakdir, bu sabablarni marhamatlagan boʻlakdir, bu qiyoslangan boʻlakdir, bu — aslzoda shogirdlar oldingi olamlardagi soʻzlarni tushuntirib, marhamat qiladigan boʻlakdir.

Tinglovchi maʼlum egani qabul qilishga tayyor boʻlmaganda ham, kesim gapning boshida boʻlishi mumkin. Buning sababi emotsional nutqdır: *Yalanguzin t(ā)ngirmsiz* udunguz ozghali ozghurqali (Oy, IV, 69a) — Tanho tangirmsiz (siz) ularga najot berishga qodir boʻlgan!

Nutq emotsional xususiyatga ega boʻlmay, oddiy bayondan iborat boʻlganda esa, III shaxs kesimlik koʻrsatkichi qoʻllanmaydi va bu ham bunday gap turi uchun meʼyor hisoblanadi: ... iki türüg atqanmaqlarigh bir ärsär kntü köngüllärintin kitirmäk, ikinti ärsär adin tīnlghlar köngülintin kitärmäk (Oy, IV, 23b) — ... ikki turli bogʻlanishni, birinchidan, oʻz koʻngillaridan ketkazmoq(dir), ikkinchidan, boshqa jonzotlar koʻngillaridan ketkazmoq(dir).

Qadimgi turkiy tilning sintaktik qurilishidagi oʻziga xosliklar har bir davrdagi adabiy tilning xususiyatlari bilan belgilanadi. Ayniqsa, yozma adabiy til, tarjima adabiyotlari rivoj topgan davrdagi matnlarning sintaktik qurilishi murakkabligi bilan ajralib turadi. “Oltin yorugʻ”ning sintaktik qurilishi bunga misoldir: Ular qamagh ati kötrülmish ayaghqa tägimliklär çin kirtü bilgä bilikläri üzä, çin kirtü közläri üzä, çin kirtü tanuqlamaqlari üzä, çin kirtü tüşülmäkkä tägmäkläri üzä, alqu oghurin bilirlär, alqu oghurin körürlär, alqu qamagh tinlghlar oghlanlarining qilmish nä türlük ädgüli ayighli iki türüg qilinçlarin (Oy, III, 4a) — Ular(ning) hammasi nomi ulugʻlangan, hurmatga sazovor boʻlganlari (bilan), chinakam, haqiqiy, oliy haqiqatni bilishlari bilan, chinakam

haqiqiy ko‘zlari bilan, chinakam, haqiqiy guvohliklari bilan, chinakam, haqiqiy fazilatlariga yetishganlari bilan hamma zamonni biladilar, hamma zamonni ko‘radilar, jamiki jonzotlar bolalari qilgan ne turli yaxshi (va) yomon — ikki turli qilmishlarni (ko‘radilar).

Bu parchadagi uyushib kelgan to‘ldiruvchilar (biliklari üza, közlari üza, tanuqlamaqlari üza, tägmäklari üza, oghurin— oghurin) va uyushgan kesimlar (bilirlär, körürlär) sintaktik vazifadan tashqari stilistik vazifa ham bajaradi: bu gapdagi bir xil grammatik shakllangan to‘ldiruvchilar, yordamchi so‘z va bir xil grammatik shakldagi kesimlarning takrori jumlada ohangdorlikni hosil qilgan.

Bo‘lim yuzasidan savol va topshiriqlar

1. *Qadimgi turkiy tildagi so‘z birikmalari mazmun munosabatlariga ko‘ra necha turga bo‘linadi?*

2. *So‘roq gaplarda yuklama gapning qaysi bo‘lagiga qo‘shiladi? Misollar keltiring.*

3. *Illart ergash gapli qo‘shma gaplarda ergash gap va bosh gapning kesimi shaxsda moslashadimi yoki moslashmaydimi? Misollar orqali tushuntirib bering.*

4. *Qadimgi turkiy yodgorliklar sintaktik—stilistik xususiyatlarining o‘ziga xosligi qaysi yodgorliklar qiyosida ko‘rinadi?*

5. *Qadimgi turkiy tildagi bog‘lovchisiz ergash gapli qo‘shma gaplarda nutq fe‘llari qanday vazifa bajaradi?*

6. *Qadimgi turkiy tildagi ergash gapli qo‘shma gaplarda his—tuyg‘u ma‘nosini ifodalovchi fe‘llar qanday vazifa bajaradi?*

7. *Qadimgi turkiy tilda qaysi gap bo‘laklari ajratiladi? Misollar keltiring.*

8. *Qadimgi turkiy tildagi inversiya hodisasi qay holatda yuz beradi?*

9. *Grammatik ega va kesim bilan psixologik ega va kesim vaziyatini misollar yordamida izohlab bering.*

10. *Matnning sintaktik qurilishi murakkabligi qaysi omillarga bog‘liq bo‘ladi?*

ILOVA MATNLARDAN NAMUNALAR

TO'NYUQUQ BITIGI¹

Matn transkripsiyasi:

1. Bilgä To'nyuquq bän özüm Tabğaç äliñä qılıntım. Türk bodun Tabğaçqa körür ärti.

2. Türk bodun qanin bulmayin tabğaçda adrilti, qanlantı, qanin qodup tabğaçqa yana içikdi. Täñri ança tämis ärinç: Qan bärtim,

3. qaninın qodup içikdiñ, içikdük üçün täñri öl tämis ärinç, türk bodun ölti, alqintı, yoq boltı, türk sir bodun yärintä

4. bod qalmadı, ida taşda qalmısı qobranıp, yeti yüz boltı: äki ülügi atlıg ärti, bir ülügi yadağ ärti. Yäti yüz kişig

5. uduzuğma uluğı şad ärti. Yıgıl, tädi, yıgması bän ärtim — bilgä To'nyuquq. Qağan-mu qısayın tädim, saqıntım, turuq buqalı sämiz buqalı arqda

6. bilsär, sämiz buqa, turuq buqa täyin bilmäz ärmis, täyin ança saqıntım. Anta kisrä täñri bilig bärtük üçün özüm-ök qağan qısdım. Bilgä To'nyuquq boyla bağa tarqan

7. birlä Ältäris qağan bulayın, bäriyä tabğaçıg, öñrä qıtañıg, yıraya oğuzuğ öküşäk ölürti. Bilgäsi, çabısı bän-ök ärtim. Çuğay quzın, Qara qumuğ olurur ärtimiz.

8. Käyik yäyü, tabısğan yäyü olurur ärtimiz, bodun boğzi toq ärti. Yağımız tägrä ucuq tägirti, biz şäg ärtimiz. Ança olurur ärik äli. Oğuzd(a) antan körtüg kälti.

9. Körüğ sabı antağ: Toquz oğuz bodun üzä qağan olurtı, tir, Tabğaçğaru Qonı şäñüntüg idmıs, Qıtañğaru Toñra Sämig idmıs, sab ança idmıs: Azqına türk bodun

10. yorıyor ärmis, qağanı alp ärmis, ayğuçısı bilgä ärmis. Ol äki kişi bar ärsär, säni tabğaçıg ölürtäci tir-män, öñrä qıtañıg ölürtäci tir-män, bänı oğuzuğ

11. ölürtäci-ök tir-män. Tabğaç, birdänäyin täg, qıtañ, öñdänäyin täg, bän yirdanayın tägäyin. Türk sir bodun yärintä idi yorımazun, usar, idi yoq qısalım

12. tir-män. Ol sabıg äsidip tün udısıqım kälmädi, küntüz olursıqım kälmädi. Anta ötrü qağanıma ötüntim, ança ötüntim: Tabğaç, oğuz, qıtañ, bu üçäğü qabasar,

¹ Q. Sodiqov. Eski turkiy bitiglar. Toshkent, 2009. 17-30-b.

13. qaltaçı-biz, öz içi taşın tutmıs-täg-biz. Yuyqa ärklig topulğalı uçuz ärmis, yincğa ärklig üzgäli uçuz, yuyqa qalın bolsar, topulğuluq alp ärmis, yincğa

14. yoğan bolsar, üzgülük alp ärmis. Öñrä Qıtanda, biriyä Tabğaçda, qurıya Qurdanta, yıraya Oğuzda äki üç biñ sümüz, kältäçi-miz bar-mu, näñ ança ötüntim.

15. Qağanım bän özüm bilgä Toñuquq ötüntük ötünçümin äsidü barti, köñlünçä uduz, tädi. Kök ünüg yoğaru Ötükän yışğaru uduztım, Inigäk kölükün Toğlada oğuz kälti.

16. Süsi üç biñ ärmis, biz äki biñ ärtimiz, süñüşdimiz, täñri yarlıqadı, yandımtız, ögüzkä tüşdi. Yañduq yolta yämä ölti kük, anta ötrü oğuz qopun kälti.

17. Kältürtim-ök türk bodunuğ Ötükän yärkä bän özüm bilgä Toñuquq. Ötükän yärig qonmıs täyin äsidip biriyäki bodun, qurıyaqı, yırayaqı, öñräki bodun kälti.

18. äki biñ ärtimiz biz, äki sü boltı. Türk bodun olurğalı, türk qağan olurğalı Şantıñ baliqa, taluy ögüzkä tägmis yoq ärmis. Qağanıma ötünüp sü ältidim.

19. Şantıñ baliqa, taluy ögüzkä tägürtim. Üç otuz baliq sidi, usın buntatu yurtda yatu qalır ärti. Tabğaç qağan yağımız ärti, on oq qağanı yağımız ärti,

20. artuq qırqız küçlüg qağan yağımız boltı. Ol üç qağan ögläşip Altun yış üzä qabasalım timis, ança ögläşmis, öñrä türk qağanğaru sülälim, timis, anğaru sülämäsär, qaçan anjirsär, ol bizni,

21. qağanı alp ärmis, ayğučısı bilgä ärmis, qaçan anjirsär, öltürtäçi kük. Üçägün qabsap, sülälim, anı yoq qısalım, tämis. Türgäs qağan ança tämis: Bänin bodunum anta ärir, tämis,

22. Türk bodun yämä bulğanç-ol, tämis. Oğuzı yämä tarqanç-ol, tämis. Ol sabın äsidip, tün yämä udusiqim kälmez ärti, (küntüz yämä) olursiqim kälmez ärti, anta saqıntım a ...

23... . a sülälim... , tädim. Kögmän yolı bir ärmis, tumıs täyin äsidip, bu yolun yorisar, yaramaçı, tädim Yärçi tilädim, çölgi az äri bultum.

24. Özüm, Az yirim ... , anı bil ... ärmis, bir turuqı ärmis, Anın barmıs anğar yatıp, bir atlığ barmıs täyin ol yolun yorisar, unç tädim, saqıntım, qağanıma

25. ötüntim, sü yorıtdım, atlat, tädim. Aq tärmäl kächä oğraqlatdım, at üzä bintürä qarıg sökdım, yoqaru at yätä yadağın, iğaç tutunu ağırtım, öñräki är

26. yoğaru tägürüp, i bar art äşdimiz. Yobalu intimiz, on tünkä yantaqı

tuğ birü bardımiz. Yärçi yär yañilip, boğuzlantı, bujadıp, qağan yälü kör, tämis.

27. Anı subuğ baralım. Ol sub qodı bardımiz, sanağalı tüşürtimiz, atıg ıqa bayur artımız, kün yämä, tün yämä yälü bardımiz. Qırqızıg uqa basdımiz,

28. sü äñägin aǵdımiz. Qanı süsi tärilmiş, süñüşdimiz, sanǵdımiz, qanın ölürtimiz. Qağanqa qırqız bodunı içikdi, yükünti, yantımiz, Kögmän yişiğ äbirü kältimiz.

29. Qırqızda yantımiz. Türgäs qağanta körtüg kälti, sabı an-täg: Öñdän qağanǵaru sü yorılıp, tämis, yorımasar, bizni, qağanı alp ärmis, ayğucısı bilgä ärmis, qačan äñirsär,

30. bizni ölürtäçi kük, tämis. Türgis qağanı taşıqmıs, tädi. On oq bodunı qalıstız taşıqmıs, tär. Tabğaç süsi bar ärmis. Ol sabıg äsidip, qağanım: Bän äbgärü tüşäyin, tädi.

31. Qatun yoq bolmış ärti, anı yoğlatayın, tädi. Sü barıñ, tädi, Altun yıřda oluruñ, tädi. Sü baş Inäl qağan, tarduř řad barzun, tädi. Bilgä Toñuquqa — bänä aydı:

32. Bu süg ält, tädi, aqı yanıg köñlünçä ay, bän säñä nä ayaym, tädi. Kälir ärsär, kü är ökülür, kälmäz ärsär, tiliğ, sabıg alı olur, tädi. Altun yıřda olurtımiz.

33. Üç körüg kiři kälti, sabı bir: qağanı sü taşıqdı, on oq süsi qalıstız taşıqdı, tär. Yarı yazıda tärilälim, tämis. Ol sabıg äsidip, qağanǵaru ol sabıg it(t)im: Qantayın sabıg yana

34. kälti, oluruñ, täyin tämis. Yälmä, qarǵu ädgüti urǵıl, basıtma, tämis. Böğ(ü) qağan bañaru ança ayıdmıs, apa tarqanǵaru icrä sab idmıs: Bilgä Toñuquq anıg-ol, öz-ol anlar,

35. sü yorılıp tädäçi, unamañ. Ol sabıg äsidip, sü yoritdim, Altun yişiğ yolsuzun aǵdım, Ärtis ögüzüg kächigsizin kächdimiz, tün aqıtdımiz. Boluçuqa tañ öñtürü tägdimiz.

36. Tiliğ kälürti sabı antağ: Yarı yazıda on tümän sü täriltili, tär. Ol sabıg äsidip, bağlar qopun

37. yanalım, arıg obutı yig, tädi. Bän ança tärmän, bän bilgä Toñuquq: Altun yişiğ aša kältimiz, Ärtis ögüzüg

38. kächä kältimiz, kälmiři alp tädi, tuymadı, täñri Umay ıduq yär sub basa bärtil ärinç, näkä täzär-biz

39. öküř täyin, näkä qorqur-biz az täyin, nä basınalım, täğälim, tädim. Tägdimiz, yayıdımiz, äkinti kün kälti,

40. örtçä qızıp kälti, süñüşdimiz. Bizintä äki uçı sıñarçä artuq ärti. Täñri yarlıquduq üçün öküř täyin, biz

41. qorqmadımız, sünüşdimiz. Tarduş şad ara badı. Yayıdımız, qağanın tutdımız, yabğusın, şadın
42. anta ölürti, əligə ar tutdımız, ol-oq tün bodunın sayu it(t)imız. Ol sabıg əsidip, on oq bağları, bodunı qop
43. kəlti, yükünti, kəligmə bağların, bodunın itip, yığıp az(ç)a bodun təzmis ərti. On oq süsin sülədim,
44. biz yəmə sülədimiz, anı irtimiz, Yincü ögüzüg kaça Tinsi oğlı yatıgma Bənlığak tağıg ...
45. Təmir qapıgqa təgi irtimiz, anta yanturtımız. İnəl qağanqa ... təzik, toqrısın ...
46. anta yərüki asuq başıg soğdaq bodun qop kəlti, ol küntə təgti. Türk bodun Təmir qapıgqa,
47. Tinsi oğlı yatıgma tağqa təgmis, idi yoq ərmis. Ol yərkə bən bilgə Toñuquq təgürtük üçün
48. sarıg altun, ürün kümüs, qız quduz, əgri təbi, ağı buñsuz kəlürti. Əltəris qağan bilgəsin üçün,
49. alpın üçün Tabğaçqa yəti yigirmi sünüşdi, Qıtañqa yəti sünüşdi, Oğuzqa bəs sünüşdi, anta ayğuçı
50. yəmə bən-ök ərtim, yağıçısı yəmə bən ərtim. Əltəris qağanqa ... , türk Bögü qağanqa, türk Bilgə q[qağanqa]
51. Qapağan qağan ... tün udimatı,
52. küntüz olurmatı, qızıl qanım tükəti, qara tərim yügürti, isig kücüg bərtim-ök, bən özüm uzun yəlməg yəmə it(t)im-oq,
53. ar qoy, aq arğug ulğartdım, basınıgma yağıg kəlüür ərtim, qağanımın sü əltdimiz, təñri yarlıqazu.
54. Bu türk bodunqa yaraqlıg yağıg kəltürmədim, tögünlüg atıg yügürtmədim. Əltəris qağan qazğanmasar,
55. udu bən özüm qazğanmasar, əl yəmə, bodun yəmə yoq ərtəçi ərti, qazğantuqın üçün, uduğuzum, qazğantuqum üçün
56. əl yəmə əl boltı, bodun yəmə bodun boltı. Özüm qarı boltım, uluğ boltım. Nəñ yərdəki qağanlıg bodunqa
57. əbün tügi bar ərsər, nə buñı bar ərtəçi ərmis.
58. Türk Bilgə qağan əlinə bititdim bən bilgə Toñuquq.
59. Əltəris qağan qazğanmasar, yoq ərti ərsər, bən özüm bilgə Toñuquq qazğanmasar, bən yoq ərtim ərsər,
60. Qapağan qağan türk sir bodun yərintə bod yəmə, bodun yəmə, kişi yəmə idi yoq ərtəçi ərti.
61. Əltəris qağan, bilgə Toñuquq qazğantuq uğun, Qapağan qağan türk sir bodun yorıduqı bu

62. Türk Bilgä qağan türk sir bodunuğ, oğuz bodunuğ igidü olurur.

M a z m u n i:

(1) Bilga To'nyuquq-man. O'zim Tabg'ach elida voyaga yetdim. (O'sha kezlar) turk xalqi Tabg'achga qarar edi.

(2) Turk xalqi xonini topolmay, (avvaliga) Tabg'achdan ayrildi, o'z xoniga ega bo'ldi, (keyin yana) xonini qo'yib Tabg'achga qayta qo'shildi. Tangri shunday degan shekilli: "Xon berdim, (3) xoningni qo'yib, taslim bo'lding". Taslim bo'lgani uchun tangri "o'l" degan [ya'ni qarg'agan] shekilli, turk xalqi o'ldi, tugadi, yo'q bo'ldi, turk sir xalqi yerida (4) (hech bir) urug' qolmadi. To'qayda, tog'-u toshda qolgani to'planib, yetti yuz kishi bo'ldi. Uning ikki bo'lagi otliq edi, bir bo'lagi yayov edi. Yetti yuz kishini (5) xushyor qiladigan ulug'i shad edi. "Yig'il!" — dedi. Yig'adigani men edim — bilga To'nyuquq. Xoqonni-mi qistayin dedim, (so'ng) o'ylab qoldim: "(Birov) turuq buqa bilan semiz buqani tezagidan (6) bilsa, (birov bu) semiz buqa, (bu) turuq buqa deya bilmas emish [ya'ni semiz buqa bilan turuq buqani ajratolmas ekan]", — deb shunday o'yladim. O'shandan so'ng, tangri bilim bergani uchun, o'zim-oq xoqonni qistadim. Bilga To'nyuquq bo'yla bag'a tarqan (7) bilan Eltaris xoqon topishib [birgalashib], janubda tabg'achni, sharqda qitanni, shimolda o'g'uzni ko'plab o'ldirdi. Bilimdoni, chabisi mening o'zim edim. Chug'ay quzini, Qoraqumni (egallab) turar edik. (8) Kiyik yeb, tovushqon yeb kun kechirar edik, xalqning bo'g'zi to'q edi. Dushmanimiz tegrada qanot yoydi, biz shay edik. Shunday yashar erk eli.

O'g'uzdan (sir bilish uchun jo'natilgan) ko'ruvchi keldi. (9) Ko'ruvchining xabari shunday: "To'quz o'g'uz xalqi ustidan (bir) xoqon taxtga o'tirdi, — der, Tabg'achga Qo'ni sangunni yuboribdi, Qitanga To'ngra Semni yuboribdi. (ulardan) shunday xabar aytib yuboribdi: "Ozgina turk xalqi (10) yurgan emish, xoqoni alp ekan, kengashchisi dono ekan. O'sha ikki kishi bor bo'lsa, seni — tabg'achni o'ldirajak, deyman, shimolda qitanni o'ldirajak, derman, meni — o'g'uzni (11) ham o'ldiradi, deyman. Tabg'ach, sen o'ngdan hujum qil! Qitan, sen oldindan hujum qil! Men chapdan hujum qilay. Turk sir xalqi yerida ega yurmasin. Uddalansa, egasini yo'q qilaylik, (12) derman". O'sha xabarni eshitib, tun uyqum kelmadi, kunduz o'ltirgim kelmadi. Shundan keyin xoqonimga o'tindim. Shunday o'tindim: "Tabg'ach, o'g'uz, qitan — bu uchovi qamal qilsa, (13) (qurshovda) qolajakmiz, (xuddi) vujudning ichu tashini tutgandek bo'lamiz. Yupqa narsa yengishga arzimas emish, ingichka narsa uzishga arzimas, ingichka qalin tortsa, yengadigan alp

ermish, ingichka (14) yo'g'on tortsa, uzadigan alp emish. Sharqda qitandan, janubda tabg'achdan, g'arbdan qurdandan, shimolda o'g'uzdan ikki-uch ming urush qilib keladigan lashkarimiz bormidi, nima?" — shunday o'tindim. (15) Xoqonim men o'zim bilga To'nyuquqning o'tinmish o'tinchimni eshitib turdi, (keyin): "Ko'nglingga qarab ish tut", — dedi.

Ko'k o'ngni yuqorilab (lashkarni) O'tukan yishga soldim. Inigak ko'lini kechib To'g'ladan o'g'uz keldi. (16) Lashkari uch ming ekan, biz ikki ming edik, urushdik. Tangri yorliqadi, qochirdik, daryoga tushdi. Qochgan yo'lida yana o'ldi chog'i. Shundan so'ng o'g'uz butunlay (taslim bo'lib) keldi.

(17) Keltirdim ham turk xalqini O'tukan yerga men o'zim bilga To'nyuquq. O'tukan yerga qo'nibdi, deb eshitib, janubdagi xalq, g'arbdagi, shimoldagi, sharqdagi xalq keldi.

(18) Ikki ming edik biz, ikki lashkar bo'ldi. Turk xalqi el bo'libdiki, turk xoqoni taxtga kelibdiki, Shantung shahriga, dengiz-u daryolarga [katta suvlarga] yetgani yo'q edi. Xoqonimga o'tinib, lashkar eltdim. (19) Shantung shahriga, dengiz-u daryolar[katta suvlar]gacha yetkazib bordim. Yigirma uch shahar mag'lub bo'ldi. Uyqusini buzib, yurtida yengilib qolar edi. Tabg'ach xoqon yovimiz edi, o'n o'q xoqoni yovimiz edi. (20) Qo'shilib, qirg'iz kuchli xoqon ham bizga yov bo'ldi. O'sha uch xoqon fikrlashib: "Altun yish uzra bostirib boraylik, — debdi, shunday fikrlashibdi. — Sharqqa — turk xoqoniga lashkar tortaylik, — debdi. — Unga lashkar tortilmasa, g'azablangan chog'da, u bizni (engadi), (21) xoqoni alp ekan, kengashchisi dono ekan, g'azablangudek bo'lsa, o'ldiradigan ko'rinadi. Uchovlab yopirilib, lashkar tortaylik, uni yo'q qilaylik", — debdi. Turgash xoqon shunday debdi: "Mening xalqim u yerda, — debdi. — (22) Turk xalqi ham sarosimadadir, — debdi. — O'g'uzi ham tarqoqdir", — debdi.

O'sha xabarini eshitib, tunlari uyqum kelmas edi, kunduzlari o'tirgim kelmas edi. Shunday o'yladim: "A ... (23) ... a lashkar tortaylik ... , — dedim. Ko'gman yo'li bitta ekan, bekilgan [qor bosgan], deb eshitib: "Bu yo'ldan yursak, yaramaydi", — dedim. Yerchi [bu yerlarni biladigan kishi] so'radim. Cho'llik az kishini topdim. (24) "O'zim az, yerim ... ", uni bil ... ekan, bir turar joyi bor ekan. "Ani (daryosi) bilan borgan, o'sha yerda tunab, bir otlig' (yo'l) bosadi", — deganda: "O'sha yo'l bilan yurilsa, ma'qul", — dedim, shunday xayol qildim.

Xoqonimga (25) o'tindim, lashkarni yo'lga soldim, "ot sol!" — dedim. Aq tarmalni kechib ildam yo'lladim, otga mindirib qorni kechdim.

Yuqoriga otni yetaklab, yayov, yog' ochga tayanib (tepalikka) chiqardim. Oldindagi erlar (26) yuqori ko'tarilib butalar bor tepalikdan oshdik. Qiynalib indik. O'n kecha deganda yondagi to'siqni aylanib o'tdik. Yerchi yo'lni yanglishib, bo'g'izlandi. Xafa bo'lib xoqon: "Yelib ko'r, — dedi. — (27) Ani suvidan boraylik".

O'sha suvning quyi tomoniga bordik, (lashkarni) sanagali tushirdik, otni butalarga boylar edik. Kunu tun yelib bordik, qirqizni (g'afolat chog'ida) qo'qqisdan bosdik. (28) Lashkar jag'ini ochdik [xayoxuy soldik]. Xoni, lashkari terildi, jang qildik, sanchdik, xonini o'ldirdik. Xoqonga qirqiz xalqi taslim bo'ldi, yukundi. Qaytdik, Ko'gman yishni aylanib keldik.

(29) Qirqizdan qaytdik. Turgash xoqondan (sir bilish uchun jo'natilgan) ko'ruvchi keldi. (Keltirgan) xabari shunday: "Sharqdan xoqonga lashkar yo'llaylik, — debdi. — Yo'llanmasa, u bizni (engadi), xoqoni alp ekan, kengashchisi dono ekan, g'azablangudek bo'lsa, (30) bizni o'ldirajak ko'rinadi, — debdi. — Turgash xoqoni maydonga chiqibdi, — debdi. — Tabg'ach lashkari (ham) bor ekan".

O'sha xabarni eshitib, xoqonim: "Men uyga tushib chiqay, — dedi. (31) Xotun o'lgan edi. — Uning marosimini o'tkazay, — dedi. — Lashkar, boring! — dedi. — Altun yishda o'tiring, — dedi. — Lashkarboshi Inal xoqon, tardush shadi borsin", — dedi. Bilga To'nyuquqqa — menga aytdi: (32) "Bu lashkarni elt, — dedi. — Sahiyligu qattiqqo'llikni ko'nglingga qarab qil, men senga nima ham derdim, — dedi. — (Yov) kelar bo'lsa, dovrug'li erlarni yo'lla, kelmas ersa, gap-so'zini [sirini], xabarini olib tur", — dedi.

Altun yishda o'rnashdik. (33) Uch ko'ruvchi kishi keldi, so'zi bir: "Xoqoni lashkar bilan maydonga chiqdi, o'n o'q lashkari bekamu ko'st maydonga chiqdi, — der. Yaris dashtida terilaylik", — debdi. O'sha xabarni eshitib, xoqonga o'sha xabarni aytib yubordim, "qanday qilay?" degan xabarni yetkazib, (javobini olib) qaytib (34) keldi. "Tek turing! — degan emish. — Yelma, pistirmaniyaxshilab mustahkamla, (yovga) bostirib qo'yma", — debdi. Bo'gu xoqon menga shunday aytib yuboribdi, apatarxonga [bosh qo'mondonga] maxfiy xabar yuboribdi: "Bilga To'nyuquq (yov qarshisida) yovuz [o'jar, tap tortmas], o'zi-yoq anglaydi [o'z bilganini qiladi]. (35) Lashkar tortaylik deganiga unamang". O'sha xabarni eshitib, lashkarni yo'lga soldim. Altun yishni yo'lsiz oshdim, Ertish daryosini kechiksiz kechdik, tun to'xtamadik. Bo'luchuga tong ottirib yetib bordik.

(36) Gap-so'zini [sirini] bilib keltirgan xabari shunday: "Yaris dashtida

o'n tuman [yuz ming] lashkar terildi", — der. O'sha xabarni eshitib, beglar yoppasiga: (37) "Qaytaylik, pokning uyati yaxshi", — dedi. Men shunday derman, men bilga To'nyuquq: "Altun yishni oshib keldik, Ertish daryosini (38) kechib keldik. Kelgani alp, deganlar. (Yov bizni) tuymadi. Tangri Umay, muqaddas yer-suv bosib bergan shekilli, nega tezarmiz (39) (yovni) ko'p deya, nega qo'rqarmiz, (o'zimizni) oz deya. Qani, bosaylik, hujum qilaylik", — dedim. Hujum qildik, tor-mor qildik.

Ikkinchi kun keldi, (40) yong'inday qizib keldi, urushdik. Biznikidan ikki qanoti yarimcha ortiq edi. Tangri yorliqagani uchun ko'p deya, biz (41) qo'rqmadik, urushdik. Tardush shadi aralashdi. Tor-mor qildik, xoqonini tutdik, yabg'usini, shadini (42) o'sha yerda o'ldirildi. Elliktacha erni tutdik, o'sha kechadayoq (ularni) xoqoni tomon jo'natib yubordik. O'sha xabarni eshitib, o'n o'q beglari, xalqi yoppasiga (43) keldi, bosh egdi. Kelgan beklarini, xalqini tartibga solib, yig'ib, ozgina xalq qochgan edi, o'n o'q lashkarini jangga yubordim. (44) Biz ham lashkar tortdik, uni quvdik, Yinchu o'guzni kechib Tinsi o'g'li yotadigan Bangligak tog'ni ... (45) Temir qopiqqacha quvib bordik, o'sha yerdan qaytardik.

Inal xoqonga ... arab, to'xrini ... (46) O'shanda boshiga yoriq dubulg'a kiygan so'g'daq xalqi yoppasiga keldi, o'sha kuni urush qildi. Turk xalqi Temir qopiqqa, (47) Tinsi o'g'li yotadigan toqqa yetdi, egasi yo'q ekan. O'sha yerga men — bilga To'nyuquq yetkazib borganim uchun (48) sariq oltin, oq kumush, qiz-juvon, egri tuya, ipaklik hadsiz keltirdi.

Eltarish xoqon allomasi bilan bo'lgani uchun, (49) alpi bilan bo'lgani uchun Tabg'achga o'n yetti bor jang qildi, Qitanga yetti bor jang qildi, O'g'uzga besh bor jang qildi. O'shanda kengashchi (50) ham mening o'zim edim, urushuvchisi ham men edim. Eltarish xoqonga ... , turk Bo'gu xoqonga, turk Bilga xoqonga ... (51) Qapag'an xoqon ... tun uxlamadi, (52) kunduz o'tirmadi, qizil qonimni tugatib, qora terim yugurtib, mehnatimni, kuchimni berdim-ku, axir. Men o'zim uzoqlarga bosqinni ham uyushtirdim-ku, axir.

(53) Qo'ng'ir qo'y, oq otni ulg'aytirdim. Bosadigan yovni poymol qilg'uchi edim. Xoqonim bilan lashkar tortdik, tangri yorliqasin!

(54) Bu turk xalqiga yaroqli yovni keltirmadim, yalovli otini yugurtirmadim.

Eltarish xoqon zafar qozonmaganida, (55) uning bilan mening o'zim zafar qozonmaganimda, yurt ham, xalq ham yo'q bo'lar edi. (Xoqon) zafar qozongani uchun, mening xushyorligim, zafar qozonganim uchun, (56) el ham el bo'ldi, xalq ham xalq bo'ldi.

O'zim qaridim, ulg'aydim.

Har yerdagi xoqonli xalqqa, (57) don-duni bor bo'lsa, nima g'ami bo'lardi?

(58) (Ushbu bitigni) turk Bilga xoqon elida yozdirdim men bilga To'nyuquq.

(59) Eltaris xoqon zafar qozonmaganida, yo'q bo'lganida, men o'zim bilga To'nyuquq zafar qozonmaganimda, men bo'lmaganimda, (60) Qapag'an xoqon turk sir xalqi yerida urug' ham, xalq ham, kishi ham ega bo'lmas edi. (61) Eltaris xoqon, bilga To'nyuquq zafar qozongani uchun Qapag'an xoqon turk sir xalqi yurgan bu ...

(62) Turk Bilga xoqon turk sir xalqini, o'g'uz xalqini boshqarib turibdi.

KUL TIGIN BITIGI¹

Asosiy qism

[Bilga xoqon so'zi]:

K

1. Üzä kök täjri, asra yağiz yär qılıntuqda ikin ara kisi oğlı qılınmıs. Kisi oğlın ta üzä äcüm apam Bumın qağan, İstämi qağan olurmıs. Olurupan türük bodunuğ älin tör[ü]sin tuta birmis, iti birmis. 2. Tört buluğ qop yağı ärmis sü süläpän tört buluğdağı bodunuğ qop almıs, qop baz qılmıs, başlığığ yuktürtürmis, tizligig söktürmis. İlgärü Qadırqan yışqa tägi, kirü Tämır qapığqa tägi qonturmıs. Äkin ar[a] 3. idi oqsuz kök türük ança olurur ärmis. Bil(g)ä qağan ärmis, alp qağan ärmis, buyruğı yämä bilgä ärmis ärinç, alp ärmis ärinç, bāglāri yämä, bodunı yämä tüz ärmis. Anı üçün älig ança tutmıs ärinç. Älig tutup törüg itmis. Özi ança 4. kargäk bolmıs. Yoğçı, siğitçi öjrä kün toğsıqda Bökli çölgil, tabğaç, tüpüt, apar, purum, qırqız, üç qurıqan, otuz tatar, qıtan, tatabı — bunça bodun kälipän siğtamıs, yoğlamıs. Antağ külüg qağan ärmis. Anta kisträ inisi qağan 5. bolmıs ärinç, oğlı atı qağan bolmıs ärinç. Anta kisträ inisi äçisin-täg qılınmaduğ ärinç, oğlı qajın-täg qılınmaduğ ärinç, biligsiz qağan olurmıs ärinç, yablaq qağan olurmıs ärinç, buyruğı yämä biligsiz ärinç, yablaq ärmis ärinç. 6. Bāglāri, bodunı tüz süz üçün, tabğaç bodun täbligın, kürlüg üçün, armaqçısın üçün, inili äçili kiksürütükin üçün bāgli bodunlığ yonışurtuğın üçün türük bodun ällädük älin ič[ğ]ınu idmıs. 7. Qağanladuğ qağanın yitürü üdmıs. Tabğaç bodunqa bāglik urı

¹ Q. Sodiqov. Ko'k turk bitigleri: matn va uning tarixiy talqini. Toshkent, 2004. 96-112-b.

oğlın qul boltı, silik qız oğlın küj boltı. Türük bağlar türük atın itı tabğaçğı bağlar tabğaç atın tutıpan tabğaç qağanq[a] körmis. Älig yıl isig, küçüg birmis. Ilgärü kün toğsıqda Böklı qağanqa tägi süläyü birmis. Qurıǵaru Tämır qapıǵqa tägi süläyü birmis. Tabğaç qağanqa älin törüsin alı birmis. Türük qara qamuǵ 9. bodun ança timis: Ällig bodun ärtim, älim amtı qanı? Kimkä älig qazǵanur-män? — tir ärmis. — Qağanlıǵ bodun ärtim, qağanım qanı? Nä qağanqa isig, küçüg birür-män? — tir ärmis. Ança tip tabğaç qağanqa yaǵı bolmıs. 10. Yaǵı bolup itinü, yaratunu umaduq yana içikmis. Bunça isig, küçüg birtükǵarü saqınmatı «türük bodun ölürayın, uruǵsıratayın» tir ärmis, yoqadu barır ärmis.

Üzä türük täñrisi, türük iduq yäri, 11. subı ança tämis: «Türük bodun yoq bolmazun» tiyin, «bodun bolçun» tiyin qañım Ältäris qağanıǵ, ögüm İlbilgä qatunuǵ täñri töpüsintä tutup yögärü kötürmis ärinç.

Qañım qağan yäti yigir]mi ärin taşqımıs. T[aşr]ja 12. yorıyur tiyin kü äsidip balıqdaqı taşqımıs, taǵdaqı inmis. Tirilip yätmis är bolmıs. Täñri küç birtük üçün qañım qağan süsi böri-täg ärmis, yaǵısı qon-täg ärmis. Ilgärü, qurıǵaru sülöp ti]r]mis, qoburt[mıs]. [Qa]muǵı 13. yäti yüz är bolmıs. Yäti yüz är bolup älsirämıs, qaǵansıramıs bodunuǵ, küñädmis, quladmıs bodunuǵ, türük törüsün içginmıs bodunuǵ äcim apam törüsincä yaratmıs, boşǵurmıs. Tölis, tarduş 14. Yabǵuǵ, şadıǵ anta birmis. Biriya tabğaç bodun yaǵı ärmis, yıraya baz qağan, toquz oǵuz bodun yaǵı ärmis. Qırqız, qurıqan, otuz tatar, qıtañ, tatabı qop yaǵı ärmis. Qañım qağan bunç[a] 15. qırq artuqı yäti yolı sülämıs, yigirmi sünüs sünüsmıs. Täñri yarlıqaduq üçün älligig älsirätmıs, qağanlıǵıǵ qaǵansıratmıs, yaǵıǵ baz qılmıs, tizligig sökürmıs, başlıǵıǵ yüküntür... . 16. törüg qazǵanıp uça barmıs. Qañım qağanqa başlayu baz qağanıǵ balbal tikmis.

Ol törüdä üzä äcim qağan olurtı. Äcim qağan oluruapan türük bodunuǵ yicä itdi, igit(t)i, çıǵanıǵ... . 17. Äcim qağan olurtuqda özüüm tarduş bodun üzä şad ärtim. Äcim qağan birlä ilgärü Yaşıl ögüz, Şantun yazıqa tägi sülädimiz, qurıǵaru Tämır qapıǵqa tägi sülädimiz. Kögmän aşa qı... . 18. Qamuǵı biş otuz sülädimiz, üç yigirmi sünüşdimiz. Älligig älsirätдимiz, qağanlıǵıǵ qaǵansıratдимiz, tizligig sökürtдимiz, başlıǵıǵ yüküntürtдимiz. Türgäs qağan türükümüz, 19. üçün biziñä yañluqın üçün qağanı ölti, buyruqı, bağları yämä ölti. On oq bodun ämgäk körti, äçümiz, apamız tutmıs yär sub idisiz bolmazun tiyin az bodunuǵ itip yar... . 20. bars bağ ärti, qağan at bunta biz birtimiz. Sıñlim qunçuyuǵ birtimiz. Özi yañıltı, qağanı ölti, bodunı küj qul boltı. Kögmän yär sub idisiz qalmazun tiyin az qırqız bodunuǵ yarat... . 21. yana birtimiz.

Ilgärü Qadırcan yışığı aša bodunuğ ança qonturtımız, ança itdimiz. Qurıǵaru Känü Tarmanqa tägi türük bodunuğ ança qonturtımız, ança [i]tdimiz. Ol ödkä qul qulluğ bolmıs 22 Ança qazğanmıs, itmis älimiz, törümüz ärti.

Türük oǵuz bāgları, bodun, äsidiñ! Üzä täñri basmasar, asra yär tilinmäsär, türük bodun, älinin törünin kim artatı... .. 23. ökün, körgünin üçün, igidmis bilgä qaǵanıñın ärmis, barmıs, ädgü äliñ[ä] kántü yañıltıǵ, yablaq kigürtig. Yaraqlıǵ qantan kälip yaña älti, süñüglüg qantan kälipän sürä älti? İduq Ötükän yı... .. 24. bardıǵ, qurıǵaru barıǵma bardıǵ. Barduq yärdä ädgüg ol ärinç: qanıñ subça yügürti, söñükün tagça yatdı, bāglig urı oǵluñ qul boltı, silig qız oǵluñ küñ boltı bilmädük üçün... .. 25. Başlayu qırqız qaǵanıǵ balbal tikdim.

Türük bodunuğ atı, küsi yoq bolmazun tiyin qañım qaǵanıǵ, ögüm qatunuğ kötürmıs täñri, äl birigmä täñri türük bodun atı, küsi yoq bo... .. 26. qaǵan olurtdı ärinç. Näñ yılsıǵ bodunqa olurmädım, icrä ässiz, taşra tonsuz, yabız yablaq bodunta üzä olurtum. Inim Kül tigin birlä sözläşdimiz. Qañımız äçimiz qaz... .. 27. tiyin türük bodun üçün tün udımadım, küntüz olurmadi[m]. Inim Kül tigin birlä, iki şad birlä ölü yitü qazǵantım. Ança qazǵanıñ biriki bodunuğ ot sub qılmadım. Män... .. 28. barmıs bodun ölü yitü yadaǵın, yalañın yana kälti. Bodunuğ igidäyin tiyin yırǵaru oǵuz bodun tapa, ilgärü qıtañ, tatabı bodun tapa, birgärü Tabǵaç tapa uluğ sü iki yigir... .. 29. kisrä täñri yarlıqazu, qutum bar üçün, ülügüm bar üçün öltäçi bodunuğ tirtürü igit(t)im. Yalañ bodunuğ tonluğ, çıǵan bodunuğ bay qıltım, az bodunuğ öküş qıltım. İǵar älligdä, q... .. 30. bodunuğ qop baz qıltım, yaǵısız q... .. m qop mäñä körti. İsig kücüğ birür bunça törüg qazǵanıñ inim Kül tigin özi ança käreğäk boltı.

Qañım qaǵan uçduqda inim Kül tigin yit... .. (31) Umay-täg ögüm qatun qutıña inim Kül tigin är at bultı. Altı yigirmi yaşıña äçim qaǵan ilin törüsin ança qazǵantı. Altı çub soǵdaq tapa sülädimiz, buzdımız. Tabǵaç Oñ tutuq bis t... .. (32) Kül tigin yadaǵın oplayu tägdi. Oñ tutuq yorçın yaraqlıǵ äligin tutdı, yaraqlıǵdı qaǵanqa ançuladı. Ol süğ anta yoqqışdıñız. Bir otuz yaşıña Čaça Süñä süñüşdimiz. Äñ älki Tadqas(?) Čorıñ boz ... (33) ölti. Äkinti İşbara Yamtar boz atıǵ binip tägdi. Ol at anta ölti. Üçünc Yägänsil bāgiñ kädimlig torıǵ at binip tägdi. Ol at anta ölti. Yaraqınta yalmasınta yüz artuq oqun urtı, yi[ni]ñä başıña bir t... (34) tägdükin, türük bāglar, qop bilirsiz. Ol süğ anta yoqqışdıñız. Anta kisrä Yär Bayırqu Uluğ Irkin yaǵı boltı. Anı yañıñ Türgi Yarıñ költä buzdıñız. Uluğ Irkin azqıña ärin täzip bardı. Kül tigin (35)

... . . . ɲa qırqız tapa sülädimiz. Sünüg batimī qarığ söküpän Kögmän yışığ toğa yorip, qırqız bodunuğ uda basdımiz. Qağanin birlä Suña yıſda sünüşdimiz. Kül tigin Bayırqun (36) binip oplayu tädgi. Bir ärig ilin urtı, äki ärig uduşuru sançdı, ol tädüktä Bayırqunuñ aq adğırığ udluqın sıyu urtı. Qırqız qağanin ölürtimiz, ilin altımiz. Ol yılqa türgäs (37) toğa Ärtis ögüzüg kächä yoridimiz. Türgäs bodunuğ uda basdımiz. Türgäs qağan süsi Boluçuda otča borça kälti, sünüşdimiz. Kül tigin Başğu boz at binip tädgi. Başğu boz k... . . (38) tutuzt[ı]. Äkisin özi altızdı. Anta yana kirip türgäs qağan buyruqı, az tutuquğ äligin tutdı. Qağanın anta ölürtimiz, ilin altımiz. Qara türgäs bodun qop içikdi. Ol bodunuğ Tabarda qo... . . (39) Soğdaq bodun itäyin tiyin Yinçü ögüzüg kächä Tämir qapıgqa tägi sülädimiz. Anta kisträ qara türgäs bodun yaği bolmiş Känräs tapa bardı. Bizin sü atı toruq, azuqı yoq ärti. Yablaq kisi är... . (40) alp är qızıña(ɲ) tægmiş ärti. Antağ ödkä ökünüp Kül tiginig az ärin irtürü it(t)imiz, uluğ sünüş sünüşmiş, alp Şalçı aq atın binip tægmiş, qara türgäs bodunuğ anta ölürmış, almış, yana yorip... . .

Kb

(1)... . birlä Quşu tutuq birlä sünüşmiş, ärin qop ölürmis, äbin bar... . tægipän qop kälürti.

Kül tigin yiti otuz yaşıña qarluq bodun ärür barur ärkäli yaği boltı. Tamğıduq başda sünüşdimiz. (2) [Kül] tigin ol sünüşdä otuz yaşayur ärti. Alp Şalçı aqın binip oplayu tädgi, äki är[ig] uduşuru sançdı. Qar[ı]quğ ölürtimiz, altımiz. Az bodun yaği [b]oltı. Qara költä sünüşdimiz. Kül tigin bir qırq yaşayur ärti. Alp Şalçı aqın (3) binip oplayu tädgi. Az Ältäbarig tutdı, az bodun anta yoq boltı. Äçim qağan ili qamşag boltuqınta, bodun ölüg ig[li]g boltuqınta izgil bodun birlä sünüşdimiz. Kül tigin Alp Şalçı aqın binip (4) [oplayu täd]ji. Ol at anta tüs... . . Izgil [bodu]n ölti. Toquz oğuz bodun kântü bodunum ärti. Täñri yir bulğaqın üçün yaği boltı. Bir yılqa biş yolu sünüşdimiz. Äñ ilik Toğu balıqda sünüşdimiz. (5) Kül tigin Azman aqıg binip oplayu tädgi. Altı ärig sançdı, sü [kiş]isintä yitinç ärig qılıcladı. Äkinti, Quşlağaqda [jz birlä sünüşdimiz. Kül tigin Az yağızın binip oplayu tægip, bir ärig sançdı, (6) toquz är[ig] ägirä toqıdı. [jz bodun anta ölti. Üçünç, Bol... . . nda oğuz birlä sünüşdimiz. Kül tigin Azman aqıg binip tädgi, sançdı, süsin sançdıımız, ilin altımiz. Törtünç, Çuş başınta sünüşdimiz. Türük (7) bodun adaq qamşatdı, yablaq bol[ta]çı ärti. Oz[a käl]mis süsin Kül tigin ağıtıp tonra bir oğuş alpağu on ärig Tonja tigin yoğınta [ägi]rip ölürtimiz. Bisinç, Äzgänti Qadanda oğuz birlä sünüşdimiz. Kül tigin (8) Az yağızın binip tädgi, äki är[ig] sançdı, balıqa barmadı. Oğuz anta

öl[ti] qorğ[an q]şlap yazıña oğuzğaru sü taşıqdimiz. Kül tigin bāg başlayu aqıtımiz, oğuz yağı orduğ basdı. Kül tigin (9) Ögsüz aqın binip toquz ārin [sa]ñdī. Orduğ birmādi.

Xotima

Ögüm qatun, ulayu öglārim, ākālārim, kālinünüm, quncuylārim, bunča yama tirigi kün boltaçı ārti, ölügi yurtda, yolta yatu qaltaçı ārtigiz.

(10) Kül tigin yoq ārsār, qop öltāci ārtigiz. Inim Kül tigin kārgāk bolti, özüm saqıntım: körür közüm körmāz-tāg, bilir biligim bilmāz-tāg bolti, özüm saqıntım. Öd tāñri yasar, kisi oğlı qop ölügli tirimis. (11) Anča saqıntım, közdā yaş kālsār, āt ıda(?), köñültā sığıt kālsār, yanturu saqıntım, qatıǵdı saqıntım, āki şad ulayu arqa āgünüm, oğlanım, bāglārim, bodunum közi, qaşı yablaq boltaçı tip saqıntım.

Yogçı, sığıtçı, qıtañ, tatabi bodun başlayu (12) Udar sāñün kālti. Tabğaç qağanta Isyi Liki(?) kālti. Bir tūmān ağı, altun, kümüş kārgāksiz kālūrti. Tūpūt qağanta Bōlün kālti. Qurya, kün batsıqdaqı soğd bārčālār(?), üç qaraq¹ ulus bodunta Nāñ sāñün, Oğul tarqan kālti. (13) On oq oğlum Türgās qağanta Maqaraç tamğaçı, Oğuz Bilgā tamğaçı kālti. Qırqız qağanta Tarduş İnančmur (İnanč-čor?) kālti, barq itgüci, bādz yaratıǵma, bitigtaş itgüci tabğaç qağan čanqanı(?) Čañ sāñün kālti.

K. III.

Kül tigin qon yılqa yiti yigirmikā ücdi. Toquzunč ay yiti otuzqa [yoğ ārtürtimiz. Barqın bādzin] bitigtaş[in] bičin yılqa yitinč ay yiti otuzqa qo[p al]qd[im]iz. Kül tigin ü... . qırq artuq[i y]iti yaşın boltat taş... . bunča bādz āčig Tuyğun Āltābār kālū(r)ti.

Ks*

(1) İnanču apa yarğan tarqan atıǵ ... (2) qurdanuğ örti. Inim Kül tigin isig küçüg birtük üçün türük Bilgā qağan yirtā inim Kül tigin küzādū olurt[um].

Ilova

[Yo'llug' tigin so'zi]:

K. II

1 Bu so'zni boshqa nashrlarda Buqaraq deb o'qiganlar.

* Toshning xitoycha yozuvli yog'idagi ushbu turkiy matn mazmuni bitigning asosiy qismiga to'g'ri keladi. U Bilga xoqon tilidan so'zlanmoqda. U qay o'rinda kelishi hali aniq bo'lmagani bois, shu o'rinda keltirilmoqda.

Bunča bitig bitigmä Kül tigin atış Yolluğ tigin bitidim. Yigirmi kün olurup bu taşqa, bu tamqa qop Yolluğ tigin bitidim. İğar oğlanıñızda tayağunıñızda kăgdă igidür ârtigiz, uça bardıgız, tănri tirigdăgiçi.

Mazmuni:

Asosiy qism

[Bilga xoqon so'zi]:

K

(1) Yuqorida ko'k osmon, pastda qo'ng'ir yer yaratilganda ikkisining orasida inson bolasi yaratilgan. Inson bolalari ustidan ota-bobom Bumin xoqon, Istami xoqon bo'lib (taxtga) o'tirgan. (Taxtda) turib turk xalqining yurtini, hukumatini tutib turganlar, tartibga keltirganlar. (2) To'rt taraf butunlay dushman ekan. Lashkar tortib, to'rt tarafdagi xalqni butunlay olgan(lar), butunlay qaram qilgan(lar), boshi borni ta'zim qildirgan(lar), tizzasi borni cho'ktirgan(lar). Sharqqa — Qadirqan yishga qadar, g'arbga — Temir qopiqqacha manzil qildirgan(lar). Ikkisining orasida (3) xo'jayinsiz, tanobsiz [cheklanmagan yerga egalik qilib], ko'k turk shu tarzda yashar ekan. (Ular) dono xoqon ekan, alp xoqon ekan, vazirlari ham dono ekanligi uchun, botir ekanligi uchun, beklari ham, xalqi ham to'g'ri ekan. Shuning uchun davlatni shunday tutgan ekan. Davlatni tutib, rasm-rusumni ado etganlar. O'zi shunday [boshqarib] (4) vafot etgan. Azachi, yig'ichi(lar), sharqdan — kun chiqardan bo'kli cho'lgil, tabg'ach, tuput, apar, purum, qirqiz, uch qurigan, o'tuz tatar, qitan, tatabi — shuncha xalq kelib yig'lagan, aza tutgan. Shunday mashhur xoqon ekan. Shundan keyin inisi xoqon (5) bo'lgan ekan, o'g'li, jigari xoqon bo'lgan ekan. Undan keyin inisi og'asiday ish tutmagan ekan, o'g'li otasiday ish tutmagan ekan. (Taxtda) johil xoqon turganligi uchun, badfe'l xoqon turganligi uchun vaziri ham kaltafahm ekan, yovuz ekan. (6) Beklari, xalqi to'g'ri emasligi uchun, tabg'ach xalqi hiylakor, to'ymasligi uchun, firibgari bor uchun, ini va og'ani (bir-biriga) qayragani uchun, begi va xalqini bir-biriga chaqqani uchun turk xalqi ushlab turgan davlatini qo'ldan chiqarib yuborgan, (7) xoqonlik qilib turgan xoqonini yo'qotib yubordi. Tabg'ach xalqiga bek bo'ladigan o'g'il bolasi bilan qul bo'ldi, suluv qiz bolasi bilan cho'ri bo'ldi. Turk beklar turkcha otini qo'yib, tabg'achlik beklarning tabg'achcha otini qabul qilib, tabg'ach xoqonga (8) qaram bo'ldi. Ellik yil mehnatini, kuchini beribdi. Sharqqa — kun chiqarda Bo'kli xoqonigacha lashkar tortib beribdi. G'arbga — Temir qopiqqa qadar lashkar tortib beribdi. Tabg'ach xoqoniga davlatini, hukumatini olib beribdi. Turk fuqarosi, bari (9) xalq shunday debdi:

«Davlatli xalq edim, davlatim endi qani? Davlatni kimga egallab beryapman?» — der ekan. «Xoqonli xalq edim, xoqonim qani? Ne xoqonga mehnatimni, kuchimni beryapman?» — der ekan. Shunday deb tabg‘ach xoqoniga yov bo‘libdi. (10) Yov bo‘lib, o‘zini eplab va tiklab ololmay, yana taslim bo‘libdi. Shuncha mehnatini, kuchini berganiga andisha qilmay (tabg‘ach xoqoni) «turk xalqini o‘ldirayin, urug‘ini qirayin» der ekan. [Uni] yo‘qotib borayotgan ekan.

Yuqorida turkning osmoni, turkning muqaddas yeri, (11) suvi shunday debdi: «Turk xalqi yo‘q bo‘lmasin» deya, «xalq bo‘lsin» deya otam Eltaris xoqonni, onam Elbilga xotunni Tangri (o‘z) martabasida tutib, yuqori ko‘targan ekan.

Otam xoqon o‘n yetti er bilan tashga chiqib ketgan. «Tashda (12) yuribdi» degan ovozani eshitib, shahardagi tashga chiqibdi, tog‘dagi(si) inibdi. Terilib, yetmish er bo‘libdi. Tangri kuch bergani uchun otam xoqonning lashkari bo‘ridek ekan, dushmani qo‘ydek ekan. Sharqqa, g‘arbga lashkar tortib, (odam) yig‘ibdi, (oyoqqa) turg‘azibdi. Hammasi (13) yetti yuz er bo‘libdi. Yetti yuz er bo‘lib, davlatini yo‘qotgan, xoqonini yo‘qotgan xalqni, cho‘riga aylangan, qul bo‘lgan xalqni, turk hukmronligini boy bergan xalqni ota-bobolarim yo‘sunicha oyoqqa turg‘azibdi, boshqaribdi. To‘lis, tardush (14) yabg‘uni, shadni o‘shanda tayinlabdi. Janubda tabg‘ach xalqi yov ekan, shimolda baz xoqon, to‘quz o‘g‘uz xalqi yov ekan. Qirqiz, quriqan, o‘tuz tatar, qitan, tatabi butunlay yov ekan. Otam xoqon buncha (15) qirq yetti yo‘la lashkar tortgan, yigirma marta jang qilgan. Tangri yorlaqagani uchun davlati borni davlatidan ayirgan, xoqoni borni xoqonidan ayirgan, dushmanni el qilgan, tizzasi borni cho‘ktirgan, boshi borni ta‘zim qildir... .. (16) hukmronlik qilib vafot etgan. Otam xoqon [qabri]ga birinchi bo‘lib baz xoqonning balbali tikildi.

O‘sha hukumat boshiga amakim xoqon bo‘lib o‘tirdi. Amakim xoqon o‘tirib, xalqni yaxshilab oyoqqa turg‘izdi, tarbiyaladi, qashshoqni (17) Amakim xoqon bo‘lib turganda o‘zim tardush xalqi uza shad edim. Amakim xoqon bilan sharqqa Yashil o‘guz, Shantung dashtiga qadar lashkar tortdik, g‘arbga Temir qopiqqa qadar lashkar tortdik. Ko‘gman osha qi... .. (18) Hammasi (bo‘lib) yigirma besh (marta) lashkar tortdik, o‘n uch (marta) jang qildik. Davlatlari davlatsizlantirdik, xoqonlari xoqonidan judo qildik, tizzasi borni cho‘ktirdik, boshi borni yukuntirdik. Turgas xoqon turkimiz (19) uchun, bizga (nisbatan) yanglishgani uchun xoqoni o‘ldi, vaziri, beklari ham o‘ldi. O‘n o‘q xalqi zahmat chekdi. Bobomiz, ajdodimiz boshqargan yer-suv egasiz bo‘lmasin deb az xalqini tartibga solib yar... .. (20) bars bek edi, xoqon unvonini

bunda biz berdik. Singlim xoqonzodani berdik. O'zi yanglishdi, xoqoni o'ldi, xalqi cho'ri, qul bo'ldi. Ko'gman yer-suvi egasiz qolmasin deya az, qirqiz xalqini tikla[b] (21) qaytib berdik. Sharqqa Qadirqan yishni osha xalqni shunday qo'ndirdik, shunday tartibga keltirdik. G'arbga Kangu Tarmanga qadar turk xalqini shu holda qo'ndirdik, shu xilda tartibga keltirdik. U chog'da qul qulli bo'lgan, (22) Shunday qozonilgan, tiklangan elimiz, hukumatimiz (bor) edi.

Turk o'g'uz beklari, xalqi eshiting! Yuqoridan osmon bosmasa, pastda yer yorilmasa, turk xalqi, davlatingni, hukumatini kim buzdi? (23) o'kin, ko'rguliging uchun, tarbiya qilgan dono xoqoningni, yemirilgan, ketgan ezgu davlatingga. O'zing yanglishding, (oraga) yomonni kirgizding. Qurolli qaydan kelib tarqatib yubordi, nayzali qaydan kelib surib ketdi? Muqaddas O'tukan yish (24) bording, g'arbga borolguncha bording. Borgan yerda ezgulik shu bo'lsa kerak: qoning suvday oqdi, suyaging tog'day (uyulib) yotdi, bek bo'ladigan o'g'il bolang qul bo'ldi, suluv qiz bolang cho'ri bo'ldi. (Buni) bilmagani uchun (25) Boshlab qirqiz xoqonining balbalini tikdim.

Turk xalqining nomi, dong'i yo'qolmasin deya otam xoqonni, onam xotunni ko'targan Tangri, el bergan Tangri turk xalqining nomi, dovrug'i yo'q bo'... .. (26) xoqon qilib o'ratdi. Mol-mulki xalqqa (xoqon) bo'lmadim. Ichi oshsiz, tashi to'nsiz, bechorahol xalq uzra (xoqon) bo'ldim. Inim Kul tigin bilan so'zlashdik. Otamiz, amakimiz qoz[ongan] (27) deya turk xalqi uchun tun uxlamadim, kunduz o'tirmadim. Inim Kul tigin bilan, ikki shad bilan o'la-yita (zafar) qozondim. Shu xilda (zafar) qozonib, uyushgan xalqni o't-suv qilmadim. Men (28) ketgan xalq o'la-yita yayov, yalang'och qaytib keldi. Xalqni tarbiyalayin deya shimolga o'g'uz xalqi tomon, sharqqa qitan, tatabi xalqi tomon, janubga tabg'ach tomon ulug' lashkar [bilan] o'n ikki (29) keyin Tangri yorlaqasin, qutum bor uchun, nasibam bor uchun o'layotgan xalqni tiriltirib, oyoqqa qo'ydim. Yalang xalqni to'nli, qashshoq xalqni boy qildim, oz xalqni ko'paytirdim. Panohtalab davlatlida, (30) xalqni butunlay do'st qildim, dushmansiz qildim, butunlay menga qaradi. Mehnatni, kuchni beruvchi shunday hokimiyatni qozonib, inim Kul tigin (Yaratganning O'ziga) kerak bo'ldi [ya'ni vafot etdi].

Otam xoqon o'lganda inim Kul tigin yet... .. (31) Umaydek onam xotun baxtiga inim Kul tigin er (degan) nom topdi. O'n olti yoshida amakim xoqon davlatini, hokimiyatini shu xilda qozondi. Olti chub [viloyat] sug'dlari tomon cherik tortdik, tor-mor qildik. Tabg'ach o'ng tutuq besh t... .. (32) Kul tigin yayov otilib hujum qildi. O'ng tutuq

yo'lboshchisini yaroqli qo'li bilan tutdi, yaroqlangan holda xoqonga tortiq qildi. U cherkni o'shanda yo'q qildik. Yigirma bir yoshida Chacha Sunga urush qildik. Eng avval Tadqas cho'ring bo'z (33) o'ldi. Ikkinchi (bor) Ishbara Yamtar bo'z otini minib hujum qildi. U ot o'shanda o'ldi. Uchinchi (bor) Yagansil bekning kiyimli to'riq otini minib hujum qildi. U ot o'shanda o'ldi. Yarog'iga, yopinchi'ga yuzdan ortiq o'q bilan urdi. Badanga boshiga bir t... .. (34) hujum qilganini, turk beklari, yaxshi bilasiz. U lashkarni yo'q qildik. Undan keyin yer bayirqu[li] Ulug' Erkin yov bo'ldi. Uni quvib, Turgi Yarg'un ko'lda tor-mor qildik. Ulug' Erkin ozgina yigiti bilan qochib ketdi. Kul tigin (35) [yoshi]da Qirqiz tomon lashkar tortdik. Nayza botimi qorni yorib, Ko'gman yishga ko'tarilib yurib, qirqiz xalqini qo'qqisdan bosdik. Xoqoni bilan Sunga yishda jang qildik. Kul tigin Bayirquning [oq ayg'irini] (36) minib otilib hujum qildi. Bir erni qo'li bilan urdi, ikki erni biryo'la sanchdi. O'sha kurashda Bayirquning oq ayg'irining kuragini sindirib urdi. Qirqiz xoqonini o'ldirdik, davlatini oldik. O'sha yili turgash (37) ko'tarilib, Ertis daryosini kechib yurdik. Turgas xalqini qo'qqisdan bosdik. Turgas xoqon lashkari Bo'luchuda o'tday-bo'ronday keldi, jang qildik. Kul tigin Bashg'u (otli) bo'z otini minib hujum qildi. Bashg'u bo'z k... . (38) tutqazdi. Ikkisini o'zi oldirdi. O'shanda yana (jangga) kirib, Turgas xoqon(ning) vazirini, az tutug'ini qo'li bilan tutdi. Xoqonini o'shanda o'ldirdik, elini oldik. Turgas avom xalqi butunlay taslim bo'ldi. U xalqni Tabarda qo'... .. (39) So'g'daq xalqini tuzatayin deya Yinchu o'guzni kechib, Temir qopiqqa qadar lashkar tortdik. Shundan keyin avom turgas xalqi dushman bo'lgan Kangras tomon bordi. Bizning lashkar(imizning) oti oriq, ozig'i yo'q edi. Yomon kishi er... .. (40) alp er bizga (?) hujum qilgan edi. O'shanday zamonda o'kinib, Kul tiginni oz er bilan izlatib yubordik. Katta jang qilibdi. Alp Shalchi oq otini minib hujum qilibdi. Qora turgas xalqini o'shanda o'ldiribdi, qo'lga olibdi. Qaytib yurib

Kb

(1)... .. bilan, Qushu tutuq bilan jang qilibdi. (Uning) jangchilarini xo'p o'ldiribdi, uy-joyini hujum qilib butunlay keltirdi.

Kul tigin yigirma yetti yoshida qarluq xalqi begonalashib [orada ziddiyat chiqib], dushman bo'ldi. Tamg'iduq bashda jang qildik. (2) Kul tigin o'sha jangda o'ttiz yashar edi. Alp Shalchi (nomli) oq (oti)ni minib, otilib hujum qildi. Ikki erni birvarakayiga sanchdi. Qarluqni o'ldirdik, (qo'lga) oldik. Az xalqi dushman bo'ldi. Qora ko'lda jang qildik. Kul tigin o'ttiz bir yashar edi. Alp Shalchi (nomli) oq (oti)ni (3) minib, otilib

hujum qildi. Az Eltabarni qo‘lga tushirdi. Az xalqi o‘shanda yo‘q bo‘ldi. Amakim xoqonning davlati zaiflashganda, xalq nochor qolganda izgil xalqi bilan jang qildik. Kul tigin Alp Shalchi oqini minib, (4) otilib jang qildi. U ot o‘shanda tush... .. Izgil xalqi o‘ldi. To‘quz o‘g‘uz xalqi o‘z xalqim edi. Ko‘k-er fitnali bo‘lgani uchun yov bo‘ldi. Bir yilda besh bora jang qildik. Boshlab, To‘g‘u shahrida jang qildik. (5) Kul tigin Azman oqini minib, otilib hujum qildi. Olti erni sanchdi, lashkar hujumida yettinchi erni qilichladi. Ikkinchi marta, Qushlag‘aqda [Jz bilan jang qildik. Kul tigin Az (nomli) kul rang (ot)ini minib, otilib hujum qilib, bir erni sanchdi, (6) to‘qqiz erni qurshab urdi. [Jz xalqi o‘shanda o‘ldi. Uchinchi bor, Bo‘l... .. nda o‘g‘uz bilan jang qildik. Kul tigin Azman (nomli) oq (ot)ini minib hujum qildi, sanchdi. Lashkarini sanchdik, davlatini oldik. To‘rtinchi bor, Chush boshida jang qildik. Turk (7) xalqi oyoqdan qoldi, yomon bo‘ladigan edi. Ilgari kelgan lashkarini Kul tigin turg‘izib otlantirib, bir qavm alp o‘n erni To‘nga tigin azasida qurshab olib o‘ldirdik. Beshinchi bor, Azganti Qadanda o‘g‘uz bilan jang qildik. Kul tigin (8) Az (nomli) kul rang (ot)ini minib hujum qildi, ikki erni sanchdi. Shaharga bormadi. O‘g‘uz o‘shanda o‘ldi... .. qo‘rg‘onda qishlab, bahorda O‘g‘uzga lashkar (bilan) chiqdik. Kul tiginni beklarga bosh qilib jo‘natdik. O‘g‘uz dushman o‘rdani bosdi. Kul tigin (9) O‘gsuz oqini minib to‘qqiz erni sanchdi. O‘rdani bermadi.

Xotima

Onam xotun, keyingi onalarim, akalarim, kelinlarim, xonzodalarim, buncha(ngiz) ham tirigi(ngiz) cho‘ri bo‘lar edi, o‘ligi(ngiz) vayronada, yo‘lda yotib qolar edingiz.

(10) Kul tigin bo‘lmaganda butunlay o‘lar edingiz. Inim Kul tigin vafot etdi, o‘zim alam chekdim; ko‘rar ko‘zim ko‘rmasdek, bilar bilimim bilmasdek bo‘ldi [ya‘ni ko‘zimning nuri ketdi, es-hushimdan og‘dim], o‘zim alam chekdim. Dunyoni Tangri yasaydi, inson bolasining bari o‘lguchidir. (11) Shunchalik alam chekdimki, ko‘zda yosh kelsa, azob berib ko‘ngildan yig‘i kelsa, qayta qayg‘urdim, qattiq alam chekdim. Ikki shad keyingi ini-jiyanim, o‘g‘lonim, beklarim, xalqim(ning) ko‘zi-qoshi yomon bo‘ladi deb qayg‘urdim.

Azachi, yig‘ichi, qitany tatabi xalqini boshlab (12) Udar sangun keldi. Tabg‘ach xoqondan Isyi Liki keldi. Bir tuman ipak, oltin, kumushni hisobsiz keltirdi. Tuput xoqondan Bo‘lun keldi. Janubda kunbotardagi sug‘d barchalar, uch qora ulus xalqidan Nang sangun, O‘g‘ul tarqan

keldi. (13) O'n o'q o'g'lim Turgas xoqonidan Maqarach tamg'achi, O'g'uz Bilga tamg'achi keldi. Qirgiz xoqonidan Tardush Inanch cho'r keldi. Bino quruvchi, naqsh solingan bitigtosh yasovchi tabg'ach xoqonining chanqani. Chang Sangun keldi.

K. III

Kul tigin qo'y yilida, [birinchi oyning] o'n yettinchi (kuni)da o'ldi. To'qqizinchi oy(ning) yigirma yettisida azasini o'tkazdik. Binosini, naqshini, bitigtoshini maymun yilida, yettinchi oy(ning) yigirma yettisida butunlay tugatdik. Kul tigin u... .. qirq yetti yosh tosh buncha naqshni Tuyg'un Eltabar keltirdi.

Ks

(1) Inanchu bobo Yarg'an tarqan otini (2) Qurdanni o'rdi. Inim Kul tigin mehnatini, kuchini bergani uchun turk Bilga xoqon yerida inim Kul tiginni kuzatib o'tirdim.

Illova

[Yo'llug' tigin so'zi]:

K. II

Buncha bitigni bitiluvchi Kul tiginning jigari Yo'llug' tigin bitdim. Yigirma kun o'tirib, bu toshga, bu binoga to'liq Yo'llug' tigin bitdim. Panohtalab o'g'loningizga, tayanuvchingizga qiyinchilikda tarbiyat qilar edingiz, vafot etdingiz. Tangri yashatuvchidir.

“OLTIN YORUG’”DAN

III TEGZINÇ

III. 1a

üçünç ülüs bîr ol

1 Namu Bud(daya). Namu Dar(maya). (Namu Sang(aya). 2 Altun önglüg yaruq yaltiriqlig qopda (kötrülmîsh nom) 3 iligî atlig nom bitigda qilinç (adartmaqin öçürmək 4 atligh bîshînc bölük üçü(nç tægzinç) 5 amti bu nom bashlaghin qutlughGi(tira)qut (taghda) 6 uqmish kârgâk anta ö(trü) ... ulugh...

Mazmuni:

III KITOB

uchinchi qism birinchi (varaq)

1 Buddaga ta'zim. Darmaga ta'zim. Sangaga ta'zim. 2 Oltin rangli yorug', yaltiroq, hamma (narsa)dan ustun turadigan no'm podshohi otli no'm bitigida *ishga (zarar keltirishga barham bermoq) 4 nomli*

beshinchi qism, uchinchi o'ram. 5 Endi bu no'mning asosini muqaddas Gratrakut (tog'ida) deb 6 bilmoq kerak. Shundan keyin... ulug'...

III. 2a (üçünç ikī)

1 mǎngǐzlǐg, qutlugh, buyanligh, bilgā 2 bilǐklǐg, tǒrülǔg bolup ol yruq— 3 lar içintā közünmish burxanlarigh 4 körgālī udilar. Ötrü ol ödün 5 t(ä)ngri qani Xormuzta t(ä)ngri qamagh 6 t(ä)ngriklär quwraghi birlä, kang 7 ögüz qatuni ulati alqu ulugh 8 tirin quwraghi birlä, tügäl bilgā 9 bilǐklǐg t(ä)ngri t(ä)ngri burxan— 10 ning ol yruqlugh yalinçinga tartilip, 11 “qamaghun barça t(ä)ngri burxan taba 12 kältilär. Qaçan t(ä)ngri t(ä)ngri 13 burxan öskintā tägdüklärintā töbü— 14 larin ängittürüp, bish tilgänin 15 yirkä tägürüp yinçürü tübün yükünüp, 16 üç yoli ongarula tägzinip kitip 17 birtin singlar olurtilar. 18 Oluru tügätip ötrü t(ä)ngri qani 19 Xormuzta t(ä)ngri oghrayu t(ä)ngri t(ä)ngri— 20 si burqanning riti küü kǎülug ädräm 21 küçin küsünin bulu täginmish oghur— 22 inga, ötrü olurmish orunintin

Mazmuni:

uchinchi (qism) ikkinchi (varaq)

